

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



FAN VA TEXNOLOGIYALAR  
**UNIVERSITETI**

«RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA'LIM  
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH» MAVZUSIDA  
XALQARO ILMIV-AMALIV KONFERENSIYA

# MAQOLALAR TO'PLAMI

FAN VA TEXNOLOGIYALAR  
**UNIVERSITETI**

28-MART / 2024-YIL

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKAS OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**«RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA’LIM  
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH»**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI**

**2024 yil 28 mart**

**MAQOLALAR TO‘PLAMI**



**TOSHKENT - 2024**

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20 martdagi 76-sonli buyrug'iga muvofiq joriy yilning 28-mart kuni Fan va texnologiyalar universitetida «Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish» mavzusida xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Konferensiyada Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha ta'lim agentligi, America Citi bank in Poland, Nairobi-Kenya, Hindiston, Malayziya Terengganu, Markaziy Osiyo innovatsion universiteti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent kimyo texnologiyalar instituti va Fan va texnologiyalar universitetning professor o'qituvchilari ishtirok etdilar.

Bu konferensiyada "Raqamli texnologiyalar mexanika, matematika va fizikada, Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, Raqamli ta'limda pedagogik va innovatsion yondashuv, Tillarni o'qitish texnologiyalarini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" masalalariga yechimlar va takliflar berildi

**UO'K 004:37(075.8)**

**KBK 32.973.202**

### **MAS'UL MUHARRIRLAR:**

**Xasanov A.A.** "Aniq fanlar" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.  
**Xojiqulov N.R.** Moliya fakulteti dekani

### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Tayirov J.O.** Moliya fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini  
**Sultonov A.S.** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Madaminova N.Z.** Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots. v.b.  
**Boboqulov Y.F.** Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Saparbayeva D.S.** Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Safarov J.I.** Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasini mudiri  
**Turaboyeva S.Z.** Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots. v.b.

### **TAQRIZCHILAR:**

**Xaitov E.B.** Fan va texnologiyalar universiteti «Ta'lim sifatini nazorat qilish» bo'limi boshlig'i s.f.f.d (PhD), dotsent  
**Almuratov Sh.N.** Fan va texnologiyalar universiteti «Aniq fanlar» kafedrasini dotsent v.b., f-m.f.b.f.d., (PhD)

### **Jamlovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

**Primkulova A.A., Muradov S.J., Toshtemirov J.M., Xo'jayeva G.A., Asadullayeva M.A., Musayev S.X.** - "Aniq fanlar" kafedrasini professor-o'qituvchilari

To'plam Fan va texnologiyalar universiteti Kengashining 2024 yil 30 martdagi 8-sonli yig'ilish qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

To'plam aniq va ijtimoiy fanlar bo'yicha mutaxassislar, tadqiqotchi-izlanuvchilar va keng kitobxonlar ommasiga tavsiya qilinadi.

**Mualliflar maqolalarda keltirilgan fikrlar, ma'lumotlar hamda manbalarning ishonchli va asosli ekanligiga mas'uldirlar.**

**ISBN 978-9943-9589-8-2**

## **KIRISH SO'ZI!**

### **Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar va konferensiya ishtirokchilari!**

Fan va texnologiyalar universitetiga tashrif buyurganlaringiz uchun jamoamiz nomidan Sizlarga o'z minnadorchiligimni izhor etishga ruxsat bergaysizlar.

Global axborot asrida yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan saqlash, ularning mediainmunitetini shakllantirish va rivojlantirish, tahdidbardosh jamiyat barpo etishda media vositalarining ahamiyati baholab bo'lmaz darajada oshib bormoqda.

Muhtaram Prezientimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning «Raqamli O'zbekiston—2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida raqamli texnologiyalar asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish, ta'lim tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, ilm fan va ishlab chiqarishning uyg'unligini ta'minlashda yangi texnologiyalar va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va joriy qilishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Bu borada universitetimiz ta'lim tizimida innovatsion g'oyalar va elektron ta'lim resurslarini to'ldirib borish ishlarini yuqori suratda olib borilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda darsliklarning raqamlashtirilgan yangi avlodini yaratish, masofaviy ta'lim tizimini kengaytirish, boyitish muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqib, bu yo'nalishdagi ishlarimizni yanada takomillashtirish talab etilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlari va xorijiy oliy o'quv yurtlar o'rtasidagi o'zaro elektron aloqalarni tashkil etishimiz zarur. Iqtidorli talabalar bilan ishlash, yosh olimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular tomonidan innovatsion g'oyalar va loyihalarni ishlab chiqishni rag'batlantirish faoliyatimizdagi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak. Buning uchun har bir oliy o'quv yurtlari saytida maxsus raqamlashtirilgan rubrika ochish, unda yosh olimlar va talabalar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion g'oyalar va takliflarni tezkor o'rganish, targ'ib qilish, tizimli tahlil qilinib ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqishni yo'lga qo'yishimiz zarur. Bugungi kunda ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarishimiz bu -raqamlashtirish bilan bog'liq jarayondir.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, oldimizda turgan vazifalardan kelib chiqib ta'lim va tarbiya sohasidagi faoliyatimizda ilg'or texnologiyalarga asoslangan taklif va tavsiyalariningiz bilan yordam berasizlar deb umid qilaman.

Sizlarga mustahkam sog'lik, oilalaringizga tinchlik va hotirjamlik, ilmiy-pedagogik faoliyatlaringizda yangi yutuqlar doimo hamrohingiz bo'lishini tilab qolaman.

**Fan va texnologiyalar universiteti**  
**rektori A.N.Xamdamov**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA'LIM  
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**A.N.Xamdamov**  
**Fan va texnologiyalar universiteti rektori**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlarini takomillashtirish, talabalarga yangi va samarali o'rganish usullarini taqdim etish, professor-o'qituvchilar uchun ta'lim vositalarini o'rganish va ulardan foydalanish, ta'limning amaliy qismida ham so'nggi texnologiyalardan foydalanishni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar.** Raqamli texnologiyalar, ta'lim jarayonlari, bulutli texnologiyalar, kompyuter resurslari, multimedia vositalari, internet, axborot tizimlari, modellashtirish.

**Аннотация.** Эта статья включает в себя совершенствование образовательных процессов на основе цифровых технологий, предоставление студентам новых и эффективных методов обучения, изучение и использование образовательных инструментов преподавателями, обеспечение использования новейших технологий даже в практической части образования.

**Ключевые слова.** Цифровые технологии, образовательные процессы, облачные технологии, компьютерные ресурсы, мультимедийные средства, Интернет, Информационные системы, Моделирование.

**Annotation.** This article includes improving educational processes based on digital technologies, providing students with new and effective teaching methods, studying and using educational tools by teachers, ensuring the use of the latest technologies even in the practical part of education.

**Keywords.** Digital technologies, educational processes, cloud technologies, computer resources, multimedia, Internet, Information systems, Modeling.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston—2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmonida raqamli texnologiyalar asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish vazifasi belgilangan.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar iboralari kundalik turmushda eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Raqamli texnologiyalarga bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar, virtual reallik tizimlari kiradi. Bulutli texnologiyalar odatda, foydalanuvchiga kompyuter resurslari va quvvatini internet-xizmat ko'rinishida taqdim etadi.

Hayotning qaysi sohasini olmaylik, qanday amallarni bajarmaylik, albatta, raqamli texnologiyalar bilan ish ko'ramiz. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish, axborot almashish, ularni uzatish, o'zlashtirish inson faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari juda keng tizim bo'lib, unga ma'lum bo'lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, bilimlar ombori kabilar misol bo'lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi: talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga; o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

o'zlashtirilishiga; o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabanning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga; interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyallashtirishga; sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabanning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga; axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga; o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar, shu jumladan, ushbu ta'lim vositasining didaktik imkoniyatlariga obyektning tabiiy jihatlari, texnik va texnologik fazilatlarini, o'quv va tarbiyaviy jarayonida didaktik maqsadlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aspektlari sifatida qaralishi mumkin.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning borishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ham ta'limning barcha bosqichlarida yanada yuqori samaradorlikka erishish maqsadida sohada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har bir sohaning taraqqiyoti aynan, shu soha vakillari yoki mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi hamda shu yo'nalishdagi rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi.

Ushbu istiqbolli rejalardan kelib chiqqan holda 2022 yil 1 oktabrdan o'z faoliyatini boshlagan University of science and technologies bugungi kunda maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tarix, xorijiy til va adabiyoti, iqtisodiyot, psixologiya, buxgalteriya hisobi va audit, moliya va moliyaviy texnologiyalar, bank ishi va auditi, logistika, dasturiy injiniring, turizm kabi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim-tarbiya va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot, innovatsion ishlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, universitet "Nizom"i talablariga ko'ra tayyorlangan o'quv reja va yo'l xaritasiga ko'ra amalga oshirilmoqda.

Vatanimizning ertangi kuni va uning mustahkam poydevorini yaratuvchisi bog'lagan yosh avlodning ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlaridagi tarbiyaviy jihatlarni yoshlarning ma'naviyatiga singdirib borish va Yangi O'zbekistonning ertangi kunini egalari bo'lgan yoshlarning tarbiyasi bugungi zamonaviy ta'lim tizimini qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Shu sababli ham bugungi konferensiyada ko'rilayotgan "Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish" mavzusidagi masalalar kelgusida ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi degan umiddamiz.

Talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi, universitetlar bilan qo'shma o'quv dasturlarini ishlab chiqish yo'lga qo'yilmoqda. Xorijiy tajribadan foydalangan holda oliy ta'lim muassasalari uchun yangi darslik, o'quv qo'llanmalarini nashr etmoqdami. Xorijiy hamkorlar bilan o'quv dasturlarini yaratish ustida kafedra professor-o'qituvchilari qizg'in ijodiy ish olib bormoqdalar.

Bizda o'tgan va o'tayotgan o'quv yilida xorijiy OTMLar professor-o'qituvchilari ishtirokida bir qator ilmiy-nazariy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, treninglar, master klasslar, vebinarlar o'tkazildi. Jumladan, AQSH Boston SUFFOLK universiteti "Davlat xizmatlari departamenti va sog'liqni saqlashni boshqarish" kafedrasining mudiri, professor Karlos Rufin universitetga taklif etildi va u "Yashil iqtisodiyot" bo'yicha moliya va moliyaviy

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

texnologiyalar, iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan kunduzgi bo'lim talabalari bilan master klass mashg'ulotlarini o'tdi.

M.Auyezov nomidagi Qozog'iston davlat universiteti professori N.A.Ibrayeva Tarix yo'nalishida ta'lim olayotgan kunduzgi bo'lim talabalariga "Tarixiy xotira va semiyotika" mavzusida seminar-treningini o'tkazdi. Akademik Bobojon G'ofurov nomidagi Tojikiston Xo'jand davlat universiteti "Ma'naviyatshunoslik" kafedrasida professori Usanov Rovshan To'rayevich hamda "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirishning omillari" mavzusida seminar-trening o'tkazdi. Qozog'iston Qizilo'rda universiteti ekanomika, audit, biznes va boshqaruv kafedrasida dotsenti Gulnaz Jusupova taym menejment kursi bo'yicha iqtisodiyot yo'nalishi talabalari bilan onlayn shaklida "O'z vaqtimizni qanday samarali boshqaramiz" mavzusida onlayn shaklida mashg'ulot o'tdi.

Bugun University of science and technologies va AQSH Boston SUFFOLK universiteti o'rtasida o'quv uslubiy hamda ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar bo'yicha hamkorlik memorandumini tayyorlash ishlar yakuniga yetmoqda. Bundan tashqari Qozog'iston Bolashak universiteti bilan hamda M.Auyezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universiteti bilan ham hamkorlik memarandumini qabul qilish jarayoni o'z nihoyasiga yetmoqda.

Universitetimizda xorijiy davlat Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari ishtirokida nazariy seminarlar va ilmiy amaliy konferensiyalar o'tkazish an'anaga aylandi. Masalan 2023 yil 26 aprelda "O'zbekiston tarixini tadqiq qilishning dolzarb masalalari" mavzusida o'tkazilgan ilmiy-nazariy seminarda Janubiy Qozog'iston davlat universitetidan bir guruh mehmonlar ishtirok etdilar. Xususan universitet professori N.A.Ibrayeva o'zlarining tarixiy tadqiqotda simiyotikaning metodologik ahamiyati bo'yicha qilgan ma'ruzasi alohida e'tiborga ega bo'ldi.

Yoki 2023 yil 17 mayda o'tkazilgan "Yangilanayotgan O'zbekiston yoshlarining innovatsion g'oyalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyada Tojikiston Respublikasidan kelgan professor-o'qituvchilar ishtirok etishdi. Konferensiyada akademik Bobojon G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti "Ma'naviyatshunoslik" kafedrasida professori Usanov Rovshan To'rayevich "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligining o'rni va roli" mavzusida bildirgan fikrlari konferensiya qatnashchilarida katta tasavvur uyg'otdi. 2023 yil 25 mayda o'tkazilgan "XXI Asrning ijtimoiy va aniq fanlari: tadqiqotlar va innovatsiyalar" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyada Qozog'iston Respublikasi M.Auyezov nomidagi universitet kafedra mudiri, falsafa fanlari doktori, professor Minbayev N.J hamda Turkiyaning Bartin universiteti professori filologiya fanlari doktori Z.Xudaybergenovalar ishtirok etdilar va ma'ruza qildilar. Konferensiya ishtirokchilari anjumandan keyin o'zlariga tegishli kafedralar professor-o'qituvchilari bilan o'quv jarayoni, darsliklar, iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha tajriba almashdilar.

Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan olib borilayotgan muzokalarimizda biznes inkubatorlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ham izlanishlar yo'lga qo'yilgan. Bulardan tashqari innovatsion ilmiy-ma'rifiy markazlarni, innovatsion ta'lim markazlarini tashkil qilish bo'yicha ham ma'lum amaliy ishlarni olib bormoqdamiz. Bulardan tashqari shu o'quv yilidan boshlab bir qator oliy o'quv yurtlari bilan talabalar ta'limi almashinuvi bo'yicha ham izlanishlar olib bormoqdamiz. Tajriba almashish maqsadida shu yil Janubiy Qozog'iston M.Auyezov nomidagi universitetga University of science and technologiesning o'quv ishlari bo'yicha prorektori I.Xaydarov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori N.Mamatov, Ta'lim sifati nazorati bo'limining boshlig'i E.Xaitovlar xizmat safarida bo'ladilar. Ushbu xizmat safarlari jarayonida universitetlar aro kompleks masalalar muhokama qilinadi va eng muhimi

xorijiy oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining onlayn yoki oflayn tariqasidagi mashg'ulotlar o'tishi yo'lga qo'yiladi hamkorlikda grant loyihalari shakllantiriladi.

Kollektiv monografiyalarini, darsliklarni hamda o'quv qo'llanmalarini yaratish amaliyotlari boshlanadi eng muhimi ushbu jarayonga keng talabalar qatlami jalb etiladi. Shu asosda xorijiy oliy o'quv yurtlari ishtirokida talabalar o'rtasidagi, professor-o'qituvchilar o'rtasidagi tanlovlar va olimpiadalar o'tkaziladi. Ushbu tadbirlarning barchasi dialektikaning umumiy aloqadorlik va o'zaro ta'sir tamoyiliga ko'ra amalga oshiriladi. Bunda birinchidan alohida olingan har bir oliy o'quv yurtining o'zi rivojlansa va takomillashsa ikkinchi tomondan ular o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi. Ushbu aloqa ularning har ikkalasining rivojlanish manbaiga aylanib qoladi.

Yuqorida keltirilgan xorijiy OTMLar bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini tayyorlash hamda o'zaro tajriba almashish, o'quv kurslarini tashkil etish, talabalar va professor-o'qituvchilar almashuvi, hamkorlikda o'quv qo'llanmalari va darsliklarini tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Bulardan tashqari ta'lim jarayoniga xorijiy universitetlarda tayyorlangan zamonaviy o'quv darsliklarini o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari ham rejaga kiritilgan. Bular orasida xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo'shma o'quv dasturlarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 30.04.2023 yil.
2. «O'zbekiston—2030» Strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
3. Курбанов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А. Управление качеством образования. Монография.-Т.: Шарқ, 2004,-С. 498-520.
1. Khasanov, A. A. (2017). Methods and methods of forming economic education through interdisciplinary communication through information technology. Journal, (3), 38.
2. Abdurashidovich, X. A., & Nigmanovna, M. F. (2019). Access to electronic educational resources in the education system. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
3. Hasanov, A. A. (2020). Peculiarities of preparing teachers for the development and use of e-learning resources. Theoretical & Applied Science, (9), 15-17.
4. Khasanov, A. A. (2018). Didactic Foundations of Interdisciplinary Connections at Subject Teaching. Eastern European Scientific Journal, (6).
5. Hasanov, A. A., & Gatiyatulina, R. M. (2017). Interdisciplinary Communication as a Didactic Condition of Increasing the Efficiency of Educational Process. Eastern European Scientific Journal
6. Хасанов А.А. Современная теория обучения на межпредметной основе // Science and world. – Volgograd, 2016. -№8 (36), vol II. – С. 76-78
7. Khasanov A.A., Khasanova S.S. Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts // American Journal of Pedagogical and Educational Research 10 (2023): 185-190.
8. Khasanova, S. S. D., & Khasanov, A. A. (2023). Theoretical approaches to creation of pedagogical concepts. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 16-22.
9. Abdurashidovich, K. A. (2023). Methodological foundations of understanding the essence of e-learning. theory and analytical aspects of recent research, 2(13), 90-96.



## **ОЛИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ**

*Хўжаев Алижон Атабекович,*

*Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги*

*Ўқув жараёнини ташкил этиш ва хорижий тилларни  
ўқитишни ташкил этиш бўлим бошлиги п.ф.д. (Dsc), профессор в.б.*

*[a.khujayev@edu.uz](mailto:a.khujayev@edu.uz)*

Республикамизнинг ҳар бир соҳасига босқичма-босқич рақамли технологияларнинг кириб келиши, ахборот технологиялар алмашинувини яхшилаш учун қабул қилинаётган ҳар бир қарор бу бизнинг ютуғимиз десак бўлади.

Сўнгги йилларда олий таълим тизимида ҳам асосий эътибор талаба-ёшларимизнинг таълим олиши учун кенг имконият ва зарур шароитлар яратишга қаратилиб, таълим муассасалари сони 77 тадан 211 тани ташкил этмоқда. Ёшларни олий таълим билан камров даражаси 9 фоиздан 42 фоизга ошганини кузатяпмиз.

Ҳозирги кунда олийгоҳлар олдида турган энг долзарб вазифалар билари бу талабаларнинг мустақил таълим олиши, мунтазам ўз устида ишлаши, иқтидорини эркин намоён қилиши учун қулай таълим муҳитини яратиш юзасидан ўқув режа ва ўқув дастурлар (силлабуслар)ни халқаро рейтинг ташкилотларининг ТОП-300 талик рўйхатига кирган олий таълим муассасаларининг таълим дастурлари асосида такомиллаштириш, бакалаврият таълим йўналишлари хусусиятидан келиб чиқиб амалиётга йўналтирилган дастурларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади [1]. Бу ўз навбати албатта рақамли таълим муҳитидан кенг фойдаланиш орқалигини амалга ошириш мумкин бўлган вазифалардан биридир.

Ўтган ўқув йилидин бошлаб тегишли олий таълим муассасаларида таълимнинг масофавий шаклда кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилганлиги бунинг яна бир исботи десак бўлади.

Олий таълим муассасаларида кимки эскича фикрласа, ишласа, фан-техника янгиликларидан, интернет имкониятлари ва юксак рақамли технологиялардан фойдалана олмаса, шунинг замонавий ахборот технологияларидан дарс жараёнида фойдаланмаса, бу ўз устида ишлаш салоҳиятининг ошмаслигига ва таълимдаги сўнгги янгиликлардан хабарсиз қолиб кетишига муқаррардир. Республикамизда бугунги кунда компьютер технологиялари ва Интернет тармоғини ривожлантиришга катта аҳамият бериляпти.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 октябрдаги “Ахборот технологиялари соҳасида таълим тизимини янада такомиллаштириш, илмий тадқиқотларни ривожлантириш ва уларни IT-индустрия билан интеграция қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4851-сон қарорининг 12 бандида олий таълим муассасаларининг тегишли таълим йўналишлари талабалари ўртасида информатика, дастурлаш ва ахборот технологиялари соҳаларида ўтказиладиган республика фан олимпиадалари ғолиблари, шунингдек, рақамли технологиялар ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги томонидан белгиланадиган нуфузли халқаро олимпиадалар совриндорлари бўлган талабаларни олий таълим муассасаларининг тегишли магистратура йўналишларига ажратилган квота доирасида давлат грантлари асосида имтиҳонсиз қабул қилиниши белгиланганлиги ҳам узлуксиз таълим тизимида информатика ва ахборот технологияларини ёш авлоднинг мукамал эгаллаши кераклиги ва бунинг натижасида эришиладиган имкониятлардир бири дея оламиз [2].

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Ҳозирги кунда глобаллашув жараёнларининг ривожланишида рақамли технологияларнинг ўрни бекиёсдир. Ўз ўзидан таълимда ҳам замонавий технологияларнинг жорий этилиши, тизимнинг сифат кўрсаткичларини яхшиланиши, меҳнат унумдорлигининг оширилишига хизмат қилиши шубҳасиздир.

Таълимни модернизация ва ислоҳ қилиш жараёнида олий таълим тизимида, айниқса, яққол намоён бўлади. Бу ерда дарс бериш жараёнида янги технологиялар таълим сифатини ошириш мақсадида доимий равишда жорий этилади. Ўз-ўзидан равшанки, таълим тизимини ислоҳ қилиш жараёни мамлакатда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларнинг зарурий омили ҳисобланиб доимий характерга эга. Бу жараёнда олий таълим сифатини таъминлаш жараёнига илғор хорижий тажрибалар ва модуларни татбиқ этиш муҳим устувор вазифалардан бири бўлиб қолади.

Бугунги кунда талабаларга сифатли таълим беришни ташкил қилишда илмий-техника тараққиёти маҳсули бўлган рақамли технологиялар ва унинг моддий асоси компьютерлар хизматидан кенг фойдаланиб электрон дарслик ва қўлланмалар ташкил этиш ва интернет манбаларидан ҳамда масофадан ўқитишнинг дастурий воситаларидан фойдаланиш давр талаби бўлиб хизмат қилмоқда.

Рақамли технологиялардан фойдаланиш асосида талабанинг турар жойидан қатъи назар, унга таълим дастурларини ўзлаштириш учун имконият тақдим этиш мумкин. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 октябрдаги “Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 559-сон қарори қабул қилинган [3]. Ушбу қарорга мувофиқ масофавий таълим шаклида 2022/2023 ўқув йилида масофавий таълим шаклида ўқув жараёни ташкил этилган олий таълим муассасаларида рақамли технологиялар асосида ўқув жараёнини ташкил этишнинг мезонлари белгилаб берилган.

Ҳозирги кунда олий таълим муассасаларида LMS Moodle тизимлари замонавий рақамли технологиялар ва масофавий таълим тизимини онлайн ва офлайн тарзда ташкил этиши мумкин бўлган замонавий рақамли технологиялардан бири ҳисобланади. Замонавий технологиялар негизида (масалан, “LMS Moodle” тизимида) индивидуаллаштирилган таълим методикасини ишлаб чиқиш, амалиётга татбиқ этиш, талабанинг билимларини шакллантириш ва такомиллаштириш ҳамда эгаллаган билим даражасини аниқлаш каби вазифалар ҳал қилиш назарда тутилган.

Таълим жараёнида масофали ўқитиш технологияларидан фойдаланиш таълим мазмуни, шакллари ва усулларининг ижобий ўзгаришига сезиларли даражада таъсир кўрсатади.

Олий таълим тизимида бу комплексни жорий қилиш учун барча шарт-шароитлар мавжуд. Бу дастур ва шунга ўхшаш факультетлараро, университетлараро ва халқаро масофавий ўқитишни йўлга қўйиш ўқитиш ишларининг самарадорлигини оширишга хизмат қилиши шубҳасиз. Бунинг учун қуйидагиларни амалга қўлланиши мумкин:

✓ LMS Moodle тизимида ўқитиш бўйича жаҳон моделларини чуқур ўрганиш.

✓ миллий таълим тизимида LMS Moodle тизимида ўқитиш тажриба – синов ишларини давом эттириш, энг илғор усулларни оммалаштириш.

Мамлакатимиз таълим тизимида сифатни таъминлашдаги ислоҳотлар ва уларнинг жорий натижалари олий таълимдаги рискнинг уч турини ажратиб кўрсатишга имкон беради.

Биринчидан, таълимнинг табақалаштирилган тизими билан боғлиқ ташкилий риск. Булар бакалаврлар, магистрант, докторантлар тайёрлашнинг мазмуни ва воситалари

узвийлиги муаммосини долзарблаштириб юборди. Талабанинг янги интеллектуал “бўшлиқ”қа кириши, дидактик мослашув даражасининг пастлиги мавжуд таянч асосларни шубҳа остига қўяди. Таълимнинг аввалги босқичида билимларнинг тўлиқ ўзлаштирилмаганлиги, амалий кўникма ва малакаларнинг яхши шаклланмаганлигини талабаларнинг мустақил таълими учун соатларни ошириш ҳисобига қопланишига ҳаракат қилинмоқда. Бу ўз-ўзидан мустақил таълимни ташкил этиш ва назорат қилишнинг янги усуллари излаб топишни, масофавий таълим платформаларидан фойдаланишни талаб этмоқда. Амалиётчи-тадқиқотчилар томонидан очиқ ахборот муҳити шароитида талабаларнинг мустақил ишларини педагогик бошқариш механизмларини такомиллаштириш зарурлиги алоҳида қайд этиб ўтилган [4].

Ўқитувчилар талабаларнинг инновацион касбий тайёргарлиги манбаи сифатида нафақат ахборот-коммуникация, балки методика соҳасида ҳам компетентлигини намоён қилмоқда, таълим дастурларини ўзлаштирилишини кузатишни ташкил этмоқда, шахсинг кадриятли-мазмунли ва маънавий-ахлоқий хулқ-атворини шакллантиришга таъсир кўрсатмоқда. Таълим ва тарбия муҳитида хатарларни енгишга тайёрлик аллақачон олийгоҳ профессор-ўқитувчисининг муҳим сифатига айланди. Талабаларни касбга тайёрлашнинг барча йўналишлари бўйича сезиларли ўзгаришлар рўй бермоқда, бу педагогик фаолиятнинг янги моделини назарда тутди. Ўқитувчиларнинг таълимни инновацион ривожлантиришга тайёргарлигининг тобора аҳамиятли жиҳатлари сифатида қуйидагиларни алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин: ўз касбий фаолиятидаги инновацион ўзгаришларнинг аҳамиятли эканлигини тушуниб етиш; узлуксиз шахсий-касбий ўзини ўзи ривожлантиришга ва касбий автономликка тайёрлик; диалогга асосланган низоларсиз шахслараро мулоқот малакаларига эгалик [5].

Хулоса қилиб айтганда, келажак эҳтиёж юқори бўлган касблар бўйича кадрларни тайёрлаш жараёнида уларни мустақил таълим олиш имкониятларини кенгайтиришда рақамли технологияларни қўллаш муҳим аҳамият касб этади. Олийгоҳлардаги ўқитиш жараёни ташкилотчилари ва иштирокчилари, янгиликларни бошқариш, таълимни жараёнини ташкил этишида рақамли технологиялардан самарали фойдаланиши муҳимдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 2 февралдаги “Таълим соҳасидаги ислохотларни жадаллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-54-сон қарори.
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.10.2020 й., 07/20/4851/1352-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.04.2022 й., 06/22/106/0314-сон, 12.05.2022 й., 07/22/241/0408-сон.
3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 04.10.2022 й., 09/22/559/0884-сон.
4. Хунагов Р.Д. Риски современного высшего образования в России: личностный аспект / Р.Д. Хунагов // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. – 2010. – №2. – С. 65–68. Балабанов, И. Т. Риск-менеджмент // – М.: ФиС, 1996. – 122 с.
5. Артюхов И.П. Роль и задачи педагогики в контексте модернизации высшего медицинского образования / И. П. Артюхов и др. // Alma mater. –2017. – №6. – С. 5–9.

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OTA-ONALARNI  
MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA FAOL ISHTIROKINI  
TA'MINLASH VA PEDAGOGLARNING O'Z-O'ZINI KASBIY JIHATDAN  
RIVOJLANTIRISH**

*Feruz G'affarov - O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi  
Pedagog kadrlarning kasbiy saloxiyatini rivojlantirish va pedagogika kollejlari faoliyatni  
muvofiklashtirish boshkarmasi boshlig'i o'rinbosari.  
Pedagogika fanlari doktori, (DSc)*

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy variativ ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish jadal amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribalar, eng yangi yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida maktabgacha ta'lim tubdan isloh qilindi. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning mustahkam poydevori sifatida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar olib borildi. O'rganilgan xalqaro amaliyot va tajribalar (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Koreya, Isroil) asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishni belgilab beruvchi 100 dan ortiq huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va "Ilm yo'li" variativ dasturining amalda joriy etilishi doirasida har bir bolaga sifatli maktabgacha ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan. Ushbu yondashuv ma'lum bilim, ko'nikma va qobiliyatlar, shaxsiy fazilatlar majmui emas balki, bolani maktabga psixologik tayyorgarligini ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar yig'indisidir.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv muhitida pedagogning asosiy vazifasi – bolalarda atrof-olamni mustaqil bilish va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Bularning barchasini amalga oshirishda pedagog faoliyatini aniq rejalashtirishi lozim va bunda raqamli texnologiyalardan foydalanish, kasbiy pedagogik faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish malakasiga ega bo'lish talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish maqsadida bir qator raqamli platformalar ishlab chiqildi va amalda joriy etildi. Ulardan biri "Bolalar bog'chasi" maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimidir. Ushbu platformada avtomatlashtirilgan elektron pochta tizimi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini hisobga olish; bolalarning qabul qilinishini nazorat qilish; bolalarning davomati hisobga olish; onlayn to'lov; yagona menyu integratsiyasi va ta'lim tashkilotlari o'rtasida oziq-ovqat taqsimotini nazorat qilish; xodimni ishga qabul qilish; xodimlar va tarbiyachilar elektron davomatini yuritish; shuningdek, ota-onalarning to'lovlarini hisobga olish va monitoring qilish kabi funksiyalar amalga oshiriladi.

«Bolalik akademiyasi» platformasi, avvalambor, sifatli ta'lim olamidir. Ushbu platforma orqali pedagoglar zamonaviy usullarga asoslangan vazifalardan foydalanishlari, o'z-o'zini rivojlantirish uchun qo'shimcha resurslardan foydalanishlari, ota-onalar esa bolalarni parvarish qilish va tarbiyalash bo'yicha foydali ma'lumotlarni kashf qilishlari mumkin. «Bolalik akademiyasi» raqamli platformasi maktabgacha ta'lim sohasida innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari va usullarini kengaytirish; ko'nikmalarni rivojlantirishning innovatsion usullari bilan tanishish va o'rganish; ota-onalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish va qulay oilaviy muhitni yaratish; maktabgacha ta'lim tizimi pedagog-xodimlarining saviyasi va kasbiy malakasini oshirish kabi afzalliklarga ega.

«Bebbo» raqamli platforma ota-onalarni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan mobil ilovadir. Raqamli platformani yaratishdan maqsad ehtiyojmand va kam ta'minlangan oilalarning farzandlariga ta'lim berishda yordam berishdir.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, mazkur raqamli platformalar hamda uning barcha tuzilmaviy komponentlar va funksional ahamiyati o'zaro bog'liqlik sharoiti orqali ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda belgilangan kompetensiyasini samarali shakllantirishning harakatchan mexanizmiga aylanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu platformalar orqali quyidagi funksiyalarga erishiladi

- pedagoglarning kasbiy faoliyatida uchraydigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'ladigan bilimlarning egallanishini ta'minlovchi gnostik funksiya;
- faoliyatni rejalashtirishga, uning natijalarini bashorat qilishga va oldindan ko'ra bilishga yo'naltirilgan prognostik funksiya;
- belgilangan maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish, faoliyatga tuzatishlar kiritish, o'zini-o'zi tartibga keltirishni amalga oshirish bo'yicha harakatlarni o'z ichiga oluvchi tashkiliy funksiya;
- shaxsning o'zini-o'zi anglashiga, kasbiy etika me'yorlarini o'zlashtirishiga, shaxsiy baholash faoliyatini anglab yetishiga yo'naltirilganligini ta'minlovchi reflektiv funksiyalar kiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdurashidovich, X. A., & Nigmanovna, M. F. (2019). Access to electronic educational resources in the education system. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
2. Hasanov, A. A. (2020). Peculiarities of preparing teachers for the development and use of e-learning resources. *Theoretical & Applied Science*, (9), 15-17.
3. Khasanov, A. A. (2018). Didactic Foundations of Interdisciplinary Connections at Subject Teaching. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
4. Hasanov, A. A., & Gatiyatulina, R. M. (2017). Interdisciplinary Communication as a Didactic Condition of Increasing the Efficiency of Educational Process. *Eastern European Scientific Journal*
5. Ravshanovna, P. N., & Abdurashidovich, K. A. (2019). Role of innovation in school development. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
6. Khasanov A.A., Khasanova S.S. Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts // *American Journal of Pedagogical and Educational Research* 10 (2023): 185-190.
7. Khasanova, S. S. D., & Khasanov, A. A. (2023). Theoretical approaches to creation of pedagogical concepts. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 16-22.
8. Abdurashidovich, K. A. (2023). Methodological foundations of understanding the essence of e-learning. *theory and analytical aspects of recent research*, 2(13), 90-96.

## CHATGPT МҮМКІНДІКТЕРІ

**Теңізбаев Егенберді Жансейітұлы:** Орталық Азия инновациялық университеті, Физика, математика және информатика кафедрасының меңгерушісі. т.ғ.к., доцент

**Туракулов Алишер Перлаиевич:** Орталық Азия инновациялық университеті, Физика, математика және информатика кафедрасының аға оқытушысы.

[Alisher\\_T84@bk.ru](mailto:Alisher_T84@bk.ru)

***Аннотация.** ChatGPT имеет бесчисленное количество возможных сценариев использования, но и мы не лыком шиты, поэтому я постарался обобщить его основные сценарии на этой статье. Благодаря универсальности этого бота, с ним можно общаться на любом языке (не только на русском) и получать важные и полезные ответы на любые вопросы. Нужно лишь задать вопрос или дать указание.*

***Annotation.** ChatGPT has countless possible use cases, but we are not completely blind, so I tried to summarize its main scenarios in this article. Thanks to the versatility of this bot, you can communicate with it in any language (not only in Russian) and get important and useful answers to any questions. You just need to ask a question or give an instruction.*

Джипити чат-бұл нейрондық желі. Ол осылай жұмыс істейді: оған сұрақтар мен тапсырмалар жіберіледі және ол нақты адам сияқты жауап береді, бірақ Интернетте берілген тақырып бойынша не бар екеніне негізделген. Сіз ChatGPT-тен тарихи оқиғалар туралы бірдеңе айтуды, ертегі немесе өлең ойлап табуды, маркетингтік стратегияны жазуды сұрай аласыз.

Нейрондық желі жұмыс тапсырмаларын шешуге және уақытты үнемдеуге көмектесетін пайдалы құрал бола алады. Бірақ сіз бәріне жасанды интеллектке сене алмайсыз.

Біз сізге мамандардың қайсысы екенін және ChatGPT мүмкіндіктерін қалай пайдаланатынын, жасанды интеллект қай жерде қатесіз әрекет ететінін және оның артындағы барлық нәрсені екі рет тексерген дұрыс екенін мысалдармен айтамыз.

### **Мазмұнды өңдеу және құру**

ChatGPT әңгіменің мәнмәтінін түсінеді, мәтіннің үлкен көлемін өңдейді және мақалаларды өзі жасай алады. Сіз онымен ағылшын, орыс және басқа тілдерде сөйлесе аласыз.

Chatgpt моделі мәтіндерді жақсы қабылдайды және түсіндіреді, сондықтан маркетингшілер, SMM менеджерлері, копирайтерлер, редакторлар мазмұнды жасау және өңдеу үшін жиі жүгінеді.

### **Нейрондық желі арқылы не істеуге болады:**

Үлкен мәтінді қорытындылау. Ұзақ мақалаларды оқымау және олардан негізгі ойларды оқшаулау үшін Сіз ChatGPT-тен көмек сұрай аласыз. Мысалы, оған РБК-ға экономиканың жай-күйі туралы аналитикалық шолуды жіберу және бастысы тезисті тағайындау міндетін беру;

Қателерді тексеріңіз — нейрондық желіге корректордың тапсырмаларын тапсыруға және мәтіндегі грамматика мен емлені тексеруді сұрауға болады;

Мәтіндерді аудару-сіз мәтінді чатқа жүктей аласыз және нейрондық желіден ағылшын, араб немесе, мысалы, поляк тілдеріне аударма жасауды сұрай аласыз. Бірақ нәтиже оны екі рет тексерген дұрыс;

Қарапайым мақалалар жазу — Мысалы, SEO трафигі немесе жаңалықтар порталдары үшін. Чат-джипитиге тапсырма беруге болады берілген тақырып бойынша мақала жасаңыз, сонымен бірге материалда не туралы айту керек, мәтінге қандай кілттерді енгізу керек және онда қанша кілт сөздердің пайда болуы керек;

Посттарды жасау және қайта жазу-нейрондық желі кішкентай мәтіндерді де дайындай алады. Егер сіз оған қандай әлеуметтік желі үшін жарияланым қажет екенін және нені атап өту керектігін айтсаңыз, ChatGPT мәтінге ақпаратты мұқият жазып, эмодзи қойып, дайын хабарлама береді. Сондай-ақ, сіз тақырып бойынша посттарды лақтырып, оларды басқа сөздермен қайта жазуды сұрай аласыз;

Мазмұн жоспарын дайындау-чат — GPT идеяларды қалыптастыру үшін пайдаланылуы мүмкін. Мысалы, қолдан жасалған жиһаз жасайтын ағаш шеберханасының блогына арналған тақырыптарды ойлап табуды сұраңыз. Бұл жағдайда сіз әр тақырыпты толығырақ ашуды сұрай аласыз.

Чат-джипитиді бағыттауға, үйретуге, кейіпкердің орнына қоюға болады. Мысалы, "Гладлак" редакторлық бюросының авторы Валерия Дроговоз нейрондық желімен жиі жұмыс істейді және нейрондық желінің жауаптары дәлірек және сапалы болып шығуы үшін тапсырманы егжей-тегжейлі сипаттайды. Міне, ол жағдайлардың бірінде қандай сұранысты қолданды:

1. Сіз поляк тілін жетік білетін жоғары білікті SEO және маркетингтік мазмұн жазушысы рөліндесіз.
2. Сізде автоматты түрде поляк тіліне аударылған ағылшын тіліндегі мәтін бар.
3. Стильдегі қателерді, емлені, тыныс белгілерін және аударманың кемшіліктерін түзетіңіз.
4. Мәтінге ақпарат қосудың қажеті жоқ.
5. Тақырыптар мен субтитрлерді (соның ішінде H1, H2 тақырыптарын) бөлектеу үшін Markdown пайдалану.
7. Мазмұнды жасау кезінде егжей-тегжейлер мен контекстті жоғалтпай, лаконизм мен динамизмді есте сақтаңыз.
8. Поляк тілін қолдана отырып, формальды, ақпараттық стильде аударыңыз.
9. Мақала оқырманға құрметпен аударылуы керек. Мен оқырманға осындай үнмен жүгінуден аулақ болғым келеді: сіз қалайсыз, мүмкін, Сіздің компанияңыз, сіздің біліміңіз, мүмкіндігіңіз, сіздің жақсы беделіңіз → жақсы беделіңіз.
10. Бұл үлкен мақала, сондықтан мен оны бөліктерге жіберемін, ал сіз маған түзетілген нұсқаны жібересіз.

### **Оқытуға көмек**

ChatGPT жасанды интеллектін сұрақты түсінуге, ақпаратты құрылымдауға, тестті шешуге немесе қатені табуға көмектесетін жеке көмекші ретінде пайдалануға болады. Оқыту саласында нейрондық желіге қандай міндеттер қоюға болады:

Қарапайым сөздермен түсіндіріңіз, қайталаңыз. Мысалы, терминдері мен кеңсесі бар күрделі заңды мәтін чат түсінікті тілде қайта жаза алады;

Мәтінді немесе тапсырманы талдаңыз. Нейрондық желілер сұрақты жауап нұсқаларымен жібере алады, дұрысын таңдауды сұрай алады және таңдауыңызды түсіндіре алады;

Кесте немесе талдау жасаңыз. Жасанды интеллект боты кестелер құруды және екі нысанды салыстыруды біледі. Мысалы, ол пәтер немесе жеке үй сатып алу жақсы екенін нүктелермен салыстыра алады;

Ақпарат көзін табыңыз. Джипити чатын іздеу жүйесі ретінде пайдалануға болады, мысалы, Испанияда салықты қалай дұрыс төлеу керектігі сипатталған жерді табуды сұрау.

#### **Чат-джипити қандай тапсырмаларды жақсы орындайды**

Chatgpt-эртүрлі тапсырмалармен тиімді жұмыс істейтін нейрондық желі қауымдастырылған редактор немесе бағдарламашы рөлін атқара алады. Бірақ ол құдіретті емес және қателіктер жібереді. Нәтижелерге әрдайым сын көзбен қарап, оларды екі рет тексеру керек.

Егер чат сұраққа жауап бере алмаса, ол жолда ойлап табуы мүмкін. Мысалы, Приморьедегі он әдемі жағажай туралы мақалада мүлдем жоқ үш жағажайды көрсетіңіз.

Кейде нейрожелі жауап беруден мүлдем бас тартады, сарапшының шешіміне жүгінуге кеңес береді.

Нейрондық желі адамды алмастырмайды, бірақ кейбір тапсырмаларды жеңілдетуге көмектеседі. ChatGPT мазмұнмен жақсы жұмыс істейді: қарапайым мәтіндерді оңай түрлендіру, әлеуметтік желілер мен жалпы бизнес үшін идеялар жасау. Ол мәтіндерді орта деңгейде жазады: оларды тезис жоспары ретінде пайдалануға болады, бірақ бәрібір жақсы өңделеді.

Кодты тексеру және оқыту арқылы чат жақсы жұмыс істейді, бірақ қателіктер жіберуі мүмкін, сондықтан оны өзін-өзі тексеру үшін қолданған дұрыс және оның жауаптарына толық сенбеңіз.

Көбінесе нейрондық желінің нәтижесі тапсырманың қаншалықты дұрыс қойылғанына және процесте берілген нақтылауға байланысты болады. Нейрондық желі лайықты нәтиже беруі үшін тапсырмаға егжей-тегжейлерді Мұқият енгізіп, Нұсқаулық қойып, жасанды интеллекттің қай жерде қателескенін көрсету керек.

#### **Пайдаланылған әдебиеттер**

1. Қазақстан Республикасының 2015 жылға дейінгі білім беруді дамыту тұжырымдамасы. // Қазақстан мұғалімі, 20 қаңтар.– 2004. – 3-4 б.
2. «Нейронные сети. Полный курс», Саймон Хайкин. 2019 год. ISBN 978-5-907144-22-4
3. *«Нейронные сети для прикладных наук и инженерии: от основ до распознавания сложных образов», Сандхья Самарасингхе 2007 год. ISBN 9780849333750*

## **RAQAMLI UNIVERSITETGA O‘TISH KONSEPSIYASI HAQIDA**

**Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich**

Nizomiy nomidagi TDPU,

“Matematika va ta’limdagi axborot texnologiyalari”

kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

Bugungi kunda universitet, uning tuzilmasidagi ta'lim va ilmiy muassasalarning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va uzluksiz ta'lim tizimi integratsiyasini ta'minlash, universitet bilan uning tuzilmasidagi ta'lim muassasalari o'rtasida o'quv-uslubiy, ilmiy-amaliy yo'nalishlarda klasterli axborot almashinuvini raqamlashtirish, universitet o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish va raqamli axborot-texnologiyalarini joriy etish maqsadida universitet axborot almashinuvini raqamlashtirish muhim vazifalardan biridir.



## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Chunki boshqaruv sohasi va auditoriyalar o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va barcha xodim va o'quv xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart- soatlari paydo bo'ldi. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi ta'lim paradigmasida katta o'zgarishlar yuz berdi. Axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi ish yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qiladi.

Raqamli universitet - bu ta'lim va talabalarning faolligini osonlashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, asosan onlayn boshqaruv, kurslar va daraja dasturlarini taklif qiluvchi ta'lim xizmatlarini ta'minlashga qaratilgan muassasadir.

Raqamli universitet — fan va oliy ta'lim sohasida raqamli xizmatlarni yaratish va rivojlantirishga qaratilgan, oliy ta'lim muassasalarining barcha turdagi biznes jarayonlarini qamrab olgan, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan loyihadir.

Raqamli universitet konsepsiyasi geografik chegaralar yoki vaqt cheklovlari bilan cheklanmagan universitet boshqaruv jaryoni va barcha ta'lim imkoniyatlarini yaratish uchun eng yangi texnologiyalar va innovatsion vositalarni qabul qilishga asoslangan.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT- kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart.

**MAQSAD.** Raqamli universitetga o'tish konsepsiyasining maqsadi-ta'lim muassasini barcha sohalarini raqamlashtirish orqali raqamli avlodga moslashtirish, turli raqamli qurilmalar orqalishi boshqaruv va ta'lim tizimi komponentlaridan tashkil topgan elektron axborot xizmatlarini tashkil etish asosida boshqaruv va ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash

### **Raqamli universitetga o'tish davrida universitet oldida turgan vazifalar:**

Universitetning barcha tarkibiy tuzilmasi va foaliyat sohasini raqamli axborot xizmatlarini tashkil etish;

Mavjud axborot xizmatlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish;

Universitet qoshida "Media va raqamli texnologiyalarni joriy etish" markazini tashkil etish va markaz nizomini ishlab chiqish;

Moslashuvchan raqamli texnik vositalardan foydalangan holda universitet ichida o'zaro raqamli aloqalar uchun yagona axborot portalini ishlab chiqish va elektron xujjay aylanish tizimini takomillashtirish;

O'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish;

Yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga texnik qurilmalar bilan ta'minlash;

Raqamli xizmatlarni yuqori tashkilotlar raqamli xizmatlari bilan integratsiyasini ta'minlash;

Universitet saytini xorijiy raqamlashtirilgan universitet portallari darajasiga yetkazish.

### ASOSIY MEYORIY XUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi PQ-290-son "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarori

### STATIKANING MUVOZANAT TENGLAMALARI YORDAMIDA YECHILADIGAN BA'ZI MASALALARINI ABAQUS DASTURI YORDAMIDA YECHISH

**Safarov I.I.** – TKTI professori

**O'rolov O'.A., Choriyev M., Namozov J.Sh.**

#### Преимущества цифровизации образования

Одним из главных преимуществ цифровых технологий в образовании является улучшение доступности образовательных ресурсов. С развитием онлайн-курсов и цифровых библиотек студенты получают возможность обучаться в любое время и из любой точки мира.

Вторым преимуществом является индивидуализация обучения. С помощью адаптивных образовательных платформ и программ студенты могут изучать материалы в соответствии с собственным темпом и уровнем подготовки.

Третьим преимуществом является расширение возможностей для интерактивного обучения. Виртуальные лаборатории, образовательные приложения и игры способствуют более глубокому усвоению материала и повышению мотивации студентов.

#### Перспективы развития цифровых технологий в образовании

Одной из перспектив развития является углубление использования искусственного интеллекта в образовании. Автоматизация процессов оценки и адаптация образовательных программ к индивидуальным потребностям студентов позволит более эффективно использовать ресурсы и повысить качество обучения.

Второй перспективой является интеграция виртуальной и дополненной реальности в образовательный процесс. Это открывает новые возможности для создания иммерсионных образовательных сред, в которых студенты могут погружаться в виртуальные сценарии и эксперименты.

Третьей перспективой является развитие облачных технологий в образовании. Облачные платформы позволяют учреждениям образования эффективно управлять данными, сотрудничать над проектами и обмениваться информацией в реальном времени.

В заключении можно подытожить основные мысли статьи, подчеркнуть их важность и указать на необходимость дальнейшего развития цифровых технологий в образовании.

Цифровые технологии становятся неотъемлемой частью современной системы образования, предоставляя уникальные возможности для улучшения доступности, эффективности и качества обучения. Однако, сопряженные с этим вызовы, такие как необходимость постоянного обновления и адаптации, обеспечение равного доступа и безопасности данных, требуют внимательного и комплексного подхода со стороны образовательных учреждений и общества в целом.

Преимущества цифровизации образования, такие как улучшение доступности образовательных ресурсов, индивидуализация обучения и расширение возможностей для интерактивного обучения, делают цифровые технологии ключевым инструментом современного образования.

Дальнейшее развитие цифровых технологий в образовании предполагает интенсивное использование искусственного интеллекта, виртуальной и дополненной реальности, а также облачных технологий. Это позволит создать еще более эффективные

и инновационные образовательные среды, способствующие развитию учащихся и подготовке к вызовам современного мира.

Таким образом, цифровые технологии в современной системе образования представляют не только вызовы, но и огромные возможности для преобразования и улучшения образовательного процесса. Единственным способом максимально реализовать их потенциал является постоянное и сбалансированное развитие как технологий, так и методов их использования в образовании.

### Список использованной литературы

1. Юсупова, Г.Ю. (2022). Teachers' competence; professional development, evaluative competence and conceptual framework. Mejdunarodnye Galaxy (GIIRJ) ISSN;2347-6915 impakt faktor: 7.718 Indiya Tom 10 №10/ str. 147-150.

2. Юсупова, Г.Ю. (2023). Развитие способностей компетенции моделирования у будущих учителей информатики средством изучения компьютерного моделирования. ТДПУ имени Низами. -“Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidaги республика конференцияси, (Ташкент, Узбекистон), 118-120.

3. Юсупова Г. Ю. (2022) Роль моделирования в подготовке учителя информатики: концепция и ее реализация //Экономика и социум. №. 2-2 (93). – С. 1178-1182.

4. Yusupova G. Y. (2023) Modern development and improvement of the personal and professional quality of a computer science teacher //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. T. 13. – С. 63-66.

5. Gulchekhira Yuldashovna Yusupova. (2023). Modern development and improvement of the personal and professional quality of a computer science teacher. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 13, 63–66. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/577>

6. Yusupova, G. (2024). Modeling competencies for future computer science teachers. The USA Journals. Американский журнал междисциплинарных инноваций и исследований — международный журнал открытого доступа. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume06Issue03-04>.

### ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING FOYDALANISH AHAMIYATI

*Shodmonov Baxtiyor Isaxonovich*

*Toshkent viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rgatish milliy markazi, dotsent v.b.*

*Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda inson hayotida zamonaviy texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining ko,,p jabhalariga kirib bormoqda. Ta'lim ham bu jarayondan istisno emas. Maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ularning afzalliklari va tahdidlarini ko'rib chiqishdir.*

*Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, zamonaviylik, ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, ta'lim muassasalari.*



## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

**Аннотация.** Актуальность исследования обусловлена тем, что жизнь человека сегодня невозможно представить без современных технологий. Цифровые технологии начинают проникать во многие стороны жизни общества. Образование в этом процессе не имеет исключения. Цель статьи – рассмотреть приоритетные направления развития образовательного процесса, их преимущества и угрозы на основе анализа возможности цифровых технологий..

**Ключевые слова:** цифровые технологии, современность, образовательные технологии, современное образование, образовательные учреждения

**Abstract.** The relevance of the study is due to the fact that human life today is impossible to imagine without modern technology. Digital technologies are beginning to penetrate into many aspects of society. Education in this process is no exception.

**Keywords:** digital technology, modernity, educational technologies, modern education, educational institutions

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalorida faol qo'llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda. Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi .

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, sifatli ta'lim va xizmatlar deganidir. "Raqamli" atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadi qo'yilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha tahlillar amalga oshirildi.

Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi. Yurtimizdagi nufuzli xususiy o'quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta'limni yo'lga qo'yimoqda. Bu jarayonning o'zi ham mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat

qiladi. So'nggi yillarda ta'limni "raqamlashtirish" muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha birorbir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta'sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma'ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oldin raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda, ya'ni, sanoat, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarda joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotganini e'tiborga olib, raqamli rivojlanish bo'yicha barcha soha rahbarlarining o'rinbosarlari lavozim tarkibiga kiritilmoqda. Raqamlashtirish yo'nalishi bo'yicha faollashtirish barcha biznes tuzilmalarida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda "tajovuzkor", ayniqsa iqtisodiy samarasi topilgan joylarda, barcha darajalarda qo'llab-quvvatlanmoqda. Iqtisodiyotda ro'y berayotgan jarayonlar dinamikasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha takliflarni tahlil qilish va ishlab chiqishda ta'lim hamjamiyatining faol pozitsiyasini talab qilmoqda.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?

Birinchi, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarining so'ngi yutuqlarini o'zlashtirishga shartsharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchi, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani ta'lim muassasalarida qo'llash.

Uchinchi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchi, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va mul'timediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Beshinchi, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferentsaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish. Oltinchi, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bo'liq, ya'ni ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o'qish bilan yakunlashgacha. Biz ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir.

Natijada o'qish jarayoni yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar - bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir. Xulosa o'rnida aytish joizki ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bir tomondan muayyan qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarsada boshqa tomondan turli yutuqlarni qo'lga kiritilishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon induvidial salohiyatli o'quvchilarning yanada rivojlanishi holatida yaqqol namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020 y.
2. Bromwich D. Trapped in the Virtual Classroom //Флигстин Н. Архитектура
3. РЫНКОВ: - The New York Review of Books. – 2015. – July 9.
4. Yu.S.Glazyev. Kelajak iqtisodiyoti. – M.: Книжный мир, 2016.
5. Y.Vissema. Uchinchi avlod universiteti. O'tish davridagi universitet boshqaruvi / Й. Виссема. – M.: Олимп-Бизнес, 2016.

### UCH O'LCHOVLI GRAFIKLARNI EXCELDA HOSIL QILISHNING IMKONIYATLARI

**Shamsiddinova Maftunabonu Ulug'bek qizi**

Buxoro davlat universiteti "Amaliy matematika" yo'nalishi talabasi  
shamsidinovamaftuna4@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uch o'lchovli grafiklarni Microsoft Excel elektron jadvalida yaratilish jarayoni texnika yo'nalishlari talabalari uchun tushunarli holda bayon etilgan va misollar bilan tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** Muxandislik grafikasi, Microsoft Excel elektron jadvali, 3 o'lchovli fazo, uch o'lchovli funksiya.

**Аннотация.** В этой статье в доступной форме для студентов технических направлений описан и объяснен процесс создания трехмерной графики с использованием электронной таблицы Microsoft Excel, приведен пример создания трехмерной графики.

**Ключевые слова:** Инженерная графика, Microsoft Excel, 3D-пространство, трехмерный график.

**Annotation.** This article describes and explains the process of creating three-dimensional graphics using a Microsoft Excel spreadsheet in an accessible form for technical students, and provides an example of creating three-dimensional graphics.

**Keywords:** Engineering graphics, Microsoft Excel, 3D space, 3D graphics.

**Kirish.** Ma'lumki, muxandislik grafikasida, hayotimizning boshqa jabhalarida jarayon va ob'yektlarni grafik ko'rinishda tasvirlashning ahamiyati katta. Bunda o'sha jarayonni tushunish

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

osonlashadi, vaqtdan tejaladi. Grafikni qurishda tasvirlanayotgan ko'rsatkichlarning mazmuni va mantiqiy xususiyatiga eng mos keladigan tasvirlash usullarini topish muhimdir [1-4].

Agar bo'shlang'ich axborot jadvaldagi sonlar yoki funksiyalar orqali berilsa, ularni grafik ko'rinishda tasvirlashning bir qancha imkoniyatlar mavjud. Bu bizga murakkab raqamli ma'lumotlarni tasavvur qilish va tahlil qilishda yordam beradi, tushunish va tushunishni osonlashtiradi.

Kompyuter grafikasi sohasida jozibali 3D tasvirlarni yaratish qobiliyati dasturchilar va dizaynerlar uchun asosiy mahoratga aylandi. To'g'ri bilim va vositalar bilan elektron jadval va dasturlash tillaridan uch o'lchovli grafiklarni shakllantirishda uchun foydalanish mumkin[5-6].

**Metodika.** Grafiklar hosil qilish imkoniyatini beruvchi dasturlardan biriga **Microsoft Excel** kiradi. Microsoft Excel o'zining kuchli elektron jadval imkoniyatlari bilan mashhur, ammo undan ta'sirchan uch o'lchamli (3D) tasvirlarni yaratish uchun foydalanish ham mumkin. Ma'lumki, Excel jadval ma'lumotlari bilan ishlaydi. Agar chiziladigan grafikni funksiya yordamida berilgan bo'lsa, EXCELda uni avvalambor jadval ko'rinishida tasvirlash kerak. Bunday funksiya  $z = f(x, y)$  ko'rinishga ega bo'lib, bu yerda  $x$  va  $y$  tekislikdagi nuqtaning koordinatalari,  $z$  esa funksiyaning qiymati. Masalan, uch o'lchovli funksiya quyidagi funksiyaning misol qilish mumkin:  $f(x, y) = x^2 + y^2$ .

Ushbu funksiyaning EXCELda grafigini hosil qilish uchun avvalambor  $x$  va  $y$  argumentlarining qiymatlari o'zgarishi mumkin bo'lgan intervallarni aniqlaymiz. Misol uchun bu  $x$  uchun ixtiyoriy simmetrik interval  $(-5, 5)$  va  $y$  uchun esa boshqa ixtiyoriy simmetrik interval  $(-9, 9)$  bo'lsin.  $x$  va  $y$  qiymatlari o'zgaradigan qadamni ham ixtiyoriy ravishda, masalan 0,2 ga o'rnatiladi. Umuman olganda, qadam o'lchamini tanlash chizmaning kerakli tafsiloti asosida aniqlanadi. Endi Excel ish varag'ida biz ushbu koordinatalarning qiymatlarini  $x$  uchun biror-bir qatorda va  $y$  uchun ham biror-bir ustunda o'rnatamiz(1-rasm).

Agar **B1** katakda -5 sonini o'rnatib 0,2 qadam bilan shu satrning keyingi kataklarini to'ldira borsak, oxirgi 5 soni AZ1 katakka to'g'ri keladi, kataklarni o'zgarish qadam bilan to'ldirish esa EXCELda qiyin emas. Xuddi shuningdek, **A2** katakdan boshlab A ustunni 0,2 qadam bilan to'ldirib borsak, 9 soni A92 katakka to'g'ri keladi.

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q
1		-5	-4,8	-4,6	-4,4	-4,2	-4	-3,8	-3,6	-3,4	-3,2	-3	-2,8	-2,6	-2,4	-2,2	-2
2		-9															
3		-8,8															
4		-8,6															
5		-8,4															
6		-8,2															
7		-8															
8		-7,8															
9		-7,6															
10		-7,4															
11		-7,2															
12		-7															
13		-6,8															

1-rasm.

Argumentlar qiymatlarini bunday to'ldirish funksiya qiymatlari jadvalini to'ldirishda qulaylik tug'diradi. Jadvalga formulani yozishni B2 katakdan boshlaymiz. Avval ularni manzillash orqali o'ylab ko'rish kerak, chunki bu formula bilan biz B2:AZ92 diapazonini to'liq to'ldiramiz. Bunda biz 4641 katakni qiymatlar bilan to'ldirgan bo'lamiz.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Shunday qilib, formula intervalini gorizontaal ravishda (x o'qi) to'ldirishda barcha katakchalardagi formulalar yuqori qatordagi mos keladigan katakchaga murojaat qilishimiz kerak, shuning uchun u satr raqami bo'yicha mutlaq manzilga va ustun raqami bo'yicha nisbiy manzilga ega bo'lishi kerak. Mutlaq manzillash katak manzilining tegishli koordinatasi oldidan "\$" belgisi bilan ko'rsatiladi. Manzillash quyidagicha ko'rinadi: B\$1. Ustun bo'yicha to'ldirishga kelsak, buning aksi: ustun raqami mutlaq, satr raqami esa nisbiy bo'lishi kerak, ya'ni manzil shunday ko'rinadi: \$A2. Endi butun formulani yig'amiz qo'shimcha funktsiyalardan foydalanmaslik uchun uni oddiygina ko'paytirish orqali kvadratga olamiz:  $=B\$1*B\$1+\$A2*\$A2$ . Formulani kiritish 2-rasmda ko'rsatilgan.

	A	B	C	D	E	F	G	H
1		-0,2	-0,15	-0,1	-0,05	0	0,05	0,1
2		$=B\$1*B\$1+\$A2*\$A2$						
3		-3						
4		-1						
5		1						
6		3						
7		5						
8		7						

2-rasm.

Endi barcha o'zimizga kerakli kataklarni to'ldirish uchun avtomatik to'ldirish usulidan foydalansak bo'ldi. Hosil qilingan jadval qismi 3-rasmda ko'rsatilgan.

	A	B	C	D	E	F	G	H
1		-5	-4,8	-4,6	-4,4	-4,2	-4	-3,8
2	-9	104,04	102,16	100,36	98,64	97	95,44	93,96
3	-8,8	100,48	98,6	96,8	95,08	93,44	91,88	90,4
4	-8,6	97	95,12	93,32	91,6	89,96	88,4	86,92
5	-8,4	93,6	91,72	89,92	88,2	86,56	85	83,52
6	-8,2	90,28	88,4	86,6	84,88	83,24	81,68	80,2
7	-8	87,04	85,16	83,36	81,64	80	78,44	76,96
8	-7,8	83,88	82	80,2	78,48	76,84	75,28	73,8
9	-7,6	80,8	78,92	77,12	75,4	73,76	72,2	70,72
10	-7,4	77,8	75,92	74,12	72,4	70,76	69,2	67,72
11	-7,2	74,88	73	71,2	69,48	67,84	66,28	64,8
12	-7	72,04	70,16	68,36	66,64	65	63,44	61,96

3-rasm.

Jadval kataklari to'ldirib bo'lingandan so'ng B2:AZ92 oraliqni belgilab turib, "Вставка" bo'limiga kirib diagrammamizni shaklini tanlaymiz. "Поверхность" qatorini topishimiz yetarli va quyidagi natijani olamiz(4-rasm).



4-rasm.

Istalgancha 3D chizmamizni ko'rinishlarini "Конструктор" bo'limidan o'zgartirishimiz mumkin.

#### **Xulosa:**

Shunday qilib, Excelning diagramma yaratish imkoniyatlaridan foydalanib, uning formatlash va moslashtirish imkoniyatlarini o'rganib chiqib, uch o'lchovli funktsiyani 3D vizualizatsiyasiga aylantirishimiz mumkin.

Dasturlash tillari yordamida 3D tasvirlarni yaratish ijodiy imkoniyatlar dunyosini ochadi. Talabalar Microsoft Excelda grafiklar hosil qilish imkoniyatlarini o'rganishlari, ular uchun kelajakda muxandislik grafikasi bo'yicha bilimlarni egallashda debocha bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar**

1. Берман Н. Д. Визуализация данных в MS Excel 2010 : учеб. пособие / Хабаровск : Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2014. – 72 с.
2. Жумаев Ж., Опокина Н.А. Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и MathCAD. Электронное учебное пособие. Казань: КФУ, 2021. – 228 с. <https://dspace.kpfu.ru/xmlui/handle/net/163784>
3. Jumayev J. Ikkinchi tartibli chiziqlar mavzusini mathcad matematik paketi yordamida o'qitish// Педагогик махорат. Махсус сон. 2021 йил декабрь.26-32 бетлар. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4175](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4175)
4. Jumayev J. Transport masalasini MathCAD tizimida yechish// BuxDU ilmiy axboroti, 2022, № 6, 27-31 betlar. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8701](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8701)
5. Jumayev J., Shamsiddinova M.U. Aniq integral mavzusini o'qitishda python grafik imkoniyatlaridan foydalanish// Pedagogik mahorat, 2023, № 9, 240-245 b. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Ej9NBzMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Ej9NBzMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ej9NBzMAAAAJ&citation_for_view=Ej9NBzMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C)
6. Jumayev J., Shamsiddinova M.U. Aslonov U.Sh. Muxandislik chizmalari bilan ishlashda Python imkoniyatlaridan foydalanish//“Sanoat injiniringida innovatsion yechimlar” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro, 2023 yil, 24-25 noyabr. 352-353 betlar. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/11208](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11208)

## ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

*Ma'mirova Gulshoda Isomiddin qizi*

*Fan va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada raqamli texnologiya, bulutli texnologiyalar, ta'limda raqamli texnologiyadan foydalanish, raqamli texnologiyani ta'lim tizimi vositalari, raqamli texnologiyasini ustunliklari, narsalar interneti (Internet of Things, IoT), kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR) haqida tushuncha berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, zamonaviylik, ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, ta'lim muassasalari.

**Аннотация:** В статье рассмотрены цифровые технологии, облачные технологии, использование цифровых технологий в образовании, преимущества цифровых технологий в образовательной системе, Интернет вещей (IoT), дополненная реальность (AR), виртуальная реальность (Virtual Reality, VR). понимание дано.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, современность, образовательные технологии, современное образование, образовательные учреждения.

**Annotation:** Today in the world the provision of modern youth education and thereby ensuring the stable development of the country has become one of the main problems. The fact that in the current era of rapid development will learn to receive information and use it correctly has become the main goal for young people.

**Key words:** digital technologies, modernity, educational technologies, modern education, educational institutions.

Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Ta'kidlash joiz bugungi kunda ta'limni axborot kommunikatsion vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hozirgi vaqtda o'qituvchilarning katta qismi axborot kommunikatsiya vositalaridan proyektordan unumli foydalanishni bilsada qolgan zamonaviy texnologiyalar haqida kamroq bilimga egalar. Bu esata'limni tashkil etishda turli muammolarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar haqida gapirganda internet orqali tashkil etiladigan mailing lists, telnet, yuneset, e-minbar kabilar yuqori samara berishi bilan ajralib turishini yodga olish mumkin.

Ko'pchilikka ma'lumki o'qitishning odatdagi an'anaviy usulida o'qituvchi faol o'quvchi tinglovchiga aylanadi. Bunday xollarda ta'lim olish quruq yodlash va esda olib qolish uchun yo'nalgan bo'ladi. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Demak, raqamli ta'limda: -xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega; -internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi; -ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi; -vaqtva mablag' sarfini keskin kamaytiradi; -"raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lishgi kabilar. Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar —Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli axborotga asoslangan asosiy texnologiyalardan biri bu narsalar internetidir. Ko'pgina maishiy texnikaning elektrtarmog'iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko'proq ob'ektlari Internetga ulanadi, bu esa ma'lumot to'plash va hatto ushbu ob'ektlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi. Darhaqiqat, Internetda ob'ekt va tashqidunyoning turli parametrlarini o'z ichiga olgan va Internet orqali ob'ektni boshqarish imkonini beruvchi jismoniy ob'ektning virtual nusxasi paydo bo'ladi. Narsalar internetiga misol qilib, kinoteatrdagi proyektor kabi qurilma texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga aniqlangan nosozlik va rejadan tashqari ta'mirlash doirasida almashtirilishi kerak bo'lgan ehtiyot qismlar ro'yxati haqida signal yuboradi. Kengaytirilgan haqiqat misollari allaqachon mavjud va faol qo'llanilmoqda, ba'zi istiroxat bog'larida siz jismoniy dunyodagi ob'ekt va virtual dunyo o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadigan belgilarni allaqachon ko'rishingiz mumkin. Shu bilan birga, to'ldirilgan reallik texnologiyalaridan faol foydalanish yo'lida hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar ham mavjud.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyaning to'liq qamrab olish va fanga nisbatan muhabbat uyg'otishga sabab bo'ladi. Shu bilan birga ta'lim muassasasida internet tarmog'ining bo'lishi va sifatli ishlashi ta'limni sifatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi.

Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Pandemiya sharoiti ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar



raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta'lim olish mumkinligini isbotlab berdi.

Raqamli ta'limga o'tishning boshqa afzalliklari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinlidir. -darsliklar elektron xolatda ekranlarga ko'chadi; -o'quvchilar hojlagan joyida va xoxlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi; -o'quvchilar mutaxassis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi; -internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi; -ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi, vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi; -"raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'ladi.

Bugun mamlakatimizning barcha xududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o'z navbatida raqamli ta'lim tizimiga o'tishga to'sqinlik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa xukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatnomalarida ayni shu sohada ko'rsatmalar berilgani biz fikr yuritayotgan sohada sezilarli yuksalish yuz berishiga ishoniradi. WiFi zonalar IT parklar ochilishi raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bir tomondan muayyan qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarsada boshqa tomondan turli yutuqlarni qo'lga kiritilishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon induvidial salohiyatli o'quvchilarning yanada rivojlanishi holatida yaqqol namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiyalar -virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR). Insonning virtual haqiqatda bo'lishiga imkon beruvchi texnik qurilmalarning paydo bo'lishi ushbu texnologiyani ko'ngilochar sohada talabga aylantirdi.

Virtual haqiqatning dubulg'alari va kostyumlari, ixtisoslashtirilgan xonalar sizga noma'lum dunyoga kirishga imkon beradi, bu sizning barcha harakatlaringiz virtual olamdan javob berish uchun dasturlashtirilgan, bu sizga o'zingizni 100% ga cho'mish imkonini beradi. Ta'lim o'quvchilarning bilim olish uslubini o'zgartiradi. Sinf xonalarida VR dan foydalanish o'quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o'rganishga yordam beradi

## REFERENCES

1. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. –T.: Nihol, 2016
2. uz.infosom.uz

## INFOGRAFIKA VA AXBOROT DIZAYNI YARATISH TEXNOLOGIYALARI

**S.I.Samandarov** TDPU p.f.f.d. (PhD)

**R.Sharipov** TDPU 2-kurs magistranti  
s.javlon1981@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada Infografika imkoniyatlari haqida so'z boradi, infografika yaratish bosqichlari hamda ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan infografika turlari haqida ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** vizuallashtirish, axborot grafikasi, konteks, kolleksiyalar*

***Аннотация:** В статье рассказывается о возможностях Инфографики, дана информация об этапах создания инфографики и видах инфографики, которые можно использовать в образовательном процессе.*

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

**Ключевые слова:** визуализация, информационная графика, контекст, коллекции

**Annotation:** The article talks about the possibilities of Infographics, information is given about the stages of creating infographics and the types of infographics that can be used in the educational process.

**Key words:** visualization, information graphics, context, collections

Keyingi vaqtlarda pedagogik texnologiya masalasi mutaxassislar tomonidan alohida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganila boshlandi. Bunda pedagogik texnologiya ta'lim, o'qitish jarayoni maqsadiga va shaxs barkamolligiga erishtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samardorligini oshirishning tizimlashtirilgan, loyihalashtirilgan vosita va usullari sifatida talqin qilinadi. Fanlarni o'qitish o'qituvchidan mantiqiy usullar asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Chunki fan asoslarini o'zlashtirish uchun talaba abstrakt tushuncha, (kategoriya)larning mazmun, mohiyatini teran anglab yetishi kerakli, bunga esa o'qituvchi, eng avvalo, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mantiqiy usullardan mohirlik bilan foydalangani holda qo'llay bilishi orqali erishadi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan multimedia didaktik vositalarni shartli ravishda axborot (taqdimot) va interaktiv turga bo'lish mumkin. Axborot yoki taqdimot, didaktik o'quv vositalari o'quv materialini yanada samarali va vizual ravishda namoyish etish uchun mo'ljallangan. Odatda bu kabi o'quv vositalari multimedia taqdimoti bo'lib, u ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazishda qo'llaniladi.

Taqdimotning har bir slaydi – ma'ruza uchun didaktik materiallar o'quv materialining mazmunini tanlashning umumiy didaktik tamoyillariga muvofiq tayyorlanadi. Bundan tashqari, ma'lumotni ekran orqali va bosma asosda idrok etishning psixologik xususiyatlari, ergonomik talablarni hisobga olish lozim. Boshqa tomondan, raqamli texnologiyalarining dasturiy vositalari taqdim etayotgan imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Infografika odamlarning onlayn vizual kontentga qiziqishi bilan mashhur bo'ldi. HubSpot ma'lumotlariga ko'ra, sotuvchilarning 49 foizi vizual marketingni marketing strategiyasi uchun "juda muhim" deb baholaydi. Infografika branding va sotish uchun qiziqarli va samarali, chunki so'zlar va tasvirlarni birlashtirish odamlarga siz baham ko'rgan tafsilotlarni eslab qolishini osonlashtiradi.

Infografika ta'limning ajralmas qismiga aylangan davrni aniqlash qiyin, ammo uning kelib chiqish yo'lini ishonchli tarzda kuzatib borish mumkin: diagrammalar, chizmalar va jadvallarni illustrasiyalar uchun ishlatishga birinchi urinishlar XIX asrning oxirlarida dunyoning turli mamlakatlarida gazeta va jurnallarda amalga oshirilgan.

Uning asosiy afzalliklaridan biri bu uning ko'p qirraliligidir – deyarli har qanday ma'lumot rangli grafik yoki interaktiv jadval ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Insonlar ma'lumotlarni tasvirlarda eslashadi va shuning uchun nafaqat sodda va qulay shaklda, balki jozibali shaklda ham taqdim etilgan ma'lumotlarni ancha yaxshi yodlashadi. Shuning uchun ham o'qitishda har xil infografikadan foydalanish o'quv kursini o'zlashtirishni ancha soddalashtiradi.

Faoliyat tamoyiliga ko'ra, tinlovchilar infografikaga oid ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida bilimlarini mustahkamlash va tahlil qilishni, uni tasvirlash uchun turli dasturiy vositalardan foydalanishni o'rganadilar. Bularning barchasi tinglovchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Ta'lim infografikasidan foydalanishning eng muhim tamoyili ko'rgazmalilik tamoyilidir. Ko'rgazmalilik tizimli diagrammalar va vizual tasvirlarni ishlashga asoslangan vizual fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy infografikaning asoschilaridan biri Edvard R. Tufte bo'lib, u konsepsiyani hamda infografikaning ajoyib to'plamini yaratdi. Uning asarlaridagi ilustrasiya elementlariga kompyuter yordamida yaratiladigan tasvirlar, xaritalar, gravyuralar, fotosuratlar, shuningdek, bu ilustrasiyalarda foydalanuvchiga ta'sir ko'rsatishdan oldin ham, keyin ham qiyosiy o'zgarishlarni ko'rsatuvchi ob'ektlar kiradi.

Ta'limda infografikadan foydalanishni nazariiy ma'lumotlarni anglashning samarali usuli ekanligini aynan Tufte tadqiq etgan.

Matnni chizmaga aylantirishda o'quvchi yozilganlarni tushunadi va yaxshi idrok etadi. "Vizual fikrlash" atamasi vizual tasvirlar xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishi sababli vujudga keldi.

Infografika – bu axborot dizayni shakllaridan biridir.

**Axborot dizayni** – bu ergonomikani, funksionallikni, insonning axborotni idrok etishining psixologik mezonlarini, axborotni taqdim etishning vizual shakllari estetikasini va boshqa omillarni hisobga olgan dizaynning bir sohasi hisoblanib, badiiy-texnik dizayn va turli xil ma'lumotlarni taqdim etish amaliyotidir.

Axborot dizaynining maqsadi – aloqa aniqligi, ya'ni xabar nafaqat jo'natuvchi tomonidan aniq yetkazilishi, balki uni qabul qiluvchi tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlashdan iborat.

### **Infografika yaratish texnologiyasi**

**1-qadam** - infografika yordamida erishiladigan maqsad va vazifalarni aniqlash (mavzu yo'nalishiga qarab). Grafikada haqiqatda mavjud bo'lgan axborotlarni namoyish qilish juda oson, lekin mavhum tushunchalarni vizual tekislikka o'tkazish ancha qiyin va bu deyarli imkonsizligini yodda tutish lozim.

**2-qadam** – ma'lumotni bo'limlarga, qismlarga, punktlarga ajratish. Har bir bo'limni alohida rasm yoki grafikada taqdim etilishi lozim. Tinglovchilarga tanish va tez-tez ishlatiladigan vizual obrazlarni tanlash lozim.

**3-qadam** – fokusni yaratish, ya'ni infografikaning atrofida quriladigan asosiy vizual metafora haqidagi hikoyani ishlab chiqish lozim. Bu sodda va hammaga ma'lum bo'lishi kerak.

Professor-o'qituvchilarni axborotni vizuallashtirish asoslariga tayyorlash ta'lim berish sifatini ko'tarishga yordam beradi.

Masofaviy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishning muhim elementlaridan biri - yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori sifatli zamonaviy darsliklar yaratishdir. Bunday o'quv materiallarini talabalarga yetkazib beruvchi diagrammalar, grafiklar va ilustrasiyalardan foydalanmasdan turib taqdim etib bo'lmaydi.

Raqamli ta'lim resurslarining joriy etilishi talabalar va professor- o'qituvchilarga turli xil o'quv materiallaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beradi. Oliy ta'lim muassasalari o'z navbatida kutubxona fondlarini elektron kitoblar bilan to'ldiradilar. Turdosh oliy ta'lim muassasalari elektron platformalarini birlashtiradilar, bu yerda ular bir-birlari bilan ta'lim resurslarini erkin almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Internet texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida, shu jumladan ta'lim sohasida muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy texnik vositalarning xususiyatlari deyarli har kuni o'zgarib va takomillashib bormoqda. Shu sababli ta'lim muassasalari zamonaviy

kompyuterlarning yuqori suratlarda rivojlanishiga mos ravishda texnik bazasini yangilab, ta'lim jarayonini kompyuter texnologiyasidagi so'nggi yangiliklar va ularning dasturiy ta'minoti bilan ta'minlay olmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Samandarov J.I. methods of developing the competence of future computer science teachers on "information security". / Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities Vol. 11, Issue 11, November 2021, – B 116-119.
2. Samandarov J.I..., O srotcaf niam eht f information and communication technologies in information protection systems // «Science and innovation» xalqaro ilmiy jurnali. С. 236-239
3. Б.Е.Стариченко. Теоретические основы информатики. Учебник для вузов. – 3-е изд. перераб. и доп. – М.: Горячая линия – Телеком, 2016.– 400 с.

### **KORXONA VA TASHKILOTLARDA XODIMLARNING KELIB KETISHINI NAZORAT QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIYALAR**

**S.Q.Xushboqova**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi (Denov, Uzbekistan)

[khushboqova@gmail.com](mailto:khushboqova@gmail.com)

**J.M.Toshtemirov**

Qarshi davlat universiteti doktoranti (Qarshi, Uzbekistan)

[jaloliddintoshtemirov0@gmail.com](mailto:jaloliddintoshtemirov0@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu tezis korxonada va tashkilotlarda xodimlarning kelib ketishini samarali nazorat qilish usullari va uning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Xodimlarning ish vaqtini nazorat qilish, ularning ish faoliyatini baholash va korxonaning umumiy samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Nazoratning samarali usullarini joriy etish, shuningdek, xodimlarni rag'batlantirish va ularning ishga bo'lgan sodiqligini oshirishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** xodimlar nazorati, ish vaqti, samaradorlik, rag'batlantirish, korxonada boshqaruvi.*

Korxonada va tashkilotlarning samaradorligi, jumladan, xodimlarning ish vaqti samaradorligini oshirishda, ularning ishga kelib-ketish vaqtlarini aniq nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlarning ish vaqtini to'g'ri boshqarish, ularning mehnat unumdorligini oshiradi va korxonaning umumiy natijadorligini yaxshilaydi. Bu tezisdada biz korxonada va tashkilotlarda xodimlarning kelib ketishini nazorat qilishning zamonaviy yondashuvlari va texnologiyalarini ko'rib chiqamiz.

1. Xodimlarning kelib ketishini nazorat qilishning ahamiyati.
  - a. Ish vaqti samaradorligining oshirilishi.
  - b. Mehnat intizomining mustahkamlanishi.
  - c. Xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi shaffoflikning ta'minlanishi.
  - d. Mehnat unumdorligining oshishi.
2. An'anaviy nazorat usullari:
  - a. Mexanik vaqt qayd etish qurilmalari.
  - b. Qog'oz asosidagi davomat jurnallari.
  - c. Xodimlar tomonidan qo'l bilan yozib qo'yiladigan vaqt jadvallari.

- d. An'anaviy usullarining cheklov va kamchiliklari.
3. Zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalar:
  - a. Biometrik tizimlar (barmoq izi, yuz tanish, retina skaneri).
  - b. RFID texnologiyasi.
  - c. Mobil ilovalar orqali nazorat.
  - d. Raqamli davomat tizimlari va bulut asosidagi yechimlar.
  - e. Xodimlarning ish vaqti va loyihalar bo'yicha hisobot berish tizimlari.

Korxonada va tashkilotlarda xodimlarning kelib ketishini nazorat qilish tizimi, agar to'g'ri va oqilona joriy etilsa, nafaqat xodimlarning ish samaradorligini oshirishga, balki ularning korxonaga bo'lgan sodiqligini mustahkamlashga ham yordam beradi. Bu jarayon shaffoflikni ta'minlaydi va xodimlar bilan ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi. Tezida ko'rib chiqilgan usullar va strategiyalar korxonada va tashkilotlarga o'z faoliyatini takomillashtirishda yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khaidarov A. T, Toshtemirov J. M. Heat source density in non-linear heat dissipation processes //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 10.–C. 72-80.
2. Khaidarov A. T., Toshtemirov J. M. Modeling of the dependence of the conductivity of the non-electric medium of iron metal //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 88-89.
3. J.M. Toshtemirov, M.A. Asadullayeva The effect of the heat source on the ambient density in the processes of non-linear heat propagation in multidimensional fields. *Modern Science and Research*, 2(10), 892–899. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24807>
4. Toshtemirov, J. (2023). Applied mathematics and modeling. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 330–333. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4440>
5. JM Toshtemirov, RD Raxmatova, ShN Asqarjonova, DSh Ibragimov. During The Travel Season, The Locals Change Over Time: Doi. Org/10.5281/Zenodo. 10588200 Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi 1 (1).
6. Хасанов А.А. Ўқитиш жараёнида фанлараро алоқадорликни амалга оширишнинг психологик-педагогик асослари // Замонавий таълим // илмий- амалий оммабоп журнал. Тошкент-2017, №10, 9-14 бетлар.
7. Mamatov A. U. Rikhsiboev D. R. Investigation of the ambient density and the state of thermal heating by the method of variable directions in the process of uneven heat distribution. *Journal of HIGHER SCHOOL*, ISSN 2409-1677, No. 12,39-41 (2019).
8. A Shavkat. Radial Vibrations Of A Viscoelastic Spherical Shell// *Universum: технические науки*, 2022, 3-7 (96).
9. Ж.М Таштемиров, АТ Хайдаров. Влияние Источника Тепла На Плотность Окружающей Среды В Нелинейных Процессах Тепловыделения В Двухмерных Областях *Scientific progress* 4 (2), 295-299 (2023).

## OVOZLI AXBOROTLARNI RAQAMLI AXBOROTGA O'TKAZISH

**Alima Primkulova Asetovna,**

Fan va texnologiyalar universitet, Aniq fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi,

e-mail: [alimahon.21@mail.ru](mailto:alimahon.21@mail.ru)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ovozli axborotlar bilan ishlash, ovozli axborotlarni kodlash, ovozli axborotlarning formatlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ovozni diskretlash, detsibel, tebranish chastotasi, ovoz balandligi, ovozli fayllarni standart formatlari.*

***Аннотация.** В этой статье рассматриваются обработки аудиоинформации, кодировании аудиоинформации и стандартные форматы аудиоинформации.*

***Ключевые слова:** дискретность звука, децибел, частота вибрации (колебаний), громкость звука, стандартные форматы звуковых файлов.*

***Annotation.** This article discusses audio processing, audio encoding, and standard audio formats.*

***Key words:** sound discreteness, decibel, vibration frequency, sound volume, standard audio file formats.*

Biz axborotlarni turli-tuman signallar holatida qabul qilamiz. Signallarning turli-tumanligi axborotlarni qayta ishlash jarayonini murakkablashtiradi. Shuning uchun ham axborotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlashni osonlashtirish maqsadida ular bir xil shaklga keltiriladi, ya'ni ma'lumotlarni uzatish va saqlash qulay bo'lgan ko'rinishda ifodalalaydi. Bu jarayon axborotlarni kodlash deyiladi. Kompyuter matnli, grafikli va ovozli axborotlarni kodlaydi. Odatda kodlashda har bir shakl alohida belgi bilan taqdim etiladi. Kompyuter faqat raqamli ko'rinishda aks ettirilgan axborotni qayta ishlashi mumkin. Boshqa barcha ma'lumotlar (masalan, tovush, tasvir, priborlarning ko'rsatkichlari va boshqalar) kompyuterda qayta ishlanishi uchun raqamli formada tavsiflanishi kerak. Masalan, musiqiy tovushni raqamli formaga o'tkazish uchun, ma'lum chastotadagi tovush intensivligini katta bo'lmagan vaqt oralig'ida o'lchab, har bir o'lchash natijalarini raqamli shaklda tasvirlash mumkin. Kompyuter dasturlari yordamida qabul qilingan ma'lumotlarni o'zgartirish mumkin, masalan turli xil tovushlarni bir-biriga bog'lash.

Analog usulda kompyuter matnli axborotni qayta ishlashi mumkin. Kompyuterga kirishda har bir harf ma'lum son bilan kodlanadi, chiqishda tashqi qurilmalar(ekran yoki printer) inson idrok etishi uchun bu sonlardan harflarning tasvirini hosil qiladi. Harflar to'plami va sonlarning mos kelishi belgilarni kodlash deyiladi. Qoidaga ko'ra kompyuterda barcha sonlar nol va bir yordamida ifodalanadi(insonlar qanchalik o'rganib qolishgan bo'lsa ham, o'nlik sanoq sistemasidan emas). Boshqacha aytganda, kompyuterlar bu qurilmalarda qayta ishlash sezilarli darajada oson kechganligi uchun odatda ikkilik hisoblash tizimida ishlaydi. Kompyuterga sonlarni kiritish va ularni o'qish uchun chiqarishda inson o'nlik formada amalga oshishiga o'rganib qolgan bo'lsa ham, barcha zarur o'zgartirishlarni kompyuterdagi dasturlar bajaradi.<sup>1</sup>

Quyida ovozli axborotni kodlashga to'xtalib o'tamiz. Fizika kursidan bizaga ma'lumki tovush – bu havoda, suvda yoki boshqa muhitda tarqaluvchi uzluksiz o'zgaruvchi amplituda (intensivlik) va chastotaga ega bo'lgan mehanik to'liqdir. Tovushli to'liqin gorizantal va vertical

---

<sup>1</sup> A.A.Abduqodirov,A.G'.Hayitov,R.R.Shodiyev.Axborot texnologiyalari. Darslik. T.: "O'qituvchi", 2002 y. 67-71 bb.

Преимущества электронной коммерции заключаются в том, что и покупатели, и продавцы экономят свое время. Теперь выбор товара или услуги и завершение сделки занимают значительно меньше времени, чем в традиционной торговле. Это значит, что все больше пользователей будут готовы покупать онлайн, тем самым давая толчок к росту новых участников рынка – продавцов и представителей смежных сфер. Ожидается, что в конце 2023 года и к 2024 году рынок e-commerce в Узбекистане вырастет еще на 55-60 %, что в 3 раза превышает среднемировой уровень.

Факторы, которые будут служить стимулом для развития электронной коммерции в ближайшие годы, следующие:

Рост доверия пользователей. Платежеспособный спрос уже есть, а доверие пользователей к покупкам онлайн будет поддерживаться улучшением самих площадок с точки зрения юзабилити и клиентского пути, развитием программ лояльности и поощрения пользователей, простой и легкой интеграцией разнообразных платежей. Чем позитивнее будет опыт пользователей, тем больше их доверие онлайн-покупкам.

### **Развитие платежных методов в Узбекистане.**

Вместе с ростом рынка электронной коммерции параллельно растут и онлайн платежи, ведь эффективность e-commerce стоит на двух китах – удобные и быстрые платежи и проработанные логистические процессы. Что касается онлайн-платежей, рынок стал более искушенным и предъявляет все новые требования:

наличие разнообразных методов платежей – локальные и международные карты, платежи в мессенджерах, бесконтактная оплата – чтобы можно было предлагать разные инструменты для разных целевых сегментов;

все больше внимание уделяется клиентскому опыту и «бесшовности» платежей на всем этапе клиентского пути;

простое подключение и управление платежами – никто уже не хочет заключать разные договоры на разные платежные методы, упрощение и желание подключать готовые комплексные решения преобладают;

рост платежной инфраструктуры – когда мы говорим про платежи, мы уже говорим не только про сам факт приема платежей онлайн, но и про дополнительные сервисы, которые помогают бизнесу: выставление счетов, регулярные платежи, сплитование, онлайн-фискализацию и т.д.

### **Платежные решения для электронной коммерции в Узбекистане**

На данный момент среди платежных методов в Узбекистане первое место по-прежнему держат наличные – ими оплачивается более половины от всех покупок. Далее по популярности идут платежи с банковских счетов и карт, платежи с электронных

кошельков и другие методы. В число последних входит прием платежей в мессенджере Telegram, который является самой популярной социальной платформой в стране.

Платежи в Telegram имеют очень хороший потенциал, поскольку убирают лишние переходы пользователя на сайт и позволяют быстрее «доводить» его до покупки непосредственно в самом мессенджере. Сами платежи осуществляются как с локальных карт HUMO и Uzcard, так и с международных карт Visa и Mastercard.

Помимо приема платежей в Узбекистане развиты платежные сервисы, позволяющие увеличивать эффективность онлайн-бизнеса, в частности, выставление индивидуальных счетов и регулярные платежи по графику. Для компаний, которым необходимо переводить деньги сотрудникам или клиентам, предусмотрены сервисы автоматического массовых выплат с корпоративного счета на карты частных лиц.

Недостаточное доверие пользователей к онлайн-покупкам. Несмотря на то, что в стране более 10 миллионов активных пользователей, совершающих покупки в интернете, средний чек одной покупки составляет всего лишь 2 доллара, а сумма ежемесячных трат в интернете около 100 долларов. По мере развития рынка ожидается что, эта сумма вырастет в несколько раз. Отношение потребителей сказывается и на онлайн-платежах, которые по-прежнему конкурируют с наличными.

Рынок электронной коммерции Узбекистана имеет огромный потенциал. Предпринимателям, которые хотят построить успешный онлайн-бизнес, необходимо не только отслеживать текущее состояние рынка, но и думать о том, как отвечать на будущие тренды. В частности, одним из значимых трендов онлайн-шопинга является желание потребителей экономить онлайн по сравнению с традиционными магазинами. Поэтому будут развиваться такие форматы как покупка-продажа подержанных товаров, сервисы по обмену и аренде товаров. Чем более искушенным будет становиться потребитель, тем больше усилий потребуется для того, чтобы быстро адаптироваться к его ожиданиям.

### **Использованная литература**

1.Хасанов А.А. Маматкаримов К.З. Межпредметные связи как дидактические условия повышение эффективности учебного процесса // МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ // ежемесячный научный журнал № 20 (124)/ октябрь-2, 2016 г.

2.Хасанов А.А. Дидактический анализ проблемы межпредметных связей и возможности их использования в средне-специальных учебных заведениях // МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ // ежемесячный научный журнал № 1 (36)/2012 Том II 129-130с. ISSN 2072-0297 Чита-2012 г.

3.Хасанов А.А. Ўқитиш жараёнида фанлараро алоқадриликни амалга оширишнинг психологик-педагогик асослари // Замонавий таълим // илмий- амалий оммабоп журнал. Тошкент-2017, №10,

4. A Shavkat. radial vibrations of a viscoelastic spherical shell// Universum: технические науки, 2022, 3-7 (96).

5.S Akhmedov, S Almuratov, M Avezov, H Tuxtayeva, F Hamidov. Mathematical simulation of calculation of a brake shoe for equivalent concentrated dynamic load// AIP Conference Proceedings 2647 (1).

6. Khojayeva, G. (2023). o'Quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 879–882. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/454>

7. Khojayeva, G. (2023). Development of heuristic ability. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 441–443. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5005>

**TALABALARDA IJODKORLIK FAOLIYATIDA AXBOROT VA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA  
QO‘LLASH IMKONIYATLARI**

**Muradov Salaxiddin Djumanazarovich**

University of science and technologies

“Aniq fanlar” kafedra katta o‘qituvchisi

[Salohiddin.muradov.78@mail.ru](mailto:Salohiddin.muradov.78@mail.ru)

**Mirsagatova D., Sidiqov A., Xasanova E.,**

**Musaeva D., Abduraxmonov.A.**

122-Moliya va Moliyaviy Texnologiyalar 2 bosqich sirtqi ta'lim talabalari

***Annotatsiya.** Maqolada talaba-yoshlarning ijodkorlik faoliyatida Raqamli va pedagogik innovatsiyali texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari haqida fikrlar tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Axborot texnologiyalari, Internet, Innovatsiya, Kompetentlik, Karmat, Kireativlik, Elektron kutubxona.*

Talaba yoshlarning ijodkorlik faoliyatida Raqamli va pedagogik texnologiyalarini qo‘llash zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatidan foydalanishga katta sharoit yaratdi. Kompyuter tarmoqlari hamda unga muqobil axborot texnologiyalari pedagogik ta'lim tizimi uchun, eng avvalo, Yer sharining istalgan nuqtasidan turib, tezkor ravishda zarur ma'lumotni olish bilan bog‘liq bo‘lgan imkoniyatlar yaratdi. Xususan, Internet global kompyuter tarmog‘i orqali dunyo axborot resurslariga kirish juda tez amalga oshirilishi buga yaqqol dalil bulaoladi. Rivojlanishning asosiy negizlaridan biri bo‘lmish zamonaviy texnik va texnologiyalar insoniyatning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilish maqsadida yaratilgan.

Davlat umummilliy dasturida asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida Oliy ta'lim maktablarini axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu dastur doirasida ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter texnikalari bilan ta'minlandi. Oliygoxlarni to‘liq Internet va Ziyonet tarmog‘iga ulanib oliygoxlarda jaxon standartlariga mos elektron kutubxonalar va o‘quv zalari tashkil qilinib Karmat va Armat tarmog‘iga ulandi.

O‘zbekiston Respublikasining Ta'lim to‘g‘risidagi qonunida o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning axborot vositalarini o‘quv jarayniga joriy etish, ta'limda zamon bilan hamnafas ta'lim texnologiyalarini yaratishni taqozo etadi. Ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklarning qo‘llanilishi innovatsiyani aks ettiradi.

Innovatsiyalar jamiyat kelib chiqishining boshlanishidan kuzatib kelingan bo‘lsa ham, pedagogik kategoriya sifatida endi o‘rganilmoqda.

Axborot va pedagogik texnologiyalari va innovatsion texnologiyalar– fikrimiz dalilidir. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug‘atlar tuzish va undan foydalanish madaniyatini shakllantirish – nafaqat axborot va pedagogik texnologiyalari va innovatsion texnologiyalarni egallash, balki til imkoniyatini egallashning oson va samarador yo‘l hisoblanadi.

Shu o‘rinda talabalarni o‘qitish bilim va kunikma berishda o‘qitishning hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanish, o‘quvchiga o‘qituvchi va (yoki) axborot-kommunikatsiya



texnologiyalari tomonidan xabar qilinadigan bilimlarni o'zlashtirishni hamda ta'lim oluvchining o'rganilgan materialni qayta yaratish, uni o'xshash (analogik) vaziyatlarda qo'llashga oid faoliyatini tashkil qilishni ko'zda tutadi.

O'qitishning raqamli texnologiyalaridan foydalanilgan tadqiqotchilik metodi ta'lim oluvchilarning ma'lum tematika doirasida ilmiytexnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy faoliyatini ko'zda tutadi. Bu metoddan foydalanilganda ta'lim faol tadqiqot, kashfiyot va o'yin natijasi sanaladi.

Raqamli texnologiyalari so'z, raqam, tasvir, tovush va boshqa ko'rinishlarda beriladigan axborotni qayta ishlash uchun keng imkoniyatli vosita sanaladi. Ularning vosita sifatidagi asosiy xususiyati axborot olish va qayta ishlash bilan bog'liq turli xil amallarni bajarish uchun sozlash (dasturlashtirish) imkoni mavjudligidir.

O'quv jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo'llarini ochib beradi, ta'limni faollashtirish uchun prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari auditoriya va mustaqil mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va ishonchli, o'rganiladigan axborotning katta oqimini oson o'zlashtiriladigan qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalari vositalarining ta'limning boshqa texnik vositalariga qaraganda ta'limning turli modellari va algoritmlariga sozlash, shuningdek, har bir ta'lim oluvchining xatti-harakatlariga yakka tartibda reaksiya qilish imkoniyati sanaladi. Bunday vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanadafaollashtirish, unga tadqiqotchilik va izlanuvchanlik xarakterini bag'ishlash imkoniniyaratadi.

Raqamli texnologiyalaridagi yangi soxalardan biri esa Karmat va Armat elektron kutubxona qidiruv tizimi bo'lib u millionlab so'z kontekstlariga havola qiluvchi, maxsus qidiruv tizimi asosida ishlaydigan elektron matnlar yig'indisidir. Elektron kutubxona qidiruv birligi yaxlit asar matni; undan ma'lum bir asarni qidirish mumkin. Bu esa ilim oluvchilarning vaqtini moddiy va ma'naviy resurislari sarfini anchaga qisqartiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, talaba-yoshlarning ijodkorlik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qo'llash imkoniyatlari ahamiyati kattadir. Chunonchi, yoshlarning ongida sog'lom immunitet shakllanishida va ularning vataniga kasbiga oilasiga sodiq va vafodor fidokor va ijodkor bo'lib yetishishiga asos bo'la oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Khojayeva, G. (2023). o'Quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 879–882. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/454>

2. Khojayeva, G. (2023). Development of heurctic ability. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 441–443. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5005>

3. Mashbis Ye. I. Psixologo–pedagogicheskie probleme kompyuterizatsii obucheniya. M. 2018.

4. Innovatsionnaya Rossiya – 2020. Strategiya innovatsionnogo razvitiya Rossiyskoy Federatsii na period do 2020 goda. Proekt. URL: <http://www.kirov.spb.ru/sc/378/doc1/21.pdf>

5. Xandojko, A.V. Sovershenstvovanie uchebnix planov podgotovki magistrrov na baze obrazovatel'nyx standartov pokoleniya / A.V. Xandojko, O.N. Fedonin // Sovremennoe obrazovanie: Soderjanie, Texnologii, Kachestvo. – 2015. – №2. – S.16-18.

## **OLIY TA'LIM TIZIMIDA ONLAYN OCHIQ KURSLARIDAN OMMAVIY TARIZDA FOYDALANISH**

**Мурадов Салахиддин Джуманазарович.**

University of science and technologies

“Аниқ фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси

[Salohiddin.muradov.78@mail.ru](mailto:Salohiddin.muradov.78@mail.ru)

**Shakirova Yulduzxon Mirzabek qizi, Raximova Komola O'tkir qizi**

**Abduraxmonov Samandar Urolovich, Turaqulov Sohijon Hamdam O'g'li**

Moliya fakulteti 2 kurs sirtqi ta'lim talabalari

Jahonning barcha oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'lim sifati, ya'ni sifatli kadrlar tayyorlash hamma vaqt ham dolzarb masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Sifat masalasi, ayniqsa, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yana ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab yurtimizda ta'lim sohasiga yuksak e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga tobora keng kirib borayotgan bir sharoitda iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiyalash, jumladan, ta'lim jarayonida rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan keng foydalanilmoqda.

Elektron ta'lim (ET) rivojlanishi ta'lim jarayoniga uning samarali tadbiriq etilishi amaliyotini yanada kengaytirib, hozirgi zamon ta'lim paradigmasining rivojlanishida asosiy vektorlarni belgilab beruvchi zamonaviy tendentsiyalar va mavjud jahon tajribasiga diqqat bilan nazar solishni talab etmoqda. Bular orasida so'nggi 2–3 yilda ET rivojlanishining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri — OOOKlarning shakllanishi bo'ldi, ularning asosida esa ommaviy va barchaga teng imkoniyatlar mavjud bo'lgan ta'lim g'oyasi yotadi. OOOK — bu ommaviy ochiq onlayn kurslar (ingliz. — Massive Open Online Course, MOOC) bo'lib, ular jahonning ko'plab universitetlari tomonidan Yer sharining istalgan nuqtasida bo'lgan har qanday insonga masofaviy texnologiyalar yordamida professor-o'qituvchilar va yuz minglab talabalar (kurs tinglovchilari)ga erkin muloqotni tashkil qilish imkoniyatini beruvchi akademik kurslarni taqdim etadi.

OOOKning keng tarqalishi masofaviy texnologiyalardan maksimal foydalangan holda yangi ta'lim paradigmasining shakllanishiga va yagona transmilliy axborot-ta'lim muhiti yaratilishiga olib keladi. Hozirda Coursera loyihasi ishga tushgandan boshlab elektron ta'limning mashhurligi nihoyatda oshib ketdi. Shu bilan birga, onlayn-kurslarning sifati ham oshgan, uzluksiz ravishda texnologiyalar takomillashib bormoqda, materialni o'zlashtirish va foydalanish uchun qulay bo'lgan universal virtual muhitni yaratishga yordam beradigan turli ilovalar va platformalar ishlab chiqilmoqda.

OOOKning asosiy xususiyatlari ta'limning uzluksizlik va shaxsga yo'naltirilgan tamoyillarini amalga oshirish, tushunish uchun qulay bo'lgan shaklga keltirib, zamonaviy ilmiy g'oyalarni keng targ'ib etish kabi vazifalar bilan bog'liq:

- 1) ommaviylik, ya'ni kurs tinglovchilari soni cheksizligi;
- 2) ochiqlik, ya'ni istagan kishiga, unga qulay joyda va vaqtda bilimlarni bepul berishi;
- 3) kurslarning yaxlitligi, ya'ni kurslar nafaqat o'quv material parchalari, balki amaliy mashg'ulotlar, kommunikatsiya, olingan bilimlarni nazorat qiluvchi materillarni o'z ichiga oladi;

4) kurs muvaffaqiyatli o'zlashtirilganda sertifikat olish imkoniyati.

Onlayn-kurslarda o'qish natijalarini hisobga olish bo'yicha harakatlar AQSHda kuzatilmoqda. U yerda Amerika ta'lim kengashi universitetlar mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan va AQSH kollejlari hisobga olish uchun tavsiya qilingan 5ta kursni ma'qulladi. Kurslar yakunida real vaqtda videokonferensiya rejimida akkreditatsiyadan o'tgan imtihon xizmati yordamida onlayn-imtihon o'tkaziladi. Yevrokomissiya ham VMPass loyihani virtual mobillik va ochiq ta'lim resurlar bo'yicha o'qishni, onlayn-mashg'ulotlarni real mashg'ulotlarga tenglashtirish, OOOK bo'yicha attestatsiya natijalarini rasmiy o'qish dasturlariga, shu bilan bir qatorda, universitet dasturlariga kiritishni qayta hisoblash imkoniyatini beruvchi o'qish pasporti yordamida tan olinishini ma'qulladi.

Loyiha onlayn-ta'limni an'anaviy ta'limga tenglashtirish va ularning diplomlarini teng ahamiyatli qilishni taklif etadi. Massachusetts texnologik instituti va Garvard universitetlari tomonidan yaratilgan edX platformasida bilimning turli sohalari bo'yicha 300 dan ortiq kurslar joylashtirilgan. Bugungi kunda 2011–2012 yillarda AQShda start olgan, uchta platforma Coursera, EdX, Udacitylar auditoriyasi millionlab insonlarni o'z ichiga qamrab oladi, ammo boshqa davlatlarda OOOK vositasida ta'limni amalga oshiruvchi o'xshash loyihalar paydo bo'lmoqda.

Ommaviy ochiq onlayn kurslarda o'qitish o'qituvchi bilan o'quvchi ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. Bunda o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sun'iy yo'ldosh aloqasi, kabelli televideniye kabi vositalar asosida tashkil qilishini talab qiladi.

Ommaviy ochiq onlayn o'qitish:

- ochiq ta'limning zamonaviy shaklidan iborat;
- kompyuterli ta'limni foydalanishga qaratilgan;
- o'qituvchilar va boshqa o'quvchi (talaba)lar bilan faol muloqat qilish uchun zamonaviy - kommunikatsiya texnologiyasidan foydalaniladi.

Ochiq ta'lim, odatda tinglovchilar o'zlariga qulay tartiblarda kutubxonalar va kompyuter sinflarda ishlash, tyutor bilan maslaxatlasha oladigan o'quv markazlarning keng tarmog'iga ega bo'ladi. Aniq predmet bo'yicha faol muloqot odatda talaba qatnashadigan seminarlarda amalga oshiriladi. Onlayn o'qitish, o'qitishning ochiq shakli bo'lib, unga nisbatan aniq afzalliklarga ega.

Bosh afzalligi - onlayn o'qitish o'quvchilarning o'zlariga yanada ko'proq yo'naltirilgan bo'lib, tinglovchilarga o'qish uchun maksimal qulay sharoit yaratadi, u vaqt va fazoviy chegaralardan to'la ozod qiladi.

OOOK formatidagi kurslar uzviy bog'langan ma'ruzalar, olingan bilimlarni nazorat qiluvchi test va topshiriqlar, o'qituvchi va talabalar o'rtasida maxsus internet-maydonchada doimiy muloqotni hamda eng yaxshi talabalarni aniqlash uchun yakuniy imtihon o'tkazishni o'z ichiga olgan va interaktiv masofaviy o'quv jarayon o'tkazish uchun mo'ljallangan. OOOKda tinglovchilar o'zaro muloqotiga ko'p e'tibor beriladi, masalan, forumlar orqali, onlayn va shaxsan muloqot qilish, ma'ruzalarni birgalikda ko'rish va b. Ochiq onlayn-kurslarda o'qish jarayonida o'quv kursining jadvali bo'yicha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish majburiy hisoblanadi. Ommaviy onlayn ta'limning rivojlanishiga bir qator omillar to'sqinlik qilmoqda: buni masalan, ular orasida tinglovchilarning o'qishga bo'lgan past motivatsiyasi, turli mamlakatlar ta'lim tizimlarida farqlarning mavjudligi, ko'pgina OOOKlar ingliz tilida ishlab chiqilganligi, OOOKni oliy ta'lim dasturlariga kiritib qo'yish mexanizmlarining yo'qligi; ish beruvchilar va boshqa o'quv muassasalari uchun ahamiyatga ega ta'lim olganlikni tasdiqlovchi hujjatning yo'qligida, va h.k.

Ommaviy ochiq onlayn kurslarda o'qitish o'qituvchi bilan o'quvchi ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. Bunda o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sun'iy yo'ldosh aloqasi, kabelli televideniye kabi vositalar asosida tashkil qilishini talab qiladi.

#### **Adabiyotlar**

10. Otaqoziyeva Z., Hamidov V. Oliy ta'lim muassasalarida ommaviy onlayn ochiq kurslardan foydalanish imkoniyatlari. 2015y.
11. Xamdorov R., Begimqulov U., Taylaqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari. 1-qism. – T.: 2010y 11,22,38,44-b.
12. “The pedagogy of the Massive Open Online Course: the UK view. Sian Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh”.
13. Abdurashidovich, K. A. (2023). Methodological foundations of understanding the essence of e-learning. theory and analytical aspects of recent research, 2(13), 90-96.
14. Khasanov A.A., Khasanova S.S. Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts // American Journal of Pedagogical and Educational Research 10 (2023): 185-190.
15. Khasanova, S. S. D., & Khasanov, A. A. (2023). Theoretical approaches to creation of pedagogical concepts. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 16-22.
16. Khasanov, A. A. (2017). Methods and methods of forming economic education through interdisciplinary communication through information technology. Journal, (3), 38.
17. Sharipov, D., Abdurashidovich, A., Khasanov, A., & Khafizov, O. (2020, November). Mathematical model for optimal siting of the industrial plants. In 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-3). IEEE
18. Abdurashidovich, X. A., & Nigmanovna, M. F. (2019). Access to electronic educational resources in the education system. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
19. Hasanov, A. A. (2020). Peculiarities of preparing teachers for the development and use of e-learning resources. Theoretical & Applied Science, (9), 15-17.
20. Khasanov, A. A. (2018). Didactic Foundations of Interdisciplinary Connections at Subject Teaching. Eastern European Scientific Journal, (6).
21. Hasanov, A. A., & Gatiyatulina, R. M. (2017). Interdisciplinary Communication as a Didactic Condition of Increasing the Efficiency of Educational Process. Eastern European Scientific Journal
22. Ravshanovna, P. N., & Abdurashidovich, K. A. (2019). Role of innovation in school development. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
23. Хасанов А.А. Современная теория обучения на межпредметной основе // Science and world. – Volgograd, 2016. -№8 (36), vol II. – С. 76-78
24. Khasanov A.A., Khasanova S.S. Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts // American Journal of Pedagogical and Educational Research 10 (2023): 185-190.
25. Khasanova, S. S. D., & Khasanov, A. A. (2023). Theoretical approaches to creation of pedagogical concepts. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 16-22.
26. Abdurashidovich, K. A. (2023). Methodological foundations of understanding the essence of e-learning. theory and analytical aspects of recent research, 2(13), 90-96.
27. Nazarov, I., Hasanov, A., Mirjamolova, F., Khaldarov, H., & Alibekov, S. (2021). Modern educational technologies. Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias, 11(3), 245-252.

**O'QITISH METODIKASINI RAQAMLI DARAJADA TEXNIK VA  
TEKNOLOGIK JIHATDAN AMALGA OSHIRISH**

**Xasanov Abdushoxid Abdurashidovich**

*Fan va texnologiyalar universiteti "Aniq fanlar"  
kafedra mudiri p.f.b.f.d., (PhD), dotsent*

**Asadullayeva Mavluda Asadullo qizi**

*Fan va texnologiyalar universiteti "Aniq fanlar"  
Kafedra katta o'qituvchisi*

**Rustamova Sh, Jamolova D.**

*Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim  
yo`nalishi 2 bosqich talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'qitish metodikasini raqamli darajada texnik va texnologik jihatdan amalga oshirish masalalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** O'qitish, metodika, raqamli darajada, texnik, elektron ta'lim, raqamlashtirish, individual ta'lim trayektoriya.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация по вопросам технической и технологической реализации методики преподавания на цифровом.

**Ключевые слова.** Обучение, методология, на цифровом уровне, техническое, электронное обучение, оцифровка, индивидуальная образовательная траектория.

**Annotation.** This article provides information on the issues of technical and technological implementation of the teaching methodology at the digital level.

**Keywords.** Training, methodology, at the digital level, technical, e-learning, digitization, individual educational trajectory.

Bugungi kunda AKTni bilish o'qituvchiga o'qitish metodikasini raqamli darajada texnik va texnologik jihatdan amalga oshirishga imkon beradi (elektron ta'lim resurslarini o'zi ishlab chiqish va milliy raqamli ta'lim muhitiga joylashtirish uchun ommaviy onlayn kurslarni yaratishda ijrochilar jamoalari tarkibida ishtirok etish orqali);

- elektron ta'lim resurslari tanlovlari, o'quvchilarni tayyorlashda raqamli ta'lim muhitidan foydalanish bo'yicha ijodiy tanlovlar orqali o'qituvchilarning innovatsion faolligini rag'batlantirish; ilmiy va pedagogik kadrlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega [6].

Professional ta'limning raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish va ilmiy-pedagogik xodimlarning malakasini oshirish kasbiy professional ta'limini raqamlashtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi, bu esa o'quv jarayonini professional ta'lim darajasida uni individuallashtirishga va har bir iste'molchi guruhining umidlarini hisobga olgan holda modernizatsiya qilishni o'z ichiga oladi va AKT orqali ta'lim va zamonaviy ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqadorlikni va loyiha asosida o'qitishni keng joriy etish lozim.

Ta'limni modernizatsiya qilish vazifasi bir qator chora-tadbirlar orqali hal qilinmoqda, jumladan:

- iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda malaka oshirish va kadrlar tayyorlashni tashkil etish; bunga har bir o'quvchi uchun professional ta'lim resurslaridan respublikaning raqamli ta'lim muhitidan foydalangan holda individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash orqali yerishiladi;

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

- raqamli ta'lim muhitida turli xil faoliyat turlari bilan an'anaviy ta'lim usullarini qo'shish, bu yoshlar submadaniyatining rivojlanish tendensiyalarida ishtirok etishni ta'minlaydi va o'quvchilarga kasbiy sohani o'zlashtirishning yanada moslashuvchan rejimini yaratishga imkon beradi;

- umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan "raqamli" tanlov kurslarini kengaytirish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini mustahkamlash; elektron muhitda norasmiy ta'limni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan professional ta'limni yoshlar ongiga joylashtirishni jalb qilish;

- virtual laboratoriya ustaxonalari va simulyatorlaridan foydalangan holda kasbiy faoliyat ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish nuqtai nazaridan nogironlar uchun professional ta'limidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

- iqtidorli o'quvchilarning ijodiy vazifalar ma'lumotlar bazalariga kirishlari va norasmiy guruhlarining masofaviy formatdagi interaktiv ishlarini tashkil etish orqali ijodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi;

- universitetning elektron axborot-ta'lim muhitida sanoat korxonalarini bilan o'zaro hamkorlik doirasida turli shakl va kurs o'quvchilaridan iborat o'quv guruhlarini tashkil etish, yetakchi amaliyotchilarni mutaxassis sifatida jalb qilish asosida loyiha asosida o'qitishni tashkil etish.

Professional ta'limni raqamlashtirish va professional ta'limida raqamli ta'lim muhitidan foydalanishning ko'rib chiqilayotgan ustuvor tarkibiy qismlari ta'limni tashkil etish resurslari va raqamli ta'lim makonining integratsiyasini ta'minlaydigan tashkiliy va pedagogik mexanizmning tarkibiy qismidir (1-rasm)

Ushbu mexanizm quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

I. zamonaviy sharoitda ta'limni raqamlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydigan tashqi muhitning asosiy segmentlarini monitoring qilish.

II. ta'lim muassasasida raqamli ta'limni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish, bu professional ta'limning umumiy rivojlanish strategiyasini to'ldirib, uning raqobatbardosh bo'lishiga va mintaqa ehtiyojlari uchun professional kadrlarini tayyorlash markazi sifatida o'z mavqeini mustahkamlashga imkon beradi.

III. raqamli ta'lim muhitining salohiyatini maksimal darajada oshirish orqali professional ta'limni raqamlashtirish strategiyasini amalga oshirish, shu jumladan: ilmiy va pedagogik kadrlarning raqamli ta'lim tarkibiy qismlarini joriy etishga tayyorlik darajasini oshirish chora-tadbirlari; professional ta'limning elektron axborot va ta'lim muhitini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar; professional ta'lim elementlarini joriy etish asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshirishda raqamli ta'limdan foydalanish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sharipov, D., Abdukadirov, A., Khasanov, A., & Khafizov, O. (2020, November). Mathematical model for optimal siting of the industrial plants. In 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-3). IEEE

2. Khasanov A.A., Khasanova S.S. Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts // American Journal of Pedagogical and Educational Research 10 (2023): 185-190.

3. Khasanova, S. S. D., & Khasanov, A. A. (2023). Theoretical approaches to creation of pedagogical concepts. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 16-22.

4. Abdurashidovich, K. A. (2023). Methodological foundations of understanding the essence of e-learning. theory and analytical aspects of recent research, 2(13), 90-96.

5. Tayirov J.U. A problem-based approach to integral teaching of mathematics // American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 10, | Mar., 2023. ISSN (E): 2832-9791. Page 180-184.

6. Raimovich K. N. The influence of social and spiritual environment in the family on education of son //E Conference World. – 2024. – №. 4. – S. 42-52.

## TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TOMONLARI

**O'roqov Orif Ashirali o'g'li**

TerDU qoshidagi AL Informatika fani o'qituvchisi

[urokovorifinforuzb@gmail.com](mailto:urokovorifinforuzb@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali tomonlari mavzusi to'laqonli yoritib berilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bugungi zamonaviy pedagogik ta'lim tizimida foydalanishning bosqichma-bosqich tizimi haqida ham so'z borgan.*

***Kalit so'zlar:** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter, multimediya, internet, media-texnologiyalar, dars, ta'lim.*

Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirishda va rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan yiliga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 10-12 foizi sarflanadi, bu davlat budjetining 35 foizini tashkil etadi. Bu esa jahon tajribasidagi ko'rsatgich 3 4 foizdan oshmaydi. Ta'lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamon talabiga mos texnik vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, texnologiya, axborot, kompyuter, multimediya, internet, masofali o'qitish, yagona axborot muhiti va shunga o'xshash axborotkommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o'zining samarasini bermoqda.

Avtomatlashtirilgan axborot jamiyatini shakllantirishning global jarayoni inson taraqqiyoti va ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal etish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, bunday imkoniyatdan faqatgina ushbu axborot maydonida kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan jamiyat a'zolarigina foydalana oladilar. Shu o'rinda oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarga axborot madaniyatini va uning mafkuraviy darajasini har tomonlama yaxshilash imkonini berishdir. Ushbu muammoni hal qilishda ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari, fani yo'nalishi muhim rol o'ynaydi.

Shu sababli, axborotkommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter savodxonligi kursining ustuvor muammolarini va uning kelajakdagi istiqbollarini o'rganish va tahlil qilish muhimdir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, elektron kutubxonalar, elektron kitoblar va raqamli audio-video-foto, mobil telefonlar, tezkor xabarlar jo'natish vositalari, IP telefoniya, PDA va kommunikativlar bilan tanishtirish orqali zamonaviy bugungi kun bo'lajak yosh kadrlar tasavvurida 20 yil avval biz axborot vakuumida yashagan ekanligimizni, ijtimoiy, geografik, siyosiy to'siqlardan boshqa hech narsa mavjud bo'lmaganligini hosil qilamiz.

Bugungi kunda ta'lim tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu soha kundalik hayotimizda media-texnologiyalarining o'rnini tobora kengayib

bormoqda. Katta hajmdagi yangi axborotlar, reklamalar, televideniye ko'rsatuvlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ta'lim tarbiyasi ularning atrofdagi voqea-hodisalar to'g'risidagi tasavvurlari, tafakkuri hamda idrokiga katta ta'sir etmoqda.

Ilgari talabalar istalgan mavzuga oid kerakli ma'lumotlarni darslik, ma'lumotnoma adabiyotlar o'qituvchi tomonida fanga oid darsni konspektlashtirish holda egallab kelgan bo'lsa, bugungi kunga kelib asosan televideniye va radio, elektron darsliklar internet tarmoqlaridagi ma'lumotlardan foydalangan holda o'zlashtirmoqda. Shu sababli bugungi kun o'qituvchisi zamonaviy voqelikka to'g'ri yondashgan holda ta'lim jarayoniga axborot uzatishning yangi metodlarini olib kirishi hozirgi kun talabi hisoblanadi. Darsni AKT dan foydalanib, o'tishda o'qituvchi o'z mehnatining ko'p qismini kompyuterga yuklashi mumkin bo'ladi. Bu bilan darsni yanada qiziqarli, rang-barang qilib, mazmunan boyitadi.

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M.V.Bulanova-Toporkova va boshqalar o'qituvchining axborot texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

- 1) zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;
- 2) shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;
- 3) umumiy kommunikativ (o'zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo'lishi;
- 4) axborot vositasida o'zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo'lishi;
- 5) o'zini refleksiylash (o'z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo'lishi;
- 6) axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o'zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o'zlashtirish.

Pedagog-olim V. K. Selevko esa o'qituvchining kompyuter savodxonligini kompyuterli texnologiya mazmunining muhim qismi deb hisoblaydi va uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

- informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilish;
- kompyuterli texnikaning umumiy tuzilishi va funksional imkoniyatlarini bilish;
- zamonaviy operatsion tizimlarni bilish;
- umumiy vazifa bajaradigan zamonaviy dasturning qobiqlar va operatsion vositalarini (Norton Commander, Windows va boshqalarini) bilish hamda ularning vazifalarini o'zlashtirish;
- hech bo'lmaganda bir matn redaktorini o'zlashtirganlik;
- dasturlashtirish algoritmlari, tillari va paketlari haqidagi boshlang'ich tasavvurlarining bo'lishi;
- utilitar (amaliy foyda beradigan) vazifalarini bajaradigan amaliy dasturlaridan foydalanishning boshlang'ich tajribasi.

O'qituvchi o'z vaqtida talabaning bilimini xolisona baholab boradi, ularga noan'anaviy saboq berish usullarini topishga ijodiy yondashadi. Bu esa o'qituvchining kasbiy jihatdan rivojlanishiga asos bo'ladi. Katta hajmdagi axborotlarni har bir talaba qisqa vaqt mobaynida o'zlashtirishi va amaliy faoliyatda foydalana olishni o'rgatish zarur bo'ladi. Shuning uchun ham darsni shunday tashkil etish kerakki, unda har bir talaba o'zini erkin his qilib, faol ishtirok etishi zarur. Har bir dars jarayoniga qiziqish bilan yondashib, mustaqil ijodiy fikrlashi, o'z mehnati samarasini ko'rib, uni baholay olishi kerak.

O'qituvchi axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, dars o'tishga tayyorgarlik ko'rishda bu jiddiy ta'lim dasturiga oid dars materiali ekanligini unutmasligi zarur. Darsni loyihalashtirishda o'qituvchi turli dasturiy mahsulotlardan foydalanadi. Dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda tayyor dasturiy mahsulotlar (ensiklopediya, lug'atlar, ta'limiy dasturlar va shu kabilardan) foydalanishda kompyuterning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Kompyuter



texnologiyasi vositasida dars o'tish barcha fanlardan laboratoriya mashg'ulotlarini, ya'ni yangi mavzularni ko'rgazmali tushuntirish imkoniyatiga ega bo'lib, o'tilgan darslarning materiallarini talaba mustaqil qayta ko'rib chiqishi mumkin.

**Xulosa:** Bugungi kun talabi axborot - kommunikatsiya texnologiyalari hamda internetdan foydalanish faqatgina ta'lim tizimiga kirib kelmasdan shu sohaning barcha bo'g'inlarini boshqarish, tashkil qilish, axborot resurslari bilan ta'minlanayotganligi sababli ish yuritish hujjatlarini tezlik bilan yo'lga qo'yish, moliyaviy tizim va shu kabi ishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli axborot texnologiyalaridan yanada rivojlantirish maqsadida chekka-chekka hududlardagi yoshlar uchun ham ushbu imkoniyatlarni salmog'ini kengaytirish, shu sohadan foydalanish madaniyatini va imkoniyatlarini yaratish, mamlakatimizning barcha sohalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida". "Qishloq hayoti" gazetasi 03.06.05 y.
2. Farberman. B.L. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". T: 2001 y.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie tehnologii i pedagogicheskoe masterstvo. Ucheb.posobie.- Toshkent. TDPU 2003. - 192 s.
4. Ismatilla Isoqov, Sindorqul Ibragimovich Qulmamatov. "Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar". Ma'ruza matnlari.
5. Saidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari.- Toshkent : RTM 2000 yil.
6. Muradova N.K., Majidov R.R., Xayitmatov U.T., Maxmudova B.A. Kasbiy ta'lim uslubiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 360b.
7. Novosardova S.A., Gaynutdinova F.X., Otajonov U.A. Metodika prepodavaniyakursa "Informatika": Uchebnoe posobi e. - T.: TGEU, 2003.
8. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 4. – С. 559-567.
9. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.

#### **UCH O'LCHOVLI GRAFIKLARNI PYTHON DASTURLASH TILIDA HOSIL QILISHNING IMKONIYATLARI**

**Shamsiddinova Maftunabonu Ulug'bek qizi**

Buxoro davlat universiteti "Amaliy matematika" yo'nalishi talabasi  
[shamsidinovamaftuna4@gmail.com](mailto:shamsidinovamaftuna4@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uch o'lchovli grafiklarni zamonaviy dasturlash tillaridan biri bo'lgan Python tili yordamida yaratish jarayoni texnika yo'nalishlari talabalari uchun tushunarli holda bayon etilgan va misollar bilan tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** Muxandislik grafikasi, 3 o'lchovli fazo, Python, NumPy, Axes3D.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

**Аннотация.** В этой статье в доступной форме для студентов технических направлений описан и объяснен процесс создания трехмерной графики с использованием языка Python, одного из современных языков программирования.

**Ключевые слова:** Инженерная графика, Microsoft Excel, 3D-пространство, Python, NumPy, Axes3D.

**Annotation.** This article describes and explains in an accessible form for technical students the process of creating three-dimensional graphics using Python, one of the modern programming languages.

**Keywords:** Engineering graphics, 3D space, Python, NumPy, Axes3D.

**Kirish.** Turli amaliy masalalarda jarayonlar tabiatini o'rganish uchun qurilgan funksiyalarning grafiklarini qurishni o'rganish juda muhim hisoblanadi. Grafik tuzish texnikasida ravonlik ko'pincha jarayondagi muammolarni hal qilishga yordam beradi va ba'zan uni hal qilishning yagona vositasi ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, funksiyalarning grafiklarini qurish qobiliyati ta'lim jarayoni uchun ham ahamiatlidir.

Agar bo'shlang'ich axborot jadvaldagi sonlar yoki funksiyalar orqali berilsa, ularni grafik ko'rinishda tasvirlashning bir qancha imkoniyatlar mavjud. Bu bizga murakkab raqamli ma'lumotlarni tasavvur qilish va tahlil qilishda yordam beradi, tushunish va tushunishni osonlashtiradi.

Grafiklar bizga ularni hosil qiluvchi funksiyalar haqida tasavvurlar hosil qilishda, funktsiya tasvirlayotgan jarayon tabiati haqida ma'lumotni olishga imkon beruvchi yaxshi vosita ekanligidan, bunday grafiklarni yaratishning yangidan yangi dasturiy vositalari yaratilmoqda. Ana shunday kuchli vositalardan biri bu Python dasturlash tilidir [1].

Kompyuter grafikasi sohasida jozibali 3D tasvirlarni yaratish qobiliyati dasturchilar va dizaynerlar uchun asosiy mahoratga aylanmoqda, chunki grafiklar funksiyalarnin asosiy xarakteristikalarini aniqlashda muhim vositadir [2-7].

**Metodika.** Python tilida berilgan funktsiyaning uch o'lchovli grafiginu hosil qilishni ko'raylik. Python, ko'p qirrali dasturlash tili, turli xil ilovalar uchun ko'plab kutubxonalar va vositalarni taklif etadi. Bunday qiziqarli ilovalardan biri 3D tasvirlarni yaratishdir. 3D tasvirlarni yaratishga Python dasturlash tili Matplotlib, Plotly va Mayavi kabi bir nechta kutubxonalarni taqdim etadi, ular 3D yaratish uchun har tomonlama yordam beradi.

Python dasturlash tilida biz **Axes3D** modulidan scatter funktsiyasidan foydalangan holda 3D tarqalish sxemasini yaratish imkonini olamiz. Bizga kerak bo'lgan:

```
import numpy as np
```

```
import matplotlib.pyplot as plt
```

kod Pythonda matplotlib kutubxonasi yordamida 3D syujet yaratish uchun asosiy sozlashdir. Ular asosida 3D ko'rinishni hosil qilamiz. Bu quyidagicha bo'ladi:

```
import numpy as np
```


```
import matplotlib.pyplot as plt
```

```
fig = plt.figure()
```


```
ax = plt.axes(projection='3d')
```

```
plt.show()
```

Dasturimiz natijasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm.



2-rasm.

x, y va z koordinatalari uchun ba'zi namunaviy ma'lumotlarni yaratamiz va keyin ularni scatter funksiyasidan foydalanib chizamiz. Nihoyat, biz har bir o'q uchun teglar va uchastkaning sarlavhasini o'rnatamiz:


```
import matplotlib.pyplot as plt
from mpl_toolkits.mplot3d import Axes3D
fig = plt.figure ()
ax = fig.add_subplot(111, projection='3d')
x = [1, 2, 3, 4, 5]
y = [2, 4, 6, 8, 10]
z = [3, 6, 9, 12, 15]
ax.scatter(x, y, z, color='red', marker='o')
ax.set_xlabel('X-o'qi')
ax.set_ylabel('Y-o'qi')
ax.set_zlabel('Z-o'qi')
ax.set_title('3 o'lchamli fazo')
plt.show ()
```

Dasturimiz natijasi 2-rasmda ko'rsatilgan.

Endi esa, NumPy va Matplotlib yordamida  $z = \sin(x) * \cos(y)$  funksiyasining 3D sirt grafigini yaratib ko'ramiz. X va Y qiymatlarini ixtiyoriy ravishda olib, chizmamiz chiroyli chiqishi uchun "plasma" funksiyasiga murojaat qilamiz:

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
from mpl_toolkits import mplot3d
ax=plt.axes (projection='3d')
x=np.arange (-5,5,0.1)
y=np.arange (-5,5,0.1)
X,Y=no.meshgrid (x,y)
Z=np.sin (X)*np.cos (Y)
ax.plot_surface (X,Y,Z, cmap="plasma")
plt.show ()
```

Dastur natijasi 3-rasmda ko'rsatilgan.



3-rasm.

### **Xulosa.**

Shunday qilib, Python dasturlash tilining diagramma yaratish imkoniyatlaridan foydalanib, uning formatlash va moslashtirish imkoniyatlarini o'rganib chiqib, ulardan amaliy masalalarda uchraydigan jarayonlar grafiklarini hosil qilishda foydalanish mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Райтман М.А. Обработка данных на Python// БХВ, 2024. 432 с.
2. Жумаев Ж., Опокина Н.А. Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и MathCAD. Электронное учебное пособие. Казань: КФУ, 2021. – 228 с. <https://dspace.kpfu.ru/xmlui/handle/net/163784>
3. Jumayev J. Ikkinchi tartibli chiziqlar mavzusini mathcad matematik paketi yordamida o'qitish // Педагогик махорат. Махсус сон. 2021 йил декабрь.26-32 бетлар. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4175](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4175)
4. Jumayev J. Transport masalasini MathCAD tizimida yechish// BuxDU ilmiy axboroti, 2022, № 6, 27-31 betlar. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8701](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8701)
5. Jumayev J., Shamsiddinova M.U. Aniq integral mavzusini o'qitishda python grafik imkoniyatlaridan foydalanish// Pedagogik mahorat, 2023, № 9, 240-245 b. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Ej9NBzMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Ej9NBzMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ej9NBzMAAAAJ&citation_for_view=Ej9NBzMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C)
6. Jumayev J., Shamsiddinova M.U. Aslonov U.Sh. Muxandislik chizmalari bilan ishlashda Python imkoniyatlaridan foydalanish // “Sanoat injiniringida innovatsion yechimlar” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro, 2023 yil, 24-25 noyabr. 352-353 betlar. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/11208](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11208)
7. Жумаев Ж. Математические системы. Учебное пособие. Бухара. «Дурдона», 2021. 272 с. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13227\\_2\\_2.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13227_2_2.pdf)

**PROFESSIONAL TA'LIMIDA RAQAMLI TA'LIM MUHITIDAN  
FOYDALANISH**

**Xasanov Abdushohid Abdurashidovich**

Fan va texnologiyalar universiteti "Aniq fanlar"

kafedra mudiri p.f.b.f.d., (PhD), dotsent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada professional ta'limda raqamli ta'lim muhitidan foydalanish mexanizmlari va o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Professional ta'lim, raqamli ta'lim, mexanizmlar, kasbiy faoliyat, intellektual, raqamli muhit, texnologiyalar, sifat.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о механизмах использования цифровой образовательной среды в профессиональном образовании и подготовке ее студентов к профессиональной деятельности.

**Ключевые слова.** Профессиональное образование, цифровое образование, механизмы, профессиональная деятельность, интеллектуальная, цифровая среда, технологии, качество.

**Annotation.** This article provides information on the mechanisms of using the digital educational environment in vocational education and training its students for professional activity.

**Keywords.** Professional education, digital education, mechanisms, professional activity, intellectual, digital environment, technology, quality.

Raqamlashtirish mamlakatning innovatsion iqtisodiyotini shakllantirish jarayonining asosiy atributi sifatida milliy iqtisodiyotning barcha segmentlariga jadal kirib bormoqda va alohida korxonalar va umuman tarmoqlarni boshqarish masalalariga, shuningdek tayyor mahsulot ishlab chiqarishni belgilaydigan texnologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatmoqda [1, 2].

Bugungi kunda O'zbekiston respublikasida ilg'or raqamli iqtisodiyotni yaratish doktrinasini amalga oshirish nafaqat ijodiy fikrlash va o'zlarining kasbiy faoliyatida intellektual va ijodiy salohiyatini maksimal darajada oshirishga, balki raqamli makonda samarali ishlashga, ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qodir mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Barcha iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining yaqin ta'siri va o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, raqamli savodxonlik nafaqat professional o'zini o'zi anglash nuqtai nazaridan, balki kundalik hayot uchun ham talab qilinadi va ularning ehtiyojlarini sifatli qondirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Raqamli muhitda professional ta'lim o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, professional ta'limini raqamli ta'limga modernizatsiya qilish har tomonlama ilmiy tadqiqotlar asosida va bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan psixologik-pedagogik jarayonlarni hisobga olgan holda uning ijobiy salohiyatini hisobga olishi va maksimal darajada oshirishi kerak. Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish va kengaytirishda haddan tashqari holatlardan qochish, raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali ta'lim sifatini va manfaatdor tomonlarning qoniqish darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash kerak.

Professional ta'limini takomillashtirish vazifasi iqtisodiyotning real sektorida talab qilinadigan kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va har bir o'quvchi shaxsining umumiy intellektual va ma'naviy rivojlanishi sharoitida alohida ahamiyatga

ega [3, 4]. Raqamli makonda ijodiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan raqobatbardosh professional xodimlari rivojlanayotgan innovatsion iqtisodiyotning asosiy inson kapitaliga aylanadi.

Professional ta'limi sifatini uni raqamlashtirish orqali yaxshilash muammosini hal qilish resurslardan – moliyaviy, vaqtinchalik va mehnatdan cheklangan foydalanish sharoitida amalga oshiriladi, shuning uchun yaqin kelajakda professional ta'limiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning strategik muhim yo'nalishlarini aniqlash kerak. Ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari, psixologik-pedagogik tadqiqotlarning so'nggi yutuqlari va hukumatning iqtisodiyotni raqamlashtirish sohasidagi siyosati tahlili asosida bunday sohalarga quyidagilar kiradi:

- har qanday ta'lim muassasalari o'quvchilari ustuvor yo'nalishlardagi so'nggi ilmiy yutuqlarni aks ettiruvchi yuqori uslubiy darajada ishlab chiqilgan ta'lim resurslaridan foydalana oladigan yagona milliy ta'lim makonini yaratish;

- texnologiya va mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalarini hisobga oladigan malaka oshirish tizimini yaratish;

- o'quvchilarga professional ta'limi uchun moslashuvchan boshqaruv tizimini joriy etish asosida tarkib nuqtai nazaridan individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatini berish [5];

Молиялаштириш тармоқли виртуал кластерли ўзаро ҳамкорлик моделини амалга оширишнинг муҳим таркибий қисми ҳисобланади, чунки лойиҳа муваффақиятли бўлиши учун уни ўз вақтида молиялаштиришни таъминлаш зарур. Асосий инвесторлар давлат ва хусусий сектор ҳисобланади. Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги

<sup>8</sup> Зуфарова Н.Г. Олий таълимнинг бренд капитали – ташкилотнинг номоддий активи сифатида. Журнал «Логика ва иқтисод» 2022 йил №1 сон.-Б.158.

томонидан 2021 йил давомида таълим соҳасида 6 та давлат-хусусий шериклик лойиҳалари устида ишлар олиб борилди<sup>9</sup>.

Ўзбекистон Республикасида хусусий молиялаштириш тизими ривожланиб бораётган бўлишига қарамай, давлатнинг роли муҳим бўлиб қолмоқда. Бу кўп жиҳатдан нафақат инновацион лойиҳаларни молиялаштиришнинг юқори хатарлари билан боғлиқ, балки хусусий компанияларнинг мотивациясини етарли даражада эмаслиги билан ҳам боғлиқ.

Давлат томонидан қўллаб-қувватлаш инструментлари орасида биз давлат грантларни молиялаштиришни, давлатнинг катта ҳиссаси бўлган Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги иш фаолиятини таъкидлаб ўтамиз. Хусусий инвесторлар-хусусий венчур фондлари, бизнес фаришталарни молиялаштириш. Шундай қилиб, инновацияларнинг мақсадга мувофиқлиги жамиятнинг инновацион салоҳиятини ривожлантириш, шунингдек, олий таълим ва ҳар бир ОТМ учун алоҳида ижтимоий-иқтисодий аҳамиятга эга. Инновацияларнинг бошқарувчанлиги – белгиланган мақсадлар ва вазибаларга эришиш қобилиятини англатади<sup>10</sup>.

Бизнес ҳамжамиятлари инновацион маҳсулотларга буюртмани шакллантирадilar, инновацион лойиҳаларни молиялаштиришда иштирок этадилар, инновацияларни тижоратлаштиришга ёрдам беради. Корхоналар ва университетларнинг тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлик алоқаларини ҳисобга олиб, мутахассисларни мақсадли ўқитиш, бизнес томонидан талабаларнинг амалиёти ва диплом лойиҳалари учун тўлақонли базани яратиш, иш берувчиларнинг БМИни ҳимоя қилиш комиссияларида иштирок этиши ва бошқалар каби шаклларга кўпроқ қизиқиш билдиради. Шу билан бирга, ушбу тадқиқотларга кўра, корхоналарнинг илмий тадқиқот соҳасидаги ҳамкорликга қизиқиши юқори даражада эмас. Бу ҳолат корхоналарнинг инновацион фаоллигини умумий пасайиши ва илм-фан соҳасидаги университетлар ва корхоналар ўртасидаги ҳамкорлик жараёнини мувофиқлаштиришнинг етарли эмаслиги билан боғлиқ эканлигини кўрсатади<sup>11</sup>.

Ҳамкор университетлар ресурсларни инновацияга генерациясига йўналтиришда саъй-ҳаракатларни бирлаштиради ва охир-оқибатда жамлаш ва қайта тақсимлаш натижасида инновацияларни келтириб чиқарадиган билим, кўникма ва қобилиятларни айирбошлашади. Таълимни тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлигида муҳим ўринни ҳамкор университетлар билан ўзаро ҳамкорлик алоҳида аҳамиятга эга. Кўпинча жуда бир-бирига яқин илмий мактаблар турли минтақаларда ёки бир минтақада, аммо турли университетларда шаклланади. Улар ўртасида яхши ташкил этилган ўзаро ҳамкорлик тизими синергетик самара олиш имконини беради. Университетларда лойиҳалар бўйича ҳамкорлик фаолиятидаги ишларига асосан грантлар орқали молиялаштириш тизими тўсқинлик қилади, чунки битта иштирокчи университет орқали молиялаштиришни таъминлайди, бу эса қолганларнинг иштирокини фойдасиз қилади. Лойиҳа

<sup>9</sup> Юлдошев У.А. Мамлакатимиз иқтисодиётида давлат-хусусий шерикчиликнинг ўрни ва аҳамияти. Журнал. Иқтисодиёт ва таълим . 2022 йил № 2. – 384. Бет.

<sup>10</sup> Бузрукхонов С.М. Олий таълимни инновацион ривожлантиришни молиялаштириш механизми ва инновацияларни инвестицион жозибдорлигини баҳолашнинг услубий ёндашувлари. Журнал «Логика ва иқтисод» 2021 йил №1 сон.-Б.92.

<sup>11</sup> Касимова Д.М. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимининг сифатли ривожланиши ишчиларнинг меҳнат фаолияти интеллектуализациясининг муҳим кўрсаткичи сифатида. Журнал. “Иқтисод ва таълим” 2021 йил №3 сон. –Б. 201.

иштирокчилари ўртасида функцияларни ва даромадларни тақсимлаш нуқтаи назаридан кўшма ишларни ташкил этиш масалалари етарли даражада ишлаб чиқилмаган. Ушбу моделда давлат ҳокимиятларига тартибга солувчи функциялар, тармоқли ҳамкорлик алоқаларига имкон берадиган қонунчилик ва норматив ҳужжатларни ишлаб чиқиш юклатилган. Бундан ташқари, давлат ҳокимият органлари инновацион лойиҳаларни молиялаштиришда иштирок этиш орқали молиявий ёрдам кўрсатиши мумкин.

## **АНДРАГОГИКА ТАЪЛИМИ ВА ҲАЁТ ДАВОМИДА ЎҚИШ ТАМОЙИЛИ**

**Ўзбекистон Республикаси ИИВ  
п.ф.б.ф.д (PhD) О.Б. Маллаева**

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонунининг 13-моддасида “Кадрлар малакасини ошириш касбий билим, малака ва кўникмаларнинг чуқурлаштирилиши ҳамда янгилаб борилишини таъминлайди, кадрларнинг тоифаси, даражаси, разряди ва лавозими ошишига хизмат қилади” [2], дея белгиланган. Мазкур ҳуқуқий ҳужжатлар мамлакатимизда катта ёшли авлод фаолияти билан боғлиқ таълимнинг ҳуқуқий ва ижтимоий асослари яратилганидан далолат беради.

Жаҳон тажрибасига эътибор қаратадиган бўлсак, жаҳонда андрагогика таълими ва уларни узлуксиз касбий ривожлантириш асослари ХХ асрнинг бошларида шаклланиганини кўриш мумкин. Жумладан, АҚШда андрагогика таълими ва уларни узлуксиз касбий ривожлантириш ҳақида Э.Линдерман ўзининг 1926 йилда нашр эттирган «Андрагогика учун таълимнинг аҳамияти» асарида “таълим бу ҳаёт ва бутун ҳаёт ўрганишдан иборат, шунинг учун таълим олишнинг чегараси йўқ” [61; 378-б.], деган фикрни илгани сурган. Буюк Британияда эса, 1929 йил нашр этилган В.Яхлейнинг «Ҳаёт давомида таълим» китобида андрагогика таълими ва узлуксиз касбий таълим олиш масалалари келтириб ўтилган.

Педагогика бўйича назариётчи олим П.Лангранд томонидан 1965 йилда ЮНЕСКОга тақдим этилган маълумотларда таъкидланишича, “Узлуксиз таълимнинг таклиф қилинган талқини инсонпарварлик ғоясини ўзида мужассам этади: у барча таълим принципларининг марказида инсоннинг қобилияти бутун ҳаёти давомида ривожланиши учун шароит яратиши керак” [62], деган ғоя илгари сурилади.

ЮНЕСКО томонидан 1984 йилда ишлаб чиқилган “Узлуксиз касбий ривожлантириш” концепциясида ҳам андрагогика таълими ва уларни узлуксиз касбий ривожланиш ҳақида “таълим тизимида ёки ундан ташқарида ҳаётнинг турли даврларида рўй берадиган, бир-бирини тўлдирадиган, билим олишга, шахс қобилиятларини ривожлантиришга, шу жумладан, ўрганиш ва касбий вазифаларни бажаришга тайёрлашга қаратилган онгли ҳаракатлар йиғиндиси” [115; 272-б.] дея таъриф берилган. “Гамбург катта ёшлилар таълими тўғрисидаги декларация” [111] да эса ушбу тушунча ҳақида: “Катта ёшдагилар таълими” расмий ёки бошқача шаклдаги таълимнинг олға интилувчан жараёнлари бутун мажмуи (комплекс)ни ўз ичига олиб, унинг ёрдамида ўзлари тегишли бўлган жамият нуқтаи назарида катта ёшдагилар қаторига тан олинган одамлар ўзларининг қобилиятларини ривожлантирадиган, ўз билимларини бойитадилар ҳамда техник ва касб-ҳунар малакаларини такомиллаштирадиган ёки улардан ўз эҳтиёжларини ва жамият эҳтиёжларини қондириш учун янги йўналишда фойдаланадилар. Катта ёшдагилар таълими ҳам расмий таълимни, ҳам узлуксиз илм олишни, норасмий ўқитишни

хамда норасмий ва кўшимча (ёрдамчи) таълимнинг бутун доирасини қамраб олади [111], дейилган.

Жаҳон тажрибасида нафақат андрагогика таълими ва уларни узлуксиз касбий ривожланиш тушунчаси чуқур таҳлил этилганини ва айни вақтда ушбу йўналишда кўплаб амалий ишлар қилинганини кўриш мумкин. Жумладан, бугунги кунда жаҳон тажрибасига кўра, андрагогика таълими ва уларни узлуксиз касбий ривожланиш муассасалари маълумот даражаси ва ёшидан қатъий назар касбий маҳоратни оширишга кўмаклашувчи муассаса ҳисобланади.

Жаҳонда биринчи андрагогика таълими ва уларни узлуксиз касбий ривожланиш муассасаси 1844 йилда Данияда Н.Ф.Грундтвиг томонидан ташкил қилинган. XIX асрнинг 40-70 йилларида бундай турдаги ўқув муассасалари Скандинавия мамлакатларида, Германия ва Финляндияда пайдо бўлган. Кейинчалик андрагогика таълими ва уларни узлуксиз касбий ривожланиш муассасалари Англияда ҳам ривож топган, жумладан, 1870 йилда Кембриж университети қошида Очиқ университет ташкил қилинган. Бу ерда университет профессорлари маърузалар ўқишган ва машғулотлар олиб боришган [102; 17-б.].

Андрагогика таълими ва уларнинг узлуксиз касбий ривожланиш муассасалари ривожланиб бориши натижасида улар минтақавий характер ҳам касб этиб борган. Жумладан, Европада Европа Катта ёшдагилар таълим уюшмаси (European Association for the Education of Adults – ЕАЕА) 1953 йилда Европада катта ёшдагиларнинг норасмий таълимини кўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш учун нотижорат жамоат ташкилоти сифатида ташкил қилинган. ЕАЕА – бу жами 34 та мамлакатдан юздан ортиқ аъзолик ташкилотларини ўзида бирлаштирувчи, катта ёшдагилар таълими соҳасида фаолият юритувчи ва бутун Европа бўйича 50 миллион нафардан зиёд катта ёшли ҳам эркак, ҳам аёл ўқувчиларнинг манфаатларини ҳимоя қилувчи Европа жамоат ташкилотидан иборат [113].

Австралияда ҳам андрагогика таълими ва уларни узлуксиз касбий ривожланиш муассасаси ASPBAE – 1964 йилда Сиднейда ташкил этилган. Ҳозирги вақтда ASPBAE ҳам минтақавий характер ҳам касб этиб, унинг таркиби 200 дан ортиқ ташкилот ва жисмоний шахсни ўз ичига олади. Унинг иш фаолияти барча учун таълим сифатини оширишга, таълимни трансформациялаш ва либерализация қилишга ва катта ёшлиларнинг бутун умр мобайнида ўқиб-ўрганиши (таълими)га қаратилган. ASPBAE ҳукумат ва халқаро донор ташкилотлари томонидан таълим соҳасидаги мажбуриятларнинг бажарилиши жараёнида кўпроқ ҳисобдорликни таъминлаш учун таълим бўйича маҳаллий жамоатлар ва ташкилотлар, миллий уюшмаларни, ўқитувчилар касба уюшмаларини, компания тармоқларини ва бошқа фуқаролик жамияти институтларини кўллаб-қувватлаш бўйича Осиё ва Жанубий-Тинч океани минтақаси ҳаракатини кучайтиришга интилади [114].

Германияда биринчи андрагогика таълими ва узлуксиз касбий ривожланиш муассасаси 1902 йилда Берлин Эркин институти томонидан ташкил қилинган. Бугунги кунда ушбу муассаса жамоатчилик қайта тайёрлаш марказларини ўзида ифодалайди. Ҳозирги вақтда Германия Федератив Республикасида тахминан 940 та Халқ Университетлари фаолият юритмоқда ([www.vhs.de](http://www.vhs.de)), улар бутун мамлакат бўйича “уйга яқинлаштирилган таълим” тамойили асосида фаолият юритувчи 3237 тага яқин филиалга эгадир [109].

Андрогагика таълими ва уларнинг узлуксиз касбий ривожланиши масаласида хориж мамлакатларининг ўзига хос томонларидан бири шуки, уларда таълим тизими ходимларининг малакасини ошириши давлат томонидан марказлаштирилган ва монополиялашган ҳолда ташкил этилмайди. Жумладан, Германияда таълим тизими раҳбар ходимларининг касбий ривожланишини ташкил этиш билан черков, банклар, нашриётлар ҳам шуғулланади. Бу эса, мазкур мамлакатда малака ошириш тизимининг жамоат-давлат тавсифига эга эканлигини кўрсатади [73].

Дарҳақиқат, Германияда, айнан УЎТ тизими педагоглари малакасини ошириш жараёнида ҳеч қандай марказлаштириш мавжуд эмас. Ушбу мамлакатда малака ошириш жараёни педагогларда эҳтиёж вужудга келгандагина уларнинг фаолиятига кириб боради. Бу жараёнда коучинг (англ. coaching) каби усуллардан фойдаланилади. “Коучинг - маслаҳат ва тренинг усули бўлиб, унда коуч (мураббий) деб номланган шахс тингловчининг маълум бир ҳаётий ёки касбий мақсадга эришишига ёрдам беради. Коучинг тренингдан фарқли ўларок, умумий ривожланиш ўрнига аниқ белгиланган мақсадларга эришишга қаратилади” [78].

Албатта, Германияда малака ошириш соҳасида марказлаштириш ва монополиянинг мавжуд эмаслиги айрим муаммоларни ҳам келтириб чиқаради. Жумладан, ушбу мамлакатда педагог ходимлар томонидан малака оширишни хоҳламаслик тенденцияси кўп кузатилади. Тадқиқотчилар томонидан малака оширишни хоҳламаслик сабаблари ўрганилганда: гуруҳ тўлгани сабабли курс тайёргарлигига рухсат берилмагани (бу сабабни аёллардан 34 фоизи ва эркакларнинг 42 фоизи кўрсатган), оилавий шароит туфайли ўз оиласидан узоқлашишнинг имконияти йўқлиги (33 фоиз ва 14 фоиз), узоқ муддатга кетган раҳбар ёки ўқитувчини алмаштириш имкони йўқлиги (18 фоиз ва 26 фоиз), ўқитувчини алмаштириши лозим бўлган ҳамкасбларининг ҳаддан зиёд бандлиги (25 фоиз ва 21,5 фоиз). Бундан ташқари, ҳаддан зиёд касбий ва шахсий бандлик, қизиқарли таклифларнинг йўқлиги, ўз ҳисобидан малака оширишни истамаслик, масофа узоқлиги, малака оширишнинг бошқача шакл ва методларда ўтказилиши, малака оширишга алоҳида эҳтиёж йўқлиги, малака ошириш муддатларининг ноқулайлиги [92; 732-б.] кабилар аниқланган.

Ҳозирги кунда малака оширишга тўсқинлик қилувчи мазкур омиллар бўлишига қарамай, улар педагог ходимлар иш фаолияти ва малакасига салбий таъсир кўрсатмаган. Чунки, ушбу ҳолат Германия таълимида педагог ходимлар томонидан таълимий эҳтиёжлар онгли равишда англаниши ҳамда ўз компетентлиги устида коучинг хизматлари ва мустақил тарзда мунтазам шуғулланиши орқали бартараф этиб келинади.

Мамлакатимиз тарихида андрогагика таълими ва уларнинг узлуксиз касбий ривожланиши масалалари 1920 йилларга бориб тақалади. Жумладан, мамлакатимизда “1920-1921 ўқув йилида Алмоий номли таянч намуна мактаби қошида илк бор ўқитувчилар малакасини ошириш ёзги курслари ташкил этил [75; 6-б.] гани тадқиқотлардан маълум. Ундан ташқари 1922 йили собиқ Туркистон Республикаси Халқ Маорифи Комиссариати К.Либкнехт номли педагогика техникуми қошида малака ошириш ишлари билан шуғулланувчи махсус услубий марказ ташкил этиш тўғрисида қарор қабул қилгани” [52; 96-б.] ҳам шулар жумласидир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-



сон фармони – Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.04.2019 й., 06/19/5712/3034-сон.

2. 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон фармон Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 711.2020 й., 06/19/5712/3034-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 25 январдаги “Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини кўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4963-сон қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.2021 й., 07/21/4963/0064-сон.

4. Ибрагимов А.А. Халқ таълими ходимлари малакасини ошириш тизимини кўп векторли ёндашув асосида такомиллаштириш. Педагогика фан. фал док. ... Дис. - Т.:

5. Раджиев А. Малака оширишда “ҳаёт давомида ўқиш” тамойили амал қилади. <https://yuz.uz/news/malaka-oshirishda-hayot-davomida-oqish-tamoyili-amal-qiladi> (мурожаат қилинган сана: 22.12.2020).

6. Асқаров А.Д. Халқ таълими ходимлари малакасини масофадан ошириш тизимини такомиллаштириш. Педагогика фан. фал док. ... Дис. - Т.: 2017. – 52 б.

7. Раҳманкулова Н. Халқ таълими тизимида узлуксиз малака ошириш жараёнларини ташкил этиш масалалари. “Таълимда менежментнинг долзарб масалалари” мавзусидаги Республика илмий конференция тўплами. Тошкент, 2019 йил 17 май. 11-13 б.

8. Renton, Jane. Coaching and Mentoring: What They Are and How to Make the Most of Them. — New York: Bloomberg Press, 2009.— ISBN 9781576603307

9. Свинин Е.В. Необходимость и случайность как выражение закономерностей правовой действительности. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Владимир 2006 –27 с.

## THE ROLE OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE UPBRINGING OF A BOY

**Khojikulov Naimjon Raimovich**

Dean of the Faculty of Finance of the  
University of Science and technology

**Navruzova Dilnoza Farhd qizi**

2nd year student of the University of Science and technology

***Abstract.** In this article, the level of education given to young people in educational institutions and how they are accepted by young people, a number of reforms carried out in the education system in our country today, the socialization of boys into society, and the role of educational institutions in creating their future life activities are highlighted given.*

***Key words:** education, upbringing, youth, family, “popular culture”, games, son, values.*

Today, the place and role of educational institutions as a socializing institution is of particular importance. An important factor is the level of education given to young people in these institutions and how young people accept it. Today, the education system in our country is regulated by a number of legal norms, which is aimed primarily at the task of not only getting a mature education of the young generation, but also their perfect upbringing.

It should be recognized that the role of general secondary education institutions is incomparable in the socialization of boys into society and in creating their future life activities.

At this stage, young people's interest in life, scientific creativity, a specific field, becoming professional personnel, etc. changes. The exact concretization of a boy's self-determination process also depends on his activities in general secondary educational institutions. Boys spend the "transitional period" of their lives in these educational institutions. That is why it is an urgent issue today to strengthen and intensify attention to youth in this period of education, which is considered an important link in the formation of future great youth.

The pure appearance of the people is reflected in the children. When nationality dies in children, it marks the beginning of the death of the nation. The more nationalism is preserved in education, the stronger culture and spiritual wealth this nation has [1]. As Abdullah Awlani has shown, school education is a small part of the education of the whole nation. In his opinion, only national education is a living organ in the historical process of national development. If you do not rely on age-old traditions, you cannot modernize school work either. Ignoring these traditions destroyed democracy in the educational system [2]. Taking this into account, the general secondary education concept of Uzbekistan also provides for the consideration of ethno-psychological characteristics and the national integrity of spiritual and moral foundations in the restoration and development of the cultural heritage of the Uzbek people.

A number of factors influence the effective performance of boys in the general secondary education system:

firstly, the environment in the educational institution, the activities of the institution's management, in particular, the personal characteristics of the institution's leaders, are of great importance in the future activities of the educational institution and the young people studying in it;

secondly, the level of teaching of teachers is important, in which the teachers' teaching based on new pedagogical technologies, popular and interesting, can arouse students' interest in a certain field of science or profession and change their previous opinions;

and thirdly, the level of boys' 'groups' in and out of class and the environment between them. Children's friends and partners outside of class, their level of education and interaction indicators are of great importance in this.

Today, according to many teachers, in schools, boys are losing determination, single-mindedness and bravery characteristic of young men. The main reasons for this can be seen in the family environment and the decrease of male teachers in schools. The lack of male teachers in schools has a negative impact on the educational processes of boys. That is why the Ministry of Public Education has established a number of measures. In particular, it is planned to attract male leaders to the leadership of the school and pay them additional allowances.

It is known that the following factors can be used in the spiritual and moral education of young people: 1) verbal education; 2) training in socially useful work; 3) education by example; 4) education through the situation; 5) education through games; 6) education through communication; 7) education through relationship [3];

In order to study and analyze the role of educational institutions in the upbringing of boys, questionnaires were conducted in 9-10-11 classes of 15, 27, 47 general secondary schools in Karakol district of Bukhara region and 169 general education schools in Shaikhontohur district of Tashkent city. In order to find out how teenagers organize their free time: "How to use free time?" - when asked the question, they answered as follows: I play sports, I participate in a sports club (19.4%); I help my parents (19.1%); I am busy with housework (8.5%), I read books and help my parents (4.2%); I attend a club (2.7%); I draw (2.3%); I prepare a lesson (3.6%); I read books (18.7%); I watch TV (4.9%); I am going to learn a language (3.1%); I learn computer

(4.6%); I go to my relatives' house (2.5%); I don't have free time (0.2%). Adolescent boys from rural schools indicated more answers to helping with homework, preparing lessons, and reading books, while boys from urban schools indicated language learning, computer learning, and reading.

"What do you think a teenage boy should do to be healthy and brave?" answered the question as follows: it is necessary to do sports and read more books (28.5%); it is necessary to do sports only (37.4%); should eat well and participate in clubs (5.9%); should study well (4.9%); should do physical education in the morning (1.8%); one should not smoke or drink harmful substances (1.6%); must be physically and mentally strong (2.7%). Most teenage boys understand that they need to play sports to avoid being beaten up by others. In fact, playing sports isn't just about being healthy or brave, it's about being mature in every way [4].

"Who has the most influence on your upbringing?" the answers to the question are as follows: my parents (35.8%); more my father (13.7%); more mother (20.6%); teacher (6.5%); grandparents (4.8%); brother (4%); teacher and parents (14.6%). The answers of teenage boys show that their upbringing is influenced more by their mothers than by their fathers. All the virtues of the mother are gone, and the fathers are neglected. Therefore, it is desirable to strengthen the role of fathers in raising more boys.

"What kind of family head do you want to be in the future?" the answers to the question are as follows: I want to be a good and loving father (35.8%); I will work well in the future and take care of my parents (5.6%); I want to be an exemplary head of the family (4.3%); I will be the head of the family like my father (4.6%); the head of the family who gives good education to his children (8.4%); I want to be the head of a big family (2.3%); I will be a disciplined head of the family (4.8%). It can be seen from the given answers that boys predetermine what kind of family head they will be in the future.

"Which subjects do you think will teach boys about family, parenting, and child rearing?" the answers to the question are as follows: literature, history, education (42.7%); classroom hours (19.2%); education, work (18.2%); literature and education (19.9%).

According to the conducted studies, urban schools have more opportunities than rural schools, and in rural areas, children spend most of their time on household chores. In the answers given by the class leaders, it was said that students of rural schools should be hardworking and respect adults and children, should not fight inappropriately, and should wear school uniforms. In urban schools, they reported being with others, having their own opinions, being more interested in learning languages, and being a little more stubborn. From the results of the survey, it can be seen that adolescent boys in schools are interested in independent life, effective use of free time, courage, family, fatherly duties and responsibilities, man's duties in front of the family, physical training, strengthening will, realizing future goals, not getting into difficult life situations, There are insufficient ideas and levels of knowledge regarding issues such as various harmful habits and ways to prevent them [5].

Today, 70% of boys, when talking about their interests and hobbies, mention their interest in computer technology and the Internet in the first place, along with sports, talking with friends, and cultural recreation. Through social sites available on the Internet today, children are getting in touch with their peers in all areas. The saddest thing is that these social sites have the ability to control young people by drawing them into their trap. Such relationships are often just a matter of having a good time and giving in to excessive excitement. In this case, young people unfortunately realize too late that, along with wasting their time, it is harmful both financially and health-wise. Currently, among boys, there are few vices such as drinking and smoking,

unfortunately. According to research, 82% of young people in Uzbekistan said that they do not drink alcohol at all.

In particular, most of the republic's youth (98.2%) noted that they have never tried drugs. Attitudes toward smoking have also been identified in research. In particular, the majority of young people (81.5%) have never smoked or do not smoke, 6.2% have tried but have not switched to smoking, 4.1% have smoked but have quit [6].

Today, under the influence of globalization and mass culture, transformational processes in the education of boys are being observed in schools. As a result of the introduction of Western ideals, new methods and styles, cinema, music and other forms of culture, the culture of interaction is being undermined. In particular, it is one of the aspects that can cast a shadow on our national culture. Not only young people, but also older men are repeating cases of "kissing each other". Under the guise of "popular culture" and "modern fashion", clothes of inappropriate design styles, which are introduced as a result of the influence of various means, are becoming a tradition among some young men. In this regard, life itself shows that it is necessary to intensify propaganda work among young people.

#### References

1. Волков Г.Н., Баубекова Г.Д. Этнопедагогика. – Т.: Фан., 2000.
2. Ubaydullayeva B. O'zbeklarning yosh avlod tarbiyasi borasidagi an'analari va zamonaviylik. – T.: Yangi nashr, 2010.
3. Inomova M.O. Oilada bolalarning axloqiy tarbiyasi. – T., 2000.
4. Raimovich K. N. The influence of social and spiritual environment in the family on education of son //E Conference World. – 2024. – №. 4. – С. 42-52.
5. Ubaydullayeva R., Otamirzayev O., Qayumov O., Quronov M. O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy qiyofasi (sotsiologik tadqiqot). Toshkent "Adabiyot uchqunlari", 2014.
6. Musurmonova O. T. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish - fuqarolik jamiyatini barpo etish omili. T.: "Kvinta print" 2011.

#### RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MATEMATIKANI O'QITISH

*Musayev Sardor Xabibulla o'g'li*

*Fan va texnologiyalar universiteti*

*Aniq fanlar kafedrasi o'qituvchisi.*

*[sardormusayev1999@gmail.com](mailto:sardormusayev1999@gmail.com)*

**Isroilov Sarkor Baxtiyor o'g'li**

**Mirzayev Abdufattoh Fayzullayevich**

**Muhamadaliyev Davrbek Doniyorjon o'g'li**

*Fan va texnologiyalar universiteti*

*Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti 2-bosqich sirtqi talabalari*

***Annotatsiya.** Maqolada hozirgi kundagi zamonaviy axborot vositalari yordamida matematikani o'qitish usullari. Turli mavzularga turli xil texnologiyalar orqali yondashish orqali talabalarga mavzuni yetkazib berishdan iboratdir.*

***Kalit so'zlar:** Raqamli axborot texnologiyalar, geogebra, mathdf, khanacademy, symbolab, suniy intellect.*

**Abstract.** *In the article, methods of teaching mathematics with the help of modern media are presented. It is about delivering the subject to the students by approaching different topics through different technologies.*

**Key words:** *Digital information technologies, geogebra, mathdf, khanacademy, symbolab, artificial intelligence.*

**Аннотация.** *В статье представлены методы обучения математике с помощью современных средств массовой информации. Речь идет о донесении предмета до студентов, подходя к разным темам с помощью разных технологий.*

**Ключевые слова:** *Цифровые информационные технологии, геогеография, mathdf, ханакадемия, символаб, искусственный интеллект.*

Hozirgi kunda informatika va matematika darslarida kompyuterdan foydalanish yaxshi samara bermoqda. Maktab davridan kompyuterdan unumli faydalana olish, ko'p jihatdan hozirgi o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy tayyorgarligi muvaffaqiyatini belgilaydi. Kompyuter, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi elektron vositachiga aylanadi. Demak, matematika o'qituvchisi oldida yangi muammolar paydo bo'ladi, u yangi texnikalarni o'zlashtirishi va zamonaviy axborot o'quv muhitidan foydalanish asosida yangi o'qitish usullarini ishlab chiqqish kerak bo'ladi. Darsda axborot texnologiyalaridan foydalanish qiyin va mas'uliyatli masaladir, chunki u darsni o'tkazishning mavjud texnologiyasiga bogliq va darsda o'quv vaqtidan samarali foydalanishi kompyuter uskunolari va dasturiy ta'minoti bilan bog'liq.

Raqamli ta'lim resurslari sifatida raqamli fotosuratlar, videokliplar, statik va dinamik modellar, virtual haqiqat va interaktiv modellashtirish ob'ektlari, ovozli yozuvlar, ramziy ob'ektlar va biznes grafikalar, matnli hujjatlar va boshqa o'quv materiallari o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'ladi. Informatika va Matematikani o'qitish jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan turli shakllarda foydalanish mumkin: taqdimotlar; tayyor o'quv va ko'rgazmali dasturlar; loyiha faoliyati; tadqiqot faoliyati; darsdan tashqari mashg'ulotlar.

Darsda kompyuterdan mohirona foydalanish orqali o'qituvchi katta hajmli ma'lumotlarni qiziqarli va ko'rgazmali tarzda taqdim eta oladi. Kompyuterdan foydalangan holda darslarda o'quvchilarning kayfiyati ko'tariladi, fanga qiziqishi ortadi, diqqati jamlanadi. Raqamli tarkibli darslarni o'qitishda o'qituvchi ko'plab qo'shimcha materiallarni qamrab olishi mumkin. Talabalarning o'zlari informatika darslarida taqdimotlarni ishlab chiqishda ishtirok etishadi va o'rganishadi hamda matematika darslariga tayyorgarlikda undan foydalanish uchun o'qituvchisiga murojaat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, ular o'zlarining dizayni uchun estetik didni rivojlantiradilar. Ushbu yondashuv o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot uchun foydalidir, bu esa, talabalar o'rtasida juftlik, gruppaga bo'liblashda, xususan, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydalidir.

Shunday qilib, darsda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish ijobiy tomonlarini qayd etish imkonini beradi:

- talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- fanga qiziqishni kuchaytirish
- dastur materialining yuqori sifatli o'zlashtirilishini ta'minlash.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar dunyodagi universitetlar va boshqa o'quv muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish odamlarga


## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

ko'proq ma'lumot olishga va kundalik hayotlarida ko'proq qaror qabul qilishga imkon beradigan to'plangan tajriba va bilimlarni almashish uchun imkoniyat yaratadi.

Masalan, [www.khanacademy.com](http://www.khanacademy.com) orqali masalan ko'pgina mavzularni online ravishda o'rganishlari mumkin.



Shuningdek, [www.geogebra.com](http://www.geogebra.com) ilovasi yoki sayti orqali ham talabalar bemalol o'z misollarini yechishlari mumkin bo'ladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musayev, S.H. o'g'li. (2024). Kichik o'lchamli leybnits algebra larining kvazi-differensiyalashlari va ularning xossalari. Educational research in universal sciences, 3(3), 112–119. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10836664>

2. Musayev S. X. Nol-filiform leybnits algebra larining kvazi-differensiyalashlari. Mathematics, mechanics and intellectual technologies tashkent-2023. 227-228.

3. Musayev S.X. Leybnits algebra larining kvazi-differensiyalashlari va ularning xossalari. operator algebra lar, noassotsiativ tuzilmalar va turdosh masalalar. sentabr-2022. 118-120 betlar.

4. Musayev S. X. Elementary properties of centroid, quas centroid and central derivations of Leibniz algebras. Abstracts of communications: international conference limit theorems of probability theory and mathematical statistics. September 26-28, 2022 Tashkent, Uzbekistan.

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YUQORI MALAKALI  
XODIMLARGA BO'LGAN TALABNI EKSPERT BAHOLASH VA QAROR QABUL  
QILISH MEZONLARI**

*Mirzaraxmedova Aziza Xusnitdinovna*

*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*

*"Matematika va informatika" kafedrası dotsenti*

**Akbarova Nigora Rukhiddinovna**

*TTYeSI katta o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Ekspert baholanishni amalga oshirish uchun odatda ekspertlarni yig'ish, ular uchun materiallar tanlash, ularning so'rovnomasini tashkil qilish, tizimlashtirish, ekspertiza ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlillash, ekspert baholash asosida fan va texnika kelgusi ehtimolliklarining ustuvor usullarni tuzish, shuningdek ularga baho berish va takliflar tayyorlash kerak*

**Kalit so'zlar:** *qaror qabul qilish, mezonlar, ekspert baholash, alternativalar, to'plam, yuqori malakali xodimlar, model, salohiyat*

**Аннотация:** *Для проведения экспертной оценки обычно необходимо собрать экспертов, отобрать для них материалы, организовать их анкетирование, систематизировать, обработать и проанализировать экспертные данные, создать на основе экспертной оценки приоритетные методы определения вероятностей будущего науки и техники, а также оценить их и подготовить предложения*

**Ключевые слова:** *принятие решения, критерии, экспертная оценка, альтернативы, набор, высококвалифицированный кадр, модель, потенциал*

**Abstract:** *To conduct an expert assessment, it is usually necessary to gather experts, select materials for them, organize their questioning, systematize, process and analyze expert data, and create, based on expert assessment, priority methods for determining the probabilities of the future of science and technology. , as well as evaluate them and prepare proposals*

**Key words:** *decision making, criteria, expert assessment, alternatives, recruitment, highly qualified personnel, model, potential.*

Muammolarni to'rtta katta sinfga ajratamiz, ular quyidagi omillarning mavjud bo'lishi bilan xarakterlanadi [1]:

-yangi taklif qilinayotgan talab;

-oldin paydo bo'lgan taklifning yangi qoniqtirilish imkoni mavjud bo'lishi;

-yangi talabning mavjud bo'lishi va uni qoniqtirishning yangi imkoniyati mavjud bo'lishi;

-bir turga mansub, takrorlanadigan muammolar.

Qaror qabul qilish (QQQ)ning vazifasi nafaqat yaqqol muammolarni yaxshi yechishdan balki kelayotgan muammolarni aniqlash, ularni zamonaviy va samarali yechishga tayyor bo'lishidan iborat.

Ekspert baholanishni amalga oshirish uchun odatda ekspertlarni yig'ish, ular uchun materiallar tanlash, ularning so'rovnomasini tashkil qilish, tizimlashtirish, ekspertiza ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlillash, ekspert baholash asosida fan va texnika kelgusi ehtimolliklarining ustuvor usullarni tuzish, shuningdek ularga baho berish va takliflar tayyorlash kerak [2].

Vald mezoni. Alternativalar mumkin bo'lgan k-hoлатlarning pissemistik ma'lumotlari bo'yicha baholanadi. 2 ta  $a_i, a_j$  alternativalarini ma'lum uik, ujk foydalilik funksiyalari bilan solishtirganda, barcha holatlar bo'yicha Vald mezoni quyidagicha yoziladi:

$$a_i Ra_j, \text{ если } \min_k u_{ik} \geq \min_k u_{jk}, \quad (1.1)$$

bu yerda R – sust ustuvorlikning binar munosabati (“dan yomon emas”).

Gurvits mezoni (2.1) mezonga teskari va ancha “optimistik” bo'lgan boshqa mezon bu maksimum mezonidir:

$$a_i Ra_j, \text{ если } \max_k u_{ik} \geq \max_k u_{jk}, \quad (1.2)$$

Gurvits mezoni ma'lum darajada (1.1) va (1.2) larning umumlashmasidir:

$$\begin{aligned} a_i Ra_j, \text{ если } \alpha \min_k u_{ik} + (1 - \alpha) \max_k u_{jk} \geq \\ \geq \alpha \min_k u_{ik} + (1 - \alpha) \max_k u_{jk}, 0 \leq \alpha \leq 1. \end{aligned} \quad (1.3)$$

$\alpha=1$  da (1.3) Gurvits mezoni (1.1) mezonga,  $\alpha=0$  – (1.2) ga o'tadi.

$\alpha$  koeffitsiyent masalaning xususiyatiga qarab tanlanadi. Uning ma'lum bir (1.3) mezonlarni tanlash yordamida “tayyorgarlik o'zgaruvchisi” ga, tavakkalga “moslashadi”.  $\alpha$  ning maqbul tanlanishiga imkon beruvchi eng oddiy masalalar ko'rib chiqilgan. Lekin, umumiy holda birlashgan holat mavjud emas.

Sevidj mezoni o'zidan haqiqiy va ancha samarador (h-tanlov) tanlov o'rtasidagi «afsuslanishni» namoyon qiladi:

$$a_j Ra_j, \text{ если } \min_k (u_{ik} - \max_h u_{hk}) \geq \min_k (u_{jk} - \max_h u_{hk}). \quad (1.4)$$

(1.4) da qavs ichidagi ifodalar noto'g'ri tanlovning ketma-ketlik chegarasidir. Maqbul yechim «afsuslanish» minimumi shartidan topiladi.

Laplas va Bayes mezoni. Laplas mezonida alternativalarining barcha mumkin bo'lgan holatlari teng ehtimollidir (butun aniqlik holati):

$$a_j Ra_j, \text{ если } \sum_{k=1}^n u_{ik} \geq \sum_{k=1}^n u_{jk}, \quad (1.5)$$

Bayes mezoni (1.5) ning umumlashmasidir va turli xil holatlar uchun ehtimolliklar (stoxastik holat) bo'linishi ma'lum bo'lgan tavakkal bilan bo'liqliq qaror qabul qilish holatlari uchun xarakterlidir. Bu holda quyidagi formula o'rinlidir:

$$a_i Ra_j, \text{ если } \sum_{k=1}^n p_k u_{ik} \geq \sum_{k=1}^n p_k u_{jk}, \quad (1.6)$$

bu yerda  $p_k$  – k holatning kelish ehtimolligi.

Shunday qilib, (1.6) mezon bo'yicha maksimal matematik kutilishga ega alternativa tanladi.

Xodjes-Leman mezoni. Bu mezon Gurvits mezoniga (1.3) o'xshab, o'zidan 2 ta yuqorida ko'rib o'tilgan (1.5), (1.1) larning birlashmasini tashkil qiladi, aniq qilib aytganda:

$$\begin{aligned} a_i Ra_j, \text{ если } \alpha \sum_{k=1}^n p_k u_{ik} + (1 - \alpha) \min_k u_{ik} \geq \\ \geq \alpha \sum_{k=1}^n p_k u_{jk} + (1 - \alpha) \min_k u_{jk}, \end{aligned} \quad (1.7)$$

bu yerda  $0 \leq \alpha \leq 1$ .



## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

(1.7) mezoni ehtimolliklarni taqsimlashning qonuni tug'risida yetarlicha ma'lumot bo'lmaganda, lekin  $\alpha$  koeffitsiyent joylashuviga bog'liq ravishda ma'lum bir holatning paydo bo'lish chastotasi haqida axborot aniqlashuvi mavjud bo'lgan holatda qo'llaniladi [3].

Ushbu yondashuvda asosiy vazifa - u yoki bu  $\{G_i\}$ ,  $i = 1, n$  - ilmiy maqsadlar to'plamining u yoki bu  $\{P_j\}$ ,  $j = 1, k$  -yuqori malakali xodimlar to'plamiga mos kelishini o'rganishdir.

Bu holda tadqiqot obyekti mahsus ajratilgan tavsiflar bilan ta'riflanadigan  $\{P_j\}$  to'plamda alohida tarkibga ega tizimlashtirilgan u yoki bu ilmiy-texnik salohiyatdir. Yuqori malakali xodimlar tavsiflari ma'lumotlarini sonli o'lchashning mumkin bo'lgan natijalari  $\{G_i\}$  to'plamdan u yoki bu ifodalangan maqsadlarga tobe qilib qo'yiladi.

Agar oldindan aniqlashtirilgan  $\{P_j\}$ ,  $j = 1, k$ , ilmiy xodimlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda  $\{G_i\}$ ,  $i = 1, n$ , u yoki bu ilmiy-texnik maqsadlar to'plami ko'rib chiqilayotganda muammoga-mo'ljallangan baholashning to'g'ri masalasi bilan ish ko'ramiz.  $R_{ij}$  relevantlik ostida alohida tavsiflar va tadqiqotlarga qo'yilgan maqsadlarning butun salohiyatning mos kelish darajasini tushunamiz (masalaning to'g'ri qo'yilgan holida); ma'lum bir maqsadlarning mos keluvchi salohiyat bilan ta'minlanganligi (masalaning teskari qo'yilgan holida):

$$\{G_i\} \Leftrightarrow \{P_j\}, \quad i = 1, n, \quad j = 1, k.$$

Agar  $n=1$  bo'lsa, unda yagona ifodalangan maqsad  $\{P_j\}$  to'plam guruhlarining salohiyat imkoniyatlari bilan moslashtiriladi. Agar  $K=1$  bo'lsa, unda bitta berilgan guruhning salohiyati imkoniyatlari  $\{G_i\}$  to'plamdan har xil maqsadlarga yo'naltiriladi. Umumlashgan  $R_{ij}$  baholarni olish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$R_{ij} = \sum_{\ell=1}^s K_j^{\ell} \cdot Z_{ij}^{\ell},$$

bu yerda  $K_j^{\ell}$  - ITI ning o'rnatilgan sanada va mos keluvchi yakunlanish darajasida bajarilishini ta'minlash nuqtai nazaridan yuqori malakali xodimlarning u yoki bu tavsifini muhimligini ifodalaydigan og'irlik koeffitsiyenti.

### XULOSALAR

1. Regressiya modeli va respublikaning ilmiy-texnik salohiyatning rivojining jadalligini hisobga olishga imkoniyat beruvchi ekspertli baholash usullari asosida ilmiy xodimlar sonini bashoratlash yondashuvi taklif etilgan.

2. Respublikada maqsadli dasturiy yondashuvni amalga oshirishga, Respublika ITI ni maqbul yuklash va faqatgina markaziy ITI lar tayyorgarlik olib borishi mumkin bo'lgan mutaxassisliklarni aniqlashga yordam beruvchi yuqori malakali xodimlarga bo'lgan talabni tizimli o'rganish uchun imitatsion tizim ishlab chiqilgan.

3. Yuqori malakali xodimlarga bo'lgan talabni baholash mezoni ishlab chiqilgan va mavjud omillar (mezonlar) ning tanlovi amalga oshirilgan.

4. Ekspertli baholash usullari va yuqori malakali xodimlarga bo'lgan talabning tizimli tadqiqotlarida qaror qabul qilish mezonlari ishlab chiqilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Субетто А.И. Методы оценки качества проектов и работ. –Л.: Военно-инженерный институт. 1991. -67 с.
2. Леонтьев Б.Б. Рынок интеллектуальной собственности и проблемы оценки // Вопросы оценки. 1996.
3. Бешелев С.Д., Гурвич Ф.Г. Математическо-статические методы экспертных оценок. –М.: Статистика. 1980. -314 с.
4. Мирзарахмедова А.Х. Разработка информационно-диалоговой системы оценки потребности в высококвалифицированных кадрах. //Вестник ТашГТУ. 2005.№3. -С.25-28

### INSONNING O‘ZI HOHLAGAN KASBINI TANLASH UCHUN IMKONIYAT YARATISH

**Abdillayeva Xilalo Mirzakulovna**

Angren shahar MMTBga qarashli  
22-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktab  
amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** *bugungi kunda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga mamlakatimizda keng imkoniyatlar tug‘ildi. Nazariya va amaliyot birligining ta’minlanayotganligini ta’limda pedagogik-psixologik jarayonning asl mohiyatini aniqlashga yo‘l ochmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** *kishilar orasidagi munosabat, o‘z qobiliyati, qiziqishi, o‘z bilimi va o‘quvi.*

**Аннотация:** *сегодня научный потенциал специалистов в нашей стране имеются широкие возможности для объединения теория и обеспечение единства практики открывает путь к определению истинной сущности пед-психологического процесса в образовании.*

**Ключевые слова:** *отношения между людьми, собственные способности, интерес, знания и образование.*

**Abstract:** *today the scientific potential of specialists in our country has ample opportunities for combining theory and ensuring the unity of practice opens the way to determining the true essence of the pedagogical psychological process in education.*

**Key words:** *relationships between people, own abilities, interest, knowledge and education.*

Ma'lumki, bola butun hayoti davomida jismoniy va ruhiy tomondan o'zgarib boradi. Ayniqsa bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Mana shu yillarda ham jismoniy, ham psixologik jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Munosabatlar doirasiga kishilar orasidagi munosabat emas, balki tabiat, jamiyat, hayotga bo'lgan munosabatlar ham kiradi. Mana shu ko'p qirrali aloqa va munosabatlar zaminida har bir shaxs o'z qobiliyati, qiziqishi, o'z bilimi va o'quvini namoyon qiladi, o'z ishiga, vazifasiga, burchiga, xalqiga, Vataniga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Mehnat bozoridagi holatni tahlil qiling. Yildan-yil yangi kasblar paydo bo'layotganligiga e'tiboringizni qarating. Doimiy malakani oshirish, qo'shma kasblarni egallashga to'g'ri kelishiga tayyor bo'ling.

Hozirgi kunda, Siz ta'lim muassasasini tugatayotgan paytda kasb tanlashingiz, Sizning taqdiringizni butunlay hal qiladi deb qo'rqmang. Keyinroqdagi tanlovdagi o'zgarishlar, yangi mutaxassislikni o'zlashtirish, Sizni fanlararo faoliyat bo'yicha qimmatli mutaxassis qiladi.

Birinchi kasb, garchand Siz keyinroq undan voz kechishingiz va o'zingiz uchun qiziqrog'ini topsangiz ham hayotning turli kutilmagan holatlarida Sizga asqotadi. Bundan tashqari, e'tibor qiling-ki, har bir erkak uchun uyda chilangar ham, sartarosh ham, elektrchi ham, haydovchi ham bo'lishga to'g'ri keladi. Ayollar uchun esa, tikuvchi, oshpaz, kir yuvish va boshqa maishiy mashinalar "operatori" bo'lishga to'g'ri keladi.

Albatta, kasbning nufuzliligi u yoki bu holda Siz tomoningizdan inobatga olinadi, lekin buni o'zingizning qiziqishlaringiz va qobiliyatlaringiz, sog'lig'ingizning holatini hisobga olgandan so'ng amalga oshiring. Mehnat birjasidagi bo'sh o'rinlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish juda foydalidir.

Shunday kasblar borki, ular Sizga mos kelmaydi, chunki ular sizning sog'lig'ingizni yomonlashtirishi mumkin. Bunday kasblar ko'p emas va ular asosan u yoki bu jismoniy tizimlarning uzoq muddatli zo'riqishini talab etadi.

O'zingiz tanlamoqchi bo'lgan kasbning mohiyat va mazmunini o'rganib chiqing. Shu kasb bilan kunma-kun uzoq yillar davomida shug'ullanishingiz lozimligini ko'z oldingizga keltiring.

Kasb tanlashda va hayot tarziga aniqlovchi ta'sir ko'rsatishda, ya'ni lavozimga erishishda har bir inson o'zining kelajakdagi kasbiy mehnatini fuqarolik majburiyati sifatida anglashi, o'z mamlakatining va o'z oilasining manfaatlari yo'lidagi hissasi, davlatning va ota-onalarning bizning o'sib ulg'ayishimizga va o'qishimizga sarflagan xarajatlarini qaytarish sifatida anglashimiz lozim.

### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008.
2. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009.
3. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar.– T.: "Moliyaiqtisod" nashriyoti, 2009.
4. Sh. Tadjibayeva "Ta'lim sub'ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish pedagogik shart-sharoitlari" nomli monografiya, "Ilm ziyo zakovat"-Toshkent, 2023-135b.

## **INSONNING INTELLEKTUAL JIHATDAN RIVOJINI TA'MINLASH**

**Abdullayeva Go'zal O'rinbayevna**

Angren shahar MMTBga qarashli

19-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

***Annotatsiya:** insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga – bo'yining o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining, ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kiradi. Ruhiiy o'zgarishlar esa, uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarning tarkib topishi hisoblanadi.*

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

**Kalit soʻzlar:** inson kamoloti, ta'lim, o'qitish, o'qish jarayonlar, ko'nikmalar va malakalar.

**Аннотация:** к физическим изменениям человека относятся рост, увеличение веса, изменения костной и мышечной систем, внутренних органов и нервной системы. Психические изменения связаны с его психическим развитием и представляют собой формирование у человека психических качеств, формирование социальных качеств, необходимых для жизни.

**Ключевые слова:** человеческое развитие, образование, преподавание, процессы обучения, навыки и компетенции.

**Abstract:** physical changes in a person include height, weight gain, changes in the skeletal and muscular systems, internal organs and nervous system. Mental changes are associated with his mental development and represent the formation of a person's mental qualities, the formation of social qualities necessary for life.

**Keywords:** human development, education, teaching, learning processes, skills and competencies.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash bular faqat tarbiya natijasida orttirilgan fazilatlaridir.

Inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda ta'lim oluvchi faoliyatiga katta o'rin beriladi. U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

Pedagogning bolaga singdirishi lozim bo'lgan tarbiya samarali ta'sir etishi uchun uning o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilishi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi muhim shartlardan biridir.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim deganda o'qitish va o'qish jarayonlari tushuniladi.

O'qitish – insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir. Uning natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. O'qitishda deyarli hamma vaqt uning tarbiyaviy jihatlari yaqqol bilinib turadi. Ta'lim maqsad, mazmun, pedagogning shaxsi, ta'lim oluvchilardagi o'qitishning moddiy – texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo'lishining eng muhim sharti uni bolaligidan o'qitish va tarbiyalash, deb hisoblaydi.

O'qish - bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, ta'lim oluvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch -g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi.

O'qish o'z mazmun – mohiyati jihatidan maqsad, vazifa, tamoyil, mezon va harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida ta'lim oluvchilar ma'lum bilimlarni o'zlashtiradilar. O'qish va uning samaradorligi ta'lim oluvchining har tomonlama faolligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi va bu jihatlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular: mehnat faoliyati, jamoatchilik faoliyati, kitobxonligi, kasbiy o'yinlarni yaxshi ko'rishligi, o'z kasbiga oid yangi bilimlarni egallashga o'chligi va shu kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Demak, o'qish – bu ta'lim oluvchilarning voqelikni bilish davomida ma'lum bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni rejali o'zlashtirish jarayonidir. O'qish jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va u shaxsning qarashlari, e'tiqodi, hatti – harakati, umumiy kamolotiga, pirovardiga esa uning xulqiga ta'sir etadigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuasining shakllanganligiga bog'liq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi” 2006.
2. Zunnunov A.va boshqalar. Pedagogika tarixi / –T.: Sharq, 2000.
3. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2004
4. Sh.Tadjibayeva “Ta'lim sub'ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish pedagogik shart-sharoitlari” nomli monografiya, “Ilm ziyo zakovat”-Toshkent, 2023-135b.

**OLIV TA'LIM MUASSALARIDA O'QUV JARAYONINI ARALASH TA'LIM ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI**

**Allamova Shoxista Shavkat qizi,**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

“Informatika va axborot texnologiyalari” kafedrasida katta o'qituvchisi

*Shohistabonu55@gmail.com*

***Annotatsiya.** Elektron texnologiyalarning hozirgi rivojlanish darajasi ta'lim tizimining innovatsion jarayonlarga intilishi bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini o'zgartirish va talabalarning mustaqil ta'lim vaqtini optimallashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Ushbu maqola aralash ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tadbiiq etish, hamda o'quv jarayoni samaradorligini aralash ta'lim texnologiyalari asosida oshirishga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** aralash ta'lim, flipped classroom, online ta'lim, mustaqil ta'lim*

***Аннотация.** Современный уровень развития электронных технологий, наряду со стремлением образовательной системы к инновационным процессам, требует необходимости изменения учебного процесса в высших учебных заведениях и оптимизации времени для самостоятельной учебы студентов. Данная статья посвящена внедрению смешанных образовательных технологий и повышению эффективности образовательного процесса на основе смешанных образовательных технологий.*

***Ключевые слова:** смешанное обучение, перевернутый класс, онлайн-обучение, самостоятельное образование*

***Annotation.** The current level of development of electronic technologies, together with the educational system's pursuit of innovative processes, requires the need to change the educational process in higher education institutions and optimize the time for independent study of students. This article is dedicated to the implementation of mixed educational technologies and increasing the effectiveness of the educational process based on mixed educational technologies.*

***Key words:** mixed education, flipped classroom, online education, self-study*

*Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi olimlar va pedagoglarni ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanishning tobora ko'proq yangi imkoniyatlarini o'rganishga undamoqda. O'quv jarayonini o'zgartirish, talabalarga yo'naltirilgan ta'limga o'tish, talabaning semestr ichidagi mustaqil ishi vaqtini boshqarishning*

*samarali usullaridan biri o'quv jarayonini aralash ta'lim asosida tashkil etish va qo'llash bo'lishi mumkin.*

Yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini aralash ta'lim asosida tashkil etish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning individual ta'lim ehtiyojlarini, shuningdek, o'quv materialini o'rganish sur'ati va ritmini hisobga olgan holda ta'limning mavjudligi va moslashuvchanligini oshirish orqali ularning ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, talabaning motivatsiyasini, mustaqilligini, ijtimoiy faolligini oshirish, talabaning faol pozitsiyasini shakllantirishni rag'batlantirish va buning natijasida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'qituvchi uslubini o'zgartirish: bilimlarni uzatishdan talabaning o'z bilimlarini qurishga hissa qo'shadigan talaba bilan interfaol munosabatlarga o'tish, ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, talabalarda tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini, ya'ni axborot bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish o'quv jarayonini aralash ta'lim asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Biz ilmiy ishimizda aralash ta'lim shunday ta'rif berdik: ushbu texnologiya an'anaviy, online va mustaqil ta'lim integratsiyasi bo'lib, talabalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan, talabaga o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradigan, o'qituvchiga esa har bir talabaga individual yondashish, har bir talabaning kamchiliklarini aniqlash orqali uning temperament xususiyatlarini xisobga olgan holda talabaning akademik faoliyati traektoriyasini qurishga yordam beradigan texnologiyadir.

Ayni vaqtda aralash ta'limning modellari ichida "Flipped classroom" modeli keng qo'llanilmoqda. "O'girilgan sinf" atamasi inglizcha "flipped classroom" yoki "inverted classroom" atamalarining so'zma-so'z tarjimasidir. O'girilgan sinfning o'ziga xos xususiyati – bu bilimlarni mustaqil ta'limga o'tkazish jarayonini to'liq yoki qisman o'tkazishdir. Shu bilan birga, bo'shatilgan dars vaqti tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiruvchi interfaol mashg'ulotlarga sarflanadi. Internet-texnologiyalardan foydalanishning eng ommabop modeli bo'lgan o'girilgan sinf – aralash ta'lim shakli bo'lib, oddiy sinf xonasini quyidagi tarzda "aylantirish" imkonini beradi. Uy vazifasi o'rniga talabalar Internetda qisqa video ma'ruzalarni tomosha qiladilar, ular nazariy materialni mustaqil ravishda o'rganadilar. Shunday qilib, "o'girilgan sinf" dan foydalanganda darslarning tabiati o'zgaradi, chunki o'qituvchi darslarni o'tkazish, topshiriqlarni tekshirish va ijodiy ishlarni taklif qilishning faol va interaktiv shakllarini amalga oshirishi mumkin. Amaliy natija shundaki, o'qituvchi nafaqat yangi materialni taqdim etish, balki tinglovchilar bilan muloqot qilish uchun ko'proq vaqtga ega bo'ladi [1].

"O'girilgan sinf" o'quv jarayonini shunday olib borishni nazarda tutadi, unda talabalar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan nazariy materialni oldindan o'rganadilar va mavzu bilan allaqachon tanish bo'lgan auditoriyaga kelishadi; dars vaqti o'qituvchi bilan birgalikda mavzuni tayyorlash jarayonida talabalar o'rtasida paydo bo'lgan barcha savollarni saralashga va amaliy masalalarni hal qilishda, o'zlarini sinab ko'rishga bag'ishlanadi. Qoida tariqasida, nazariy material talabalarga turli xil video va taqdimotlar ko'rinishida taqdim etiladi, ular o'qituvchining o'zi tomonidan tuzilgan va va u tomonidan istalgan onlayn platformada joylashtirilgan, shuningdek talabalarda resursga kirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Materiallar video va taqdimotlar formatida ham, darsliklar, bosma ma'ruzalalar va maqolalar, chizmalar, jadvallar va boshqalar ko'rinishida ham taqdim etilishi mumkin.


Demak, bularning barchasi "Flipped Classroom" modelining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Flipped classroom modeli zamonaviy jamiyatda talab qilinadigan faollik, mustaqillik, ijodkorlik, tanqidiy

fikrlash, muloqot qobiliyatlari kabi fazilatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar sifatli va qulay o'quv materiallarini qulay vaqtda va joyda ko'rishlari mumkin [2].

Odatda, an'anaviy o'quv jarayoni (auditoriya ishi - auditoriyadan tashqari ish - auditoriya ishi) auditoriya (ma'ruza) jarayonida yangi materialni taqdim etish va tushuntirish, uni uy vazifasi sifatida mustahkamlash bo'yicha topshiriqlarni bajarish, so'ngra o'zlashtirishni nazorat qilishdan iborat.

"Flipped Classroom" modeli yordamida tashkil etilgan o'quv jarayoni esa elektron muhitda (elektron kurs) mustaqil ishlashdan boshlanadi.

Biz, "Informatikaning nazariy asoslari" fanining didaktik tizimini ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini integratsiyalovchi "blended learning" texnologiyasining Flipped classroom modeli transformatsiyasi orqali loyihalashda, o'zaro bog'langan elektron va auditoriya komponentlari yordamida amalga oshiriladigan "auditoriyadan oldingi ish - auditoriyadagi ish" sikli sifatida ifodaladik (1-rasm).



1-rasm. Ma'ruza mashg'ulotini Flipped classroom modeli orqali loyihalash

"Informatikaning nazariy asoslari" fanining ma'ruza mashg'ulotlarida auditoriyadan oldingi ishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- video ma'ruzalarni eshitish;
- taqdimotni o'qish;
- mavzu materiallari asosida tayyorlangan savollarga javob berish (Quiz savollar)
- mustaqil ta'lim topshiriqlariga tayyorlanish.

Auditoriyaga talabalar mavzu bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lib va murakkabroq ma'lumotlarni idrok etishga, muhokamalarda qatnashishga va olingan bilimlarni amalda qo'llashga tayyor bo'lib keladilar[3].

Aralashtirilgan ta'lim bo'yicha auditoriya ishi, auditoriyadan oldingi ish natijalariga ko'ra "talaba-o'qituvchi"ning fikr-mulohazalarini o'z ichiga oladi. Ma'ruza mashg'ulotida mini leksiya o'tildi, yangi mavzu doirasida talabalarning savollariga javob berildi, ma'lumotlar umumlashtirildi, shuningdek, bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, ma'ruza mashg'uloti qiziqarli o'tishi uchun interfaol metodlardan (problem solving organayzeri) foydalanildi.

Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, biz tomonimizdan tavsiya etilgan o'qitish metodikasi an'anaviy olib borilgan o'qitish metodikasiga nisbatan samarali ekanligi isbotlandi. Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tizimni pedagogik tajriba sinovga joriy qilish natijasida talabalarda o'quv-bilish faoliyatining samaradorligi o'rtacha 13% ga oshishiga erishildi.

### **Xulosa**

Ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, ma'ruza mashg'ulotlarida aralash ta'limning Flipped classroom modelini qo'llashda olingan ma'lumotlar hajmining ortishi qayd etildi va talabalar faol, mas'uliyatli, mustaqil bo'lib, taklif qilingan materialni yaxshiroq o'zlashtirdilar, bir-birlari bilan erkin muloqot qilishdi.

Aralash ta'lim texnologiyalari yordamida ma'ruza mashg'ulotlari orqali ko'proq ma'lumotlarning tinglovchilarga berilishi, ularda amaliy mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'limga qo'yiladigan topshiriqlarni samarali bajarilishiga asos bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Гизатулина О. И. «Перевернутый» класс – инновационная модель обучения // Инновационные педагогические технологии: материалы VI Междунар. науч. конф. Казань : Бук, 2017. С. 116-118.

2. Allamova Sh.Sh. Oliy ta'lim muassalarida o'quv jarayoni samaradorligini "o'girilgan sinf" (flipped classroom) texnologiyasi asosida takomillashtirish // XII Международной научно-практической конференции «Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века». – АСТАНА, 2023. 10-15 февраль. – С. 25-28.

3. Алламова Ш.Ш. Организация учебного процесса на основе технологии перевернутого класса // Развитие науки и образования в XXI-веке международная научно-практическая конференция. – Москва, 2023. 15-16 март. – С. 78-82.

### **CONTENT OF EXPERIMENTAL ASSIGNMENTS AT HOME AND HOME EXPERIMENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Bobomuminov Chori Shivakovich.**

Tashkent Chinaz secondary school № 23.

[Bobomominovchori@gmail.com](mailto:Bobomominovchori@gmail.com)

**Boboyeva Safargul Ko'charovna**

Tashkent Chinaz secondary school № 22

***Annotation.** Positive reforms in the educational system of our country are carried out in the article, interest of students in learning the basics of science, as well as improving the quality of education to a high level. At the same time, the practical tasks of improving the content of methodological support for the study of English are studied.*

***Keywords:** experiment, task, student, upbringing, education, language.*

***Аннотация.** в статье рассматриваются проводимые позитивные реформы в системе образования нашей страны, заинтересованность учащихся в изучении основ науки, а также повышение качества образования до высокого уровня. Одновременно прорабатываются практические задачи по совершенствованию содержания методического обеспечения изучения английского языка.*

***Ключевые слова:** эксперимент, задание, ученик, воспитание, образование, язык.*

In the Strategy of Actions for the further development of the Republic of Uzbekistan, "fundamental improvement of the quality of general secondary education, in-depth study of foreign languages, informatics and other important and high-demand subjects such as



mathematics, physics, English, biology"1 is defined as a priority task. In this regard, it is important English to improve students' practical work skills.

A number of scientific researches have been conducted in our republic, Commonwealth countries and foreign countries on the improvement of the education system, effective development of students' knowledge, skills and abilities. For example: B.Ziyomukhammadov, N.N.Azizkhodjaeva, N.S.Saidakhmedov, H.T.Omonov, researchers Sh.Sh.Begmatov, E.U.Zakinov, E.U.Eshchanov in the field of improving the educational process in our republic modern educational methods, methods of effective use of independent work in the educational process and extracurricular activities, didactic games, organization of extracurricular activities based on information about the practical importance of English, psychological scientists P.I.Ivanov, M.E.Zufarova, E.G'oziev, A.Jabborov on the laws of psychological development of students, their character, abilities, external influences in the educational process, internal and external motivations, their stability, voluntary and involuntary memory in increasing educational efficiency conducted research.

In the countries of the Commonwealth of Independent States, V.V. Guzeev, O.S.Zaitsev, G.K.Selevko, G.M.Chernobelskaya researched various traditional and modern methods aimed at increasing educational efficiency, types and forms of independent work and their place in the educational process. In the development of students' experimental skills, the works of I.P.Balaev, M.P.Rudenko, .A.Shipareva covered the scientific and methodological bases of solving experimental problems at home and organizing the implementation of experiments, their implementation. New experiments are not being developed for demonstration, laboratory work and practical training. As an exception, Yu.V. An experiment developed by Surin can be cited. The researcher has been engaged in problem demonstration experiments for many years. Yu.V. Surin has developed more than 70 problem-based research experiments on many topics of the school curriculum. The practical implementation of his experiments is fundamentally different from the experiments that have become classics (the experiments of K.Ya.Parmenov, B.C.Polosin and others).

"The state of the problem of organizing students' experiments at home in the modern educational process" in which the content of experimental tasks at home and the methodological aspects of using home experiments and observations in the educational process are not sufficiently covered in the methodological literature on modern English, the analysis of scientific and methodological literature on this issue in the last 20 years conducted. Home experience can be called individual practical work, which is one of the types of independent homework that is mandatory for all students. It is carried out using household substances and objects, is carried out through the mediation of the teacher and assumes some control from him.

### **HOME EXPERIENCES HAVE MANY POSSIBILITIES.**

**Table1**

#### **Multifunctional possibilities of home The main tasks of home experiments experience. Home experience tasks**

**Motivational** arousing curiosity, the pleasure of discovery, forming a positive attitude to academic subjects

**Developer** Development of experimental skills

## **2. Practical**

A) development of attention, observation, improvement of mental actions, formation of skills to get out of the situation

B) coordination of movements, kinesthetic and gravitational feelings, speed of movement and manipulative mastery, development of automaticity in manual work

V) development of feeling and perception of external properties and changes of substances in the process of English reactions

3. *Creative initiative development*

4. *Develop thinking*

**Educational** Conscious assimilation and strengthening of knowledge regarding the studied educational material

Acquiring new knowledge, implementing the principle of connection between theory and practice, individualization

**Educational** Development of the skills of proper organization of work  
Forming the will to self-education

**Propedeutic**

Preparation for understanding new material

**Reflexive**

Understanding, analysis

The main thing is the process of doing things, during which general education and experimental skills are formed. On the other hand, homework was considered as a kind of homework in comparison with them. In addition to the requirements for home experiments, the following criteria for choosing an experimental work system at home are also distinguished:

- 1) didactic principles;
- 2) specific features of teaching science;
- 3) independent learning activities;
- 4) organizing an educational English experiment;
- 5) characteristics of home experiences

These criteria complete the basic requirements for conducting experiments at home and developing a system of tasks of experimental description.

The teacher's tasks in organizing home experiments are as follows:

- 1) planning future work.

The teacher's tasks in planning students' homework are as follows:

- a) allocation of materials for home study;
  - b) choosing and determining the content, size, and estimated time for completing the experimental task and coordinating them with other types of homework on the subject;
  - c) thinking about words, instructions, control questions for home experience; d) to create an indicative basis of actions to perform home experiment work.
- 2) Working with parents.
  - 3) assigning tasks to students is important in organizing experimental work at home.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

### 4) Working with students.

The analyzes carried out taking into account English knowledge, skills and competencies based on the general knowledge acquired by students in the school level of English education showed that the percentage of "excellent" and "good" grades in the experimental classes of the 8<sup>th</sup> grade compared to the control classes increased by 19.9% (2 -table).

Dynamics of change of students' knowledge levels. Grade		Experience classes		Control classes	
In the initial stage excellent	Last stage	In the initial stage		Last stage	
In the initial stage excellent	24/22,5	39/36,4	22/23,4	27/28,7	
good	31/29	45/42	21/22,3	28/29,8	
satisfactory	45/42	21/19,6	43/45,7	36/38,3	
unsatisfied	7/6,5	2/2	8/8,6	3/3,2	
Total	107	107	94	94	

Note: Interest in denominator

Work based on English experiments that students can perform at home can be seen to have an impact on the level of acquisition of practical skills.

Increasing interest in learning the basics of science on the basis of the above-mentioned recommendations will eventually lead to the education of young people who have a broad and deep outlook, who think independently with a comprehensive understanding of the practical importance of English, who can use their knowledge and skills in various changed conditions, and who have an ecological culture. plays an important role.

### **References:**

1. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения.- М., 2005.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. — М., 1989.
3. Бордовский Г.А., Извозчиков В.А. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии// Педагогика. - 1993. - №5.
4. Клари́н М.В. Педагогическая технология. — М., 1989.
5. Кудрявцев П.О. Проблемное обучение. Истоки и сущность: Знание, 2001.

## **INKLUZIV TA'LIMDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR**

**Dilbar Aripova**

Toshkent viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsent v.b.

***Annotatsiya:** Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan*

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Maqolada Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish. "Ta'lim hamma uchun" umummilliy dasturining mohiyatini targ'ibot qilish. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari tamoyillarini tasniflash hamda inklyuziv ta'lim asoslari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, psixolo-pedagogik, korreksion ish, ijtimoiy moslashtirish, kompleks yondashish tamoyili.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi Qonunning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lim oladi". Inklyuziv ta'lim haqida so'z yuritilganda, uning asl mohiyatini nimaga qaratilayotgani haqida so'z boradi. O'zi "Inklyuziv ta'lim" nima? "Inklyuziv ta'lim" bu (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi).

Nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati cheklangan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar 31 ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Abdulla Avloniylarning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv ta'lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamallari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari:

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi: - ta'lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixolo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish; - o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash; - jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ixtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; - imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oiladan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish; - jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari. 1) Inklyuziv ta'limning Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishini talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi: 2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. 3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. 4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili. 5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili. 6) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. 7) Malakaviylik tamoyili. 1) Inklyuziv ta'limning

e'tirof etilishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990-yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi.

Ular jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni xayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir.

Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibottashviquot ishlarini olib boorish eng birinchi galdagi masaladir. 2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. O'tgan o'ttiz bir yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limni tizimida joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi otaonalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ihtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ihtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim. 3)

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. "Bog'lanish" bu so'zning zaminida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktabga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolatini hal etishga xizmat qiladi 4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi: A) Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak. B) Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar maxalliy ta'lim organlari javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar maxalliy sharoitlarga moslashtirishlari lozim. Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lishi muhimdir.

Bu ayniqsa qishloq sharoitlaida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqit berish nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin. 5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili. Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi.

Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etadi. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalardan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minkashdan iboratdir. 6) Inklyuziv Ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil 34 etishi kerak. Shaxs

ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan bo'lishi talab etiladi. 7) Malakaviylik tamoyili.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak. Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarga (muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari. \*Maxsus ta'lim tamoyillari \*Korreksion yo'naltirilganligi \*Nuqsonlarni aniqlash, ta'lim berishda kompleks(klinik-genetik, neyrofiziologik, psixolo-pedagogik) yondoshish \*Umumiy o'rta ma'limot berish, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish \*Defferensial tabaqalashtirish va alohida yondoshish \*Ta'limning usluksizligini ta'minlash 1990 yilda Tailanda o'ta muhim Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Bu konferensiyada „Ta'lim hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyani dunyoning 155ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. „Ta'lim hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to'laqonli va mukammal ta'lim olishini kafolatlaydi. „ Ta'lim hamma uchun” shiori deganda nogiron bo'lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo'yilgan guruhlardan kelib chiqqan bolalarning ham tenghuquqlik asosida ta'lim olishlari tushuniladi. „Ta'lim hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasi quyidagicha bayonet qabul qilingan: „Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va maktab ta'limiga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Ular quyidagilardan iborat: -har bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta'lim-tarbiya olishini talab etadi; -o'qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanaladi; - maktabda to'laligicha korreksion pedagogik yordam tashkil etadi; -bolalar to'g'risidagi qaror kompleks tarzda qabuk qilinadi; -bolalar har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi; -inklyuziv maktablarning moddi ta'minoti yaxshilanadi; -maktabda integratsiya tamoyiliga o'quv rejaning asosi sifatida qaraladi; Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi.

„Ta'lim tizimi shunday bo'lishi kerakki deb yozadi L.S.Vigotskiy fikricha nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya'niy L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan. 2003 yilda Respublikamizda „Ta'lim hamma uchun” Milliy dasturi ishlab chiqildi.

„Ta'lim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi YUNESKO ning maslahatlari va moddiy ko'magi bilan 2000 yilgi Dakar shartnomalariga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan. Hozirgi kunga kelib respublikamiz tomonidan viloyatlardagi maktablarda tashkil etilgan inklyuziv sinflar tajriba, sinov tariqasida o'z ish faoliyatlarini olib bormoqdalar. Inklyuziv ta'lim g'oyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot axborot vositalari orqali targ'ibot- tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011
2. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)
3. "Ta'lim hamma uchun" Milliy dasturi rejasi Toshkent-2003
4. "Maktablar hamma uchun"- , Bolalarni qutqaring jamg'armasi"-2002
5. "Ta'lim hamma uchun"- Dakar deklaratsiyasi-2002
6. D.Aripova. Inkluziv va inkluziya tushunchalari pedagogik talqini. "Inkluziv ta'limni rivojlantirish: muammo, yechim va istiqbollari" mavzusidagi ilmiy –amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2020
7. "Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005

### XLORELLA VA SCENEDESMUS MIKROSUVO‘TLARINI OZUQAVIY XUSUSIYATLARI

**Yuldasheva N.** – “Global Komsco Daewoo” XK MCHJ, katta mutaxassisi,  
**G‘ulamov M.** – Fan va texnologiyalar universiteti,  
Iqtisodiyot fakultetida o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari,

*Annotatsiya.* Bugungi kunda dunyo aholisi soning ko‘payishi natijasida arzon va sifatli baliq go‘sh t mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Baliqchilik mahsulotlari sifatini oshirishda to‘yimli, ekologik toza, iqtisodiy jihatdan arzon, alternativ qo‘shimcha ozuqa manbalari bazalarini boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda ozuqabop, biokimyoviy tarkibi jihatidan oqsil, yog‘ kislotalari, karotenoidlar va vitaminlarga boy, antioksidantlik xususiyatiga ega *Scenedesmus spp* mikrosvuo‘ti biommassasidan samarali foydalanish ancha ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** *Scenedesmus, Spirulina, Xlorella, mikrosvuo‘t, oqsil, biomassa, aminokislota, interferon, ferment, hujayra, texnologiya.*

Dunyo bo‘yicha 2050 yilga borib, 9,1 mlrd. dan ortiq insonlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash muammosi paydo bo‘ladi [1]. 2015 yilda to‘laqonli oziqa mahsulotlari bilan ta‘minlanmagan insonlar soni 777 mln. ni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 815 mln. gacha oshgan [2]. Jahonda chorvachilik eng mahsuldor sohalardan biri hisoblanib, barcha ishlab chiqariladigan mahsulotlarning 35 foizi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan esa 75 foizi mazkur soha rivojlanishiga sarflanmoqda. Jumladan, baliqchilik tarmog‘i uchun asosiy oziqa mahsulotlari hisoblangan donli ekinlardan foydalanilmoqda [3].

Bu esa donli ekinlarni etishtirish insonlar ehtiyoji bilan bir qatorda, ular asosida ozuqa yemlarini ishlab chiqarishni ham hisobga olgan holda juda katta miqdordagi zahira resurslarini talab qilmoqda. Jumladan, dunyo bo‘yicha go‘sh t mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 200 mln. t. dan oshirishni va 470 mln. t. ga yetkazish kerakligi hisobga olsak, hozirda 2,1 mlrd. t. bug‘doy yetishtirilayotgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichni kamida yiliga 3,0 mlrd. t. dan oshirish lozim bo‘ladi [4]. Bu iqtisodiy ko‘rsatkichlarni amalga oshirish uchun cheklangan resurslardan maksimal unumli foydalanish va yuqori va sifatli mahsulot olishdir. Buning uchun bir hujayrali suv o‘tlarini ko‘paytirish, qayta ishlash va yashash muhitini o‘rganish darkor.

Mamlakatimizda ham baliqchilik tarmog'ini to'laqonli ratsionga ega bo'lgan ozuqa bazasi bilan ta'minlashda muammolar paydo bo'lmoqda. Natijada so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan chorvachilik [5] va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida donli mahsulotlarni etishtirish uchun qo'shimcha yer maydonlari [6] hamda yiliga davlat resurslaridan don mahsulotlarining 64600 t. miqdorida ajratilishiga sabab bo'lmoqda [7]. Shu boisdan ishlab chiqarish qulay, tannarxi arzon va barcha zaruriy ingredientlarga boy bo'lgan noanaviy ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarish masalasi o'ta dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Suvo'tlari hujayralaridan oqsil massasi olish texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat: maxsus tanlangan shtammni o'stirish (ochiq yoki yopiq tipdagi o'stirgichlarda); suvo'tlarini suvdan ajratish (separatsiya); suspenziya holatidagi mahsulot olish; pastasimon yoki quruq kukun holatidagi mahsulot tayyorlash. Suvo'tlari hujayralarini suvdan ajratish, ko'p miqdorda energiya talab qilayotgan jarayondir. Chunki, suvni miqdori juda ham ko'p, quruq moddalar miqdori esa juda ham kam.

O'stirish davomida karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ) - maxsus balonlarda minutiga 0,1-0,2 l. miqdorda rotometr orqali o'lchab yuborib turiladi. O'zbekiston sharoitida tabiiy quyosh yorug'ligi yetarli bo'lib, harorat 16 dan  $39^\circ\text{C}$  orasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Oradan 9-10 kun o'tgach (yoz kunlari 6-7 kunda) 1 l. oziqa muhitida 1,5-3,0 grammacha xlorella hujayralari saqlagan suspenziya yetilib tayyor bo'ladi. Xlorellani qish faslida ham o'stirib, foydalanishga ehtiyoj bo'lganda, dastgohni ustini oyna yoki polietilen plenkasi bilan yopish kifoya.

Xlorella o'stirish bo'yicha eng yirik kompaniya – «Xlorella San Kompani» Yaponiyada tashkil etilgan. Bolgariyani issiq suv tabiiy manbalarida xlorella va scenedesmus o'stirish usullari yaratilgan. Shu mamlakat olimlari tomonidan qobig'ida selluloza saqlamaydigan xlorella shtamlari yaratilgan, bu esa olingan biomassani hayvon organizmida tez hazm bo'lishini ta'minlaydi. Spirulina markaziy Afrika va Meksikani ishqoriy tabiatli suv saqlagan ko'llarida ko'plab ekilib, biomassa to'playdi. Spirulina biomassasidan oqsil va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan eng yirik kompaniya Meksikani «Sosa Tekskoko» firmasidir. Italiyada dengiz suvlarida spirulina ekib, o'stirish hamda yopiq tipdagi o'stirgichlarda biomassa olish ustida ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Mikrosuvo'tlarining oqsil va yog' saqlashi CHu-13 ozuqa muhitida bir biridan keskin farq qiladi. Jumladan, Ankistrodesmus avlodiga mansub mikrosuvo'tlari 43,2-46,4 % oqsil saqlasa, 27,4-32,2 % gacha yog' saqlashi qayd etildi (Ankistrodesmus sp.20; Ankistrodesmus sp.15). Xuddi shu ozuqa muhitida Scenedesmus avlodiga mansub mikrosuvo'tlari esa muvofiq ravishda 48.8-52.8 % gacha oqsil va 27,4-28,6 % gacha yog' saqlashini ko'rish mumkin (Scenedesmus sp.7. va Scenedesmus sp.1). Tadqiqot natijalariga ko'ra nisbatan kamroq miqdorda oqsil (46,2-46,8%) va yog' (26,2-26,4%) saqlagan mikrosuvo'ti avlodi sifatida Botryococcus avlodi vakillari qayd etildi. Tadqiqotlar davomida Chlorococcum va Chlorella avlodi vakillari oqsil saqlashi yuqori (46,4-48,8%) ammo, yog' saqlashi (15,6-18,4%) nisbatan o'rganilayotgan barcha mikrosuvo'tlari avlodlariga nisbatan juda kam ekanligi qayd etildi.

Scenedesmus spp boshqa mikrosuvo'tlari bilan taqqoslaganda uning juda yuqori ozuqa sifati, ishlab chiqaruvchilarda qiziqish uyg'otgan. u faqatgina oziq-ovqat sanoatida emas balki boshqa sohalarda ham ishlatiladi. Hattoki mana shu mikrosuvo'ti ustida olib borilgan tajribalar natijasida uning toksikologik xususiyatlari ham aniqlangan, ya'ni uni iste'mol qilgan hayvonlarda hech qanday zaharlanish holati kuzatilmagan, aksincha fiziologik ko'rsatkichlari oshgan. Scenedesmus spp. tarkibidagi uzun zanjirli ko'p to'yinmagan yog'li kislotalari patogen mikroorganizmlarning ko'payishini ingibirlaydi. Scenedesmus sp tarkibida taxminan 52,8% yuqori



olein kislota tashkil qiladi, bu esa eng ko'p miqdorda sifatli biodizel ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari *Scenedesmus sp* biovodorod yoqilg'isini ishlab chiqarishda foydali energiya tashuvchisi bo'lib xizmat qiladi. Maishiy va oqava sanoat suvlarini tozalashda *Scenedesmus sp*dan foydalanadi u iqtisodiy arzon mahsulot hisoblanadi.

*Scenedesmus* mikrosvuvti 61 % gacha oqsil moddasi saqlaydi va tarkibida barcha almashinmaydigan aminokislotalar mavjud. Bu organizmni hujayrasidagi xromatofor ham yashil xlorofill donachalar saqlaydi va suvga yashil tus beradi. Bu organizm hozirda insoniyat uchun oziq-ovqat sanoatida oqsil, vitamin va fermentga boy qo'shimcha, qishloq xo'jaligida esa oqsilga va fermentga boy ozuqa yemi sifatida ishlatilish uchun chuqur o'rganilib izlanishlar olib borilmoqda. Bu mikrosvuvtining insoniyatga katta urg'u berilish sabablaridan biri uning hujayra qobig'ining yumshoqligidadir va uning ham oqsil va mikroelementlarga boyligidir [9].

Qurtilgan *Scenedesmus* biomassasining tarkibi quyidagicha: 60 - 70 % yaxshi o'zlashtiriladigan protein; 1,5 - 12 % almashinmaydigan to'yinmagan yog' kislotali lipidlar; 10 -12 % uglevodlar; B12 vitamini (jigardagiga nisbatan uch barobar ko'p); beta-karotin (sabzi nisbatan 15 barobar ko'p); B1, B2, B6, PP vitaminlari; izoleysin, leysin, lizin, metionin, fenilalanin, treonin, triptofan, valin, alanin, arginin, sistin, glutaminovaya kislota, gistidin, tirozin aminokislotalari: kaliy, kalsiy, magniy, rux, marganets, temir, fosfor minerallari [10].

*Scenedesmus*ning tarkibidagi uglevodlar, yog'lar va oqsillar inson va hayvon organizmida 95 % gacha o'zlashtiriladi. Bunday holni bironta o'simlik yoki hayvon mahsulotlarida uchratish mumkin emas. Bu ozuqaviy qiymatining balandiligi bilan bog'liq. *Scenedesmus* hayvonlar uchun ozuqa qo'shimchasi sifatida foydalaniladi, shuningdek parfyumeriya va dorivor moddalar sifatida ham qo'llaniladi. Shuningdek *Scenedesmus* inson organizmini toksinlardan ham tozalaydi va inson orginizmini ya'ni qonni kislorod bilan ham to'yintiradi [11]. *Scenedesmus* tarkibida o'simliklar o'sishini tezlashtiruvchi va yaxshilovchi auksin va giberrelin sifat moddalar ham mavjud. *Scenedesmus* hozirda o'simliklarni mikotoksinlardan ham himoya qiladi. *Scenedesmus* mikrosvuvtidan foydalanib, baliqchilikda sifatli, ozuqaviy qiymati yuqori go'sht olish mumkin, tannarxi ham keskin arzonlashadi.

Shuningdek, mikrosvuvtlarining ozuqaviy qiymatini belgilovchi oqsil va yog' saqlashi mikrosvuvti avlodlariga bog'liqligi tadqiq etildi. Jumladan, mikrosvuvtlarining oqsil va yog' saqlashi CHu-13 ozuqa muhitida bir biridan keskin farq qiladi. Bunda *Ankistrodesmus* avlodiga mansub mikrosvuvtlari 43,2-46,4 % oqsil saqlasa, 27,4-32,2 % gacha yog' saqlashi qayd etildi. Xuddi shu ozuqa muhitida *Scenedesmus* avlodiga mansub mikrosvuvtlari esa muvofiq ravishda 48,8-52,8 % gacha oqsil va 27,4-28,6 % gacha yog' saqlashini ko'rish mumkin.

Ma'lumki mikrosvuvtlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida o'z o'rni va ahamiyatiga esa bo'lgan ob'ekt hisoblanadi. Jumladan, biodizel, bioetanol, biogaz olishda, oziq-ovqat va ozuqa mahsulotlari olishda, turli xil qishloq xo'jaligi biopreparatlari ishlab chiqarishda sermahsul manba bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, mikrosvuvtlar biomassasini olishda hosil bo'ladigan biomassa va mazkur biomassadan quruq massaning chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan mazkur tadqiqot ishida mikrosvuvtlarining avlodlar kesimida biomassa hosil qilishi, mazkur biomassadan quruq massa chiqishi aniqlandi [8].

*Scenedesmus* mikrosvuvti juda tez katta biomassa hosil qilishi, qayta ishlash va organizmga to'liq so'rilishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga bu mikrosvuvtidagi aminokislotalar inson organizmi uchun judayam foydalidir. Bundan tashqari rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun esa biomassa noananaviy energiya manbasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak respublikamizda mikrosvuvtlardan nafaqat qishloq xo'jaligida, balkim energiya ishlab chiqarishda, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika sanoatlarida ham keng qo'llash uchun mikrosvuvtlarni sanoat

miqyosida ishlab chiqarish iqtisodiy rivojlanish uchun zarur. Xulosa qilib aytganda, Scenedesmus spp suvo'ti qaysi sohada ishlatilishidan qat'i nazar arzon va sifatli mahsulotlardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. [http://www.fao.org/fileadmin/templates/wsfs/docs/Issues\\_papers/HLEF2050\\_Global\\_Agriculture.pdf](http://www.fao.org/fileadmin/templates/wsfs/docs/Issues_papers/HLEF2050_Global_Agriculture.pdf)
2. <http://www.fao.org/3/a-I7695e.pdf>
3. FAO. 2014. The State of World Fisheries and Aquaculture: Opportunities and challenges. – P. 243.
4. FAO, IFAD, UNICEF, WFP and WHO. 2017. The State of Food Security and Nutrition in the World 2017. Building resilience for peace and food security. Rome, FAO.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 maydagi «Parrandachilikni yanada rivojlantirish to'g'risida»gi 77 son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 maydagi «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3621 son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 oktyabrdagi «Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 845 son qarori.
8. Sattarov B., Isxakova Sh., Xayrullaev A., Abdullaev X. Turdibayev D. Xo'jamshukurov N. Mikrosuvo'tlarining biomassa hosil qilishi va ozuqaviy qiymatlarining turlar tarkibiga bog'liqligi // Материалы международной конференции «Современные проблемы экологии и охраны окружающей среды и биотехнологии». – Ташкент, 2022. – с. 750-753.
9. Davranov Q.D. «Biotexnologiya» amaliy va uslubiy qo'llanmalar. - Toshkent. Print-Press. 2008 y. - 650 b.
10. Xo'jamshukurov N.A., Toshmuxamedov M.S., Nurmuxamedova V.Z. «Biotexnologiya asoslari» fanidan ma'ruzalar matni. – Toshkent. TKTI. 2013 y. – 164 b.
11. Po'latov S.M., Yuldasheva N.N.. Baliq yetishtirishda mikro-suvo'tlar o'rni va ahamiyati // Материалы международной конференции «Современные проблемы экологии и охраны окружающей среды и биотехнологии». – Ташкент, 2022. – с. 822-824.

### **TALABALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA RAQAMLI KONTENT YARATISH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**G'aniyeva O.S.** -Nizomiy nomidagi TDPU  
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik  
kadrlarni tayyorlash bo'limi muhandisi  
[oqila.ganiyeva1991@gmail.com](mailto:oqila.ganiyeva1991@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, kasbiy fanlar integratsiyasi asosida raqamli kontent yaratish, kasbiy tayyorlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda fanlarni o'qitish jarayonida yuqori ilmiy saviyaga erishish, axborotlarni tanlay olish mahorati, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga imkon beradi.

**Kalit so'zlar:** Axborot, axborot texnologiyalari, Raqamli ta'lim texnologiyalari, raqamli kontent, raqamli savodxonlik, kompetentlik, kasbiy axborotlar, pedagogik texnologiya.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

**Аннотация:** В статье раскрывается способность будущего учителя получать информацию с помощью информационно-коммуникационных технологий, интеграции профессиональных дисциплин, профессионального производства, использования информационно-коммуникационных технологий, высокого научного уровня в учебном процессе, умения выбирать информацию. Будущим учителям позволяет развить компетенции работы с профессиональной информацией.

**Ключевые слова:** Информация, информационные технологии, Цифровые образовательные технологии, цифровой контент, компьютерная грамотность, компетентность, профессиональная информация, педагогические технологии.

**Annotation:** In the article, the future teachers use information and communication technologies to create digital content based on the integration of professional subjects, professional training, to achieve a high scientific level in the process of teaching subjects using information and communication technologies, the ability to select information, the future allows teachers to develop competence in working with professional information.

**Key words:** Information, information technologies, Digital educational technologies, digital content, digital literacy, competence, professional information, pedagogical technology.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, talabalarda axborot texnologiyalari va kasbiy fanlar integratsiyasi asosida raqamli kontent yaratish kompetentligini takomillashtirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ma'lum mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirishni talab etadi.

Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish ta'limning yetakchi maqsadi bo'lib, bu talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lish yo'lida raqobatbardosh fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan o'qituvchining vazifasi o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.

Zamonaviy mehnat bozori yuqori malakali kadrlar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi, shu munosabat bilan ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yangilanmoqda. Hozirda axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatiga ega va o'z kasbiy faoliyatini mustahkam egallagan, yuksak salohiyatli bitiruvchi talaba kerak. Ta'lim muassasasining ustuvor vazifalaridan biri talabaning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki axborot texnologiyalaridan foydalanish, axborotni mustaqil ravishda ajratib olish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Universitetlar yuqori texnologiyali darsliklar va darsliklar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni keng yoyishlari kerak.

Raqamli ta'lim texnologiyalari - bu ko'rinishni ta'minlaydigan elektron tizimlardan foydalanishga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion usuli. Raqamli texnologiyalardan foydalanishdan maqsad o'quv jarayonining sifati, samaradorligini oshirish, shuningdek, talabalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishdan iborat.

Raqamli savodxonlik har bir fuqaro uchun zamonaviy dunyoda muloqot qilish, ish topish, keng qamrovli ta'lim olish yoki ta'lim berish uchun ajralmas talab bo'lib qoldi. Raqamli ko'nikmalarning to'g'ri va to'liq to'plamiga ega bo'lish nafaqat zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topish uchun, balki yanada ochiq, inklyuziv va xavfsizroq bo'lish uchun muhim ahamiyatga egadir.

**Kontent yaratish**- bu ma'lum bir kontekstda oxirgi foydalanuvchi uchun har qanday ommaviy axborot vositalariga va ayniqsa raqamli ma'lumotlarning hissasi. Kontent— o'z-o'zini ifoda etish, tarqatish, marketing yoki nashr etish uchun nutq, yozuv yoki turli xil san'at turlari kabi biron bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo'lgan axborot vositasi“. Kontent yaratishning shakllariga web ilovalar web sahifalar, darsliklar veb saytlarni saqlash va yangilash, yuritish, maqolalar yozish, fotosuratlar videografiya, onlayn sharhlar, ijtimoiy media akkauntlarini saqlash, raqamli mediani tahrirlash va tarqatish kiradi.

Axborot kompetentligi rivojlantirish jarayoniga komponentlarning kiritilishi o'rganilayotgan til mamlakatining tarixi, madaniyati, ijtimoiy-madaniy an'analari, milliy dunyoqarashi xususiyatlariga oid masalalarni kiritish zarurligini e'tirof etishga olib keldi.

Axborot kompetentligi umumiy xususiyatlariga ega, lekin ayni paytda u shaxs ichki madaniyatining namoyon bo'lishidir. M.A.Akopyanning fikricha, axborot kompetentligibajaradigan vazifasiga ko'ra ko'p qirrali va ko'p funksiyali bo'lib, rivojlanishning tegishli darajasi bilan belgilanadi va ijtimoiy guruh birgalikda va shu ijtimoiy guruh orqali jamiyat va boshqa madaniyatlar bilan ma'naviy aloqa vazifasini bajaradi.

Kompetentli yondashuv dunyoda ta'limning konseptual asosiga aylanmoqda. Ayni paytda kompetentlik bu nafaqat bilimlarga ega bo'lish, balki ularni amaliyotga moslashtira olish imkoniyati hamdir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – bo'lajak o'qituvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Kompetensiyani ifodalash zamonaviy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan atama bo'lib, ta'lim, kadrlar tanlash, ish faoliyatini baholash, ta'lim yutuqlari, kasbga yo'naltirish va hokazolarni qamrab oladi

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymizki, ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli kontent yaratilishi, talabalarni mustaqil fikrlashiga, ijodiy izlanishlari va mantiqiy tafakkurini kengaytirishga, shuningdek, darsda olgan bilimlarini hayot bilan bog'lab, darsga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Ana shunday zamonaviy talablar asosida o'qituvchilar tomonidan yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish ta'lim jarayoni sifatini kafolatlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Hamdammov, U.Begimqulov, N. Tayloqov. “Ta'limda axborot texnologiyalari”. O'z.Milliy ensiklopediyasi. Toshkent-2010.
2. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2019. –45 b
3. Арипов М., Пудовченко Ю., Арипов К. Основы Интернет. – Тошкент: Университет, 2002. - 194 с.
4. Xoliqov D.R. “Ta'limda AKT kompetentlarini shakllantirish” Jizzax-2022.
5. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
6. <https://armat.tdpu.uz/>

**V-VI SINFLARDA ANIQ VA TABIIY FANLARNI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**Abdug'afur Avliyoqulov**

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

**Tayanch so'zlar:** *integrativ yondashuv, metodologiya, integratsiya, ta'lim, o'qitish, fan, aniq va tabiiy fanlar, pedagogik texnologiya, matematik uzviylik integratsiyasi.*

**Ключевые слова:** *интегративный подход, методология, интеграция, образование, обучение, предмет, точные и естественные наука, педагогические технология, математическое соединение интеграции.*

**Annotation.** *The methods and the scientific and theoretical basis for the organization of mathematics lessons based on integrative approaches in secondary schools are provided.*

**Key words:** *integrative approach, methodology, integration, system of education sciences, teaching, subject, mathematics, pedagogical technology, integration of continuity.*

**Annotatsiya.** *Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o'qitish metododologiyasining pedagogi-nazariy asoslari bayon qilingan.*

**Резюме.** *Изложены методы и научно-теоретические основы организации уроков математики на основе интегративных подходов в общеобразовательных школах.*

O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalasi pedagoglarning diqqat markazida bo'lib, ular talimni isloh qilishda birinchi vazifa talabalarda nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning induvidial ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishdan iboratligi belgilab qo'yilgan" [1; 13-b].

"Integratsiya – juda keng ma'nodagi tushuncha. Bugungi kunga kelib kishilar integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, zarur."

"Integratsiya" - lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib, "integr" to'liq yaxlit, bir butun degan ma'nolarni anglatadi; integratsiya-o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq, turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir" [2; 24-b]. V-VI-sinflarda algebraik va geometrik metodlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishni murakkab tizim sifatida qaraymiz. Bu tizimning modelini yasash uchun biz uning komponentlarini ajratishimiz va ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlashimiz zarur. Qaralayotgan tizim strukturasi birinchi o'rinda integratsiya obyektlari, ya'ni algebraik va geometrik metodlar qaraladi.

"Falsafaga doir adabiyotlarda integratsiya element va qismlarning bir butunga birikishi bilan bog'liq rivojlanish jarayoni sifatida talqin etiladi" [3; 254-b]. Shu nuqtai nazardan

integratsiya jarayonlari murakkab tizim bo'lgan holda ular avvalgisiga bog'liq bo'lmagan yangi tizimning paydo bo'lishidagi ishtiroki uning butunlik darajasini oshishi sifatida ko'rsatiladi. Butunning integrallashgan alohida qismining turdoshlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

“Integratsiya jarayonida tizim elementlari orasidagi o'zaro ta'sir va o'zaro bog'liqlik hajmi oshadi. Ba'zan integratsiya deganda integratsiyalashganlik tushiniladi, unda butun bo'lagining tartiblangan amal qilish holati integratsiya jarayonining biror natijasi bo'ladi” [4; 210-b].

Rivojlanish va taraqqiy etish darajasida fanlarning integrativ yo'nalishlari turli bilim sohalarining o'zaro ta'sirida oydinlashdi.

Ta'limning murakkablashuvida uzluksiz V-VI-sinf ta'lim tizimida aloqadorlik va uzluksizlik prinsiplarining buzilishi yuz bermoqda. Uning ko'rinishlaridan biri inson o'zining hayoti davomida to'plagan bilimlarining bir-biridan ajralgan, tizimsiz, tabiatning umumiy qonunlari bilan o'zaro bog'lanmagan ko'rinishini olishida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun zamonaviy ta'lim o'quv predmetlarining mos bo'limlarini birlashtirishni talab etmoqda, predmetlarning o'zaro bog'liqlik muammosi zamonaviy didaktika, psixologiya va o'qitish metodikasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu muammoning og'riqli nuqtasi predmetlarni o'qitishda ko'rinmoqda. Masalan, 5-sinfda geografiya fanida masshtab va nisbatga doir masalalar birinchi darsdan boshlab o'qitiladi, biroq o'quvchilar matematika darslarida bu masalalarning asoslarini o'rganishga ulgurishmagan. Bu predmetlar doirasidagi integratsiya aniq va tabiiy fanlarining aloqadorlik, bog'liqlik va o'zaro bog'liqlik, ularning rivojlanish dialektikasini ifodalashga imkon beradi. Biroq predmetlarni alohida o'rganish o'quvchilarda atrof-muhit va unda insonning o'rni haqidagi tassavurlarni shakllantirishda etarli emas.

“Aniq va tabiiy fanlar tizimidagi o'rni haqida shunday xulosa chiqarish mumkinki, atrof-muhit, butun olam qonunlariga bo'ysunadi va aniq, tabiiy, gumanitar, ijtimoiy va antropologik fanlarga oid bilimlar integratsiyalashadi. Bunda har bir fanni o'rganish strategiyasi o'zgaradi” [5; 82-b]. Birinchi o'rinda qaralayotgan ob'ektni o'rganish ilgari suriladi. So'ngra uning barcha tomon-lari, xossalari va paydo bo'lishi birgalikda, bir necha fanlar esa va qaralayotgan ob'ekt bir vaqtda turli aspektlarda o'rganiladi.

Bu fanlar doirasidagi integratsiya aniq va tabiiy fanlarining aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik, ularning rivojlanish dialektikasini ifodalashga imkon beradi. Biroq predmetlarni alohida o'rganish o'quvchilarda atrof-muhit va unda insonning o'rni haqidagi tassavurlarni shakllantirishda etarli emas.

Demak, integratsiya pedagogik tushincha va didaktika prinsipi sifatida ikkilamchi inkor asosida vujudga keldi: avval predmetlik komplekslikni inkor qiladi, so'ngra fanlararo aloqadorlik simvolik ravishda predmetlikni inkor qiladi. Predmetlik va fanlararo aloqadorlikning dialektik sintezi integratsiyaga olib keladi. Biroq integratsiya nafaqat tushincha va prinsip sifatida, balki ta'lim tizimi sifatida paydo bo'ladi. Integratsiyalashgan o'quv kursi sifatida algebra va geometriyaning birikishi, ular orasidagi bog'lanishlar bugungi kungacha dolzarb hisoblanadi. Matematika o'qitishda o'quvchi faoliyatining asosiy ko'rinishi masala yechish bo'ladi, o'quvchining samarali faoliyati sifatida algebraik va geometrik metodlar integratsiyasi yordamida aniq va tabiiyfanlar orasidagi sermazmun bog'lanishlarni o'rnatish mumkin. Bunday yo'nalish aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda faoliyatli yondoshuvni qo'llashni ta'minlaydi.

Har qanday holatda integratsiyani amalga oshirishning umumiy usuli predmetni o'rganish tizimida qo'lga kiritiladigan bilim, malaka, axborotlarni umumlashtirishdan iborat. Umumlashtirish, axborotlarning integratsiyalashishi bosh miya faoliyatini tartibga solishning

muhim psixofizologik mexanizmdir. Bu o'z navbatida bilimlarning integratsyalamasdan aqliy tarbiyani amalga oshirish mumkin emasligini ko'rsatadi.

Axborotlar integratsiyasi ijodiy faoliyatning samaradorligini oshiruvchi fikrlash modelini umumlashtirishni shakllantirish bilan teng kuchga ega. O'quvchi ongida real jarayon va hodisa va uning rivojlanishi orasidagi bog'lanishlar aks etadi. Shuning uchun fanlararo aloqalar, shuningdek aniq va tabiiy fanlar integratsiyalashuvi ta'limda o'quvchilar aqliy rivojlanishining muhim yo'lini tashkil etadi. "Fanlararo bilimlar tizimi – bu insonning aqliy rivojlanishining yuqori ko'rsatgichidir. Bu darajadagi o'quvchining qobiliyati, ya'ni bilimni bir fandan ikkinchisiga ko'chirish usullari ta'lim faoliyatining samarali bo'lishini xarakterlaydi" [6; 146-b]. Didaktik nuqtai nazardan aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi didaktik prinsiplarning zarurligi sifatida amal qiladi: ilmiylik prinsipi, tizimlilik va ketma-ketlik prinsipi, ko'rgazmalilik prinsipi va boshqalar.

Ilmiylik prinsipiga muvofiq ta'lim mazmuni quyidagicha bo'lishi shart:

- a). zamonaviy fan darajasiga mos bo'lish;
- b). o'quvchilarga ta'lim jarayonining muhim qonun-qoidalarini ko'rsatish.

Shunday qilib, ta'lim mazmuniga faqat ilmiy bilimlar ya'ni, nafaqat tabiatdagi faktlar, hodisalar balki, ularning o'zaro bog'liqligi kiritilishi kerak. Aniq va tabiiy fanlarni rivojlanish jarayonida bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tevarak atrofni bilishning xususiy metodlari, fanlar va ilmiy bilimlar integratsiyasi esa ta'lim jarayonining bosh yo'nalishi bo'ladi. Hozirgi sharoitda aniq va tabiiy fanlar integratsion jarayonlarni kuchaytirish, real hodisa va predmetlarning modellarini yasash va o'rganish orqali uni atrof muhit bilan yaqinlashtirish, ularni aniq va tabiiy fanlar ta'limida aks etishini zarurligini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4306-son qarori. –Toshkent, 2019 yil, 3 may.
2. Avliyoqulov A. Matematika tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. "Surxon ilm nashri" nashriyoti. 2024 yil. 229 bet.
3. Авлиякулов А.А. Концептуальные интегративного подхода методологии обучение математики. Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендир” Илмий-методикалық журнал. Қарақалпақстан Республикасы. мугаллим-pednauk@umail.uz № 6/1. 2019 жыл. 153 бет.
4. Djumayev M. Avliyoqulov A. Integratsiyalashgan ta'limni amalga oshirishda milliy o'quv dasturining imkoniyatlari. "Yangi O'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent. 20-21 may 2022 yil. 745 bet.
5. Jumayev M. Avliyoqulov A. Umumta'lim maktab o'quvchilariga matematika fanini integrativ yondashuv orqali o'qitishning konseptual asoslarini shakllantirish metodologiyasi. "Umumta'lim fanlarini sinxron va asinxron bog'lab o'quvchi kreativ faoliyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv". Denov. 2022 yil. 368 bet.
6. Avliyoqulov A. Fan va texnikaning taraqqiyot bosqichlari va kelajakdagi istiqbollari. "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayot: tarix va tahlil" Respublika ilmiy anjumani. Termiz s'hahri. 2019 yil. 501 bet.

**OLIY TA'LIMDAGI ISLOHOTLAR NODAVLAT TA'LIM TIZIMINING  
BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI USTUVORLIGINI BELGILAYDI.**

**M.X.Dustov katta o'qituvchi**  
Toshkent amaliy fanlar universiteti

***Tayanch so'zlar:** Yangi O'zbekiston, islohot, takomillashtirish, oliy ta'lim, nodavlat ta'lim, mehnat bozori, raqobatbardosh kadr, inklyuziv ta'lim.*

***Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida Qonun doirasida ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi hamda unda inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratildi.*

Yangi O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, mazkur ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi islohotlarni tizimli tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonun doirasida ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi hamda unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga keng yo'l ochildi. Ushbu Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi.

Jumladan, nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischi tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga belgilangan tartibda litsenziya oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi. Islohotlar ichidagi yana bir jihat Qonunda dual ta'limga oid qoidalarning belgilanganligi bo'ldi. U ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratildi. Faoliyatning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi. Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan mazmunan va mohiyatan, tubdan farq qiladi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'lum qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga



ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tizimdagi yangi islohotlar uchun asosiy poydevor vazifasini bajarmoqda. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Oliy ta'lim muassasalarining jahon talablari darajasidagi erishayotgan o'rni, shuningdek, muvaffaqiyatli yutuq va marralari oldimizga qo'yilgan ulug' maqsad sari harakatlarning samarasini anglatadi.

Hamamizga ma'lumki, mehnat bozorida ta'lim raqobatbardoshlikni va turmush farovonligi darajasini oshirishning eng muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391- son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash<sup>12</sup> maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Bu konsepsiya oliy ta'lim muassasalari rivojlanishi uchun amalga oshirilishi ko'zda tutilgan rejalarini belgilaydi va asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim tizimini boshqarish va menejmentga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari va chiqishlarida, jumladan, M.X.Saidov oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv, V.A.Sadiyev oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish va uning tashkiliy-boshqaruv, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, SH.Sharipov, N.Egamberdiyeva, P.Lutfullayev, SH.Yunusov va boshqalar tadqiqotlarida mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash mazmuni, ta'limni internatsionalizatsiyalash jarayonlarida oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligini boshqarish, hamda oliy ta'limni rivojlantirishda benchmarkingni joriy etish masalalariga to'xtalanganligi ham ilmiy qarashlar xilma-xiligini asoslaydi. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini nufuzli horijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish, raqamli ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish asosida bilimlar transferini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilganligi fikrimizni asoslaydi.

Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Ilm fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarining innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ularning transformatsiyasini rivojlantirish" masalalari belgilandi.<sup>13</sup>

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida shunday o'ziga xos muammolar mavjudki, bunda ularni samarali yechimlari hamkorlikni, aloqadorlikni, mazmunni o'zgartirishni talab etadi. Chunonchi, amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlarida mazmun jihatdan bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga, hayotiy imkoniyatlarini rivojlantirishga doir mezonlarning to'laqonli emasligi, o'quv mavzu dasturlari va rejalaridagi majburiy fanlarga ajratilgan soatlarning ko'pligi, oliy ta'lim muassasalari va mehnat bozorida ehtiyojdan kelib chiqib, kadrlar buyurtmachilari o'rtasida yangi avlod kadrlarini tayyorlash bo'yicha o'zaro hamkorlik ishlari samarali yo'lga qo'yilmaganligi, ishga qabul qiluvchilarning oliy ta'lim kontentini shakllantirishdagi ishtirokining passivligi kabi muammolar mavjud. Bugungi kun zamon bilan hamnafas, jahon stundartlariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni ilovasi

<sup>13</sup> O'z.R.Prezidentining 4467-sonli "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

tayyorlashni oliy ta'lim tizimidan talab qilar ekan, uning asosiy maqsadi shunday talabalarni o'quv maskanida zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, amaliyotda samarali qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish, milliy va xalqaro standartlariga to'laqonli javob bera oladigan yetuk kadr etib tarbiyalash davlatimizning ustivor vazifasi ekanligini unutmashimiz lozim.

Biz uchun dasturulamal bo'lgan me'yoriy hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 3- bobida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etilishi kabi bandlar kiritilgan bo'lib, mazkur bandlar ijrosini ta'minlash ta'lim tizimida o'zaro uzviylikni hamda masalaga kompleks yondashishni, talabalarning kasbiy ehtiyojlarini o'rganish orqali ularning o'zlari tanlagan kasbi bo'yicha chuqur bilimlarni egallashlari zarurligini asoslaydi.

Ushbu mas'uliyatni zimmasiga olgan ham ta'lim muassasasi ham talabalar jamiyat ravnaqi hamda ta'lim-tarbiyada uchragan muammolar yechimini topish ko'nikmasiga ega kadrlar sifatida shakllanadi.

Xalq ta'limi uchun salohiyatli, yetuk kadr tayyorlayotgan oliy ta'lim tizimi u xoh davlat, xoh nodavlat ta'lim muassasasi bo'lsin, bevosita mustahkam uzviylikni, izchillikni kafolatlaydigan mutaxassis uchun javobgardir. Shuningdek, mazkur konsepsiyaning Oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bandida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirishni taqazo qiladi.

Belgilab berilgan asosiy vazifa bevosita boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda o'z dolzarbligini yanada oshiradi. Bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishga tizimli yondashuvni talab qiladi hamda alohida e'tibor qaratish belgilab qo'yildi.

Maktab ta'limi bevosita uzluksiz ta'limning bir bo'g'ini bo'lib, bolalarning ta'lim-tarbiya olishini, ijodiy qobiliyatini, bilim, ko'nikma, malaka kompetensiyalarini shakllantiruvchi, mustaqil, erkin kreativ faolligini ta'minlovchi, bilimlarni ko'nikmaga aylanishida yetarlicha sifatli sharoit va muhitni bera oladigan maskandir. Ushbu sohada qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlarning ijrosi tizimning yanada rivojlanishi uchun turtki bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi <sup>14</sup>PQ-4467- son Qaroriga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat talablarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv metodik majmualarning zamonaviy, yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, hamda tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishni yanada takomillashtirishni ma'qullaydi.

Konsepsiyada ko'plab fanlar, ayniqsa, gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga alohida e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va modernizatsiyalashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida eng so'nggi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim

---

<sup>14</sup> O'z.R.Prezidentining 4467-sonli "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish; kabi talablar qo'yilgan.

Oliy ta'lim muassasalari Boshlang'ich ta'lim va Maktabgacha ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari STEAM ta'limi fanini kiritish, hamda o'quv rejalari bu fan orqali takomillashtirilsa hozirgi kun nafasi bilan yashaydigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Zamonaviy ilm-fan rivojlanishi, hamda horij tajribasining keng o'rganilishi, oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejalarning har yili takomillashuvini talab etadi. Shuningdek, xalq ta'limi tizimidagi islohotlar ham oliy ta'lim muassasalari kontentini qayta ko'rib chiqishni va integratsiyalashuvini talab etadi. STEAM таълими bevosita amaliy o'quv jarayoni hisoblanib, bunda darslarni oddiy auditoriyalarda emas balki, maktab uchun qulay amaliy laboratoriya sinflarida ta'lim muassasalarining STEAM xonalarida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, talabalarning mazkur fan bo'yicha tushunchalari va ko'nikmalari ham aynan ishlab chiqarish ustaxonalarda va STEAM хоналарида amalga oshirilsa, kelajakda maktab sinf xonasida yetuk pedagoglar, mohir, malakali STEAM ўқитувчиларининг faoliyat yuritayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

## **MATEMATIKA O'QITISHDA O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**Mamaraimov Bekzod Qodirovich**

Termiz davlat universiteti Akademik litseyi Matematika fani o'qituvchisi

**Musurmonov Ma'ruf Akram o'g'li**

Termiz davlat universiteti Akademik litseyi Matematika fani o'qituvchisi

[marufmusurmonov185@gmail.com](mailto:marufmusurmonov185@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Matematika o'qitishda o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari mavzusi to'laqonli yoritib berilgan. Matematika o'qitishda o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari bosqichma-bosqich tizimi haqida ham so'z borgan.*

***Kalit so'zlar:** Matematika, elementlar, emotsional, masala, tekshirish, dars, ta'lim.*

Psixologik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda biror ko'nikma shakllantirilishi uchun ular bir birini almashtiruvchi bosqichlardan o'tishi zarur. Jumladan, P.A.Galperin aqliy faoliyatning shakllanish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'ladi.

1. O'quvchilar masalaning qo'yilishi bilan tanishishi bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qituvchining qanday yo'llar bilan masala yechishini kuzatadilar.

2. Masalaga doir ma'lumotlarni anglash bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilar tashqarida kuzatish bilan aqliy fikr yuritadilar, masalani yechish uchun zarur bo'ladigan harakatlarni fikrlaydilar va masala mazmunini, uning elementlarini o'rganadilar. O'qituvchi esa ularning bu harakatini baholaydi.

3. Masala yechish jarayonini aytib berish bosqichi (kichik sinflarda og'zaki, katta sinflarda yozma ravishda. Ba'zan bu bosqich alohida ajratilmaslik ham mumkin).

4. Masalaning alohida elementlarini har bir o'quvchi o'zicha yechish bosqichi, bu bosqichda masalaning qadamma-qadam algoritmi asosida yechilishini o'qituvchi kuzatadi.

5. Oxirgi bosqich – bu aqliy va ichki fikrlarni shakllanishi. Bu bosqichda harakatlar juda tez kechadi, kuzatish qiyinlashadi.

Bu bosqichlarning bir – biridan farqi shundaki, o'quvchi oldin ko'rsatmalardan foydalanadi, keyingi bosqichlarda esa yoddan yechishga o'tadi, kerak bo'lgan hollarda ko'rsatmalardan foydalanishi mumkin.

Shunday qilib o'quvchilarning matematikaning o'rganishdagi faoliyatiga doir ko'nikmalari aqliy hisoblanadi, demak o'quvchilarda aqliy ko'nikmalarining hosil bo'lishi bosqichma-bosqich olib borilishi kerak.

Shunday qilib, o'quvchilarning matematikani o'rganishdagi faoliyatiga doir ko'nikmalari aqliy hisoblanadi. Demak o'quvchilarda aqliy ko'nikmalarining hosil bo'lishi bosqichma-bosqich olib borilishi kerak.

Matematika va o'ziga xos tafakkur obrazi bugungi vaqtda mustaqil Respublikamizdagi har bir fuqaroni umumiy madaniyatining zaruriy elementi bo'lib qolmoqda. Har bir ishchi, injener va olim o'zining bilimi, qobiliyati va mahoratini doimo takomillashtirib borishi lozim. Bugungi kun va kelajakni o'ylagan holda zamonaviy maktablarda ham buni nazarda tutish kerak. Maktablar hamma bilimlar bilan ta'minlanishi mumkin emas, u bilimlarni egallash va ularni amalda ijodiy qo'llay olishga yo'naltirish vazifasini bajaradi.

Buning uchun matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy bilish metodlari bilan tanishtirish lozim. Matematika o'qitishda tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirish, quyidagi elementlar asosida amalga oshiriladi: bilimlar aniq bir maqsadga qaratilganini kuzatish; taqqoslash va umumlashtirish; gotezalarni ilgari surish va to'g'riligini sodda usullar yordamida tekshirish va boshqalar.

Insonlar qandaydir harakatni anglashi uchun avvalambor uning predmeti va maqsadi nimadan iboratligini bilishi lozim. Shuning tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirish haqida gapirganimizda biz faoliyatning predmetini tashkil etish uchun qanday darajada shakllantirishni amalga oshirish va aniq maqsadni belgilab olishimiz lozim.

Ilmiy metodik va psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki (YU.M.Kolyagin, V.N.Andreev, V.G.Razumovskiy va boshqalar) o'quvchilar bilishga oid masalalarni yechishda evristik, reproduktiv va maxsus usullardan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Bunda o'qituvchi tadqiqiy faoliyatda ko'nikmalarni aniq maqsadga qaratilganiga ahamiyat berish; taqqoslash va umumlashtirish; gotezani ilgari surish hamda to'g'riligini sodda usullar yordamida tekshirish va boshqa tomonlariga ahamiyat bergan xolda shakllantirishi mumkin. Shu bilan birga matematik masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarning tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirish sharoitlarni ochib berishi lozim.

Bundan ko'riladiki har qanday matematik masalaning to'g'ri yechishi yuqoridagi shaklda sistemalashgan ketma-ketlikni talab qiladi. Tadqiqiy faoliyatning tarkibiy qismlarini shakllantirishda quyidagi faktlarni hisobga olish lozim.

- Alohida amallarni bajarish orqali tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirish;
- Tadqiqiy ko'nikma strukturasini ochish;
- Har xil o'quv materiallaridan foydalanib, tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirish;
- Bilishga oid masalani yechish orqali tadqiqiy faoliyat tarkibiy qismlarini shakllantirish.

Bularni e'tiborga olib, tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirishda masalalarni ikki turga ajratish mumkin:

- Tadqiqiy ko'nikmaning tarkibini ochadigan masalalar;
- Tadqiqiy faoliyat elementlarini shakllantiradigan masalalar.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

O'qitish samaradorligini oshirishda asosiy kerakli masalalardan biri bu o'quvchilarning bilishga oid tadqiqiy faolligi motivlarni tarbiyalash hisoblanadi ya'ni tadqiqiy faoliyat elementlarini shakllantirish jarayonida ta'limning jiddiy tomonlaridan biri hisoblangan o'quvchilarning o'rganish motivlari shakllanadi.

O'quvchilarning ta'lim olish sabablari bilan bog'langan o'quv faoliyatini jadal o'stirish va uning qizg'in olib borilishi ta'lim samarasini oshiruvchi asosiy uslublardan biridir. YU.K.Babanskiy ta'kidlaganidek, "motiv maqsadni belgilash bilan birga uni yanada kuchliroq va jadalroq boshqarishga chaqiradi.bundan ta'limning ixtiyoriy motivi emas, balki ancha chuqur, kuchli, mazmunan boy bo'lgan ta'lim motivlari kerakligi ko'rinib turibdi...".

E.N.Ilg'in, R.G.Xazankiy va boshqa ko'pgina O'qituvchilarning ijodiy tajribalaridan ko'rinadiki, ular motivlashtirishga katta ahamiyat berishgan. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilarning o'qish qobiliyatlari o'sadi, bilishga oid qiziqishlari uyg'onadi hamda qisqa vaqt ichida o'quv materialining katta qismini o'zlashtirishga kirishadilar. O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini tobora o'stira borish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki matematik qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarda tanqidiy ko'nikmalarini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir.

**Xulosa:** Hozirgi zamon psixologiyasida tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirish asosida qobiliyatlarni rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Matematik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi umuman shaxsning rivojlanish muammosidir. Qobiliyatlarning rivojlanishini emotsional va uning shakllanishidan ajratib olish mumkin emas.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi rezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.
2. Djumaev M. Mathematical regularity and development of creative thinking of students. Deutsche internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft /German International Journal of Modern Science. Edition: № 28/2022 (February) – 28th Passed in press in February 2022 №28 2022. 26-28 st.
3. Dzhumaev Mamanazar Irgashevich, professor at the Tashkent State University named after Nizami. Tashkent city (Uzbekistan).Use of Computer Software in Education of Students in Primary School and Preschool. www.biogenericpublishers.com.28.09.2021 Angilya.
4. DJumaev M. Realizatsiya professionalnoy kompetensii pedagogov kak sredstvo metodiko-matematicheskoy podgotovki v kolledjax. Yamalo.Rossiya.12.12.2021.g. Jurnal. «PROFESSIONALNOE OBRAZOVANIE ARKTICHESKIX REGIONOV» № 4, DEKABR, 2021. 7-8 st

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISHNING SAMARASI**

**Ergashev Sardor Fayzulla o'g'li**

Sharof Rashidov tuman 2-son kasb-hunar maktabi

Maxsus fan o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va uning istiqbolli natijalari tahlil qilingan.

**Abstract:** This article analyzes the use of digital technologies in professional educational institutions, the role of using digital educational resources in improving the quality of education and its prospective results.

**Аннотация:** В данной статье анализируется использование цифровых технологий в профессиональных образовательных учреждениях, роль использования цифровых образовательных ресурсов в повышении качества образования и его перспективные результаты.

**Kalit so'zlari:** professional ta'lim, raqamlashtirish, ta'lim jarayoni, raqamlashtirishning samarasi

**Key words:** professional education, digitization, educational process, effect of digitization

**Ключевые слова:** профессиональное образование, цифровизация, образовательный процесс, эффект цифровизации

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabr kuni "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi PF-6097-sonli farmonida ta'lim yo'nalishini raqamlashtirishga oid qator vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizning jadal suratlar bilan rivojlanishi, dunyodagi rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlar qatorida o'zining munosib o'rniga ega bo'lish va o'z mavqeyini yanada yuksaklarga ko'tarib mustaxkamlab borishida ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan ta'lim tizimini yanada takomillashtirib, raqamlashtirilgan ta'lim tizimiga o'tish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uning samarasini yanada oshirib O'zbekistonning kelajagi hisoblangan yoshlarimizni o'z tanlagan sohalarida kerakli bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlari, yetuk mutaxassis kadrlar bo'lib yetishishida ta'lim tizimini raqamlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirilgan ta'lim tizimida ta'limga oid bo'lgan eng so'nggi yangiliklar va ma'lumotlarni o'zida jamlab uni eks ettirib boradi va bu jarayonlar doimiy ravishda yangilanib boradi.

O'qitish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish "ta'limni raqamlashtirish" deb nomlanadi. Bunda barcha o'quv hujjatlari – o'quv rejalari, fan dasturlari, tegishli fanlarning ishchio'quv dasturlari, guruh jurnallari, o'quv materiallari onlayn shaklga o'tkaziladi.

Ta'lim tizimini raqamlashtirish bu-raqamlashtirilgan ta'limda taxsil olayotgan yoshlarimizni mas'uliyatni xis qiladigan, mustaqil fikrlay oladigan, zamon talabiga mos bo'lgan ahborot kommunikatsion texnologiyalaridan, zamonaviy texnikalar va ilgo'r texnologiyalardan erkin foydalana oladigan, fanning yangi yutuqlarini amaliyotga va hayotga tadbiq eta oladigan yetuk mataxssis kadrlar bo'lib yetishishi ta'minlaydi.

Professional ta'lim tizimini raqamlashtirishda raqamli ta'lim resurslarini yaratish uchun bir qator yutuqlarga erishildi. Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 26-iyundagi

“Professional ta'lim tizimida “Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari” Respublika ko'rik tanlovini o'tkazish to'g'risida”gi buyrug'iga asosan 3 bosqichli tanlov o'tkazildi. Ko'rik tanlovda jami 900 dan ziyod raqamli ta'lim resurslari ishtirok etdi. III bosqichda 362 ta raqamli ta'lim resurslari tanlov hayati tomonidan baholanib 17 xil nomimatsiya bo'yicha 44 ta go'liblar aniqlandi, yana 25 ta raqamli ta'lim resurslari 75 balldan ziyod to'plab rtr.profedu.uz platformasiga yuklandi.

Bugungi kunda rtr.profedu.uz platformasiga yuklangan 70ta raqamli ta'lim resursidan foydalanib o'tilayotgan darsliklarimiz ananaviy o'tilayotgan darslardan tubdan fara qiladi.

Agar Professional talim tizinning raqamlashtirish tizimini mukammal ravishda shakllantirilsa professional ta'lim tizimida taxsil olayotgan o'quvchilar uchun juda katta imkoniyatlar yaratiladi. O'quvchilar o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni, nafaqat matn ko'rinishida balki istalgan usulda rasm, slayd, vedio va turli animatsiyalar ko'rinishida olish imkoniga ega bo'ladilar. O'quvchilar o'z bilimlarini sinab ko'rish uchun, uy sharoitida Internetga bog'lanish orqali masofadan tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlari, sinov va imtihonlarda ishtirok etishi mumkin. O'quvchilarda talim muassasasiga kelmagan holda kunnig istalgan vaqtida kerakli fan resurslari to'liq foydalana olish imkoniyati yaratiladi. Raqamlashtirilgan ta'limda taxsil olgan o'quvchilardan zamon talabiga mos yetuk professional kadrlarni yetib chiqadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://lex.uz/ru/docs>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli\\_texnologiya\\_asoslari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_texnologiya_asoslari)
3. rtr.prof.edu.uz

#### **RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI YARATISHDA PEDAGOGLARNING INNOVATSION YONDASHUVI**

**Muminova Muhayyo Meliqulovna**

Sharof Rashidov tuman 2-son kasb-hunar maktabi

Umumta'lim fanlari kafedrası mudiri

muminovamuhayyo2488@gmail.com

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada raqamli ta'lim resurslarini yaratilishida pedagog kadrlarning innovatsion yondashuvi va axborot kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalana olishi yoritib o'tilgan .*

**Abstract:** *In this article, the innovative approach of pedagogues and the effective use of information and communication technologies in the creation of digital educational resources are highlighted.*

**Аннотация:** *В данной статье освещены инновационный подход педагогов и эффективное использование информационно-коммуникационных технологий при создании цифровых образовательных ресурсов.*

**Kalit so'zlari:** *raqamli ta'lim resurslari, axborot kommunikatsion texnologiyalari, innovatsion ishlanmalar, rtr.profedu.uz platformasi*

**Key words:** *digital educational resources, information and communication technologies, innovative developments, platform rtr.profedu.uz*

**Ключевые слова:** *информационно-коммуникационные технологии,*

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

*цифровые образовательные ресурсы, инновационные разработки, платформа rtr.profedu.uz*

Butun dunyoda rivojlanishni kompyuter texnologiyasi, internet tarmoqlari, raqamlashtirilgan iqtisodiyot va raqamlashtirilgan tizimlarsiz tasavvur etish juda qiyin. Bugungi kunda internet tarmoqlari raqamli boshqaruvlar deyarli barcha sohalarga kirib keldi. 2020-yil butun dunyoda karantin cheklavlari e'lon qilinishi raqamlangan tizimlarni yanada takomillashuviga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabr kuni "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi PF-6097-sonli farmonida ko'plab yo'nalishlar bilan bir qatorda ta'lim yo'nalishini raqamlashtirishga oid qator vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatimizda professional ta'lim tizimini raqamlashtirish uchun yetarlicha elektron ma'lumotlar bazasi mavjud emas, mavjud bazalarni esa zamon talabiga mos ravishda takomillashtirish talab etiladi. Ta'lim resurslari yaratish uchun o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan pedagog kadrlar saralab olinishi kerak.

Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 26-iyundagi "Professional ta'lim tizimida "Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" Respublika ko'rik tanlovini o'tkazish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan 3 bosqichli tanlov o'tkazildi. Buyrug'ga asosan raqamli talim resurslarini yaratuvchi pedagog kadrlarga qo'yilgan talablar:

- o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi,
- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi,
- ahborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olishi,
- yaratiladigan raqamli ta'lim resursini belgilangan talablar asosida tayyorlay olishi,
- eng so'nggi malumotlardan foydalanib ta'lim resursini yaratish kabi talablarni bajara olishi kerak.

Pedagog kadrlar tomonidan yaratilgan raqamli ta'lim resurslari rtr.profedu.uz platformasiga yuklanib Respublika miqyosida ommalashtiriladi. Tanlovda ishtirok etgan ishtirokchilardan g'olib deb topilgan 44 nafari vazirlik tomonidan pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.

Pedagog kadrlar tomonidan yaratilayotgan har bir elektron darslik belgilangan talablar asosida yaratilib bunda har bir mavzu uchun 7 ta bo'lim mavjud bo'lib.

- 1.Maruzalar matni
- 2.Ta'limk texnologiyasi
- 3.Taqdimot materiallari
- 4.Media materiallar
- 5.Glossariy
- 6.Vizual didaktik resurslar
- 7.Baholash vositalar

Pedagoglar har bir darslikni tayyorlash jarayoniga masuliyatni xis qilgan holda innovatsion yondashib, yangi zamonaviy metod va usullardan foydalanib maruzalarni reja asosida yoritib beradi. Raqamli talim resurslarini yaratish uchun pedagoglar MC DOC, Power Point, Auto run, Quest test kabi dasturlarda ishlay olish imkoniga ega bo'lishi kerak. Har bir pedagog hodim o'z mutaxassisligi bo'yicha zamon talabidagi yangiliklar bilan o'zlari yaratgan ta'lim resurslarini boyitib borish imkoniga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun pedagoglardan internet



tarmoqlarida ishlash imkoniyati WFi zonalar yaratilgan bo'lib bunday imkoniyatdan unumli foydalana olish talab etiladi

Hayat azolari tomonidan ko'rib chiqilib ta'lim jarayoniga tadbiiq etishga munosib bo'lgan ta'lim resurslari rtr.profedu.uz saytiga yuklanadi. Raqamlashtirilgan talim resurslaridan foydalangan o'qituvchi va o'quvchilar o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni platformadan foydalangan holda o'zlariga maqul variantda ko'rib o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ta'lim tizimini raqamlashtirish o'qituvchi va o'quvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi va bu o'z navbatida ta'lim sifati samaradorligining oshishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://lex.uz/ru/docs>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli\\_tehnologiya\\_asoslari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_tehnologiya_asoslari)
3. rtr.prof.edu.uz

### **TA'LIMDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Nazarov Ilhomjon Usmanalievich**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti  
"Matematika va TAT" kafedrasi dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Nilxomjon67@gmail.com*

***Annotatsiya.** Maqola ta'limda katta burilish sifatida qaralovchi raqamli jarayonlarni tashkil etish va o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'limda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar va texnik qurilmalarning tarqalishi, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonlarida qo'llash, pedagogning talabalar bilan ishlash usul va uslublarini o'zgartirish, o'quv jarayonlari va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni o'zgartirishga qaratilgan. Bundan tashqari, ta'lim istiqbollarini baholash, raqamli ta'lim kontseptsiyasining mazmunini tahlil qilish va raqamli ta'limga asoslangan evolyutsion shakllar va g'oyalar tavsiflari keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim, raqamli burilish, raqamli o'qitish, ta'lim jarayoni, ta'lim texnologiyalari.*

***Аннотация.** Статья посвящена организации и исследованию цифровых процессов, которые рассматриваются как важнейший переломный момент в образовании, в котором происходит распространение инновационных технологий и технических устройств, используемых в образовании, использование цифровых технологий в образовательных процессах, взаимодействие педагога со студентами, направленные на изменение методов и приемов работы, изменение требований к образовательному процессу и его результатам. Кроме того, представлены оценка образовательных перспектив, контент-анализ концепции цифрового образования, а также описания эволюционных форм и идей, основанных на цифровом образовании.*

***Ключевые слова:** цифровое образование, цифровой поворот, цифровое обучение, образовательный процесс, образовательные технологии.*

***Annotation.** The article is devoted to the organization and study of digital processes, which are considered as the most important turning point in education, in which the spread of innovative technologies and technical devices used in education occurs, the use of digital*

*technologies in educational processes, the interaction of teachers with students, aimed at changing methods and techniques of work, changing requirements for the educational process and its results. In addition, an assessment of educational prospects, a content analysis of the concept of digital education, as well as descriptions of evolutionary forms and ideas based on digital education are presented.*

**Key words:** *digital education, digital turn, digital learning, educational process, educational technologies.*

**Kirish.** Raqamli ta'lim muhiti so'nggi o'n yillaklarda faol shakllantirilmada. Amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq, bugungi kunda raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'limning muhim vositalaridan biriga aylandi [1].

“Raqamli ta'lim” atamasining keng tarqalishi va shunday nom bilan ishlatilishiga qaramay turli sohalar mutaxassislari tomonidan ushbu atamaning “yagona talqini” masalasi hali to'liqligicha hal qilinmagan, chunki uning ma'nosi olib borilayotgan tadqiqot xususiyatlaridan kelib chiqqan holda farqlanishi mumkin. Ilmiy ishlar va maqolalarda “raqamli ta'lim” sifatida ko'pincha ta'lim faoliyatining quyidagi turlari nazarda tutiladi: o'qitishning e-learning formati, o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, axborot va elektron texnologiyalar yordamida o'qitish va boshqalar [2].

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ba'zi bir ilmiy tadqiqotlarda esa “raqamli ta'lim” atamasi talqinida yuqorida aks etilgan ta'lim faoliyati turlari nazarda tutilmaydi. Buning sababi ta'lim modellarini optimallashtirish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish ko'rsatiladi. Shunday qilib, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarida raqamli ta'lim “raqamli transformatsiya” talqinida va ushbu talqinga hamroh bo'lgan xususiyatlar orqali belgilanadi. “Raqamli ta'lim” atamasini ta'riflashdagi muammolardan kelib chiqqan holda, maqolada uning talqinini aniqlashtirish zarurati tug'ildi.

“Raqamli ta'lim – bu o'quv va ta'lim jarayonlarining rivojlanish bosqichi bo'lib, u o'zlashtiriluvchi bilim, ko'nikma va malakalar darajasini oshirish va (*yoki*) oshirish sharti bilan o'qitishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish uchun turli xil elektron vositalar va ulardan foydalanish uslublarining mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Raqamli ta'limda elektron vositalar sifatida quyidagilar nazarda tutiladi: o'rgatuvchi (*kompyuterlar, Internet resurslari, onlayn-kurslar*), nazorat qiluvchi (*ta'limni boshqarish tizimlari, aralash ta'lim tizimlari*), axboriy ma'lumotnomalar (*onlayn lug'atlar, onlayn ma'lumotlar bazalari*), modellashtiruvchi (*virtual haqiqat va qo'shimcha texnologiyalar*), namoish qiluvchi (*multimedia vositalari*), o'yinli-o'qitish (*didaktik kompyuterli o'yinlar*), sun'iy intellekt texnologiyalari, robototexnika va dasturiy vositalar [3].

Shunday qilib, *masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim, elektron ta'lim, oflayn raqamli ta'lim* tushunchalari raqamli ta'limning elementlari bo'lib, elektron tizimlarning xilma-xilligi esa uning variativligini kengaytirish imkonini beradi, deb ta'kidlash mumkin.

**Tadqiqot natijalari.** So'nggi o'n yilliklar davomida raqamli ta'lim bir necha evolyutsiya bosqichlarini bosib o'tdi. Bugungi kunda raqamli ta'lim rivojlanishining to'rt bosqichini ajratish ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqich – ta'lim jarayonlarida kompyuter texnika va texnologiyalaridan foydalanishning boshlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu bosqichda kompyuter va avtomatlashtirilgan tizimlardan ta'lim jarayonlarida foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ta'limiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan turli xil kompyuter mashqlari ishlab chiqildi.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Ikkinchi bosqich – kompyuter texnologiyalarining yanada keng tarqalishi va o'rgatuvchi dasturlar mavjudligi bilan ajratib ko'rsatiladi. Ta'lim jarayonlarida yangi turdagi elektron vositalarga asoslangan turli xil axborot texnologiyalari qo'llanila boshlandi: audio-video tasmalar, teleko'rsatuvlar, sun'iy yo'ldosh, Internet. Ushbu elektron vositalar ta'limning yangidan-yangi ko'rinishlarini shakllantirishga olib keldi. Ta'lim faoliyatining bunday turlariga: onlayn kurslar, masofaviy ta'lim, didaktik kompyuterli o'yinlar va ilovalari, Internet-chat hamda ijtimoiy tarmoqlar, ta'limiy Internet platformalarini keltirish mumkin.

Raqamli ta'limni rivojlantirishning uchinchi bosqichida oldingi ikki bosqich tajribasi to'plandi, bu esa ta'lim jarayonida elektron vositalardan foydalanishning ijobiy va salbiy oqibatlarini samarali tahlil qilish imkonini berdi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, ta'lim sohasini yanada rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi salbiy omillarni minimallashtirilishiga erishildi, bu esa o'z navbatida ta'lim faoliyatida raqamli ta'lim elementlaridan keng foydalanishga olib keldi.

To'rtinchi bosqich – o'tish davri hisoblanib, ta'limga individual, shaxsga-yo'naltirilgan yondashuv g'oyasini tarqalishi bilan bog'liq bo'ldi. Ushbu g'oyani amalga oshirish vositalari hozirda rivojlanayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari va neyron tarmoqlari bo'lishligi mumkin [4]. Yuqorida qayd etilgan ta'limning rivojlanish bosqichlari raqamli texnologiyalarning kattalar ta'limi sohasidan oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonlariga, keyinchalik esa umumiy ta'lim sohasiga kirib borishi tufayli mumkin bo'ldi. Raqamli ta'lim evolyusiyasining haqiqiyliigi tasdig'ini 2019-2020 yillardagi raqamli ta'lim tendentsiyalarida ko'rish mumkin:

- ❖ ta'lim amaliyotida ijtimoiy tarmoqlar va media-savodxonlikdan (OAV) foydalanish;
- ❖ raqamli ta'lim vositasi sifatida mobil qurilmalardan foydalanish;
- ❖ turli fan sohasidagi mutaxassislarni jalb qilgan holda, ya'ni hamkorlikda samarali ta'lim tizimlarini ishlab chiqish;
- ❖ ta'lim muassasalari ishchi xodimlar safini kengaytirish, raqamli ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lgan yangi lavozimlarning paydo bo'lishi, raqamli ta'limni rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish [5].

Raqamli ta'lim texnologiyalaridan ommaviy tarzda foydalanishga o'tish, o'z vaqtida bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Asosiy o'zgarishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ❖ bir vaqtning o'zida ko'p sonli talabalarga ta'lim berish imkoniyatining mavjudligi;
- ❖ inklyuziv ta'limning yangi bosqichga o'tishi, ya'ni ta'lim jarayonlarida jismoniy sabablarga ko'ra ishtirok eta olmaydigan shaxslarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi;
- ❖ ta'lim jarayonlariga sarflanadigan vaqtni qisqartirgan holda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash samaradorligini oshirish;
- ❖ talabalarning maqsadli auditoriyasini kengaytirish va o'quv jarayonlarini tashkil etishning ana'naviy usulidan voz kechish orqali pedagog-o'qituvchining kasbiy faoliyatini optimallashtirish.

Raqamli ta'limning yana bir shubhasiz afzalliklaridan biri bu uning interaktivligidadir. Ana'naviy o'qitishdan farqli o'laroq, yoshi yoki kasbiy faoliyati tufayli ko'p vaqtini ta'lim olishga ajrata olmaydigan shaxslar uchun ta'lim olish imkoniyatining mavjudligi, raqamli ta'limning zamon talablariga mos ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi [6].

Raqamli ta'lim – raqamli kontent sifatini yaxshilashga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, endilikda ta'lim oluvchilar tomonidan qabul qilinuvchi kontentlar hajmi pedagog-o'qituvchining jismoniy yoki psixologik holatiga bog'liqligi zamon zayli bilan to'xtatildi, ya'ni ta'lim

strategiyasini shaxsiylashtirish imkoni tug'ildi va interaktiv shakllar esa talabalarning ta'lim natijalarini sezilarli darajada yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Ta'limni individuallashtirish, ta'lim kontentlarini o'zlashtirish tezligining mosligi va ilg'or usul va uslublarni tanlash qobiliyati esa ayniqsa taxsinga sazovordir.

Audio-video kuzatishlardan foydalanish axborotlarni uzatishning xilma-xilligini ham ta'minlamoqda. Alohida talaba yoki butun bir guruh talabarlari tomonidan ta'lim kontentlarini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlar yoki qiyinchiliklarni tezda aniqlash va shu vaqtning o'zida tahlil qilish imkonini beruvchi kompyuter dasturlari va tizimlarining mavjudligi raqamli ta'limning yana bir ustuvor tomonlaridan biridir. Ta'lim natijalarini parallel ravishda statistik qayta ishlash imkoniyati esa, o'z vaqtida ta'lim olishning barcha bosqichlarida talabalarning yuqori darajadagi o'zlashtiruvini kuzatishga imkon beradi, shuning bilan, barcha ta'lim ishtirokchilari uchun ta'lim jarayonlarining shaffofligini ham ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim sifati yo'qotilmasdan shaxsning mablah va infratuzilma resurslarining tejalishini ham ta'kidlash lozim, bu ham raqamli ta'lim imkoniyatlaridan biridir [7].

### **XULOSA**

Raqamli ta'lim – zamonaviy ta'limiy jarayonlarining tendentsiyasini belgilovchi ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirishning yangi bosqichidir. Raqamli ta'limni yanada takomillashtirish uchun u orqali ochiluvchi imkoniyatlar va ham mavjud xavflarni hisobga olgan holda global yondashuvni talab etadi. Raqamli ta'limning asosiy vazifalarini amalga oshirishga nafaqat alohida ta'lim muassasalari, yoki pedagog-o'qituvchilar, balki ta'lim oluvchilarning o'zlari, ota-onalari hamda jamoatchilik ham o'z hissasini qo'shmog'i lozim.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-14-son "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2023 yil 25 yanvar: <https://lex.uz/ru/docs/6472528>
2. Butova A.V. Sovremennie metodi obucheniya vzroslix professionalno orientirovannomu inostrannomu yaziku. / Aktualnie problemi yazikovoy podgotovki v texnicheskom vuze: tradisii i innovatsii: Materiali vsrossiyskoy zaочноy nauch.-prakt. konf. s mejdunar. Krasnoyarsk.: SGUNT, 2020. – 92-95 s.
3. Dxaval Sh. Obzor statistiki i tendensiy MOOC v 2020 godu // Elektronniy nauchniy jurnal. – 2020. <https://www.classcentral.com/report/the-second-year-of-the-mooc/>
4. Zalavina T.Yu. Priemi aktivizatsii i stimulirovaniya rechevoy deyatelnosti studentov na inostrannom yazike / Pedagogika, psixologiya, obshestvo: Vseros. nauch.-prakt. konf. s mejdunarodnim uchastiem. Cheboksari.: Sreda, 2020. – 205-208 s.
5. Derina N.V., i drugie. Polidiskursivnoe prostranstvo: slovo, tekst, kommunikatsiya. // Elektronnoe izdanie. – Magnitogorsk, 2017. – 320 s.
6. Dubskix A.I. Metod proekta kak sovremennaya pedagogicheskaya texnologiya. / Aktualnie voprosi issledovaniya i prepodavaniya rodnix yazikov i literatur. Mejdunar. nauch.-prakt. konf. Cheboksari.: Sreda, 2020. –311-313 s.
7. Selevko G.K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii: ucheb. posobie. Moskva.: Narodnoe obrazovanie, 1998. – 256 s.
8. Nazarov I.U. Bo'lg'usi o'qituvchilarning modulli kontentlarga asoslangan elektron platforma vositasida mustaqil ta'limni tashkil etish modeli. / UZBEK SCHOLAR JOURNAL. Volume-22, November-2023. [www.uzbekschola](http://www.uzbekschola).

9. Назаров И.У. Применение цифровых технологий обучения дисциплинам гуманитарного цикла в профессиональном образовании. / "Polish science journal" International science journal ISSUE 11(56) ISBN 978-83-949403-4-8. WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 29.12.2022

**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA  
EVRESTIK QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION SHAKL,  
METOD VA VOSITALARI**

**Xo'jayeva. G. A.** *Fan va texnologiyalar universiteti  
aniq fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi  
magulyora [1993@gmail.com](mailto:1993@gmail.com)*

**Shakirova Surayyo, Berdiyev Xamro Moliya fakulteti talabalari**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarining mantiqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi yoritilib bugungi kunda ta'limning zamonaviy tendentsiyalar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi mazmuni bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli ta'lim, individual, ko'nikma, pedagogik kompetensiya, iste'dod, innovatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish.*

**Аннотация.** *В данной статье освещена методика развития логической компетентности будущих учителей в цифровой образовательной среде, а также описано содержание цифровой компетентности будущих учителей в условиях современных тенденций в образовании сегодня.*

**Ключевые слова:** *цифровое образование, личность, навыки, педагогическая компетентность, талант, новаторство, креативность, критическое мышление, решение проблем.*

**Abstract.** *In this article, the methodology of developing the logical competence of future teachers in the digital educational environment is highlighted, and the content of the digital competence of future teachers in the course of modern trends in education is described today.*

**Keywords:** *digital education, individual, skills, pedagogical competence, talent, innovation, creativity, critical thinking, problem solving.*

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayoni moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash, yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish borasida olib borilayotgan islohotlar pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlari va pedagogik mahoratlarini doimiy oshirish zaruratini kuchaytirmoqda <sup>1</sup>.

Innovatsion metodlar va vositalar bilan bo'lajak o'qituvchilarning evrestik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida quyidagi choraklarni ko'rib chiqamiz:

**Интерактив darsliklar:** Raqamli ta'limda interaktiv darsliklardan foydalanish o'quvchilarning ehtimolligini oshiradi. Misol uchun, veb-saytlar, multimedia materiallar, virtual darsliklar, vebinarlar va boshqalar. Oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning evrestik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ahamiyatli innovatsion metodlardan biri. Bu metod orqali o'quvchilar aktivlikka tortish, savol-javoblar berish, muzokaralar o'tkazish va boshqa interaktiv amallar orqali ma'lumotlarni olish va taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Interaktiv darsliklar veb-saytlar, multimedia materiallar, virtual darsliklar, vebinarlar va boshqa maqsadlar uchun

foydalaniladi. Shu bilan birga, ushbu metod orqali o'quvchilarning ehtimolligini oshirish va ma'lumotlarni yangilash imkoniyatini yaratadi.

**Ta'lim platformalari:** Onlayn ta'lim platformalari orqali bo'lajak o'qituvchilarning ma'lumotlari va kasbiy mahoratlarini yangilashga imkon beradi. Bu platformalarda ma'lumotlarni taqdim etish, savol-javoblar, vebinarlar va boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning evrestik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ahamiyatli innovatsion metodlardan biri. Bu platformalar orqali o'quvchilarning ma'lumotlari va kasbiy mahoratlarini yangilashga imkon beradi. Ma'lumotlarni taqdim etish, savol-javoblar, vebinarlar va boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin.

**O'zbek tili onlayn ta'lim platformasi** 2024 yil 15 mart kuni taqdim etildi. Ushbu platforma orqali ta'lim olish, ma'lumotlarni yangilash va kasbiy mahoratlarni oshirish imkoniyatlari yaratilgan<sup>1</sup>. Innovatsion shakl, metod va vositalar bilan bo'lajak o'qituvchilarning evrestik qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'mak ko'rsatadi. Bu orqali ta'lim sifati yaxshilanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madaminov Nodirjon Mamirjonovich masofaviy ta'lim platformalari imkoniyatlarini oliy ta'limda takomillashtirish muammolari Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 115-119b

2. Khojayeva, G. (2023). o'Quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 879–882. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/454>

3. Khojayeva, G. (2023). Development of heuristic ability. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 441–443. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5005>

4. Khasanov, A. A. (2017). Methods and methods of forming economic education through interdisciplinary communication through information technology. Journal, (3), 38.

5. Салахиддин Джуманазарович Мурадов. талабаларнинг техник ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик шарт шароитлари: doi.org/10.5281/zenodo.10586587// ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. 2024/2/1

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI

*Xojimatova Moxira Nayman qizi*  
*Fan va texnologiyalar universiteti*  
*“Boshlang'ich ta'lim” sirtqi*  
*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf oquvchilarida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni ega bo'lishlari va hayotga tatbiq eta olishlarida ulardagi kreativ fikrlash motivatsiyalarining o'rni va ahamiyati haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, axborot, qobilyat, ijodkorlik, ko'nikma, yaratuvchanlik, ped texnologiya, samaradorlik.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi.

Ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir. Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllanadi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish yoshlarga bilim berish. Ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv va axborotlashuv davrida ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiq etmasdan turib amaiga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta'lim ta'limda birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish va kreativ fikrlash ehg muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik—lotincha so'z bo'lib, “ijod” yoki “yo'q narsadan yaratish” kabi ma'nolarni anglatadi. Kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni, yangi g'oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan'anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jixati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, ehg avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. Oqituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda “bir xillik” dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish
- O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida

tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. O'qish darslarni tashkil e'tishda va o'quvchilarning darsda faolligi, qiziqishlarini oshirishda quyidagilarni hisobga olishni tavsiya qilaman:

- Yangi g'oyalar qabul qiling, bir xillikdan qoching, bu darsni boshlashingizdan tortib, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, yangi mavzuni bayon qilishingizda o'z aksini topsin. O'quvchi uchun yangilik bo'lsin. Bu o'quvchida a'lo kayfiyatni va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Sinf xonasi o'quvchiga yoqadigan bo'lishi kerak. Sinf xonasining o'quvchiga yoqadigan qilib bezatilishi uning o'zini erkin va qulay his qilishiga yordam beradi.

- Darsni audio va videolardan foydalanib o'tish kerak.

- Darsni hayotga bog'lab o'tish kerak. Oquvchi faqat sinfda o'tirishi kerak emas, vaqti bilan tashqariga olib chiqib dars o'tish ham yaxshi samara beradi. O'quvchi o'zi hayotida ana shu o'rganganlarini qo'llaydi.

- Darslarda sahna ko'rinishlardan foydalanish kerak. O'quvchi keng doirada o'zini tutishni o'rganadi.

- Mavzuni o'rgatishda rasmlardan foydalaning. Masalan, bitta hikoya uchun 5 ta rasm. O'quvchi hikoyaning mazmuniga qarab rasmlarni o'rniga qo'yadi.

- Darslarda topishmoq o'yinlardan foydalaning. O'rganish jarayoni xursandchilik bilan o'tadi. O'quvchini qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

- Ijodkorligini oshirish uchun o'quvchi mavzuga mos ko'rgazmalarni ko'rib tursin, mavzudagi voqea-hodisani tasavvur qila olsin. Bu o'quvchining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- O'quvchining diqqatini jalb qilishda ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak. Masalan, prezidentasiya qilib ko'rsatish. Darsda o'quvchida oxirgi taassurotni qoldirish bu juda muhim.

- Darsni ertak sifatida olib borish, qiziqarli hikoyaga bog'lab o'tish, o'quvchining yoqtirgan filmiga bog'lab o'tish ham o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi.

- Darsda o'quvchilarni turli xil g'oyalarga undang. O'quvchi fikrini erkin aytsin. Bunda guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

- Toqatli bo'lish kerak. Bu o'quvchiga darrov baho berib qo'yishdan saqlaydi. Yana kechirimlilik, mehribonlik, mas'uliyat va o'quvchini eshita olish-bu o'quvchini fanni sevishi va yaxshi o'zlashtirishga yordam beruvchi omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo'sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb – hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori hujjatlari. 2017-yil
2. Pedagogika. O'. Asqarova va boshqalar. 7-bob. "Fan", 2004-yil
3. Xalq ta'limi jurnali. 55-bet. 2018-yil. 3-son
4. Matematika. 1-sinf. 2019-yil
5. "Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016



**DAVLAT TA'LIM DASTURLARI DOIRASIDA MAKTAB O'QUVCHILARIGA  
TADBIRKORLIK VA BIZNES ASOSLARINI O'RGATISH**

**Musaeva Kamka Jandullaevna,**  
Angren shahar 2-son kasb-hunar  
maktabining biznes asoslari fani o'qituvchisi,  
kamkamusayeva2021@gmail.com.

**Annotatsiya:** *Maqolada o'quvchilarga tadbirkorlikni o'rgatish masalalari, bu bilimlarning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarbligi muhokama qilinadi. Rivojlangan mamlakatlarda maktab yoshidagi bolalarga tadbirkorlik sohasida ta'lim berish tajribasi tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim tizimi, tadbirkorlik, davlat ta'lim siyosati, ta'lim, kichik korxonalar.*

Tadbirkorlik va biznes asoslari bo'yicha ta'lim berish o'quvchilarga kelgusida tadbirkor bo'lishga, mini-kompaniyalar yaratish orqali o'z moddiy imkoniyatlarini kengaytira oladigan jamoalarni shakllantirishga yordam berishning potensial samarali vositasi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bazaviy darajadagi tadbirkorlik ta'limi yoshlar uchun fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, bilimlarni uzatish va hayotning barcha bosqichlarida tadbirkorlik uchun asos yaratishda har doim muhimdir [1]. Bundan ko'zlangan maqsad bolaning boshlang'ich ta'limidan boshlab, tadbirkorlik ruhini bosqichma-bosqich rivojlantirish, so'ngra keyingi ta'lim bosqichlarida mustahkamlashdan iborat bo'lib, bunday ta'lim samaradorligi talabaning mehnat bozoriga samarali kirib kelishida o'z aksini topadi.

Bir qator tadqiqotlarga ko'ra, boshlang'ich maktab o'quvchilari tadbirkor bo'lish, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan biznes qarorlarini qabul qilish uchun bozor iqtisodiyoti asoslarini o'rganish borasida allaqachon yetarli salohiyatga ega bo'ladi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarning ba'zilar bu borada faol ishlar olib bormoqda.

Masalan, Buyuk Britaniyada tadbirkorlik bo'yicha ta'lim maktab o'quvchilarini tayyorlashning jiddiy qismi sifatida qaraladi. Biznes asoslari maktablarning 20% dan ortig'ida mustaqil fan sifatida o'qitiladi. Ingliz tili o'qituvchilari zamonaviy jamiyatning iqtisodiy jihatlarini tushunish har qanday yoshdagi talabalar uchun ochiq deb hisoblashadi.

Fransiyada boshlang'ich maktab yoshidan boshlab bolalarni iqtisodiy bilimlar asoslari bilan ataylab tanishtira boshlaydi va ularga zamonaviy ishlab chiqarish va asosiy kasblar haqida eng umumiy tushunchalar beriladi. Dasturi va joylashuvi ota-onalar bilan kelishilgan ish amaliyoti davomida fransuz maktab o'quvchilari pul kompensatsiyasini olishadi va shu bilan oilaga daromad keltiradilar.

Kanadadagi maktablarda ham tadbirkorlik ta'limi rivojlangan, u yerda Ta'lim vazirligi ko'magida ovqatlanish yoki kanselyariya jihozlari savdosi kabi maktab xizmatlarini taklif qiluvchi kooperativ korxonalar o'quvchilarga tadbirkorlikni tushunish va tadbirkor bo'lish uchun haqiqiy imkoniyatni ta'minlaydigan maktab loyihalari hisoblanadi. Mamlakat ta'lim vazirligi bunday kompaniyalarning foydasi, iqtisodiy samaradorligi va boshqaruvi talabalarga tadbirkorlik bo'yicha yaxshi ta'lim olishni ta'minlaydi, deb hisoblaydi.

O'quv yili davomida ishtirokchi talabalar mini-kompaniya yaratadilar, mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqadilar va sotadilar va o'quv yili oxirida kompaniyani yopadilar. Talabalar mini-kompaniyasi turli tuzilmalarga ega bo'lishi mumkin: a) demokratik qarorlar qabul qiladigan

va foydani jamoaviy taqsimlovchi kooperativ; b) foydani ko'paytirishni maqsad qilgan kichik korxonalar; c) ijtimoiy qadriyatlarini yaratishga yo'naltirilgan korxonalar [2].

Bundan tashqari, tadbirkorlik ta'limi nafaqat tadbirkorlik ta'limini, balki maktabdagi tarkibiy o'zgarishlarni va ijodiy faoliyatni amalga oshirishni ham qamrab olishi kerak. Italiyadagi boshlang'ich maktablarda eksperimental tadbirkorlik tajribasini tahlil qilish o'qitish mexanizmlarini o'zgartirishda ushbu jihatlarning barchasini qamrab olish muhimligini ko'rsatadi. Italiya tajribasida birinchi qadam o'qituvchilar, direktor o'rinbosari va maktab direktorini o'z ichiga olgan "yetakchi jamoa"ni yaratish bo'lgan. O'qituvchilar ishtirokida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqilgan, mahalliy hokimlik, ota-onalar, yaqin atrofdagi kollej o'quvchilari va ishlab chiqarish vakillari ishtirokida tadbirkorlik muhiti yaratilgan.

Tadbirkorlik ruhi yuqori bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlarida 2000-yildagi Ta'lim to'g'risidagi qonun barcha shtatlarni bolalar bog'chasidan boshlab universitet darajasiga qadar yoshlarni tadbirkorlikka o'qitishni mini-kompaniya misolida ta'lim berish orqali rivojlantirishga chaqiradi [3]. Tadbirkorlik ta'limining boshlang'ich bosqichi o'quvchilarni biznes va uning jarayonlaridan xabardor qilish, shu orqali ularda raqobatdosh bo'lmagan ish o'rinlarini izlashdan ko'ra, kelajakda o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkonini beradigan tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Shtatlardan biri (Kentukki) bunday treningning samaradorligi bo'yicha tadqiqot o'tkazdi. Tashabbusli dasturda ishtirok etishdan oldin va keyin berilgan javoblarni statistik taqqoslash shuni ko'rsatdiki, ta'lim tashabbusi ishtirokchi talabalarda tadbirkorlikka bo'lgan munosabatni ham, tadbirkorlik haqidagi bilimlarni ham yaxshilagan.

Shunisi e'tiborga loyiqki, Qo'shma Shtatlarda ko'plab ota-onalar o'smirlar oilasining daromad darajasidan qat'i nazar, o'zlari pul topishlari kerak, deb hisoblashadi. Masalan, AQShning oldingi prezidentlaridan biri Jon Fitsjerald Kennedi yoshligida gazeta sotgan.

Meksikada iqtisodiy fanlar faqat o'rta maktablar, shuningdek, texnik va iqtisodiy-ma'muriy o'quv dasturlarini taklif qiluvchi universitetlarning o'quv rejasiga kiritilgan. Misol tariqasida, 2009-yilda Meksika Universitetlari va oliy ta'lim muassasalari milliy assotsiatsiyasi (ANUIES) tashabbusi bilan tashkil etilgan "Mexican Enterprise- Higher Education Foundation" [4] ni eslatib o'tish joiz. Mazkur jamg'armaning faoliyati oliy o'quv yurtlari, xususiyl tadbirkorlik subyektlari, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa davlat idoralarning resurslarini jamlab, tadbirkorlik orqali iqtisodiy manfaatlar yaratishga qaratilgan. Jamg'arma faoliyati doirasida Meksikada tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish dasturi joriyl etilgan. Jumladan Meksikaning 27 shtatidagi boshlang'ich maktab o'quvchilari o'rtasida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan "Mening birinchi kompaniyam: o'yin orqali tadbirkorlik" nomli ta'lim kichik dasturi yaratilgan.

Boshlang'ich maktab bosqichida tadbirkorlik ta'limini joriyl etish nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham tavsiya etiladi. Ushbu taklifning dolzarbligi Nigeriya kabi mamlakatlar tomonidan e'tirof etilgan, bu yerda tadbirkorlikni asosiy o'quv rejasiga integratsiyalashuvi ishsizlikni kamaytirish va jamoalarning iqtisodiy va ijtimoiyl o'sishini rag'batlantirish vositasi sifatida qaraladi [5]. Tadbirkorlik ta'limi biznesga kognitiv yondashuvga asoslangan bo'lib, u tadbirkorlarning bilim tuzilmalari nima ekanligini, ular qanday faoliylat yuritishini va qanday mezonlar asosida qaror qabul qilishini tushunishga asoslangan. Tadbirkorlik ta'limining maqsadi tadbirkorlik xulq-atvorini o'rgatishdir. Bu nafaqat biznes va boshqaruv bilimlarini o'rgatishni, balki yangicha fikrlash, dunyoqarash, malaka va xulq-atvorni rivojlantirishni ham talab qiladi.

Ushbu turdagi ta'lim iqtisodiy ta'limning boshqa turlaridan tadbirkorlikning hududiy iqtisodiyotlar uchun ahamiyatini chuqurroq anglashni, hamda tajribaga asoslangan tadbirlarni o'tkazishni va ixtisoslashtirilgan biznes bilimlarini targ'ib qiladigan, o'z-o'zini ish bilan ta'minlash orqali moliyaviy mustaqil bo'lishning qiymati haqida o'ylash uchun ko'proq vaqt va onlayn kurslarni o'qish yoki tinglashdan ko'ra jonli o'rganish imkoniyatini beradigan o'quv keyslarini ishlab chiqishni talab qilishi bilan farq qiladi.

Tadbirkorlik ta'limi muvaffaqiyatli ishbilarmonlarning ta'lim dasturlarida ishtirok etishini (mahorat darslari shaklida) va talabalar loyihalari, eksperimentlar va biznes simulyatsiyalari kabi harakatga yo'naltirilgan didaktik usullardan foydalanishni talab qiladi. Hayotning shakllanish bosqichida muvaffaqiyatli tadbirkorlik tajribasiga ta'sir qilish talabalarning o'z biznesini ochildishga qaror qilish yoki kasb sifatida tadbirkorlikni tanlash ehtimolini oshiradi.

Tadbirkorlik ta'limi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) tadbirkorlikni tushunish,
- 2) tadbirkorlik jarayonida ishtirok etish;
- 3) biznes imkoniyatlariga intilish orqali tadbirkor bo'lishni o'rganish.

Tadbirkorlikka ta'lim berishda o'qituvchining o'rni o'quvchilarning tafakkurini qo'llab-quvvatlovchi, nazariy va amaliyotda bilim olishga imkon beruvchi vositachi bo'lishdir. Bunday yondashuv talabalarga tadbirkor rolini o'ynash, tadbirkorlik ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash, vaziyatlarni ijodiy tahlil qilish va tadbirkorlik jarayonining yashirin tomonlarini o'rganish imkonini beradi.

Haqiqiy biznes bilan bir xil tuzilgan nazariy mikrokompaniyada olib borilgan ta'lim tajribasi yoshlarga o'z biznesini yaratish, tashkil etish va boshqarishni o'rganish imkonini beradi. Ushbu o'rganish tajribasi birinchi bo'lib boshqa mamlakatlardagi maktablar tomonidan qo'llab-quvvatlangan Amerikaning "Yoshlar yutuqlari" dasturi tomonidan qo'llab-quvvatlangan. □

Turli yoshdagi bolalar turli xil vazifalarni bajaradilar: bolalar ixtirochilik muammolarini hal qilishga o'rgatiladi, kattaroq bolalarga moliyani boshqarish va jamoada ishlash o'rgatiladi, o'smirlar mavjud biznesni optimallashtirishga o'rgatiladi. Ishlari natijalariga ko'ra, bolalar tugallangan prototiplarni taqdim etadilar. Dasturlar "amaliyotda o'rganish" tamoyili asosiga qurilgan bo'lib, bu yerda asosiy maqsad bolalarni o'z bilimlarini amalda qo'llashga o'rgatishdir. Bolalar muammolarni hal qilishdan qo'rqmaslikni, fan bilimlarini talab qilmaydigan universal muammolarni samarali hal qilish texnologiyalarini o'zlashtirishni, cheksiz va moslashuvchan fikrlashni, original g'oyalarni yaratishni va innovatsiyalarni yaratishni o'rganadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tadbirkorlikka o'rgatish butun dunyoda o'quv jarayonining bir qismiga aylanib ulgurgan bo'lib, davlat darajasida bozor sharoitida yoshlarni hayot va faoliyatga tayyorlash tizimining majburiy elementi hisoblanadi.

Ta'lim dasturida biznes faoliyati o'quvchilarga moslashuvchan, o'ziga ishongan va mustaqil bo'la olish, muhim vaziyatlarda zarur qarorlar qabul qila olish, rejalar tuza olish, biznesga yanada ijodiy yondashish, muammolarni hal qilish, vaziyatlarni boshqarish, sheriklar bilan muloqot qilish va yana ko'plab ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi. O'quvchilarni tadbirkorlik turlari bilan tanishtirish uchun turli mamlakatlarda, birinchi navbatda, iqtisodiy rivojlangan maktablar o'quv dasturlariga real tadbirkorlik faoliyati yoki uni simulyatsiya qilishga asoslangan turli o'quv kurslari kiritilgan.

Bunday ishlar natijasida AQSh, Yaponiya kabi eng rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kichik korxonalar umumiy korxonalar sonining qariyb 70 foizini tashkil etadi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa mehnatga layoqatli aholining qariyb yarmi kichik korxonalarda ishlaydi. Xitoyda bunday korxonalarining ulushi 55 foizni tashkil etadi - bu Yevropa Ittifoqidagidan ancha

kam, ammo Xitoy hukumati 30 yil ichida bunday ko'rsatkichlarga erishishiga sabab u yerda kichik biznes iqtisodiy o'sish va bozorni jonlantirishning eng muhim omili hisoblanadi va mamlakat iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratiladi [6].

Kichik korxonalarining rivojlanish darajasi butun mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini to'g'ridan-to'g'ri belgilashini hisobga olsak, O'zbekistonda ham ta'lim siyosatida yuqoridagi rivojlangan mamlakatlar misollariga o'xshab, davlat maktablarining ta'lim tizimida tadbirkorlik ta'limi elementlari alohida e'tibor qaratilishi kerak. Chunki biznes subyektlarning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Askun B., Yildirim N. Insights on entrepreneurship education in public universities, in Turkey: Creating entrepreneurs or not? // Procedia-Social and Behavioral Sciences. 2011. № 24. P. 663-676.
2. Pepin M. L'e ducation entrepreneuriale au primaire et au secondaire: Gros plan sur la micro-entreprise scolaire // Canadian Journal of Education. 2011. № 34(3). P. 280-300.
3. María de Lourdes Cárcamo-Solís. Developing entrepreneurship in primary schools. The Mexican experience of "My first enterprise: Entrepreneurship by playing" Teaching and Teacher Education Volume 64, May 2017, Page IFC
4. Национальная ассоциация высших учебных заведений и университетов Мексики. URL: <http://www.fese.org.mx/index.html> (дата обращения: 16.03.2018).
5. Adegun O. A. Entrepreneurship education and youth empowerment in contemporary Nigeria. // Journal of Emerging Trends in Educational Research and Policy Studies (JETERAPS). 2013. № 4(5). P. 746-751.
6. Финк Т. А. Малый и средний бизнес: зарубежный опыт развития // Молодой ученый. 2012. №4. С. 177-181. URL: <https://moluch.ru/archive/39/4640/> (дата обращения: 16.03.2018).

#### **RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA'LIMNI MOLİYALASHTIRISH MASALALARI VA YECHIMLARI**

*Isayeva Nargiza Xamidovna*

*USAT "Iqtisodiyot" kafedrası v/b dotsenti*

**Annotatsiya:** *Raqamlashtirish sharoitida Yangi O'zbekistondagi ta'lim tizimini rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy masalalari, rahbar kadrlarni tayyorlashda iqtisodiy savodxonligi va bu sohani investitsiyalashning dolzarb muammolari, uning yechimlari keltirilgan. Jahon amaliyotida qo'llanayotgan ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning mablag'lardan samarali foydalanish va ta'lim sifatini oshirishni rag'batlantiruvchi yangi yo'llarini qidirib topish kabi ta'lim tizimini rivojlantirish mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, ta'lim tizim, xususiy ta'lim, O'zbekiston, rivojlantirish, iqtisodiyot, xususiy, investitsiya, moliyalashtirish, xorij.*

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri — bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali — bu yangi bilimlarni izlash, egallash va

nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

So'nggi 3–4 yil ichida O'zbekistonda ham ta'lim tizimiga boshqacha yondashish zarurligi dolzarb masalaga aylandi. Jumladan, prezidentning «Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va «Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida davlat umumiy o'rta ta'lim maktablarini tashkil etish to'g'risida»gi (loyiha), Vazirlar Mahkamasining «Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida ham bunday tashabbus faol qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rish mumkin.

Mehnat jamoasini muvaffaqiyatli boshqarish uchun rahbar ishbiarmon, bilimli, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy bilimlarga va axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Ishbiarmonlik fazilatlari yuqori ilmiy, texnik va iqtisodiy tayyorgarlikka asoslangan holda rahbarning davlat qonunchiligi, pedagogika, tashkiliy ko'nikmalar sohasidagi bilimlari bilan tavsiflanadi. Rahbarning iqtisodiy fazilatlari korxonaning faoliyati bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, savdo bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, raqobatchilarning ko'payishi tufayli savdo bozorlarining qisqarishi, moddiy va xom ashyo pasayishi, inqiroz hodisalarining mavjudligi va boshqa holatlar yuz berganda namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilarning barchasi tez sur'atlarda rivojlanayotgan yangi zamonaviy sharoitlarga javob beradigan, korxonada darajasidagi boshqaruv tizimlarini talab qiladi va rahbarning shaxsiy fazilatlariga qat'iy talablar qo'yadi. Rahbarning iqtisodiy savodxonligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- rahbarning iqtisodiy jihatdan voqea hodisalarini tahlil qilish;
- iqtisodiy voqea va hodisalarga baho berish, qaror qabul qilish;
- shaxsni o'z turmush tarzini erkin tanlashi;
- tanlov oqibatini ko'z o'ngiga keltira olishi tushuniladi.

Ta'limning bo'lajak rahbarlarini tayyorlashda ularning iqtisodiy savodxonligini oshirish, maktabni moliyalashtirish, xususiy va chet el investitsiyasini jalb qilish masalalarini o'rgatish lozim. Hozirgi vaqtda xususiy maktablarning ochilishi rahbarlarning har tomonlama bilimlarga ega bo'lishiga talab qo'yadi. Bundan tashqari, xususiy maktab ochish uchun litsenziya olish jarayonining soddalashtirilishi, shuningdek, ularga shahodatnoma va attestatlarni berish huquqi berilishi natijasida nodavlat umumta'lim muassasalari soni 6 baravarga oshib, 150 taga yetdi. Xususiy ta'lim hamisha o'zini oqlagan. Buni boshqa davlatlar tarixidan ham bilib olish mumkin. Dunyoda dovrug' qozongan universitet yoki maktablarning aksariyati xususiy sektorga tegishli. Misol uchun, Harvard universitetining o'zi dunyoga 75 nafar Nobel mukofoti sovrindorlarini yetishtirib bergan. Mamlakat bo'yicha eng ko'p muvaffaqiyatga erishgan kishilar ham aynan shu universitet bitiruvchilaridir. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

2020-yilda davlat byudjetining talon-taroj qilingan 246 mlrd. so'm ichida eng katta ulush Xalq ta'limi vazirligi tizimida amalga oshirilgan - 96,6 mlrd. so'm talon-taroj qilingan. Bu faqat bizga ma'lumlaridir. Demakki ta'lim tizimi kelajagi, uni islohotlari albatta uni to'g'ri moliyalashga bog'liqdir. Agar ta'lim tizimini modernizatsiyalashni istasak, avvalo ajratib berilgan pullar to'g'ri sarflanishini nazoratga olish lozim. Jahon amaliyotida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning mablag'lardan samarali foydalanish va ta'lim sifatini oshirishni rag'batlantiruvchi yangi yo'llarini qidirib topish ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi harakatlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu harakatlar ta'lim sohasidagi birinchi darajali vazifalarni hisobga olgan holda quyidagi tamoyillarni ta'minlashga qaratilgan:

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

- ta'limning hammabopligi (ham jismoniy, ham moliyaviy jihatdan);
- ta'lim sifati va natijalari;
- tenglik bir xil ehtiyojli o'quvchilar mablag'lar bilan bir xil darajada ta'minlanadilar; muhtojroq o'quvchilar ko'proq mablag' oladilar;
- samaradorlik: tashqi samaradorlik – ta'lim tizimi jamiyatga ishchi kuchini tayyorlaydi, shundan kelib chiqqan holda bu sohaga qilinayotgan xarajatlarning samaradorligini hisobga olib mablag'lar safarbar etiladi;
- ichki samaradorlik – eng kam xarajat qilib ko'proq natijalarga erishish. Rivojlanayotgan mamlakatlarda haligacha ta'limni moliyalashtirish manbasi asosan, bandlikka ko'maklashish jamgarmasi, xususiylashtirilgan korxonalaridan tushgan mablag'lar hamda davlat byudjetidan iborat bo'lmoqda. Shu bilan birga moliyalashtirish tarkibida davlat byudjeti ulushi 78-95% gachani tashkil etmoqda. Demak, bugungi kunda byudjet mablag'larini boshqarish ta'limni iqtisodiy boshqarishda ustuvor ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda oliy ta'limni moliyalashtirish bilan bog'liq bir nechta tendensiyalarni farqlash mumkin. Birinchisi — mazkur sohaga xarajatlar tarkibida davlat ulushining qisqarishi. Bu hol rivojlanayotgan mamlakatlardagina emas, balki iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatiladi.

Masalan, xarajatlar sezilarli darajada qisqarishi Buyuk Britaniya, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda yuz berdi. Ba'zi mamlakatlarda moliyalashtirishning pasayishi yuz bergani yo'q, ayrim mamlakatlarda esa, u amalda hatto ko'paydi (Avstraliya, Shvetsiya, Portugaliya). Ikkinchi tendensiya oliy ta'lim odatda bepul bo'lgan mamlakatlarda o'qish uchun haq to'lash tartibini joriy etish hisobiga mablag'larning qaytishini ko'paytirish yoki mazkur amaliyot mavjud bo'lgan mamlakatlarda haq miqdorining o'sishi bilan bog'liq. Ilgari ko'pgina mamlakatlarda oliy ta'limdan erkin bahramand bo'lish imkoniyati ta'minlangan bo'lsa, endilikda ayrim mamlakatlarni (masalan, Braziliya, Shri-Lanka, Tanzaniya va Yevropaning bir qator mamlakatlarini) istisno etganda aksariyat oliy o'quv yurtlari o'qish uchun haq olmoqda. Natijada ko'pgina o'quv yurtlari bozorda talab mavjud bo'lgan faoliyat turlarini rivojlantirmoqdalar, chunonchi: xizmatlar (asosan maslahat xizmatlari), buyumlar, patentlarni sotmoqdalar.

Hozirda O'zbekistondagi ta'lim tizimiga investitsiya kiritish afzalliklari quyidagilar:

- Davlat tomonidan ta'lim tizimidagi islohotlarni keng qo'llab-quvvatlanishi, jahon ilg'or tajribalarini bosqichma-bosqich kiritilishi.

- O'zbekiston aholisining xususiy maktab va oliy ta'limga bo'lgan talabning kuchliligi. Hozirda O'zbekistonda xususiy maktablar va nodavlat OTM larga qabul qilinuvchilar va xususiy maktablar soni ortishi o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjuddir.

- Ta'lim tizimi xizmatlari bozoridagi noelastiklik. Hozirda ta'lim xizmatlari 10% ga oshirilishi unga bo'lgan talabning kamroq kamayishiga olib keladi. Bu degani hatto inqiroz paytlarida ham investor foyda ko'ra oladi.

Xulosa o'rinda aytish kerakki, hozirda (yaqin 15 yillikda) O'zbekiston ta'lim tizimi xizmatlari bozori hali to'liq egallanmagan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi, hali o'sish potentsiali yuqori bozor hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi Qonuni 23.09.2020 yil O'RQ-637-son.
2. Fayzullayeva N.S. Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. T. 2020.

3. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet.
4. Qosimov M.S., Investitsiya loyihalar tahlili. Darslik.- T., TDIU, 2019.-168 bet
5. Berkinov B.B., Yakubov I.O., Sunnatov M.N., Institutsional iqtisodiyot: fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha. -O'quv qo'llanma.-T.:2019.-170-b.

## **ТАЛАБАЛАРНИНГ ТЕХНИК ИЖОДКОРЛИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУОММО СИФАТИДА**

Мурадов Салахиддин Джуманазарович  
University of science and technologies  
“Аниқ фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси  
[Salohiddin.muradov.78@mail.ru](mailto:Salohiddin.muradov.78@mail.ru)

Movlyanov.A., Toxirov.A., Otaqulov.U Raxmatova Sh.  
117-Moliya va Moliyaviy Texnologiyalar 2 kurs sirtqi ta'lim talabalari

***Аннотация:** Ушбу илмий мақолада талабаларнинг техник ижодкорлик компетентлигини ривожлантириши ва уларни касбий тайёрлашнинг ҳозирги замондаги мақсадлари уларнинг рақамли технолологияларга асосланган таълими мазмунини ва тузилмасини жиддий ўзгартиришни назарда тутган ҳолда жамиятнинг ижтимоий буюртмасини жорий этишга, бугунги кундаги замон талабларига жавоб берадиган кадрлар тайёрлашга айниқса, фан ва техникани ҳозирги ривожланиши шароитида талабаларниларини техник ижодкорлик компетентлигини рақамли технолологиялар асосида тайёрлаб боришнинг яхлит тизимини яратиши муаммоси алоҳида долзарблиги кўзда тутилган.*

***Калим сўзлар:** замонавий компетентсиялар, рақамли технолологиялар, рақамли ўқитиши, технологик ёндашув*

Олий таълим муассасаларида талабаларнинг техник ижодкорлик компетентлигини ривожлантириш ва уларни касбий тайёрлашнинг ҳозирги замондаги мақсадлари уларнинг рақамли технолологияларга асосланган таълими мазмунини ва тузилмасини жиддий ўзгартиришни назарда тутди. Ушбу мақсадлар жамиятнинг ижтимоий буюртмасини жорий этишга, бугунги кундаги замон

талабларига жавоб берадиган кадрлар тайёрлашга йўналтирилган. Айниқса, фан ва техникани ҳозирги ривожланиши шароитида олий педагогика таълим муассасаларида талабаларниларини техник ижодкорлик компетентлигини рақамли технолологиялар асосида тайёрлаб боришнинг яхлит тизимини яратиш муаммоси алоҳида долзарблик касб этмоқда. Мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича устувор вазифаларга мувофиқ кадрлар тайёрлашнинг мазмунини тубдан қайта кўриб чиқиш, халқаро стандартлар даражасида олий маълумотли мутахассислар тайёрлашга зарур шарт-шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон Қарори қабул қилинди.

Қарорда олий таълим тизимини тубдан такомиллаштириш, мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш борасидаги устувор вазифаларга мос ҳолда, кадрлар тайёрлашнинг маъно-мазмунини тубдан қайта кўриб чиқиш, халқаро стандартлар

даражасида олий малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шароитлар яратиш вазибалари белгилаб берилган. Талабаларнинг техник ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришда методик жиҳатдан тайёрлаш негизида қуйидаги тамойиллар ётади:

Талабаларнинг техник ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришда методик жиҳатдан тайёрлашни инсонпарварлаштириш;

Илм-фан технологияларининг тезкор ривожланиши шароитида талабаларнинг шахсини шакллантириш ва ривожлантиришга педагогик муоммо сифатида ёндашиш;

Талабаларнинг шахсини шакллантириш ва ривожлантиришга тизимли ва технологик ёндашув;

Талабаларнинг техник ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришда соҳага оид билимлар билан бир каторда методик билимлар билан қуроллантириш ва уларга рақамли технологияларини қўллаш олиш методикасини такомиллаштириш;

Юқорида қайд этилганлардан англанадики, бугунги кунда талабаларнинг техник ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришда замонавий рақамли ахборот технологиялари ва уларни таълим жараёнига татбиқ этиш амалиётидан фойдаланиб, уларнинг ўз касбий малакаларини мунтазам равишда ошириб бориш ва бунда самарали инновацион услубларни ўзлаштириб олиб, амалиётга жорий этиш зарурлиги келиб чиқади. Мустақилликнинг 2017-2023 йилларида янги Ўзбекистонимизнинг иқтисодиётида, ижтимоий ҳаётнинг реал талабаларидан келиб чиққан ҳолда, олий таълим тизимини модернизация қилиш, унга ўқитишнинг замонавий шакл ва технологияларини жорий этиш, мутахассислар тайёрлаш бўйича ихтисослик йўналишларини такомиллаштириш борасида самарали ишлар амалга оширилиб янгидан янги замонавий техника ва рақамли технологияларга асосланган унверситетлар олий таълим даргоҳларининг бир неча бор қупайтирилганлиги қувонарлидир.

Ўзбекистонда кейинги йилларда жамиятда бозор иқтисодиёти муносабатларининг 5 та ташаббус орқали қарор топиши билан боғлиқ равишда ишлаб чиқариш илим фан ривожланиши жараёнида фаолият юритаётган, шунингдек, ОТМда тайёрланаётган кадрларда назарий билимларни амалиётга бевосита, самарали татбиқ эта олиш ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришга бўлган эҳтиёж шаклланди. Талабаларнинг техник ижодкорлик компетентликка эга бўлишлари юқорида қайд этилган эҳтиёжни қондиришнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Талабаларнинг техник ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришда ОТМ тахсил олаётган талабаларда техник ижодкорлик компетентлигини рақамли технологиялар асосида шакллантиришга хизмат қиладиган зарур педагог шарт-шароитларни яратиш мақсадга мувофиқдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Хасанов А.А. Современная теория обучения на межпредметной основе // Science and world. – Volgograd, 2016. -№8 (36), vol II. – С. 76-78

2. Хасанов А.А. Дидактический анализ проблемы межпредметных связей и возможности их использования в средне-специальных учебных заведениях // МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ // ежемесячный научный журнал № 1 (36)/2012 Том II 129-130с. ISSN 2072-0297 Чита-2012 г.

3. Хасанов А.А. Ўқитиш жараёнида фанлараро алоқадриликни амалга оширишнинг психологик-педагогик асослари // Замонавий таълим // илмий- амалий оммабоп журнал. Тошкент-2017, №10, 9-14 бетлар



Sinov yordamida o'rganish va ta'minlashda tajriba-sinov yordam dasturidan, o'quvchilarning yanada o'zlashtirishini ta'minlash va o'rganish jarayonida yangi bilim va malakalarini oshirishga yo'naltirish mumkin. Bu dasturlardan o'quvchilarning yutuqlarini, muammolarini tahlil qilish va o'quvchilarni qiziqtirish uchun resurslar kerak.

Tajriba-sinovning asosiy maqsadi o'quvchilarning yutuqlarini aniqlashdir. O'quvchilar sinovda o'rgangan bilim va malakalarni qanday samarali qo'llashganligini ko'rsatishi kerak. Yutuqlar, o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini, bilim va malakalarini darajalarini ifodalaydi.

Muammolar yechilishi: Tajriba-sinovlarda muammolar va muammolar yaratiladi, va o'quvchilar o'sha vaziyatda yechib chiqishga harakat qiladi. Sinovni tekshirishda muammolar yechilishiga e'tibor kerak. O'quvchilarga qanday yordam berish kerak.

O'quvchilarning o'z fikrini ifodalashi tajriba-sinovlarda o'quvchilarning o'z fikrini bayon etish, g'oyalarni qo'llash, fikr almashish va muloqot qilish uchun ega bo'lishi kerak. O'quvchilarning o'zlashtirish vositalarini tuzatish o'z fikrini bildirishlari va boshqalar bilan fikr almashishlari ustida ishlashi kerak.

Amaliyotda o'quvchilarning bilim va malakalarini amalda qo'llash darajasini ko'rsatilishi kerak. O'quvchilarning o'rgangan bilim va malakalarini qanday samarali amalda qo'llashganligi, amaliyotda qanday muvaffaqiyat ko'rsatganligi uchun muhim kriteriyadir.

Muloqot va ishtirok: tajriba-sinovlar o'quvchilarning muloqot qilish, guruh ishlarida ishtirok etish, maslahatlar berish va o'z ishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish. Sinov bilan muloqotni olishda o'quvchilarning ishtirokini e'tiborga oladi.

O'quvchilarning o'zini ta'minlash- vasiting: Tajribanovlar o'quvchilarning o'zlarini qulay foydalanishni beradi. O'quvchilarning o'rganish jarayonida o'zlashtirish darajalari, o'rganish jarayoniga nisbatan o'zlarining qanday sifatli bo'lishi kerakligini o'rgatadi.

Bu kriteriyalardan tajriba-sinov yo'lini ishga tushirishda foydalanish mumkin. Ularning amalga oshirish o'quvchilarning o'zlashtirishni yaxshilash, bilim va malakalarini tuzatish jarayonida o'zlashtirishni ta'minladi.

O'z fikrini ifodalash tajriba-sinov talabalarni o'rganish jarayonida yordam beradi. O'quvchilarning o'z fikrini ifodalash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tajriba-sinovlar o'quvchilarga o'z fikrini bildirish, g'oyalarni qo'llash va maslahatlar berish fikrini beradi. O'quvchilarga sinov jarayonida o'z ma'lumotlarini ifodalash uchun muhit, ularni qiziqtirish va o'z ma'lumotlarini o'qituvchilarga bayon etishda o'z kuchini oshirishi kerak.

O'quvchilarning fikrini bildirish uchun: Tajriba-sinovlar o'quvchilarga o'zini ifodalash va uning asosida amaliyotga o'tishni fikrini kuzatishni beradi. O'quvchilar fikrlarini ishonchli va maslahatli tarzda ifodalay olishadi, bu hujjat o'zlashtirish va o'rganish jarayonidagi samaradorlik vositalariga yordam berishga imkon beradi.

O'quvchilarning ko'rsatgan fikrining muvaffaqiyati: O'quvchilarning fikrlarini amaliyotda o'rganish, qanday natijaga olib kelishi va uni yechishda qanday samarali bo'lishi kerak.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

O'quvchilarning fikrlarini ishlab chiqishda, o'z fikrini yaxshilashda, yangi g'oyalarni qo'llashda, murojaatlarini rivojlantirish va o'z fikrini yuqori darajada ifodalashda tajriba sinov ishlari yordam beradi. O'quvchilarning o'z fikrini qabul qilish va qadrlash qobiliyatini beradi. O'quvchilarning fikrini qabul qilish, unga e'tibor berish natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini e'tiborga olishga yordam beradi.

Talabalar fikrini o'zgartirish o'rnatish, o'zlashtirish, fikrlash, muhokama qilish va yaratish vositalarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkon beradi.

O'quvchilarning fikrini qabul qilish va qadrlash uchun qo'llanmalar mavjud

O'quvchilar bilan muloqot va ishtirokini ta'minlash uchun o'quvchilarni tashkil etishi va guruh ishlarida ishtirok etishishi zarur. Bu jarayonlar o'quvchilarning o'zlarini ifodalash, fikr bildirish va taklifda bo'linish jarayonini amalga oshiradi.

O'quvchilar sinov natijalarini, darsda o'rganish jarayonini, o'zgarishlarni va qo'llab-quvvatlash talablari bilan bog'liq ma'lumotlarini o'z fikrlari bilan bildirishadi va ular rag'batlantiriladi.

Fikr almashish va muloqot uchun talabalar o'z fikrlarini o'qituvchilarga, guruh a'zolariga o'zaro muloqot qilish uchun bildirib fikr almashishga ega bo'lishadi. Fikr almashish va muloqot uchun ishtirok etish talabalarning o'z fikrini ifodalashi, uni ushlab turishni namoyish etish va qadrlash imkonini beradi.

Talabalarning fikrlarini qabul qilish va qadrlash uchun ular baholanadi va rag'batlantriladi. Talabalarning fikrini ishlatish uchun oldin dasturiy ta'minot, portfollar, qog'ozlar yoki elektron formatdagi boshqarish vositalaridan foydalanish mumkin. Bu, o'quvchilarni o'zlashtirish, fikr bildirishini va taklif bildirishi uchun yordam beradi. O'quvchilarga o'z fikrini amaliyotda bayon etishi, g'oyalarni harakatga keltirishi, o'z fikrini amaliyotda qo'llashni ta'minlaydi.

O'quvchilarning fikrini qabul qilish va qadrlash uchun tizimlar, yangiliklar panellari, fikr festivali, o'quvchilar konferensiyalari, guruh ishlarida takliflar berish va qatnashishning muhim qismi bo'lishi mumkin. Bu tizimlar o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash va uning muhimligini anglash uchun qo'llaniladi.

Bu qo'llanmalar o'quvchilarning fikrini qabul qilish va qadrlashga, o'zlashtirishga, fikr almashish va muloqot qilishni yaxshilashga yordam beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini ifodalash va taklif qilish orqali o'zlarini o'rganish va o'zlashtirish vositalarini kuchaytirish va o'rganishlari mumkin.

Tajriba sinov ishlari pedagogik jarayonini ishlab chiqarish va ta'limning sifatini nazorat qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yig'ishtirishda tartibni amalga oshirish tavsiya etiladi

Maqsadni aniqlash: Tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadini aniqlash. Bu maqsad o'quv jarayonini ishlab chiqish, yangi usullarni testlash, o'quvchilarning dasturiy ta'minoti yoki o'quv dasturlarini ishlab chiqarish bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni tanlash: Sinov uchun kerakli o'quvchilarni o'zgartirish. Bu o'quvchilar guruhdagi o'rtacha darajada davom etishlari, o'z malakalarini tahlil qilish uchun muhimdir. Tuzilishni boshqarish: Tajriba-sinov ishini tashkil etish uchun tuzilishni boshqarishda. Bu o'z ichiga sinovning vaqti, o'quv jarayonining tartibi, tashkilotning resurslari va talablari kabi muhim moddalarni o'z ichiga oladi.

Vazifalarni tayyorlash: Tashkil etilgan sinovda o'quvchilarga mashqlar uchun to'g'ri va aniq vazifalar tayyorlang. Vazifa talabalarning bilim va ko'rinishi kerak bo'lgan sinovlarda, yordam berishi mumkin.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish: Sinovda o'quvchilarning baholarini olish uchun ma'lumotlarni to'plang va tahlil qiling. Natijalar va taqrizlar: Sinov yakunlangandan keyin, o'quvchilarning xulosasini va baholarini yig'ing va taqriz qiling. Bu dasturlar o'quvchilari, o'qituvchilar va tashkilotlari uchun amaliyotni o'rganish, ta'limni rivojlantirish va keyingi sinovlar uchun yaxshi ko'rsatma bo'ladi.

Kuzatuv va yordamda tajriba bilan kuzatib boorish tajriba-sinovning yordamini, qo'llab-quvvatlash va o'quvchilarning yordamini ta'minlash uchun kerakli o'zgarishlarda yordam beradi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda sifatli, qulayligi va adolatning muhim bo'lganligini eslab qoling. Bu usul o'quvchilarning o'zlashtirishini qayta va ta'lim jarayonini yaxshilaydi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda ma'lumotlarni ta'minlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

O'quvchilar sizga o'qish jarayonining o'rtacha foydalanuvchilari yordamini ta'minlashga yordam berishi mumkin. Ularga o'quv dasturlari, vositalari, testlar va anketalar orqali ma'lumot to'plash va baholarini olishingiz mumkin.

O'qituvchilar va pedagoglar: O'qituvchilar va pedagoglar o'quvchilarning o'zlashtirishini va tayyorlash, ma'lumotlarni, sinovlarni tashkil etishda yordam berishi mumkin. Ularning o'quvchilari haqida ma'lumotlarni to'plash, ishlab chiqish va taqriz qilishlari, sinovlarni aniqlash va uni amalga oshirishda kritik rol o'ynaydi.

Kitoblar va ilmiy manbalar: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda kitoblar, ilmiy maqolalar va pedagogik resurslar keng qo'llaniladi. Bu manbalar sizga tajriba-sinovning tarixiy ma'lumotlarini, o'quv-uslubiy usullarini, foydaning prinsiplarini o'rganishda yordam beradi O'quv dasturlari va elektron resurslar, tajriba-sinovlarni tashkil etishda ma'lumotlarni ta'minlash uchun katta imkoniyatlar beradi. Bu dasturlar va resurslar o'quvchilarning amaliyotni yaxshilash va foydalanish uchun yordam beradi.

Internet va onlayn platformalar, yangi pedagogik tajriba-sinov usullarini o'rganish va amaliyotga o'tkazish uchun katta foyda beradi. Bu platformalar orqali siz o'quvchilar bilan aloqada bo'lish, ma'lumotlarni almashish, yuklarni berish va ularni boshqarishga erishasiz.

So'rovnoma va anketalar tajriba-sinovning yo'nalishlarini oshirish, o'quvchilarning ma'lumotlarini qayta tiklash va foydalanishni tahlil qilishda foydalanish qulaydir. Bu usul orqali o'quvchilarning ko'rsatmalarini va qarashlarini bilib olishingiz mumkin.

Ma'lumotlar bazalari va statistik tahlil, tajriba-sinov natijalarini tahlil qilishda yordam beradi. Bu orqali siz tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarning baho va natijalarini tahlil qilish, ma'lumotlarni olish va o'quv jarayonini ishlab chiqish uchun statistik ma'lumotlarni aniqlash mumkin.

### **ADABIYOTLAR**

1. Khojayeva, G. (2023). O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 879–882. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/454>
2. Khojayeva, G. (2023). Development of heuristic ability. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 441–443. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5005>
3. Muradov, Salaxiddin Djumanazarovich. "Talabalarning texnik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida." *Educational Research in Universal Sciences* 2.14 (2023): 53-56.
4. Abdurashidovich, X. A., & Nigmanovna, M. F. (2019). Access to electronic

educational resources in the education system. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

5. Xo'jayeva G.A., Almuratova M.Sh. Evrestik qobiliyatni rivojlantirish.....// ta'lim sifatini oshirishni tashkil etish va uni boshqarish texnologiyalari» mavzusida xorijiy mutaxassislar ishtirokidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2023 yil, dekabr.MAQOLALAR TO'PLAMI. 343-бет.

6. Khaidarov A. T, Toshtemirov J. M. Heat source density in non-linear heat dissipation processes //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 10.–С. 72-80.

7. Khaidarov A. T., Toshtemirov J. M. Modeling of the dependence of the conductivity of the non-electric medium of iron metal //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 10. – С. 88-89.

8. J.M. Toshtemirov, M.A. Asadullayeva the effect of the heat source on the ambient density in the processes of non-linear heat propagation in multidimensional fields.

Toshtemirov, J. (2023). Applied mathematics and modeling. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 330–333. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4440>

9. ЖМ Таштемиров, АТ Хайдаров. влияние источника тепла на плотность окружающей среды в нелинейных процессах тепловыделения в двухмерных областях Scientific progress 4 (2), 295-299 (2023).

## MATEMATIKA FANINI O'QITISH JARAYONIDA AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Qosimova O'.Z.**

“Fan va texnologiyalar universiteti” nodavlat oliy ta'lim muassasasi

“Aniq fanlar” kafedrasida kata-o'qituvchisi

[qosimovaxon93@gmail.com](mailto:qosimovaxon93@gmail.com)

**Anotatsiya:** Maqolada akademik litsey o'quvchilarining axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish vositasi sifatida matnli masalalar turlari taxlil qilindi, matnli masalalar yordamida o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentligi rivojlantirish tamoyillari ajratib ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Matnli masalalar, funksiya limiti va uzluksizligi, muammoli materialni tanlash tamoyillari, axborot bilan ishlashning asosiy usullari.

Hozirgi vaqtda kuzatilayotgan axborot o'sishi insondan tegishli ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri mustaqil ta'lim faoliyati uchun asos sifatida o'quvchilarning axborot savodxonligini oshirish muammosiga aylangani bejiz emas. Axborot savodxonligi - bu axborot kompetentsiyasini shakllantirishning boshlang'ich darajasi. U turli faoliyat va munosabatlarga muvaffaqiyatli kiritish uchun ma'lumotlarni samarali topish, baholash va undan foydalanish imkonini beruvchi nazariy bilimlar, shuningdek, amaliy qo'llash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim tizimida yangi ta'lim

Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

paradigmasiga o'tish bilan bog'liq o'zgarishlar ro'y bermoqda, uning asosi kompetentsiyaga asoslangan yondashuvdir.

Akademik litsey o'quvchilariga davlat ta'lim standartlarida qo'yilgan talablarga ko'ra ular ma'lumot izlash, amaliy yoki o'quv muammosini hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash, matnda mavjud bo'lgan g'oyalar va ma'lumotlarni tizimlashtirish, taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish, ushbu g'oyalar va ma'lumotlarni sharhlash va o'zgartirish kabi o'qish faoliyatini rivojlantiradilar; har xil turdagi matnlardan olingan ma'lumotlardan oddiy o'quv va

<b>Muammoli materialni tanlash tamoyillari</b>	<b>Tamoyil tasnifi</b>	<b>Misollar</b>
Uzluksiz takrorlash tamoyili	O'rganishning birinchi vaqtdan boshlab oldingi bo'limlardagi masalalar yangi mavzu bo'yicha bir xil turdagi mashqlar tizimiga kiritiladi. Maqsad - o'quvchilarning aqliy faoliyatining diqqatini va faolligini oshirish.	$1. \lim_{x \rightarrow \frac{\pi}{2}} \frac{(\frac{\pi}{2} - x) \operatorname{tg} x}{\cos(x - \pi)}$ (trigonometrik ayniy almashtirish) $2. \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x^3 + 3x^2 - 4}{2x^3 + 4x}$ (ko'phadlarning bo'linishi)
Konturmisolalar tamoyili	O'quvchilarni xato qilishga undaydigan, ularning noto'g'ri birikmalarini aniqlash va bartaraf qilishga yordam beradigan masala. Barcha xatolar darhol tahlil qilinishi kerak, shuning uchun mustaqil o'rganish uchun qarama-qarshi misollar keltirish tavsiya etilmaydi. Agar bunday topshiriqlar talabalarga mustaqil ishlash uchun berilsa, ular javoblar va mumkin bo'lgan xatolarning batafsil tahlili bilan birga bo'lishi kerak.	$\lim_{x \rightarrow \infty} x(\sqrt{x^2 + 1} - x)$ ni hisoblang. (Masalani yechishdagi xatolik shundan iboratki, odatda faqat $x \rightarrow +\infty$ holi ko'rib chiqiladi, bu esa noto'g'ri javobga olib keladi, chunki $x \rightarrow +\infty$ va $x \rightarrow -\infty$ uchun chegaralar har xil)
Taqqoslash tamoyili	To'g'ridan-to'g'ri va teskari amallar bo'yicha mashqlarni, ularning o'zaro bog'liqligini, o'xshashliklarini va farqlarini ta'kidlash uchun vazifalarni almashishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar mashqlarni yechish usullarini farqlashda va chalkashtirishda qiynaladigan hollarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.	<b>1. Ta'rif bo'yicha isbolang:</b> $\lim_{x \rightarrow 4} \frac{(x^2 - 16)}{(x^2 - 4x)} = 2$ 2. Agar $\lim_{x \rightarrow \infty} \left( \frac{x^2 + 1}{x + 1} - ax - b \right) = 0$ bo'lsa, a va b o'zgarmlarni toping
To'liqlik tamoyili	Masalalar to'plami, agar u berilgan qoida yoki teorema (teoremlar to'plami), shu jumladan maxsus holatlar uchun barcha turdagi masalalarni o'z ichiga olsa, to'liqlik tamoyilini qanoatlantiradi.	Isbotlang: 1. $\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{2x + 5}{3x - 2} \neq 1$ 2. $\lim_{x \rightarrow 1} (x^2 + 3x) = 4$

amaliy vaziyatlarda oddiy sabab-natija munosabatlari va bog'liqliklarini o'rnatish, tushuntirish, mulohazalarni asoslash, qarorlar qabul qilishda foydalana oladilar; vizual ramziy shaklda taqdim etilgan ma'lumotlarni o'qish bo'yicha asosiy ko'nikmalarni egallaydilar va rasmlar, jadvallar, chizmalar, diagrammalar mavjud matnlar bilan ishlash tajribasiga ega bo'ladilar. Bunday

ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan akademik litsey bitiruvchilarini tayyorlash har bir fan o'qitish mazmunini yuqoridagi talablarni inobatga olgan holda boyitishni talab qiladi.

Akademik litseyda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, matematika fanlarini o'rganish nafaqat maqsad qilib qo'yiladi, balki kasbiy faoliyatga tayyorlash vositasi sifatida qaraladi. Bu fakt matematika fanlari mazmuni va uni taqdim etish shakllariga qo'yiladigan talablarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi[1].

Ushbu tamoyilga muvofiq, O'rta maxsus ta'limning ta'lim standarti va matematika fani bo'yicha ishchi o'quv dasturiga muvofiq asosiy tarkibga kiritilishi kerak bo'lgan asosiy elementlarni qayd etamiz: haqiqiy sonlar va ularning xossalari; funksiya tushunchasi, ularning asosiy xossalari va funksiyalar ustidagi amallar; sonli ketma-ketliklar, ketma-ketlikning chegarasini aniqlash, yaqinlashuvchi ketma-ketliklarning xossalari, yaqinlashuvchi ketma-ketliklar ustidagi arifmetik amallar; funksiya limiti, limitlarning asosiy turlari va xossalari; uzluksiz funksiyalar tushunchasi va xossalari; elementar funksiyalar, ularning xossalari; funksiyaning hosilasi tushunchasi.

Ya.I.Grudenov muammoli materialni tanlash tamoyillarini ishlab chiqdi (uzluksiz takrorlash, qarama-qarshi misollar, taqqoslash va to'liqlik tamoyili), matematika fanini o'qitish jarayonida masalalar tuzishda e'tiborga olinishi kerak. [2] Bu tamoyillarning mohiyatini "Funksiya limiti va uzluksizligi" mavzusidagi topshiriqlarni tanlashda va ularning amalga oshirilishini aniq misollar bilan ko'rsatamiz. Bu mavzuning nazariy mazmuni quyidagilardan iborat: Funksiyaning nuqtadagi bir tomnlama limiti, funksiyaning nuqtadagi limiti, funksiyaning nuqtadagi limiti haqidagi asosiy teoremlar, funksiyaning cheksizlikdagi limiti, funksiya grafigining asimptotasi [3].

O'z navbatida V.I. Krupich masalaning murakkabligini muammo strukturasi elementlar soni hamda aniq va yashirin bog'lanishlar mavjudligi bilan aniqlashni taklif qiladi[3]. Muammoni hal qilish jarayonida bajariladigan harakatlar bir xil va ekvivalentlarga bo'linishi mumkin, ular bir xillarni hosil qiladi va shuning uchun avlod aloqalari rolini o'ynaydi. Bir xil o'zgarishlarni amalga oshirish natijasida olingan ifodalar masala strukturasi elementlari sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Bundan tashqari, agar masalaning elementlari darhol birin-ketin kelsa (ekvivalent transformatsiyalar bilan ajratilmagan), u holda elementlar orasidagi bog'lanishlar aniq deb ataladi, agar ular ekvivalent transformatsiyalar bilan ajratilsa, bog'lanishlar yashirin deb ataladi[4].

Ko'p bosqichli matnli masalalar akademik litsey o'quvchilarining matematika fanini o'qitish jarayonida axborot kompetentligini rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Ularning mazmuni va nazariy materialning mazmunini tanlashda uslubiy yondashuv, ma'lumotlarning ortiqchaligi, kasbiy faoliyatga yo'naltirilganlik va darajalarni farqlash tamoyillari hisobga olinadi.

Uslubiy tamoyil – akademik litsey o'quvchilariga o'quv matematik ma'lumotlar bilan ishlashning asosiy texnikasi va usullarini o'zlashtirish zaruratidan iborat: tushunchalar va teoremlar bilan ishlash texnikasi, mnemonik usullar (ustun belgini ajratib ko'rsatish, ma'lumotni majoziy kodlarga aylantirish, ma'lum ma'lumotlarga bog'lash, farqlovchi xususiyatni ajratib ko'rsatish), ma'lumotni talqin qilish mexanizmlari (tarkibni aks ettirish, ta'lim tillarini kreolizatsiya qilish).

Matematika fanini o'qitish jarayonida o'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan axborot bilan ishlashning asosiy usullarini tashkil etuvchi harakatlar quyidagilardan iborat:

- Ma'lumotni bir tildan boshqa tilga tarjima sifatida talqin qilish va ma'lumotga shaxsiy ma'no berish. A.Ya.Danilyuk [5] tomonidan taklif qilingan ta'lim integratsiyasining ba'zi

mexanizmlari axborotni izohlash usullari bo'lib xizmat qilishi mumkin: a) kontent aksentsiyasi - yaxlit ta'lim maydonini yaratishga imkon beradigan ba'zi elementlarni jalb qilish va boshqalarni yo'q qilish mexanizmi. Ushbu mexanizmni amalga oshirish faoliyat maqsadini tanlash algoritmidan foydalanish yoki tanlov mezonlarini tahlil qilish orqali faoliyatning individual mikro-maqsadini tanlash (ko'p darajali masalalardan birini tanlash va uni yechish) bosqichida namoyon bo'ladi. Tanlangan maqsad asosida nazariy materialni tahlil qilish va tanlash, uni sharhlash amalga oshiriladi. b) ta'lim tillarining kreolizatsiyasi - o'qituvchi tilini, ilmiy matnlar tilini o'quvchi ongiga singdirish mexanizmi, buning natijasida yagona til shakllanadi [5].

O'qituvchi va sinfdoshlar bilan muloqotda bo'lganida, ilmiy matn bilan ishlash jarayonida o'quvchining tili o'zgaradi, u so'z boyligi, bu sohada qabul qilingan nutq burilishlari va frazeologik birliklar bilan boyib boradi. Yagona tilning shakllanishi kontseptsiya va uning tasviri (ramziy, og'zaki va grafik) o'rtasidagi aloqalarni shakllantirishga, taklif qilingan belgilarning sabablarini aniqlashga, kontseptsiya haqidagi mumkin bo'lgan taxminlarni tasdiqlash yoki rad etishga qaratilgan muayyan faoliyatni amalga oshirish natijasida yuzaga keladi. , va hokazo. O'rganayotganda, turli xil kodlash usullarini birlashtirish muhim ahamiyatga ega , bu o'rganilayotgan hodisaning eng to'liq tasvirini shakllantirish imkonini beradi.

- Axborotning ortiqchaligi printsipli matnli masalalar mazmuniga ularni yechish uchun zarur va qo'shimcha ma'lumotlarni kiritishning maqsadga muvofiqligidan iborat. Masalalar matematika o'qituvchisi faoliyatidagi kasbiy vaziyatlarni tavsiflash, o'rganilayotgan tushunchalarning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, matematik tahlil usullari bilan bog'liq bo'lgan turli shakllarda (og'zaki, grafik, sxematik) taqdim etilgan materiallarni o'z ichiga olishi kerak. O'quv materialining mazmuni quyidagi qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- qo'shimcha tarixiy material. Masalan, "Funktsiyaning uzluksizligi" mavzusini o'rganib chiqqandan so'ng, talabalarga uzluksizlik tushunchasining paydo bo'lish tarixini ko'rib chiqish taklif etiladi

- kasbiy faoliyatda o'quv materialidan foydalanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi qo'shimcha material. - o'rganilayotgan o'quv materialining amaliy yo'nalishini aks ettiruvchi qo'shimcha material.

- Kasbiy faoliyatga yo'naltirilganlik tamoyili axborot bilan ishlashda akademik litsey o'quvchisining kasbiy faoliyatini tashkil etish uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi. Kompleksga kiritilgan masalalar kasbga oid faoliyat turlarini: analitik va sintetik, axborot-tushuntirish, loyihalash, prognostika, tashkiliy boshqaruv va tadqiqot faoliyatini aks ettirishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, topshiriqning mazmuni kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan real vaziyatga yaqin vaziyatni aks ettirishi kerak.

- Darajani farqlash tamoyili ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Masalalar turli darajadagi murakkablikda bo'lishi kerak, bu esa o'quvchiga matematika fanini o'rganish jarayonida individual faoliyat sxemasini tanlash va qurish imkonini beradi

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva B.S Akademik litsey talabalarining matematik tafakkurini rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. Nom. – Toshkent, 2002.
2. Alixonov S., Matematika o'qitish metodikasi, Darslik, Toshkent, 2011. 249-bet.
3. Игна, О.Н. Методические задачи в профессиональной подготовке

- учителя: содержание и классификации. -Вестник ТГПУ, 2009.-№7(85). 2023
4. Картежникова, А.Н. Контекстный подход к обучению математике как средство развития профессионально значимых качеств будущих экономистов-менеджеров / А.Н. Картежникова. -Омск, 2005.-243 с.
  5. Балтабаева Р. Б., Бекназаров М. К., Курбанова А. Х. Раскрытие межпредметных связей с помощью прикладных задач //Academy. – 2021.– №. 6 (69). – С. 57-59.
  6. Abdurashidovich, Khasanov Abdushokhid, and Khasanova Sabokhat Sadullaevna. "Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts" American Journal of Pedagogical and Educational Research 10 (2023): 185-190.
  7. Khasanova, S. S. D., & Khasanov, A. A. (2023). Theoretical approaches to creation of pedagogical concepts. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 16-22.
  8. Abdurashidovich, K. A. (2023). Methodological foundations of understanding the essence of e-learning. theory and analytical aspects of recent research, 2(13), 90-96.
  9. Nazarov, I., Hasanov, A., Mirjamolova, F., Khaldarov, H., & Alibekov, S. (2021). Modern educational technologies. Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias, 11(3), 245-252.
  10. Tayirov J.U. A problem-based approach to integral teaching of mathematics // American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 10, | Mar., 2023. ISSN (E): 2832-9791. Page 180-184.

**AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING FAZOVIIY TASAVVURLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Saparboyev Jamoladdin Yuldashevich –**

Toshkent amaly fanlar universiteti, dotsenti, [saparboevj@mail.ru](mailto:saparboevj@mail.ru)

Bugungi kunda jahonda fan-texnika taraqqiyoti, har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda va uning kelajagini belgilashda inson intellektual salohiyatining muhimligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga dunyoda ilm-fan rivojining bugungi holati, ayniqsa, bu borada yoshlarga bilim berish keng joriy etilgan jamiyatda barcha fanlar kabi geometriya fanlari sohalarida tatbiqiy masalalar, fazoviy tasavvurni rivojlantirishga doir bilimlarning tez yangilanib borishi, o'quvchilar oldida ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlashdek vazifani qo'yimoqda. Xususan, akademik litseylar matematikasi ta'limida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish, tasavvurning rivojlanganlik darajasini aniqlash jarayonini samarali tashkil etishda fundamental, aniq va tabiiy fanlar qamrovida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar keng imkoniyatlar yaratadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish iqtisodiy samara berishi bilan bir qatorda, o'quv jarayonida yangi o'qitish uslublarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi. Ta'lim tizimida axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik-dasturiy vositalari yaratilishi bilan bog'liq.

Pedagogik dasturiy vositalar - kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi.



Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

1. **O'rgatuvchi dasturlar** - o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi. Bu dasturlarga videodarslar, elektron darliklar, multimediali darslar kiradi.

2. **Test dasturlari** - egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi. Nazorat o'tkazuvchi va o'z-o'zini bilimini sinash testlari misol bo'la oladi.

3. **Mashq qildiruvchi dasturlar** - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Fanga doir krossvordlarni yechish orqali, o'zlashtirish darajasini yanada mustahkamlash imkonini beradi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazuvchi dasturlar kiradi.

4. **O'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar-(Virtual borliq tizimlari)**. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq. Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o'zini faraz qilishini tushunish lozim. Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi ob'ektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

Pedagogik dasturiy vositalar o'quvchilarning kreativ fikrlash, ijodkorlik, xotira, tashabbuskorlik, fazoviy tasavvur kabi fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda juda ko'plab pedagogik dasturiy vositalar yaratilgan. Bunday dasturlar qatoriga Crossword Forge dasturini keltirish mumkin.

**Crossword Forge** - o'zingizning faningizdan krossvordlar yaratish uchun qulay dasturlardan biri. Geometriyadan muammoli jumboqlarni osongina yaratishingiz mumkin.

Crossword Forge dasturi krossvordlar tuzishga mo'ljallangan dasturlarning oldingi versiyalariga qaraganda 25 barobar tezroq tuzish imkoniyatiga ega. Agar siz haqiqatan ham krossvord yaratishni yaxshi ko'rsangiz, bu siz uchun qiziqarli krossvordlarni kashf qilishning ajoyib imkoniyatidir.

O'quvchilarning geometriyadan bilimini tekshiring. Gazeta va jurnallardan olingan krossvordlar monotonlik va takrorlanish bilan tugaydi. Crossword Forge yordamida turli darajadagi qiyinchiliklarga ega bo'lgan o'z so'z jumboqlarini yarating. Bu ilovada tezkor krossvordlarga ega bo'lgan samarali imkoniyatlar mavjud bo'lib, uning yordamida siz o'quvchilaringizni sinab ko'rishingiz mumkin.

Crossword Forge -da mavjud bo'lgan variantlar orasida krossvordda aniq so'zni topishga yordam beradigan turli tilli lug'atlarga kirish qobiliyatini, krossvordlarni taqdim etish uchun turli xil grafik jihatlarni tanlash qobiliyatini va uni chop etish va eksport qilish funksiyalarini ta'kidlash kerak. Tayyor boshqotirman Text, PDF, rasm yoki veb ko'rinishda eksport qilish ham mumkin.

Crossword Forge bolalar, o'quvchilar uchun so'z qidirish o'yinlari kabi boshqa o'yinlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Crossword Forgeni yuklab olib va turli ko'rinishda va mazmunli krossvordlarni o'zingiz yaratishingiz mumkin.

Yuklab olish uchun:

<https://www.softsalad.ru/software/znaniya/razvivayushchie-programmy/crossword-forge/download>

**GoogleForm** – bu Google Drive bulutli xotirasiga ulangan xizmatlardan biridir. U bilan ishlash uchun sizga faqat Gmail pochta kerak bo'ladi.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

✓ Ilova brauzer orqali ishlaydi. Unda siz istalgan miqdordagi shakllarni bepul yaratishingiz mumkin.

✓ Forma - bu so'rov yoki anketa joylashtirilgan alohida veb-sahifa. Uning yordami bilan:

- ✓ testlar;
- ✓ Elektron pochta manzillarini to'plash sahifasi;
- ✓ Ovoz berish va boshqalar.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun, Google Docx xizmat sahifasiga o'tish kerak.

<https://docs.google.com/document/u/0/> havola bilan tizimga kiring.

Google formda test yaratish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz.

Ta'lim shablonidan «test» shaklini tanlang:

- ✓ **Один из списка** dan so'rov turi tanlanadi
- ✓ **Вопрос без заголовку** orqali test savollari yoki masalalar kiritiladi.
- ✓ **Вариант 1** bilan tanlov variantlari kiritiladi va keragicha variantlar qo'shib boriladi.

**ОТВЕТИ** bo'limiga kirilib testni yoki so'rov formasining to'g'ri variant belgilanadi, ball kiritilib, keyin **Готово** tugmasi bosiladi.

Navbatdagi so'rov formasini yaratish uchun **добавит вопрос** tugmasi bosiladi.

Test tuzib bo'lingach **Отправить** tugmasi bosiladi.

Havola nusxasini telegram yoki pochta orqali o'quvchilarga jo'natiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirganlik natijalari **ОТВЕТИ** bo'limiga keladi va diagramma hamda **google таблицы** faylida natija olinishi mumkin.

Bulardan tashqari, Geometriya fanini o'qitishda pedagogik dasturiy vositalar asosida integrallashgan darslarni tashkil etishning samaradorlik darajasini aniqlashda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- o'quvchilarning o'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanishda mustaqil qarorlar qabul qilish va har bir harakatga ijodiy yondoshish yo'llari;

- integrallashgan dars jarayonida namoyish etilayotgan o'quv ma'lumotlarni o'quvchilar tomonidan qabul qilinish darajasi va ularni mustaqil ish va ijodiy faoliyatlarda tadbiiq etish qobiliyatlari;

- ma'lumotlarni bayon qilish, tekshirish va modellashtirishda virtual muhitlardan foydalanish imkoniyati va zaruriyati;

- integrasiyallashgan darslarda ma'lumotlarning etarliligi, ishonchliligi va ko'rgazmaliligi;

- geometriya fanini o'qitish jarayonida integrasiyallashgan usullarni qo'llash uchun uslubiy ko'rsatmalar, qo'llanmalar va tavsiyanomalar yaratish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda AKT vositalaridan samarali foydalanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishda xizmat qiladi. Ta'limga yangicha yondashuv asosida axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarning milliy o'zligini anglashga, ularning Yangi O'zbekistonning munosib farzandlari bo'lib yetishishlariga katta hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil

29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020-yil 29-dekabr).

2. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.

3. Abduqodirov A.A, Toshtemirov D.E “Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish metodikasi”. Monografiya. Guliston. Universitet, 2019.

4. D.E.Toshtemirov, M.B.Niyozov, J.D.Saidov “Ta'limda axborot texnologiyalari” o'quv qo'llanma: Toshkent. 2020.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. <https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari Milliy bazasi.
2. <http://www.rtm.uz> - Respublika ta'lim markazi sayti.
3. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz) - Ziyonet ta'lim axborot tarmog'i.
4. <https://www.google.com/intl/en-GB/forms/about/>

## **BOLA KAMOLOTIGA TA'SIR ETADIGAN OMILLAR**

**Shaismatova Nadira Abduvajitovna**

Angren shahar 29-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** ota-onalarning pedagogik malakasi va madaniyatini oshirish, insonni fuqarolik burchlarini bajarishi, shaxslararo muloqotning qoidalariga amal qilishini rivojlantirish shaxs ijtimoiylashuvi shaxsga jamiyat tomonidan talab qilinayotgan qoida va normalarni o'zlashtirishi, mustahkamlashi va ijodiy qo'llay olishini namoyon etishidir.

**Kalit so'zlar:** jamiyat a'zosi, shaxsning fazilatlarini, ongilligi, iymoni, vijdoni, e'tiqodi, mas'uliyat.

**Аннотация:** повышение педагогического мастерства и культуры родителей, развитие способности человека выполнять гражданские обязанности, соблюдать правила межличностного общения, социализация личности означает, что человек может освоить, закрепить и творчески применять требуемые обществом правила и нормы.

**Ключевые слова:** член общества, качества личности, сознание, вера, совесть, убеждения, ответственность.

**Abstract:** improving the pedagogical skills and culture of parents, developing a person's ability to perform civic duties, comply with the rules of interpersonal communication, socialization of the individual means that a person can master, consolidate and creatively apply the rules and norms required by society.

**Key words:** member of society, personality traits, consciousness, faith, conscience, beliefs, responsibility.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Shaxsni shakllantirish jarayonini tezlashishning muhim omillaridan biri.

Bu uning ongliligi, iymoni, vijdoni, e'tiqodi, mas'uliyati bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlar barkamol tarbiya g'oyasining yangidan yangi qirralarini egallashga imkon beradi. O'quvchi shaxsining shakllantirish oilaning turmush darajasi va maktab muhiti, undagi ma'naviyat bilan bog'liqdir.

Shaxs tafakkurining rivojlanish imkoniyatlari cheksiz ekanligi hammaga ma'lum. Jamiyat taraqqiyotning har bir bosqichida shaxsning tafakkur salohiyati shu davrlarning sharoitlari, imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan belgilanadi. Shaxs taraqqiyotining istiqboli bu bevosita barkamol tarbiya g'oyalari ma'naviy meros, ta'lim aniq maqsadlar, jarayonlar imkoniyatlar bilan bog'liq. Insoniyatning tafakkur salohiyati yetuk bo'lgan davrlarda mutafakkirlar kelajakda amalga oshadigan g'oyalar, ilmiy bashoratni oldinga surganlar. Erkin ijodiy tafakkur muayyan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy zaminlarda yuzaga keladi va ma'naviyatning rivoji qanchalik mushtarak bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot uchun zamin bo'ladigan ilg'or g'oyalar ko'proq maydonga keladi va taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadi.

Bola shaxsining rivojlanishida naslning ta'siri deganda ota-onadan bolaga meros bo'lib o'tadigan jismoniy xususiyatlari (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terining rangi, bo'y-basti) shuningdek, tananing vertikal holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati, tug'ma holatda o'tadigan qobiliyatlar va xususiyatlar tushuniladi.

Bola kamolotiga ta'sir etadigan omillardan biri tashqi muhit hisoblanadi. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, oila muhiti va ijtimoiy muhit kiradi.

Tabiiy (geografik) muhit – insonning hayot tarziga, xarakteri va mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Masalan, shimolda istiqomat qilayotgan inson, janubda yashayotgan insondan nafaqat jismoniy ko'rinishi, shu bilan birga ruhiyati, dunyoqarashi va xususiyatlari bilan ham ajralib turadi.

Oila muhiti – insonning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh-urug'ini ko'radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo'lsa, bolaning axloqi go'zal va fazilatli bo'lib ulg'ayadi.

Ijtimoiy muhit – ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar insonga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy aloqa, ya'ni insonlararo o'zaro munosabatlar natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. Jamiyatda ma'naviy muhit yaxshi, adolat ustuvor bo'lsa, inson faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishi va aksincha bo'lsa, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, insonning kamolotga yetishiga ta'lim-tarbiya, muhit va irsiyat muhim hisoblanadi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013.

2. Мартин Д. Психологические эксперименты .Секреты механизмов психики.-Спб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2004-480 с

3. Tadjibayeva Sh.A. "Ta'lim sub'ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish pedagogik shart-sharoitlari" nomli monografiya, "Ilm ziyo zakovat"-Toshkent, 2023-135b.

4.Hudoyqulov X.J “Odob-axloq va tarbiya durdonalari” T. 2008 yil

## TA'LIM JARAYONDA O'SMIRLIKNING O'ZIGA XOSLIGI.

**Shamshiyeva Zaynab Ergashovna**

Angren shahar MMTBga qarashli

7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab

amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** ta'lim muassasalari amaliyotchi psixologlarining ta'lim-tarbiya jarayonida uchraydigan turli vaziyatlarni inobatga olgan holda, o'quvchilarning yosh xususiyatlari bo'yicha ishlarni tashkil etish va uni amalga oshirish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'smir, “yosh bola” emas, makoniy avtonomiya.

**Аннотация:** с учетом различных ситуаций встречающихся в образовательном процессе практикующих психологов образовательных учреждений, происходит развитие компетенций в организации работы и ее реализации с учетом возрастных особенностей обучающихся.

**Ключевые слова:** раннее детство, младший школьный возраст, подросток, «не ребенок», пространственный автономия.

**Abstract:** taking into account the various situations encountered in the educational process by practicing psychologists in educational institutions, competencies in organizing work and its implementation take into account the age characteristics of students.

**Key words:** early childhood, primary school age, teenager, “not a child”, spatial autonomy.

Ma'lumki bola dunyoga kelgan ondan boshlab u onasi va atrofida gilarining emotsional, hissiy qo'llab-quvvatlashiga, mehr-muhabbatini namoyon qilishiga, erkalashiga ehtiyoj his qiladi. Shuning uchun ham ilk bolalik yoshidagi, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni suyub, erkalab ularni quchib, boshini silab, yoqimli gaplar va muomala bilan ularga hissiy yaqinlik namoyon qilinsa, ular bundan quvonib, xursand bo'ladilar va erkalayotgan shaxsga nisbatan talpinadilar. Buni yosh bolalarning onasiga suykalishi, ularning pinjiga suqilishi, ularga erkalanishi hollarida kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, bolalar o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida nizo-tortishuvlarga duch kelganida va ayniqsa tengdoshlaridan “jabrlanganda”, “engila boshlaganidan”, ota-onasidan va atrofida gilarining yaqinlaridan emotsional dalda, hissiy ko'llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojaat qiladi. Agar o'z vaqtida shu hissiy daldani ola olsa, o'zini erkin, tetik, g'olib his qiladi va ular bilan quvonib yuradi. O'zining kichkinagina hayotida duch kelgan “muammolari”ni hal qilishda kattalar yordamiga muhtojlikni his qiladi, ulardan muntazam foydalanishga intiladi.

O'smirlik davrida esa aksincha, o'smir endi “yosh bola” emas, endi u “katta odam” katta odam esa mustaqil bo'lishi, o'z muammolarini o'zi hal qilishi kerak. Bu davrda kattalar yordamiga murojaat qilish tengdoshlar tomonidan qoralanadi. Va buni o'smirning o'zi ham xohlamaydi. Bu davrda o'smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko'rsatiladigan iltifot, erkalashlar erish tuyuladi. Endi ular o'zlarini erkalab, silab siypashlarini, “arzimagan

narsalar” uchun kattalar tomonidan bildiriladigan olqishlarni “yoqtirmaydi”. Endi ular atrofdagilarni hissiy qo‘llab-quvvatlashlaridan holiroq bo‘lishga, o‘zmuammolarini o‘zlari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko‘chada, bog‘chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib ota-onasidan yordam so‘ragan bo‘lsalar, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqda otaonasiga bildirmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning “ishlariga” aralashmasliklarini xohlaydi. Bularning barchasi o‘smirlarda bevosita kuzatiladigan emotsional avtonomiyaning ta’siridir.

O‘smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir. Bunga ko‘ra o‘smirlar imkon qadar o‘z xonasida yolg‘iz qolishga, biron bir ishni bajarayotgan yoki biron bir joyda bo‘lgan vaqtlarida imkon qadar yolg‘iz bo‘lishga ayniqsa o‘z ota-onasi, oila a’zolari nazaridan chetroqda bo‘lishga, o‘z o‘y hayollari bilan mashg‘ul bo‘lib vaqt o‘tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham asosan o‘z tengdoshlari, yaqin o‘rtoqlari bilangina muloqotda bo‘lib o‘z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo‘lishga intilib o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib qoladi. Ayni vaqtda o‘smirda kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini tushunmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan xavotirlanib, ular bilan oldingiga qaraganda qo‘proq qiziqib qoladilar. Boshqacha qilib aytganda ularning avtonomiyasiga “bostirib kiradilar”. Buni esa o‘smirlar yoqtirmaydi. Bunday holatlar o‘smirlar va ularning ota-onalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarida kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga asos bo‘lishi mumkin.

Yuqorida qisman to‘xtalib o‘tganimizdek o‘smir ruhiyatida kuzatiladigan xarakterli xususiyatlardan biri ularning o‘ta ta’sirlanuvchan, jizzaki, qo‘rs, sal narsaga xafa bo‘lishi uning hissiy noturg‘unligi ifodasidir. Bunday holatlarning yuzaga kelish sabablaridan biri bevosita jinsiy balog‘atga etish, ichki sekresiya bezlari, ayniqsa jinsiy bezlar vazifalarining faollashuvi va shular bilan bog‘liq holda o‘smir organizmida ro‘y beradigan psixofiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Djuraev R.X, Inoyatova M.E. Iste’dodli farzand tarbiyasi. Ota onalar kitobi. Toshkent 2013.
2. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017 – 264 b.
3. Sh.Tadjibayeva “Ta’lim sub’ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish pedagogik shart-sharoitlari” nomli monografiya, “Ilm ziyo zakovat”-Toshkent, 2023-135b.
4. Шаповаленко И.В. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология): учебник для студентов вузов. – М.: Гардарики, 2007.

**PROFESSIONAL TALIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING  
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR**

**Sharipov Abror Anvar o'g'li**

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: [Abror1519@bk.ru](mailto:Abror1519@bk.ru) Tel: (91) 599-15-19*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola professional ta'lim tizimida o'quvchilarni amaliyotini tashkil qilish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga bag'ishlangan. Ushbu maqolada so'ngi uch yilda amalga oshirilgan islohotlar doirasida ta'limni rivojlantirish bo'yicha erishilgan natijalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** professional ta'lim, amaliyot, shartnoma, korxonalar (tashkilot, muassasa, xususiy tadbirkorlik subyekt), korxonalar va tashkilotlar, yangi ish o'rinlari.

**Аннотация.** Данная статья посвящена работе по организации практики студентов в системе профессионального образования. За три года в статье проанализированы результаты, достигнутые в развитии развитого образования.

**Ключевые слова:** профессиональное образование, стажировка, контракт, предприятие (организация, учреждение, субъект частного предпринимательства), предприятия и организации, новые рабочие места.

**Abstract.** This article is devoted to the reforms carried out in our country on the organization of students' practice in the professional education system. This article analyzes the results achieved in the development of education within the framework of the reforms implemented in the last three years.

**Key words:** professional education, internship, contract, enterprise (organization, institution, private business entity), enterprises and organizations, new jobs.

Ta'lim sohasida islohotlar samaradorligini oshirish O'zbekistondagi islohotlarning kun tartibida turgan asosiy vazifalardan biriga aylandi. Ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Soha rivojiga qaratilgan shu kabi e'tibor ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonlarini sifat jihatidan o'zgartirishga, pedagogik kadrlar tarkibini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan va o'z sohasi bo'yicha so'ngi kasbiy ko'nikmalarni egallagan malakali kadrlarni tayyorlash hisoblanadi.

Professional ta'lim va kasb-hunarga o'qitish tizimi yoshlar va jamiyat kelajagini kafolatlaydi. Ishlab chiqarish amaliyoti – nazariy ta'lim berish jarayonida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, egallanadigan kasb (mutaxassislik)ga tegishli bo'lgan umumiy va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi uchun o'quv jarayonining amaliy qismini korxonalar (tashkilot, muassasa, xususiy tadbirkorlik subyekt)larda shartnoma asosida o'tkazish jarayoni;

korxonalar (tashkilot, muassasa, xususiy tadbirkorlik subyekt) – o'quvchilar amaliyotini o'tashi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lgan va amaliyot o'tashni tashkil etish bo'yicha professional ta'lim muassasasi bilan shartnoma imzolagan korxonalar, tashkilot, idora, muassasa, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ishlab chiqarish, xo'jalik, qurilish obyekti;

shartnoma – professional ta'lim muassasasi va qabul qiluvchi tashkilot o'rtasida o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti jarayonlarini amalga oshirish uchun tuzilgan hujjat;

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

amaliyot rahbari – o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, ularni tegishli korxonalariga amaliyot uchun joylashishi, amaliyot dasturiga rioya etilishi, amaliyot hisobotlarini tayyorlanishi va yuritilishi, korxonadan o'quvchilar uchun mas'ul xodim biriktirilishi kabi masalalarni muvofiqlashtiruvchi professional ta'lim muassasasi xodimi;

Ustoz – o'quvchilarga ishlab chiqarish amaliyoti davrida korxonadan tomonidan biriktirilgan va amaliyot dasturiga muvofiq o'ziga biriktirilgan o'quvchilarni umumiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda bevosita yordam ko'rsatadigan, o'quvchilarni amaliyot davridagi natijalarini baholaydigan hamda amaliyot rahbari bilan hamkorlik qiladigan mas'ul xodim.

Yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ta'lim olishning shakli sifatida Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o'quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o'z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi .

Shuningdek, dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash afzalliklarini va uning tashkilotning mahsulot unumdorligiga ijobiy tasirini asta-sekinlik bilan tushunib borayotgan hamda hamkorlikda kadrlar tayyorlash istagini bildirgan korxonalar va tashkilotlar soni kun sayin ortib bormoqda (1-rasm).

2023/2024 o'quv yilida 689 ta professional ta'lim muassasalari tomonidan 310935 nafar o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish maqsadida 33 298 ta korxonalar va tashkilotlar hamda xususiy sektordagi tadbirkorlik subyektlari bilan shartnomalar imzolangan. Shundan, 13711 ta korxonalar va davlat tashkilotlari, 19587 ta xususiy sektordagi tadbirkorlik subyektlari bilan shartnomalar imzolangan.

Shuningdek, Kasb-hunar maktablarida – 151725 nafar o'quvchilar uchun 15 754 ta, kollejlarda – 66242 nafar o'quvchilar uchun 10927 ta, texnikumlarda 92968 nafar o'quvchilar uchun 6617 ta korxonalar va tashkilotlar hamda xususiy sektordagi tadbirkorlik subyektlari bilan shartnomalar imzolangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6 sentabrdagi PF-5812 son Farmonida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan, shuningdek professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining amaliyotlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi [3].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-fevraldagi 9-son bayoniga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalari asosida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklida yil davomida o'quvchilarni o'qishga qabul qilish tizimini joriy etish belgilangan bo'lib, ushbu tartibni joriy etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qaror loyihasiga muvofiq quyidagilar belgilandi:

a) Nazariy ta'lim berish jarayonida o'quvchilar tomonidan olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, olinadigan mutaxassislik bo'yicha zarur layoqatga, ko'nikmalarga va amaliy ish tajribasiga ega bo'lish ishlab chiqarish amaliyotining maqsadi hisoblanadi.

b) Ishlab chiqarish amaliyoti o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash shakllaridan biri hisoblanadi hamda ularni ishlab chiqarish sharoitlarida olingan kasbiy ko'nikmalari va



bilimlarini mustaqil ravishda qo'llashga, o'quv dasturlarida nazarda tutilgan ishlarni sifatli va unumli bajarishga o'rgatish hisoblanadi.

d) Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tkazish muddatlari kasb (mutaxassislik)larning o'quv jarayoni grafida belgilanadi.

Endilikda ushbu tartibning tatbiq qilinishi, mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishda keng imkoniyatlar ochib beradi. Ya'ni korxonalar va tashkilotlar o'zlaridagi vakant o'rinlarini to'ldirish bilan bir qatorda, buyurtma asosida o'z xodimlarini professional ta'lim muassasalarida yil davomida o'qitishi mumkin.

Tahlillardan ko'rish mumkinki, 2022/2023 o'quv yilida 685 ta professional ta'lim muassasalari tomonidan 310935 nafar o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish maqsadida 33298 ta korxonalar va tashkilotlar hamda xususiy sektordagi tadbirkorlik subyektlari bilan shartnomalar imzolangan. Shundan, 13711 ta korxonalar va davlat tashkilotlari, 19587 ta xususiy sektordagi tadbirkorlik subyektlari bilan shartnomalar imzolangan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotni rivojlanishiga va yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasini kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yurtimizda yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada amaliyot hamda kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish zamonaviy texnologiyalarda ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash bilan bir qatorda mehnat bozori ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirishning samarali yechimi bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb-sahifasi, ochiq ma'lumotlar bazasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812 son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarori, 6-ilova 25- va 35-bandlari.

#### **BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIMDA STEM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI**

**Shodmonova Abera Shodiyevna**

Fan va texnologiyalar universiteti

"Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada STEAM texnologiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni, amaliyotda tatbiq etishdagi jarayonlar, STEAM ning amaliyot bilan bog'liqligi, tajriba o'tkazish xonalarining tashkil etilishi va ko'zlangan maqsad, texnologiyaning bola hayotidagi ahamiyati va uning xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** STEAM, texnologiya, innovatsion metodlar, laboratoriya, intellekt, salohiyat, tafakkur, axborot kommunikatsiya

**Abstract:** In this article, the role of STEAM technology in the educational process, the processes of its implementation in practice, the connection of STEAM with practice, the

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

*organization of experiment rooms and the intended purpose, the importance of technology in the life of a child and its features are given in general. information provided.*

**Keywords:** STEAM, technology, innovative methods, laboratory, intelligence, potential, thinking, information communication.

Ta'lim sohasiga e'tibor yanada kuchaytirilgan bir vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bugungi kun ta'limining eng asosiy innovatsion metodi va istiqbolli texnologiyasi bu - STEAM texnologiyasidir. Ko'pgina ta'lim tashkilotlarida ta'limning sifat samaradorligini oshirish maqsadida STEAM texnologiyasidan maqsadli foydalanib kelinmoqda. Ta'lim oluvchilar uchun olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, tajribalar o'tkazish maqsadida laboratoriyalar va LEGO markazlari yaratilmoqda. STEAM texnologiyasi ta'limi murakkab ko'ringani bilan uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda, tushunarli va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin:

S - science - tabiiy fanlar

T - technology - texnologiya

E - engineering - muhandislik

A - art - san'at

M - math - matematika.

Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM texnologiyasi asosida ta'limning tashkil etilishi, kelajakda bolaning innovatsion tadqiqotlarni mustaqil ravishda amalga oshira olishiga turtki bo'ladi.

Qaysi sohalarni olmaylik muvofaqiyat qozonish uchun bilimlarni talab etadi va aynan STEAM texnologiyasi bu maqsadga erishishda yordam bera oladi. Bu metod aynan nazariya va amaliyotni birga olib borish imkonini beradi va bilimlarga asoslanish, bilimlardan o'rinli foydalanish, mustaqil muvofaqiyatga erishish, o'z imkoniyatlaridan zavqlanish imkon beradi. STEAM texnologiyasi barcha ta'lim tashkilotlarida faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir.

Ushbu texnologiyani ta'limda qo'llanilishining maqsadi faoliyat jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, bolalarni ilmiy salohiyatini oshirish va texnik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan intellektual qobiliyatini, ijodkorligini rivojlantirishdir.

STEAM texnologiyasi maktabgacha ta'lim va maktab yoshdagi bolalarni tarbiyalashda eng qulay dasturdir.

Dasturda bolalarga ma'lum bir tartib, ma'lum bir standartlar belgilab qo'yilmagan. Faqatgina bola o'zi mustaqil ravishda, erkin, tajribalarga asoslanib, o'zi bajarib ko'rib natijaga erishish, his etib, fikrlab, idrok etib bajarish kerak bo'ladigan tamoyillarga tayanadi. Ushbu ta'lim dasturi L.S.Vygotskiyning "To'g'ri tashkil etilgan ta'lim - bolani rivojlanish sari yetaklaydi" ilmiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan dastur. STEAM dasturida maktabgacha ta'lim tashkilotlaida maxsus tajriba ya'ni laboratoriya xonalari tashkil etib, bolalarni beihtiyor ta'limga jalb etib, faoliyat davomida ularning innovatsion tadqiqotchilik va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM dasturi asosida tashkil etiladigan barcha faoliyatlarda bolaning faolligi muhim sanaladi. STEAM dasturida qandaydir bir g'oya, qanday bir tushuncha va fikrlar aqlning rivojlanishi uchun asos bo'la olmaydi. Bola barchasini amaliyotda o'zi qo'llab, natijaga o'zi guvoh bo'lishi, aniqroq qilib aytganda bajarib his etib ko'rishi lozim.

Chunki faoliyatda manipulyatsiyalash va integratsiyalashgan haqiqiy zamonaviy muhit va uning axborot-kommunikatsiya qismi, va ular bilan birga olib borilga tajribalar bolani ta'limga jalb etadi va qiziqishini oshiradi. Bu esa o'z navbatida sifat va samaradorlikni yaxshilaydi. STEAM dasturida bolalar bilan tajribalar tashkil etishda doimo bolalarning yosh jihatlari inobatga olinishi faoliyatdagi har bir jarayonlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi lozim. Ushbu tamoyilga amal qilinsagina, bola uchun qiyunchilik tug'dirmaydi, oson, qulay, qiziqarli, eng asosiysi bolaga mustaqil ravishda tajribalarni amalga oshirish imkonini beradi.

STEAM texnologiyasining ta'limdagi muvaffaqiyati shundan iboratki, STEAM ta'lim oluvchiga borliqni anlab, olgan bilimlarini amaliyotda tadbiiq qila olish, tajribalar o'tkazish, olgan natijasidan faxrlanish, his etish, yangisida intilish, tadqiqotchilik salohiyatini beradi.

STEAM texnologiyasi 3 yoshdan 11-yoshgacha bo'lgan bolalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual salohiyatini oshirish, tadqiqotchilik qobiliyatni amaliyotga rivojlantirish, yaratish uchun tajriba maydonchasidir. STEM texnologiyasi dasturining maqsadi bolalarning bilim faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilishdir.

#### ***Dasturni rivojlantirishning kutilgan natijalari***

Bola ulg'aygan sari tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarida faollashadi, qiziqish bilan namoyon bo'la boshlaydi, savollar bera boshlaydi, o'rtoqlariga va o'ziga, natijada ta'sir munosabatlarini o'rnatadi. Bolalar tabiatan tomosha qilish, tajriba qilish, jonli tabiat, tabiatshunoslik, matematika va boshqa sohalardan boshlang'ich g'oyalarni faol ravishda shakllantirishga moyil. STEAM dasturida bola har tomonlama intellektli, rejalashtirish, tanlash qobiliyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Turli tadbirlarda o'z bilim va ko'nikmalariga tayanib, o'z qarorlarini qabul qilishga, turli faoliyatda ya'ni o'yin, muloqot, ta'limiy va tadqiqot faoliyatlarida mustaqillikni namoyon qila boshlaydilar.

STEAM dasturining samaradorligini yanada kuchaytirish maqsadida ta'lim tashkilotlarida bolalarni ta'limga, ixtirolarga bevosita jalb etuvchi maxsus tajriba xonalari, to'garaklar, intellektual salohiyatini yanada oshiruvchi ijodiy musobaqalar, o'yinlar, har bir faoliyatni axborot kommunikativ texnologiyalar asosida olib borish orqali bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

STEAM ta'limi bolalarning quyidagi muhim xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish
- Ijodiy fikrlash
- Muhandislik yondashuv
- Tanqidiy fikrlash
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu ko'nikmalar kelajakda bolalarda turli masalalarda, ijodiy faoliyatda, to'siqlarga duch kelganda, umumiy olganda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi.

STEAM ta'limi, bolalar faoliyatidagi o'rni, STEAM orqali bolalar erishadigan natijalar haqida aytib o'tildi. Bu ta'limni amalga oshirilishida ko'makchi asosiy vositalarga ham to'xtalib o'tamiz.

1. Fridrix Frebelning didaktik tizimi
2. Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish

3. LEGO - qurilish, konstruksiyalash
4. Matematik tasavvurlarni shakllantiruvchi vositalar
5. Robototexnika
6. Multistudiya

Ushbu sanab o'tilgan vositalar orqali ta'lim jarayonlari qiziqarli, maroqli, eng muhimi bolaga o'z imkoniyatlarini ochib berishga, tevarak atrofdan olgan bilimlariga tayanib tajribalar olib borishga, ko'rish, his etish, fikrlash, natijaga erishish va zavqlanish hissini beradi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta'limi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda loyihalar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va bolaning o'ziga mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va butun umri davomida qo'llay olish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.V. Grosheva, L.G. Yevstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak, G.E. Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
2. Т.С. Волосовес, В.А. Маркова, С.А. Аверина. СТЕМ-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М. Бином. Лаборатория знаний 2019.
3. G.Bogdanovich. Dopolnitelnaya obshchrazvivayushaya programma "Multistudiya Moy mir" Sverdlovskaya oblast, 2018 g.
4. Master-klass dlya pedagogov "Sozдание multfilmov vmeste s detmi" M., 2018
5. Образовательный модуль "Дидактическая система Фридриха Фрёбеля". Маркова В. А., Аверин С. А. - М., 2018.
6. Н.Г. Зайцева. Робототехника в детском саду. Краснодар 2019
7. Э.Д. Жукова. Программа дополнительного образования по конструированию, ориентированная на детей от 5 до 7 лет «лего-мастер». Излучинск, 2018
8. И.А. Помораева, В.А. Позина. Занятия по формированию элементарных математических представлений в средней группе детского сада. М: 2019

#### **MAIN DEVELOPMENT TENDENCIES OF ELECTRONIC EDUCATION**

**Musayev Sardor Xabibulla o'g'li**

Fan va texnologiyalar universiteti Aniq fanlar kafedrasini o'qituvchisi.

[sardormusayev1999@gmail.com](mailto:sardormusayev1999@gmail.com)

**Raxmatjonov Shukrulloh Quadratulla o'g'li**

**Shokirjonov Davronbek Sobir o'g'li**

**Shukurova Gulchekhra Shoyiqulovna**

University of science and technologies

Students of the 1st stage of the Faculty of Finance and Financial Technologies

**Abstract.** *E-learning resources are an integral part of modern learning E-learning is a fast and changing world, making the course new and exciting nowadays, continually changing course content, and also providing students with the latest information The technology that lets you quickly update.*

**Key words:** *electronic educational, electronic educational resources, pedagogical technology, educational process.*

**Аннотация.** *Ресурсы электронного обучения являются неотъемлемой частью современного обучения. Электронное обучение - это быстрый и меняющийся мир, который делает курс новым и захватывающим в наши дни, постоянно меняет содержание курса, а также предоставляет студентам самую последнюю информацию. Технология, которая позволяет быстро обновлять.*

**Ключевые слова:** *электронные образования, электронные образовательные ресурсы, педагогическая технология, образовательный процесс, мультимедийность.*

In the Strategy of Actions for further development of the Republic of Uzbekistan, it is defined as an important task to improve the quality and efficiency of the activities of higher education institutions based on the introduction of international standards for evaluating the quality of education and training.

Today's society is a society in which science is developing rapidly, information flows are rapidly increasing, and modern information and communication tools are widespread. In line, is setting the task of getting knowledge regularly and independently.

E-learning is a fast-growing field, its development began in the late 1980s (in the form of distance learning and television courses).

Technology has advanced so fast that the geographic difference can be seen with instruments that make you feel like you're in the audience. E-learning allows you to get acquainted with materials in various formats in the form of videos, slide shows, Word and PDF documents. Conducting webinars and communicating with teachers is carried out through chats and forums, which are one of the opportunities for mutual cooperation of users.

There are many different E-Learning systems (known today as a learning management system or LMS) and methods for delivering online courses.

With the help of instruments, various processes can be automated, such as the collection of materials for the creation of online courses and automatic adaptive tests. E-learning is an affordable (and often free) solution for students to make learning a lifestyle. This allows even busy people to develop further work activities and acquire new skills.

Some of the most important developments in the field of education occurred after the advent of the Internet. Students today are familiar with using smartphones, sending text messages, and using the Internet, so participating and working with online courses is a simple task. Bulletin boards, social networks, and various other Internet communication tools allow students to participate in online courses and discuss issues related to the course being studied, providing a sense of community.

In today's fast-changing world of e-learning, technologies that allow for rapid updates are convenient to make the course being studied new and interesting, to constantly change the content of the course, as well as to allow students to receive the latest information.

In general, traditional training is expensive, time consuming, and results vary. E-learning is faster, cheaper and offers a potentially better alternative.

The term "electronic education" has been around since 1999. Together with this term, the terms "online education" and "virtual education" appeared. However, the principles underlying e-learning have been well documented throughout history, and there is evidence that e-learning has existed since the 19th century [3].

Long before the Internet, distance learning was established to provide students with education in certain subjects or skills.

In the 1840s, Isaac Pitman wrote letters to his students. In 1924, the first typewriter was invented. This device allows students to self-test. Then in 1954, Professor Skinner of Harvard University introduced the term trainer to allow schools to control the learning of their students. In 1960, the first teacher computer program was offered. Originally developed for undergraduate students at Illinois State University, it has since been used in schools throughout the area.

The first e-Learning system was designed to convey information to students, but in the 1970s, e-learning became interactive. In Great Britain, the Open University is trying to take advantage of e-learning. Their educational system is primarily designed for distance learning. First, educational materials were sent by mail, and correspondence with teachers was sent by e-mail. With the advent of the Internet, the Open University offered a wide range of interactive educational services.

With the advent of computers and the Internet in the late 20th century, e-learning tools and delivery methods expanded. In the 1980s, the first MAS allowed individuals to have a personal computer at home, which in turn allowed them to learn about specific subjects and develop specific skills. Then, in the next decade, the virtual learning environment began to develop, which allowed to use a large amount of online information and to have great opportunities for e-learning [4].

Advances in technology have helped educational institutions reduce the cost of distance learning, as well as achieve economies of scale to provide education to a wider audience.

Information-educational environment is a pedagogical system of a new level. There are several definitions of ATM concept. One option of this approach can be considered as "Information-educational environment is a pedagogical system plus its support, i.e. material-technical, financial-economic, normative-legal, management and marketing subsystem."

The theoretical core of all ATM is a pedagogical system. It is possible to talk about a new direction of pedagogical science in which newly organized pedagogical processes, called ATM, are studied. This includes a new direction called "Electronic pedagogy".

To get the most out of e-learning, both the teacher and the student need to use the many resources available on the Internet. There are hundreds of online services that provide access to information, such as Wikipedia. Instructors should take advantage of opportunities to enhance the content and content of their online materials or direct students to additional web resources.

E-learning allows students to study anywhere and anytime. It allows you to study from anywhere, with a computer or mobile device and an Internet connection, that is, at home, on vacation or during a break between work.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Fan, texnika va ta'limda infokommunikatsion va xisoblash texnologiyalari: monografiya Информационные и вычислительные технологии в науке, технике и образовании: Халqaro konferensiya ma'ruzalari va tezislari. 2004 yil 28-30 sentyabr: Доклады и тезисы международной конференции. 28-30 сентября 2004 г. - Т.: [s. n.], 2004. - 608 b.

2. Musayev, S. X. o'g'li . (2024). Kichik o'lchamli leybnits algebralarining kvazi-differensiyalashlari va ularning xossalari. Educational research in universal sciences, 3(3), 112–119. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10836664>

3. Musayev S. X. Nol-filiform leybnits algebralarining kvazi-differensiyalashlari. Mathematics, mechanics and intellectual technologies tashkent-2023. 227-228.

## RAQAMLI TA'LIMDA PEDAGOGIK VA INNOVATSION YONDASHUV

**Tovbayeva Maftuna Shonazarovna**

Fan va texnologiyalari universiteti  
boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola, jamiyat va iqtisodiyotining taraqqiyot bosqichida axborot, bilim va axborot texnologiyalarining ahamiyatligi va ularni yanada kengroq tadbiriq qilinishi bilan tavsiflanadi.*

***Kalit so'zlar.** Raqamli pedagogika, raqamlashtirish, innovatsion yondashuv, ta'lim, bilim, kompyuter.*

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik inavatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili deb nom berishni taklif etdi. Bu bilan 2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-ahloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar, ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Ammo ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni, ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimida foydalanayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni isloh qilishning zamonaviy tajribalari nisbatan ancha yaxshi natijalarga erishmoqda.

Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiriq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi va bugungi kunga kelib onlayin darislar ta'limni yanada rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan IT sohasidagi so'nngi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi. Bu jarayonda avval qiziqish uyg'otish, mativatsiya berib keyin raqobat muhiti yaratilsa talabalarda innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatlari uyg'otiladi va albatta rag'batlantirish amalga oshirilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish,ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini xalqaro 1000 talik ta'lim muassasalari safiga kiritish maqsad qilingan. Hozirgi kunda va kelajakda eng katta e'tibor qaratilgan va talab kuchli bo'lgan kadrlar bu – IT bo'yich

mutaxasislardir. Shu sababdan hozirgi kunda o'quvchi yoshlarni ushbu soxaga qiziqtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Buning uchun dars berish jarayonlarida ko'proq information texnologiyalarni qo'llash maqqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni "BBB" "Tarmoqlar" metodi "Beshinchisi ortiqcha" va boshqa shu kabi metodlarini kompyuter, planshet, prektor va shunga o'xshash boshqa infarmatsion texnologiyalarida qo'llasak, o'quvchi yoshlarni shu soxaga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda dars jarayonini sifatli va samarali o'tishini ta'minlaydi.

Raqamli ta'limning joriy etilishi ta'lim muossasalarining o'qtuvchi va hodimlari raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini oshiradi va internet tarmog'i orqali turli ochiq kurslar tashkil etish hamda ularning bandligini ta'minlaydi, ularda nafaqat mahalliy talabalar, balki xorijdan kelgan talabalar ham ishtirok etadi. Bu esa o'qituvchilardan ko'proq kasbiy o'sishni talab qiladi, o'z navbatida raqobat orqali ta'lim sifatini oshiradi. Informatsiyani, axborotlarni kompyuter tarmog'i orqali qabul qilish yoki uzatishga asoslangan usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usulardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli bo'ladi. Interfaol usullar qo'llanganda o'quvchi o'qtuvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash, ko'nikma va malakalariga ega bo'lib boradi va o'z natijalariga erishadi.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyalari Yevropa modeli Digital Competent of Educator (Dig Comp Edu) 22 da kompetensiyalar ko'rsatilgan. Shulardan 6 ta yo'nalishda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish ko'rsatib o'tilgan. Shulardan uchtasini ko'rib chiqamiz.

Birinchi yo'nalish - samarali kasbiy hamkorlik uchun - raqamli kasbiy ta'lim muhitini yaratish.

Ikkinchi yo'nalish - raqamli ta'lim resurslarini izlash, yaratish va hamkorlikda ishlash shartlarini shakllantirish.

Uchinchi yo'nalish - raqamli asboblarni jihozlarni qurollarni ta'lim samarali jarayonida qo'llash.

Ular zamonaviy pedagog qanday kompetensiyalari ega bo'lishi kerakligini chuqur tahlil qilib bergan. Shu orqali o'qituvchi ta'lim muhitida samarali innovatsion faoliyatida raqamli usullardan foydalanishi ko'rsatilgan. Shu o'rnida ta'kidlash joizki, biz birinchi navbatda, ilg'or zamonaviy axborot-kommunikatsiya va internet, raqamli texnologiyalar va raqamli transformatsiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur o'zlashtirish orqali ta'limni chuqurlashtirish yo'lidan borishimiz zarur. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limni sifatini ko'tarsa, innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
2. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" o'quv-uslubiy majmua.
3. I.I.Rahmatov, Sh.X.Avezova. Fizika fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. // Science and Education, 3(4). 2022.



4. Jo'raev T. N. Elektron darsliklarda bilimni baholashning interfaol usullari («Informatika va axborot texnologiyalari» fani misolida) – 2019.

5. Jo'raev T. N. “Axborot texnologiyalari” fanini o'qitishda virtual sinf imkoniyatlaridan foydalanish

## **RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA PEDAGOGIK O'LCHOVLAR ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Yuldashev Umidjon Sharifboy o'g'li**

Fan va texnologiyalar universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

[umidy2806@gmail.com](mailto:umidy2806@gmail.com)

**Davlatov.U.U, Suyunov.I.Q, Ismoilov.Q.I**

Fan va texnologiyalar universiteti

Moliya fakulteti 2- bosqich sirtqi ta'lim talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli ta'lim sharoitida pedagogik o'lchovlar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhimligi va bu yo'ldagi muvaffaqiyatni ta'minlash uchun kerak bo'lgan jarayonlar va usullar ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim, pedagogik o'lchovlar, nazorat qilish, baholash, tahlil qilish, individual, texnologiyalar, samarali aloqa, kooperativ o'rganish

**Аннотация:** В этой статье подчеркивается важность улучшения процесса обучения с помощью педагогических аспектов в цифровой среде обучения, а также процессы и методы, необходимые для обеспечения успеха в этом процессе.

**Ключевые слова:** Цифровое обучение, Педагогические аспекты, Мониторинг, Оценка, Анализ, Индивидуальность, Технологии, Эффективное общение, Совместное обучение

**Annotation:** This article highlights the importance of improving the learning process through pedagogical dimensions in a digital learning environment, and the processes and methods needed to ensure success in doing so.

**Key words:** Digital learning, Pedagogical dimensions, Monitoring, Evaluation, Analysis, Individual, Technologies, Effective communication, Cooperative learning.

Ba'zi talabalar uchun ta'lim jarayonining samaradorligi va o'sish darajalari o'ziga xosdir. Bu sababli, raqamli ta'limning rivojlanishi va pedagogik o'lchovlar orqali ta'limning takomillashtirilishi asosiy muhim masalalardan biri bo'lib keladi. Bu maqolada raqamli ta'lim sharoitida pedagogik o'lchovlar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhimligi va bu yo'ldagi muvaffaqiyatni ta'minlash uchun kerak bo'lgan jarayonlar va usullar ko'rsatiladi.

Maqola quyidagi tashabbuslarni o'z ichiga oladi:

Raqamli ta'limning muhimligi: raqamli ta'limning talabalar uchun muhimligi, ularning o'zlashtirish darajasini oshirish, o'rganishga motivatsiya berish, o'quv jarayonini individual xususiyatlariga moslashtirish kabi masalalar ko'rsatiladi.

Raqamli ta'limning muhimligi bugungi dunyoda vaqt o'tkazib borayotgan har bir sohada hisoblanadi. Raqamli ta'lim, texnologiyalar va internetning o'sishiga parallel ravishda o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini oshirish, o'rganish jarayonini yanada qulaylashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi aloqani mustahkamlashni ta'minlaydi.

Raqamli ta'limning muhimligi quyidagi sabablarga asoslanadi.

O'quvchilar uchun imkoniyatlar: Raqamli ta'lim texnologiyalari va internet foydalanishiga imkoniyatlar yaratadi. O'quvchilar, o'zlarining o'rganish yo'llarini tanlashda, ma'lumotlar bilan

ishlashda, o'zlashtirish darajasini oshirishda va o'zlarining o'rganish jarayonini boshqarishda o'zlariga moslashtirilgan texnologiyalardan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Individual o'quv yo'nalishlari: Raqamli ta'limning muhim aspektlari bitta o'quvchiga mos keladigan individual o'quv yo'nalishlarini ta'minlashdir. O'quvchilar, o'zlarining o'rganish usullarini va tezligini tanlashda, o'zlariga mos keladigan dasturlardan foydalanishda va o'zlarining o'quv jarayonini boshqarishda ozod bo'ladi.

Interaktiv o'quv vositalari: Raqamli ta'lim, o'quvchilar uchun interaktiv o'quv vositalarini taqdim etadi. Bu vositalar orqali o'quvchilar bilimlarni amaliyotga aylantirish, savol-javob shaklida o'quvchi-ustoz munosabatini oshirish, o'quvchilar o'rtasida ishbilarmonlikni mustahkamlash kabi jarayonlarni oshirishga imkon beradi.

Ma'lumotlar bilan ishlash va tahlil qilish: Raqamli ta'lim, ma'lumotlar bilan ishlash va tahlil qilishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. O'quvchilar, internet orqali qo'llaniladigan resurslardan ma'lumot topish, ma'lumotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni tahrir qilish va ma'lumotlar bazalarida ishlashni o'rganishadi.

Qulaylik va erkinlik: Raqamli ta'lim, o'quvchilarga o'z vaqtlarida va o'z joylarida o'rganish imkoniyatini beradi. O'quvchilar, internet orqali yoki mobil qurilmalar orqali o'zlarini qulay his qilib, o'rganish jarayonida erkinlik va o'zlashtirish darajasini oshirishlari mumkin bo'ladi.

Innovatsiyalar va rivojlanish: Raqamli ta'lim, innovatsiyalar va rivojlanishni o'quvchilar uchun o'zlashtirishga qo'yadi. Texnologiyalar va internetning o'sishiga paralel ravishda, raqamli ta'lim o'quvchilar uchun innovativ o'rganish usullarini, interaktiv darsliklarni, o'zlashtirish va tahlil qilish jarayonlarini takomillashtirishga imkon beradi.

Raqamli ta'limning muhimligi, o'quvchilar va o'qituvchilarning o'rganish jarayonini yanada sifatli va samarador qilishga yordam beradi. Raqamli ta'lim, 21-asrning talabalarini muvaffaqiyatli qilishga yo'l-yo'riqlar ta'minlaydi va o'quv jarayonini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik o'lchovlar: Maqolada pedagogik o'lchovlarning muhimligi va raqamli ta'lim jarayonini takomillashtirishda o'ziga xos o'rni ta'riflanadi. O'lchov usullari, o'quvchilarning baholash va monitor qilish, o'quv jarayonini boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish kabi mavzular izohlanadi.

Pedagogik o'lchovlar, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini, o'rganish jarayonini baholash va rivojlantirish, o'quvchilarning o'zlashtirish usullarini belgilash va o'quv jarayonini boshqarishga yordam beradigan muhim vositalardir. Raqamli ta'lim sharoitida pedagogik o'lchovlar, raqamli ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va o'quvchilarning ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonlarini takomillashtirishning asosiy qismidir.

Pedagogik o'lchovlar quyidagi muhim aspektlarni o'z ichiga oladi:

Baholash va monitor qilish: Pedagogik o'lchovlar orqali o'quvchi ma'lumotlarini baholash va o'quv jarayonini monitor qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini, bilim darajasini, o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini baholash, o'quvchilarning shaxsiy rivojlantirish yo'nalishlari va muammolari haqida ma'lumotlar topish orqali o'quv jarayonini nazorat qilish mumkin bo'ladi.

O'quvchilar bilan ma'lumot almashish: Pedagogik o'lchovlar o'quvchilar bilan ma'lumot almashishni o'rganishning muhim qismidir. O'quvchilar bilan muloqot qilish, ularning fikr va fikrlarini eshitish, ularning qiziqishlarini aniqlash va ularga moslashtirilgan o'quv usullarini tanlash pedagogik o'lchovlar orqali amalga oshiriladi. Bu, o'quvchilar bilan samarali aloqani rivojlantirish va ularning o'rganish motivatsiyalarini oshirishga yordam beradi.

O'quv jarayonini boshqarish: Pedagogik o'lchovlar, o'quv jarayonini boshqarish va o'quvchilarni o'rganish jarayoniga yo'naltirishda muhim bo'ladi. O'quv jarayonini tartibga solish, o'quvchilarning maqsadlarini belgilash, o'quvchilarning o'zlashtirish usullarini va o'quvchilar orasidagi ishbilarmonlikni ta'minlash pedagogik o'lchovlar orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Pedagogik o'lchovlar, o'quvchilarning ma'lumotlarni tahlil qilish, bu ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonini o'rganish va o'quvchilarni tahlil qilishga yondashishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, o'quvchilarning tushunish darajasini, o'rganish darajasini va o'zlarining ma'lumotlari bilan ishlashni o'rganishiga yordam beradi.

Pedagogik o'lchovlar orqali raqamli ta'lim sharoitida o'quv jarayonini takomillashtirish va o'quvchilarning o'rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish, o'quvchilar bilan ma'lumot almashish, o'quv jarayonini boshqarish va ma'lumotlarni tahlil qilish pedagogik o'lchovlar orqali amalga oshiriladi va o'quvchilarning o'rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi.

Raqamli ta'limning ustuvorliklari, individual o'quv yo'nalishlari, o'quvchilar bilan samarali aloqa, kooperativ o'rganish, ma'lumotlarga qulaylik va monitoring va baholash imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Bu ustuvorliklar o'quvchilarning o'rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydi va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi.

Raqamli ta'limning muammolar va echimlari: Bu qismda raqamli ta'limning muammolar va echimlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni tahlil qilishning muhimligi, o'quvchilar bilan ma'lumot almashish, o'quvchilarning o'zlarining ma'lumotlari bilan ishlash kabi mavzular izohlanadi.

Maqola raqamli ta'lim sharoitida pedagogik o'lchovlar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhimligi va usullarini ko'rsatib, talabalar, o'qituvchilar, va ta'lim muassasala qo'llanishda muvaffaqiyatga erishishning yo'l-yo'riqlarini taqdim etadi. Bu maqola, raqamli ta'limning pedagogik o'lchovlar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishga qanday yordam berishi kerakligini ko'rsatadi va bu yo'lda o'quvchilarni qanday rivojlantirish va o'rganish motivatsiyasini oshirishning muhimligini belgilaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Xo'jayeva G.A., Almuratova M.Sh. Evrestik qobiliyatni rivojlantirish.....// ta'lim sifatini oshirishni tashkil etish va uni boshqarish texnologiyalari» mavzusida xorijiy mutaxassislar ishtirokidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2023 yil, dekabr.maqolalar to'plami. 343-ber.
2. Khasanov, A. A. (2017). Methods and methods of forming economic education through interdisciplinary communication through information technology. Journal, (3), 38.
3. Sharipov, D., Abdukadirov, A., Khasanov, A., & Khafizov, O. (2020, November). Mathematical model for optimal siting of the industrial plants. In 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-3). IEEE
4. Abdurashidovich, X. A., & Nigmanovna, M. F. (2019). Access to electronic educational resources in the education system. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
5. Hasanov, A. A. (2020). Peculiarities of preparing teachers for the development and use of e-learning resources. Theoretical & Applied Science, (9), 15-17.
6. Khasanov, A. A. (2018). Didactic Foundations of Interdisciplinary Connections at Subject Teaching. Eastern European Scientific Journal, (6).

## **ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ**

**Илхомов Б.И.** -Учебный центр по подготовке и переподготовке работников финансовых органов и финансово-учетных подразделений бюджетных организаций, и.о. доцент кафедры “Государственные финансы”, Ph.D. педагогических наук  
[ilxomovb2020@gmail.com](mailto:ilxomovb2020@gmail.com)

**Аннотация.** В данной статье рассматривается интеграция цифровых технологий в образовательный процесс с целью анализа их эффективности и определения перспектив развития. Исследуются исторические аспекты внедрения технологий в образование, практическое применение инновационных инструментов, а также проблематика и возможности, связанные с цифровизацией. Особое внимание уделяется методологиям оценки влияния цифровых технологий на образовательный процесс и прогнозированию их будущего вклада в развитие образовательной сферы.

**Ключевые слова:** цифровые технологии в образовании, интеграция технологий, эффективность образовательных технологий, инновационные образовательные инструменты, цифровизация образования, оценка влияния технологий, будущее образовательных технологий, проблематика цифровизации образования.

**Abstract.** This paper examines the integration of digital technologies into the educational process to analyze their effectiveness and identify development prospects. It explores the historical aspects of technology implementation in education, the practical application of innovative tools, and the issues and opportunities associated with digitalization. Special attention is paid to methodologies for assessing the impact of digital technologies on the educational process and forecasting their future contribution to the development of the educational sector.

**Key words:** digital technologies in education, technology integration, effectiveness of educational technologies, innovative educational tools, digitalization of education, impact assessment of technologies, future of educational technologies, issues of education digitalization.

В последние десятилетия технологический прогресс оказал огромное влияние на все аспекты нашей жизни, в том числе и на образование. Интеграция цифровых технологий в образовательные процессы стала не просто трендом, а необходимостью, открывающей новые горизонты для учащихся и преподавателей. В этой статье мы рассмотрим, как именно цифровые технологии влияют на обучение, анализируя их эффективность и перспективы на будущее.

Значение цифровизации в современном образовании сложно переоценить. Оно не только расширяет возможности для дистанционного обучения, но и предоставляет инструменты для более глубокого погружения в учебный материал, делая процесс обучения более интерактивным и персонализированным. Благодаря цифровым технологиям, учащиеся могут получить доступ к огромному количеству информации в любое время и из любой точки мира, что делает образование более доступным и инклюзивным. Кроме того, современные технологии позволяют адаптировать учебный процесс под индивидуальные потребности каждого ученика, учитывая его уровень знаний, скорость обучения и предпочтения в методах получения знаний. Это открывает путь к созданию образовательной среды, где каждый учащийся сможет максимально эффективно реализовать свой потенциал. Тем не менее, внедрение цифровых технологий

в образовательный процесс несет в себе не только возможности, но и вызовы. К ним относятся технические проблемы, необходимость адаптации учебных программ и методик, обучение преподавателей работе с новыми инструментами, а также вопросы информационной безопасности и защиты персональных данных учащихся.

Цифровые технологии начали внедряться в образовательный процесс ещё с появления первых компьютеров, но их массовое распространение пришлось на начало XXI века. С тех пор мы стали свидетелями постоянного развития и совершенствования образовательных технологий: от простых электронных книг и обучающих программ до сложных образовательных платформ, MOOC и виртуальных классов. Этот процесс был особенно ускорен в связи с глобальной пандемией COVID-19, когда дистанционное обучение стало необходимостью для миллионов учащихся по всему миру. В современных учебных заведениях цифровые технологии применяются на всех уровнях обучения и в различных формах. Интерактивные доски, облачные технологии, мобильные приложения и образовательные платформы стали неотъемлемой частью учебного процесса. Они обеспечивают учащимся доступ к образовательным ресурсам, возможность общения и сотрудничества на расстоянии, а также инструменты для самостоятельного изучения материала и контроля за собственным прогрессом. В статье Строчкова "Цифровизация образования: проблемы и перспективы", опубликованной в Вестнике Мининского университета, автор делает акцент на критическом осмыслении процесса цифровизации в современном образовании, выделяя его потенциальные возможности и вызовы.

Не смотря на очевидные преимущества, интеграция цифровых технологий в образование сталкивается с рядом проблем. Среди них - необходимость обновления технической инфраструктуры, подготовки преподавательского состава, обеспечения информационной безопасности и защиты данных. Кроме того, существует риск усиления социального неравенства, поскольку не все учащиеся имеют равный доступ к цифровым ресурсам. В статье Калимуллина О.В., Троценко И.В. "Современные цифровые образовательные инструменты и цифровая компетенция: анализ существующих проблем и тенденций", опубликованной в Вестнике Мининского университета, освещаются ключевые вопросы, связанные с интеграцией цифровых технологий в образовательный процесс. Авторы делают акцент на важности развития цифровой компетентности как у обучающихся, так и у педагогов, а также на проблематике, которая возникает в связи с этим процессом. Они выделяют несколько ключевых аспектов: сложности интеграции цифровых образовательных ресурсов в учебный процесс, необходимость повышения цифровой грамотности среди педагогического персонала, а также вызовы, связанные с поддержанием мотивации и вовлеченности студентов в условиях дистанционного обучения.

Оценка эффективности цифровых технологий в образовании является сложной задачей, которая требует комплексного подхода. Важно не только измерять улучшение академических показателей, но и учитывать мнение учащихся и преподавателей, а также анализировать влияние технологий на развитие критического мышления, творческих навыков и способности к самостоятельному обучению. В будущем мы можем ожидать дальнейшего развития и интеграции цифровых технологий в образовательный процесс. Особое внимание будет уделено искусственному интеллекту и персонализированному обучению, виртуальной и дополненной реальности. Эти инновации обещают сделать обучение ещё более интерактивным, доступным и эффективным.

Интеграция цифровых технологий в образовательные процессы является ключом к улучшению качества и доступности образования, предоставляя учащимся и преподавателям новые инструменты для обучения и взаимодействия. Эта трансформация, несмотря на сопутствующие вызовы, такие как необходимость обновления инфраструктуры, повышение квалификации преподавателей и обеспечение информационной безопасности, открывает перед образовательной системой огромные перспективы. Осознавая этот потенциал, важно сосредоточить усилия на разработке комплексных программ обновления образовательных учреждений, на подготовке и адаптации преподавательского состава к новым реалиям цифровой эпохи, а также на укреплении сотрудничества между государственным и частным секторами для инвестиций в будущее образования. Реализация этих подходов и продолжение исследований в области цифровых образовательных технологий позволят максимизировать пользу от цифровизации для всех участников образовательного процесса и подготовят специалистов, способных эффективно работать в условиях постоянно меняющегося технологического ландшафта. Важно сфокусироваться на развитии инфраструктуры, повышении квалификации преподавателей и продолжении инвестиций в инновационные образовательные технологии. Эти шаги позволят не только решить существующие проблемы, но и открыть путь для более глубокой и эффективной интеграции цифровых ресурсов в учебный процесс. Таким образом, образовательная система сможет не только адаптироваться к текущим требованиям времени, но и активно формировать будущее, где каждый учащийся получит доступ к качественному и современному образованию.

#### **Использованная литература**

1. Гончарук Н.П., Хромова Е.И. (2021). Проблемы интеграции педагогических технологий и цифровых ресурсов в образовательном процессе. Казанский педагогический журнал, (6), С.75-81.
2. Строков А.А. (2020). Цифровизация образования: проблемы и перспективы. Вестник Мининского университета, 8(2), 15. DOI: 10.26795/2307-1281-2020-8-2-15
3. Калимуллина О.В., Троценко И.В. (2018). Современные цифровые образовательные инструменты и цифровая компетенция: анализ существующих проблем и тенденций. Вестник Мининского университета, 8(3), 61-73.
4. Кокшарова Е.А. (2020). Современная трансформация и интеграция цифровых технологий и электронных образовательных ресурсов в рамках профессиональной деятельности педагогов. Электронный научный журнал «Наука и перспективы», (1).

#### **ИҚТИСОДИЙ ЖАРАЁНЛАРНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАРИНИ ТУЗИШ МАСАЛАСИ**

**Ишниязов Бахром Нормаматович**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети Катта ўқитувчи

[b.ishniyazov73@gmail.com](mailto:b.ishniyazov73@gmail.com)

*Калит сўзлар.* Меҳнат унумдорлиги, маҳсулот сифати, маҳсулот таннари, ишлаб чиқариш, иқтисодий билим, систематик шакллантириш, “абстракт математика”, “аниқ математика”, математик модел, математик моделлаштириш, йиллик ўсиш, функция, тенглама, жамгарма.

**Аннотация.** Ушбу мақолада, талабаларга иқтисодий жараёнларни математик моделлаштириши мавзусини ўқитишида, назарий маълумотларни бевосита қишлоқ хўжалик масалаларини ечишга қўллаб ўтилиши, талабаларни фанни яхши ўзлаштиришига, уларнинг касбий тайёргарликларини кучайтиришига олиб келиши педагогик тажрибалар ёрдамида ўрганилган.

**Аннотация.** Эта статья исследует педагогический опыт в обучении студентов математическому моделированию экономических процессов, используя теоретические данные непосредственно для решения сельскохозяйственных проблем, и помогая студентам овладеть наукой и улучшить их профессиональную подготовку.

Ёш авлодни иқтисодий билимга эга бўлиб, ундан ўз фаолиятида фойдаланиши мамлакатимизнинг иқтисодиётини ривожланишига, меҳнат унумдорлигини ошишига, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг сифатини яхшиланишига, маҳсулот таннархини пасайишига, ишлаб чиқариш самарадорлигини кўтарилишига олиб келади. Айни пайтда иқтисодий билим ҳар бир ёшда мамлакатимиз эгаси эканини хис қилишни, меҳнатга онгли муносабатда бўлишни, хаётда фаол, интизомли ва ташкилотчиликни шакллантиради.

Фан асосларини ўрганиш иқтисодий билимни кетма-кет ва систематик шакллантириш учун катта имконият яратади.

Иқтисодий билимларни эгаллашда, унинг масалаларини ечишда, айниқса, математиканинг ўрни катта. Одатда иқтисодий ҳисоб-китобда математика асосий ўринларда туриши аниқ масалаларни ечишда намоён бўлади. Мумкин бўлган ўринларда “абстракт математика”дан “аниқ математика”га ўтиши билан бирга иқтисодий масалаларга ҳам ўтилади. Бунда иқтисодий масалаларнинг математик моделларни қуриш муҳимдир. Кўп ҳолларда иқтисодий масалаларнинг математик моделлари функциялар, тенгламалар орқали ифодаланади.

Математикадан олинган билимлардан фойдаланиб мос функциялар ўрганилади, тенгламалар ечилади. Булар асосида эса иқтисодий ҳулосалар чиқарилади. Математикадан фойдаланиб, иқтисодий, ишлаб чиқариш ҳамда қишлоқ хўжалиги мазмунидаги масалаларни ечиш куйидаги босқичларда амалга оширилади:

- 1) Қаралаётган иқтисодий, ишлаб чиқариш ҳамда қишлоқ хўжалик масалаларини мазмунини тўла англаш, унда келтирилган тушунчаларни билиш;
- 2) Лозим бўлган математик билимга эга бўлиш;
- 3) Масаланинг математик моделини қуриш(масалани математик назария тилига кўчириш);
- 4) Масалани модел ичида ечиш(моделни анализ қилиш, математик назарияга мослаштирилган математик маълумотлардан фойдалани бечиш);
- 5) Масаланинг математик ечимини берилган иқтисод масала тилига ўтказиш;
- 6) Ҳулосалар чиқариш ва тавсиялар бериш.

Энди масалаларга мурожаат қиламиз:

**1–масала.** Фермер хўжалиги 5 йиллик режани бажариш учун етиштирган маҳсулотнинг ҳажми 90%га ортиши лозим бўлса, йиллик ўсиш суръатини топинг.

Ечилиши.

- 1) Масаланинг берилишича  $n = 5$  йил(5 ўрнига ихтиёрий натурал сон бўлиши мумкин).5 йилдан кейинги маҳсулотнинг ҳажми (5 йилдан кейинги хўжаликнинг жамғармада тўплаган пулининг миқдори)

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

$$K_5 = K + 0,9K \Rightarrow K_5 = 1,9K \quad (1)$$

Бу ерда  $K$  жамғармага қўйилган бошланғич пул миқдори.

2) Иккинчи томондан шу масала мураккаб фоизда ҳисобланса, бир йилдан кейин

$$K_1 = K \left(1 + \frac{P}{100}\right) = K + \frac{P}{100}K \text{ бўлади.}$$

Икки йилдан кейин эса

$$K_2 = K + \frac{P}{100}K_1 = K_1 \left(1 + \frac{P}{100}\right) = K \left(1 + \frac{P}{100}\right) \left(1 + \frac{P}{100}\right) = K \left(1 + \frac{P}{100}\right)^2$$

бўлади.

$$\text{Худди шу мулоҳазалар билан} \quad K_3 = K \left(1 + \frac{P}{100}\right)^3, \quad K_4 = K \left(1 + \frac{P}{100}\right)^4,$$

$$K_5 = K \left(1 + \frac{P}{100}\right)^5 \text{ бўлади. Булардан} \quad (1) \quad \text{асосан}$$

$$1,9K = K \left(1 + \frac{P}{100}\right)^5 \Rightarrow 1,9 = \left(1 + \frac{P}{100}\right)^5 \Rightarrow 1 + \frac{P}{100} = \sqrt[5]{1,9} \text{ ёки}$$

$$\sqrt[5]{1,9} - 1 = \frac{P}{100} \text{ бўлиб, } p = 100 \cdot \sqrt[5]{1,9} - 100 \quad (2)$$

бўлади. Агар  $\sqrt[5]{1,9} \approx 1,1152$  эканлигидан фойдаланилса,  $p = 100 \cdot 1,1152 - 100 = 11,52$  бўлади.

Демак, йиллик ўсиш 11,52% миқдорида бўлиши керак экан.

**2–масала.** Уюшма аъзолари 1100000 сўмлик қишлоқ хўжалик машинаси эҳтиёт қисмини сотиб олиш учун ҳар бири тенг миқдорда пул берадиган бўлишди. Пул тўплашдан олдин қандайдир сабабларга кўра 3 киши уюшмадан чиқиб кетди. Қолган аъзолар мўлжалланган пулни тўплаш учун яна 6000 сўмдан қўшимча пул тўладилар. Уюшма аъзоларининг сони нечта?

Айтайлик, дастлаб уюшма аъзоларининг сони  $x$  та бўлган бўлсин. Унда ҳар бир уюшма аъзои  $\frac{1100000}{x}$  сўмдан пул тўлаши керак бўлар эди, лекин икки киши чиқиб

кетгач, қолганлари  $\frac{1100000}{x} + 6000$  сўмдан тўладилар. Бу эса  $\frac{1100000}{x-3}$  га тенг. Маълумки,

$$\frac{1100000}{x} + 6000 = \frac{1100000}{x-3} \Rightarrow 1100000(x-3) + 6000x(x-3) = 1100000x \Rightarrow$$

$$x^2 - 3x - 550 = 0$$

У ҳолда масалани ечиш учун қурилган математик модел  $x^2 - 3x - 550 = 0$  квадрат тенгламани ечимига келар экан. Бу тенгламани ечиб,  $x = 25$  бўлишини топамиз.

Демак, уюшма аъзолари 25 кишидан иборат экан.

**3 – масала.** Бир одам А ва В компания акцияларидан 10000 долларлик сотиб олди. Бу пулларйилига 855 доллар фойда келтириши маълум. А компаниянинг акцияси 24 доллар туради ва йилига 2,5 доллар фойда беради, В компанияни акцияси эса 16 доллар туради ва йилига 1,2 доллар фойда беради. Шу одамнинг ҳар бир компаниядаги акциялари сони нечта?

$x$  орқали А компаниядаги акциялар сонини,  $y$  орқали эса В компаниядаги акциялар сонини белгилайлик. У ҳолда А компания акциялари учун 24хдоллар, В



компания акциялари учун 16у доллар сарфланади. Иккала компания акциялари учун сарфланган пуллар миқдори  $24 \cdot x + 16 \cdot y$  бўлиб,  $24 \cdot x + 16 \cdot y = 10000$  га тенг. Иккинчи томондан А компания акцияларидан олинган фойда  $2,5x$  доллар, В компания акцияларидан олинган фойда  $1,2y$  долларга тенг бўлиб,  $2,5 \cdot x + 1,2 \cdot y = 855$  бўлади.

Натижада ушбу

$$\begin{cases} 24 \cdot x + 16 \cdot y = 10000 \\ 2,5 \cdot x + 1,2 \cdot y = 855 \end{cases}$$

яъни

$$\begin{cases} 72 \cdot x + 48 \cdot y = 30000, \\ 100 \cdot x + 48 \cdot y = 34200 \end{cases} \quad (1)$$

Чизиқли тенгламалар системаси ҳосил бўлади. Бу система келтирилган масаланинг математик моделини ифодалайди. (1) системани ечамиз:

$$\begin{cases} 72 \cdot x + 48 \cdot y = 30000, \\ 100 \cdot x + 48 \cdot y = 34200 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 24 \cdot x + 16 \cdot y = 10000, \\ 28 \cdot x = 4200 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 24 \cdot x + 16 \cdot y = 10000, \\ x = 150 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x = 150, \\ y = 400 \end{cases}$$

Демак, ўша одам А компания акциясидан 150 та, В компания акциясидан 400 та сотиб олган.

### Хулоса

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, қишлоқ хўжалиги жараёнида келиб чиқадиган масалаларни ечишга ўргатиш талабаларда кўникмани ҳосил қилишда ёрдам беради. Назарий ва амалий боғлиқликни ёритиб беради. Ҳар бир ўтилаётган мавзунини, иқтисодий масалаларини ечишга қўллаб ўтилиши, талабаларни фанни яхши ўзлаштириб, мутахассисликлари бўйича амалий масалаларни ечишларига имкон яратаётганини, уларнинг касбий тайёргарликларини ижобий томонга ўзгараётганини педагогик тажрибалар ёрдамида аниқланди.

## INSON KAMOLOTIDA ILM-FANNING O'RNI

**Kamilova Nafisaxon Ergashevna**

Angren shahar MMTB ga qarashli

28-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Markaziy Osiyoda sharq allomalari pedagogik-psixologik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar. Ular avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da'vat etishgan. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta'minlashga ishonishgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim-tarbiya, axloqiylik, ruhshunoslik, ma'naviyat, inson shaxsi, hunarsiz, bilimsiz.

**Аннотация:** В Средней Азии ученые Востока внесли значительный вклад в развитие педагогической и психологической мысли. Прежде всего, они придавали большое значение интеллектуальному и образовательному воспитанию молодого поколения, поощряли его к

приобретению мирских знаний. Они считали, что только развитая наука и культура могут обеспечить совершенство человеческого мышления.

**Ключевые слова:** образование, мораль, психология, духовность, человеческая личность, неквалифицированный, необразованный.

**Abstract:** In Central Asia, Eastern scientists made a significant contribution to the development of pedagogical and psychological thought. First of all, they attached great importance to the intellectual and educational education of the younger generation and encouraged them to acquire worldly knowledge. They believed that only developed science and culture could ensure the perfection of human thinking.

**Key words:** education, morality, psychology, spirituality, human personality, unskilled, uneducated.

Sharq allomalari va mutafakkirlari yosh avlodni tarbiyalash, kasbga yo'naltirish bo'yicha tengi yo'q fikr, g'oyalarni ilgari surganlar, ta'limotlar yaratganlar. Ilmiy merosni sinchkovlik bilan o'rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish hamda jahon fanining mazkur sohadagi yutuqlari bilan taqqoslash o'zligimizni anglash imkonini kengaytirib, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini yanada oshiradi. Milliy pedagogikamiz tarixini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha ajdodlarimizning asrlar davomida to'plagan tajribalarini o'rganish esa ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz. Sharqdagi ta'lim-tarbiyaga oid ilk asarlardan biri bo'lgan Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"- nafaqat diniy aqidalar majmuasi, balki badiiy, yuksak ahloqiy, falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan yodgorlik hisoblanadi. Mazkur yodgorlikda ayrim qayd va ishoralar, nom va atamalar zardushtiylikning ilk kurtaklari paydo bo'la boshlagan davrlarda ham hozirgi Movarounnahr va Xuroson xalqlari yashagan mintaqalarda ta'lim va tarbiya rivojlanganligini ko'rsatadi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda: "Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin", — deyilgan. "Avesto"da inson o'z mehnati tufayli barcha yomonliklardan, yovuzliklardan qutulish mumkin, degan ulug' g'oya yotadi. Unda axloqiylikning asosi — sahovatlilik, deb ko'rsatilgan.

Ahloq — yaxshi fikr, so'z va harakat birligidan iborat, deyilgan. "Avesto"dagi dalillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo'lgan barcha bilimlar o'qitilgan. Zardushtiylik dini, ya'ni yakka Tangriga e'tiqod rasman qabul qilingach, o'lkada ta'lim-tarbiyaga e'tibor yanada kuchaygan. Ibodatxonalar huzurida podsholik tasarrufidagi maxsus maktablar tashkil qilingan, ta'lim tizimida matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, huquqshunoslik kabi fanlar o'qitila boshlagan; bunda yoshlarning ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor berilgan. Bir tomondan yoshlarga zardushtiylik dini asoslari, ya'ni "goh"lar maxsus yodlatilsa, ikkinchi tomondan uch yaxshi ishda sustkashlik qilmaslik—"kori nek"(ezgu fikr), "guftori nek"(ezgu so'z), "kirdori nek"(ezgu amal)ni hamisha esda tutish; uch yomon ishdan, ya'ni "andeshai bad"(xurofotchi), "guftori bad"(tangrini unutmog, yolg'onchi) va "kirdori bad"(hunarsiz, bilimsiz)dan yuz o'girishni o'rgatganlar.

Sharq jonlanish davrida ilm-fan rivojlanishi uch yo'nalishga bo'ldi.

Birinchi yo'nalish — matematika-tibbiyot yo'nalishi bo'lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakalogiya va boshqa shunga o'xshash fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniyalar matematikaga oid, Zakarnyo Ar-Roziy va Ibn Sino kimyo va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinchi yo'nalish — ijtimoiy-falsafiy yo'nalish, bunda falsafa, tarix, matniq, fiqh, ruhshunoslik, notqlik va shunga o'xshash boshqa fanlar bo'lib, bu sohada qomusiy olimlar Forobiy, Al-Kindiy, Ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalar faoliyat ko'rsatganlar.

Uchinchi yo'nalish — ta'lim va tarbiya yo'nalishi bo'lib, bu sohada qomusiy olimlar o'z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlar tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar o'z asarlarida ta'lim-tarbiyani nazariyasini ifodalaganlar. Ma'lumki, Sharq jonlanish davrida inson muammosi ma'naviyat sohasidagi asosiy masala bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Ma'rifiy risolalarda asosan axloqning nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Koshifiy, Kaykovus, Sa'diy, Jomiy, Navoiylarning "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga erishuv haqida", "Ahloq haqida risola", "Ishq risolasi", "Qutadg'u bilik", "Axloqi Nosiriy", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Muxsiniy", "Hibbatul haqoyiq", "Qobusnoma", "Guliston", "Bo'ston", "Maxbubul-qulub" kabi ta'lim va tarbiyaga oid asarlari inson shaxsini, ma'naviyatini shakllantirish muammosini hal etishda sof ma'rifiy asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarlarda insonning ma'naviy kamolga yetishishi yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari surilgan.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullaeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish / – Farg'ona: FarDU, 2008.
2. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar / – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat / – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006.
4. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi / –T.: Sharq, 2000.

#### **YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING STRATEGIK VAZIFALARI**

**Saparboeva Dilshoda Sobir qizi**

Fan va texnologiyalar universiteti

"Pedagogika" kafedra mudiri

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlash, o'quvchilar bilan ishlash mazmuni va ularning asosiy vazifalari ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.*

***Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, jamiyat, mezon, strategiya, tafakkur, o'qituvchi, o'quvchi, qobiliyat, yoshlar, qadriyat, sog'lom turmush tarzi, millat, kuch, imkoniyat, ijtimoiy faollik, mas'uliyat, inson, qadr, jamoa, nufuz.*

Davlat va jamiyatning nufuzi, demokratik tafakkuri, madaniy darajasini namoyon qiladigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini ko'rsatadigan yana bir me'yor borki, u jamiyatning yoshlarga bo'lgan munosabati, hurmati bilan belgilanadi. Yangi O'zbekiston tapaqqi'etida mamlakatimizda yoshlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini yuksaltirish, ularning xaq-xuquqlari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ularni jamiyatning teng xuquqli, faol va bunyodkor a'zosiga

aylantirish borasida izchil va ko'lamdor ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyos. Shu bois, boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish ijtimoiy faolligini oshirishi asosida milliy g'urur, iftixor tuyg'usini shakllantirish, baxtli bo'lishga erishish kabilariga imkoniyatlar yaratish, burch va mas'uliyatni xis qilish, aqlli, odobli, iymon- e'tiqodli, mard inson bo'lib ulg'ayishini ta'minlash, vatanparvar qilib tarbiyalash va ularni ma'rifat himoyachisiga tayyorlash bobida ijobiy natijalarga erishishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining faoliyatini tashkil etish va boshqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining shaxsiy shakllanishi, mashqlar, dars mashg'ulotlarida bilim egallash, tafakkurini anglash uning beqiyos kuchga ega ekanligini namoyon etadi. Bilimga ega bo'lish va yuksak muvaffaqiyatlarga erishish uchun zarur bo'ladigan mahorat va xarakteri, ishlash qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan ko'nikmalar hayotda o'z o'rnini topgan shaxs bo'lib shakllanish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonda o'z-o'zini tarbiyalash va irodani mustahkamlash qobiliyati, ko'ra bilish, namoyon qilish, o'zlikni anglash va bilish, rivojlanish va o'zi uchun zarur bo'ladigan o'qish va mashq qilish, tez sur'atlarda o'sish va sezilarli o'zgarish kabi kelajakda bo'ladigan hodisalarni belgilab beradi. Agar o'quvchi mukammallikka intilsa unda jo bo'lgan narsalardan eng yaxshisini namoyon qilish uchun barcha amallarni bajarishi tufayli ajoyib o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu jarayonda shaxsning kamol topishi har tomonlama manfaatli, o'z iste'dodini taraqqiy ettirish, o'zini qaytadan chuqur zabt etishi ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchi yuqorida sanab o'tilganlarning barchasini qila olish qodirligini namoyon etadi. Bu ularni ilhomlantiradi.

Albatta bu o'rinda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining fikrlari, ruhiy hissiyotlari ular ongida asta-sekin muhrlanib iz qoldiradi va muayyan qarashlarni shallantiradi. Atrof-muhitda o'quvchining qarashlariga mos bo'lgan insonlar, hodisalar uning ongini borlig'ini va uning hayotidagi hayol fikrlarni real kuchlar deb tushinishi asosida uning ongida kuchli imkoniyatlar, ichki hissiy kechinmalar, kelajakda turmush tarzini belgilab berishga oid boy fikrlar sekin muhrlanib boradi.

Ular tarbiya atrofndagi borliqni yangi imkoniyatlar, yangicha fikrlash, yangicha tasavvur qilish, xatti-harakatlar, ijodkorlik va yaratuvchanlik, ulkan yutuqlarga erishish, qat'iy ishonch vazifalarini amalga oshirishda turli ma'lumotlardan foydalanish, nafaqat muayyan qarashlarga, balki o'zga insonlarni, voqealarni o'rganish kabilar o'quvchining kelajagi qanday va u bilan nimalar sodir bo'lishiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Ushbu jarayonda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchida dunyoga nazar tashlash, hayotga oid ma'lumotlarni saralash, jamiyatdagi hodisa va voqealarni o'rganish, insonning kelajagi qanday bo'lishini bashorat qilish, baxt-saodatga va muvaffaqiyatga erishish, eng yaxshi imkoniyatlarga ega bo'lish vazifalarini amalga oshirish, tahlil qilish, o'zgartirish, yaxshi o'rganish va tushunish, ijodiy yondashish, o'zlikni anglash kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

O'qituvchi tarbiya jarayonida maqsadga erishish uchun, mahorat, bilim va ularni amaliyotda qo'llash yo'lidagi harakatlarga erishish uchun o'z fikrida qat'iy turishi, rejalarni amalga oshirishni tashkil etishi o'quvchilarning ongi, mas'uliyati va xis-tuyg'ulari, intilish, kuchli bilim egallash, hayotda mavaffaqiyat va farovonlik, qat'iy ishonch, vaziyatlar va imkoniyatlarning rivojlanish shururuni yaratadi. Bilimlarni to'liq egallamaslik o'quvchilarda qo'rquv, defitsit, yo'qlik, omadsizlik va ko'ngil qolish, yetishmaslik kabi holatlarni vujudga keltiradi. Qat'iy ishonch bilan mustahkam bog'langan mas'uliyat ularda tayyorgarlik istagi, muvaffaqiyat, hayotdagi yutuqlarga erisha olish ongini shakllantiradi. Imkoniyatlarni amalga oshirish muvaffaqiyatlarga erishish, harakatchanlik bo'lajak o'qituvchi malakasi, mahoratini va istedadining namoyon bo'lishida aks etadi. Ushbu jarayonlar bo'lajak o'qituvchilarda harakat

qilish, ta'lim-tarbiya dasturini amalga oshirish, o'sish o'zgarish va istedodni rivojlantirish, erkin fikrga ega bo'lish, o'z hayollari, ishonchlari, qiziqishlari bilan maqsadlarini amalga oshirish ko'nikma va malakalarini takomillashtiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning faoliyatini muvaffaqiyatli bo'lishi uning aqliy salohiyat, tajriba, barcha egallagan bilimlarga bog'liq hisoblanadi. Ushbu jarayonda uning ongi va bilimi mustaqil ravishda ishlaydi. Buning natijasida u istagan barcha sohaga tegishli g'oya va rejalarni o'z vaqtida bajarib muvaffaqiyatlarga erishadi. Tarbiya jarayoni donolik, bilim va ilxom, fikrlar va qat'iy ishonchlar, hissiyotlar, hodisalarning o'zaro ta'siri asosida o'quvchi hayotini butunlay yangilash imkonini beradi. Bu esa o'quvchi idrokini intellektual ravishda samarali foydalanishga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash tarbiya jarayonining potentsialligini ko'rsatadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni ana shu xususiyatlar asosida xalqparvar, hayajon va hayrat, ta'sirchanlik, intiluvchanlik harakati, ong, idrok, munozara qilish, mas'uliyat kabi odatlar shakllanadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar ongida rivojlanish shuuri ustunlik qilishi, unda umuman bo'sh joy qolmasligi kerak. O'quvchilar buni birinchi urinishda bajara olmasa, ko'nglini cho'ktirmasligi va ranjitmasligi muhim. Tirishqoq bo'lish, muvaffaqiyatlarga erishish o'quvchi uchun hamkor bo'lishi u doimo uyg'unlikda ishlashi, tashabbusni o'z qo'lga olishi kerak. Avvalambor o'quvchining ongida nimani istashini bilishi va birinchi qadamni tashlashda ikkilanishlar, gumonsirashlarga yo'l qo'ymaslik kerak. Ushbu jarayonda o'ta konkret bo'lish, o'z fikrlari, qat'iy ishonchlari bilan o'qishga, ishlashga, yangi loyihalar yaratishga tayyor bo'lishi lozim. Turli qarama-qarshi va chegaralovchi holatlarni o'zining tajribasi asosida bartaraf etishi, o'quvchilarning kuchli istaklarini ro'yobga chiqarishda yaqindan yordam beradi. Natijada ularda katta kuch va boy imkoniyatlar vujudga keladi, o'z-o'ziga ishonch shakllantiradi. O'z "Meni" ni rivojlantirishga oid harakatlar amalga oshadi. Qat'iy fikr rivojlanadi. O'qituvchi o'z maqsadlari bilan o'quvchilarga foydali ishlarni amalga oshirish, zaif tamonlarni bartaraf etish, o'ziga ishonch va tashabbuskorlik sifatlarni potentsial jihatlarini rivojlantirish, undagi xayollar ichida his-tuyg'ularini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Jasurlik va faol harakatlar haqidagi xayollar o'quvchilar hayotini yangi o'zgarishlariga olib keladi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'zini kim deb ko'rsatsa o'quvchi undan ibrat oladi. O'qituvchi o'zgarsa o'quvchi ham o'zgaradi. Yangi hayot bu yangi fikrlashdir. Shu jihatdan o'quvchilarda uyg'unish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun harakatlar va qat'iy ishonchlarni amalga oshirishga tayyor bo'lish mahoratini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Albatta ushbu jarayonda o'qituvchining quyidagi strategik vazifalarini amalga oshirishda o'z samarasini beradi.

1. Yangi O'zbekistonda adolatli jamiyat va adolatparvar davlat qurishda o'quvchilarning faolligini oshirishga oid mexanizmlarini ishlab chiqish.

2. O'quvchi - yoshlar o'rtasida korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhiti va madaniyatini shakllantirish hamda ular ongiga "Toza qo'llar" siyosatini singdirish.

3. Ta'lim islohotlarini amalga oshirish, o'quvchilarning bilim darajasini rivojlantirish, o'qituvchining nufuzi va maqomini yanada ko'tarish, ularning ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, bu borada amaldagi "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun ijrosi yuzasidan kuchli va samarali nazorat o'rnatish, o'quvchi manfaatlarini himoya qilish.

4. O'qituvchilar o'rtasida ijtimoiy adolatni qaror toptirish, uning ustuvorligiga erishish o'quvchilarning bilimiga yarasha rag'batlantirish, ularning qo'llab-quvvatlashga oid dasturini ishlab chiqish.

5. Ta'lim sohasida adolat ustuvorligini ta'minlash, o'qituvchining obro'-e'tibori va huquqiy maqomini yanada ko'tarish maqsadida, "Ustoz otangdek ulug'" mavzusida tadbirlar o'tkazish.

6. Bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish va yangi zamonaviy avlod uchun darslik, uslubiy-qo'llanma va maqolalar tayyorlashda ularning faolligini ta'minlash. "Ilm fan - adolat va taraqqiyot omili" mavzusida ilmiy seminar o'tkazish va unda ishtirok etish uchun zarur sharoitlarni yaratish.

7. O'quvchilar salomatligini mustahkamlash maqsadida davolash maskanlari, tibbiyot poliklinikalari bilan hamkorlikni tashkil etish ularning sog'lom rivojlanishiga to'siq bo'ladigan kasalliklariga birinchi va o'ta muhim masala sifatida qarash.

8. O'quvchi qizlar o'rtasida "Ayol – muqaddas", "Oila - jamiyat asosi", "Sog'lom oila sog'lom jamiyat" kontseptual g'oyasini targ'ibot qilish, ularni qo'llab-quvvatlash, muammolarni o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan qizlarga yordam ko'rsatishni tashkil etish va ularning faoliyatiga alohida e'tibor qaratish.

9. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ma'naviyatini mustahkamlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish umummilliy madaniy, tarixiy va tabiat yodgorliklarini saqlash hamda, milliy qadriyatlariga asoslangan "Yangi O'zbekiston o'quvchi-yoshlarining axloq qoidalari" ni yaratish va amaliyotga joriy etish.

10. O'quvchilar o'rtasida tinchliksevar, adolatli va milliy an'analarga xos bo'lgan yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi siyosiy iqtisodiy, gumanitar aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash.

11. O'quvchilarda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlashni yanada rivojlantirish aziz va mo'tabar bo'lgan o'zbek xalqining har bir xonadonida tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlash kabi muqaddas vazifalarni amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchilarning faolligini rivojlantirish.

12. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" davlat dasturiga oid yo'nalishlarni o'quvchilar ongiga yetkazishda rasmiy veb-sayti (<http://www.youthforum.uz/>) videorolik, rasmiy hujjatlar va adabiyotlar, o'z navbatida, o'quvchilarning huquqlari hamda imkoniyatlarini kengaytirish, qonuniy manfaatlarini himoya etish.

13. "Yoshlarni qo'llab- quvvatlaymiz!" degan ezgu tashabbusi doirasida davra suhbatlari o'tkazish uchun tashabbuskor, siyosiy yetuk va faol o'quvchilarni jalb etish.

14. Bo'lajak o'qituvchilarning huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishga ko'maklashish, tarbiya bilan bog'liq muammolarga amaliy yechimlar topish.

15. Yoshlar huquqlari bo'yicha butunjahon konferentsiyasi BMT tomonidan e'lon qilingan tarixiy sana, ya'ni 30 iyun - Xalqaro yoshlar kuniga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazish.

16. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" mavzusida Yoshlar forumi va festivallarini o'tkazish.

17. "Yoshlar-2030" strategiyasi asosida yoshlar bilan ishlash va ularning manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyatini yanada mustahkamlash.

18. O'qituvchi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi, Yoshlar parlamenti, BMT ning Yoshlar maslahat kengashi tashkil etilgani; 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingani, o'quvchilar huquqlari to'g'risidagi konventsiya ratifikatsiya qilingani, yoshlarning hayotiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ta'minlash hamda ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ko'plab strategiya, dastur va moliyaviy vositalar ishlab chiqilgani va amalda tadbir etilayotganini barqaror rivojlanishiga erishishda yoshlarning o'rni va ahamiyatini oshirish yo'llarini izlash hamda bu borada o'zaro tajriba almashish uchun qulay imkoniyat yaratish kabilarni bo'lajak o'qituvchilar ongiga yetkazish.

19. O'quvchilarning bilim olish tizimini takomillashtirish va ularning yutuqlarini yuksak baholash;

20. O'quvchilarga yangi O'zbekistonning shiddatli sur'atda rivojlanishidagi beqiyos salohiyat va azmu shijoat, mamlakat aholisining yarmidan ko'pini tashkil etadigan e'shlar-jamiyatning hal qiluvchi kuchga ega a'zolari timsolida namoyon bo'lyotganligini misollar asosida tushuntirish va ko'rsatish.

21. Prezident Shavkat Mirziyoevning yoshlar huquqlarini ta'minlash borasida ilgari surgan xalqaro va milliy darajadagi bir qator dolzarb tashabbuslari maqsadlarini O'zbekistonning Barqaror rivojlanishidagi ahamiyatini bo'lajak o'qituvchilarga tushuntirish.

22. Bo'lajak o'qituvchilarni global muammolarni hal etish yo'lidagi sa'y- harakatlarga munosib hissa qo'shish navqiron avlodning jismoniy va ma'naviy kamol topishiga jiddiy ahamiyat berish, uni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayonlarga faol jalb etish.

23. Bo'lajak o'qituvchilarni yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini barqaror rivojlanish yo'lida ulkan marralarni zabt etishga tayyorlash. "Ustoz shogird" an'alarini qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish sohasida izchil ishlarni amalga oshirish shuridagi intilishlarni ro'yobga chiqarish;

24. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ilmiy-texnik ravnaq topishini ta'minlashda o'quvchi yoshlar o'rtasidagi g'oyalarni o'zaro hamkorlik asosida amalga oshirish.

25. "Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish" mavzusidagi yoshlar konferentsiyasi: birinchidan, yoshlar oldida turgan asosiy muammolarni keng muhokama qilish;

26. Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga oid yoshlarini amalga oshirishda o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyon qilish;

27. OTM bitiruvchilarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirishga oid milliy strategiyalarni ishlab chiqish va ularda iqtisodiyot, innovatsiya, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.

28. Mamlakatimiz yoshlarini global harakatlarga jalb qilish borasidagi sa'y-harakatlarni izchil va uzluksiz davom ettirish. Bugungi kunda ko'p millatli xalqimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun, O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratish yo'lida belini mahkam bog'lab, fidokorona mehnat qilish yo'lidagi ulkan orzu-umidlar, katta rejalarini amalga oshirishda professor-o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022 yil

2. O'zbekiston Respublikasining 2020 uil 23 sentyabrida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni (Qonun hujjatlari Ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PF-3907-son "Yoshlarni manaviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish shora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz>

4. Kenjayev Sh.X. Bolajak o'qituvchilarni o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishga tayyorlash tizimini takomillashtirish PhD avtoref Chirchiq 2022y 49 b

## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТУБДАН ИСЛОХ ҚИЛИНМОҚДА

**Ривожов Шерзод Шойимович** –  
Фан ва технологиялар университети  
Иқтисодиёт факультети маънавий –  
маърифий ишлари бўйича декан ўринбосари

***Аннотация:** Ушбу мақола ҳозирги кунда долзарб муаммолардан бири бўлган таълим тизимининг давлат сиёсати даражасига кўтарилганлиги, бу борада қилинаётган кенг қўламли ислохотлар ва соҳадаги ўзгаришлар ҳақида сўз боради.*

***Калим сўзлар:** Таълим, сифат, илм-фан, олий таълим, инсон капитали.*

Ҳозирги кунда дунёда таълимнинг аҳамияти изчил ошиб, у нафақат иқтисодиётни, балки бутун жамиятни сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқишда энг муҳим омиллардан бирига айланди.

Таълимда илғор технологияларнинг кенг ўзлаштирилиши, узлуксиз таълимнинг фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялашуви, ўқувчиларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда таълимга табақалаштирилган ёндашувнинг жорий этилиши ҳамда таълим беришнинг илғор педагогик технологиялари, замонавий ўқув-услубий мажмуаларнинг яратилиши, ўқув-тарбия жараёнининг дидактик жиҳатдан таъминланиши таълимни бошқариш тизимини такомиллаштириш талаб қилади.

Ривожланган мамлакатларнинг тараққиёт йўлига назар ташласак, уларнинг аксари илм-фан ривожини ва иқтидорли ёшлари билан шу даражага етганига гувоҳ бўламиз. Зеро, буюклар айтганидек, бугун катта моддий бойликларга эга ўлкалар эмас, иқтидорли ва салоҳиятли ёшлари бор давлатларгина чинакам фаровонликка эришмоқда. Янги ўзбекистонда тубдан ислох қилинаётган таълим тизимини янада ривожланишида, узлуксиз таълим эҳтиёжлари учун давлат харидларини назорат қилиш жараёни имкон қадар шаффоф бўлиши, таълим тизимининг барча даражадаги раҳбарлари тмонидан амалга оширилаётган ишлар режаси бўйича амалий ҳисобот ва тушинтиришлар олиб борилиши, янги ёш кадрларга ситқи дилан тўғри йўналиш кўрсатишлари лозимдир.

Таълимни сифати ортишида, таълим соҳасини ровожланишида ҳар бир ходим ўз касбини, соҳасини севмоқлиги, маҳорат эгаси бўлиши, бор қобилияти билан билим илмни тўғри етказмоқлиги, янги инновацион ғоялари асосида талаба ёшларга намуна бўлмоғи керакдир. Чунки янгиланаётган мазмуни самарали фаолияти уни бошқариш механизмларининг мукамаллиги билан белгиланади. Бунда педагогларнинг бошқарув маданиятини шаклланганлик даражаси муҳим аҳамият касб этади.

Таълимни ривожлантиришнинг асосий вазифаларидан бири – умумий ўрта таълим мактаблари, биринчи навбатда қишлоқ жойларидаги мактабларни малакали педагог кадрлар билан таъминлаш, улар таркиби сифатини ошириш, ўқитувчилар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг самарали тизимини яратиш, ўқитувчилар меҳнатини рағбатлантиришни кучайтиришдир.

Бу муаммонинг ижобий ечими, биринчи навбатда педагогларнинг бошқарув маданиятига боғлиқ. Мазкур масалага жиддий эътибор қаратадиган бўлсак, муассаса раҳбарлари учун жуда катта масъулият, талаблар, вазифалар ва ишонч мавжудлигини эътироф этиш мумкин.



Жумладан, педагогларнинг малакасини ошириш ва кайта тайёрлаш, уларда ишга бўлган ташаббускорлик – ижодий муносабатни шакллантириш, моддий ва ижтимоий-психологик рағбатлантириш тизимини яратишга муассаса раҳбарларининг тизимли ёндашуви зарур.

Чунки, ҳозирги кунда умумий ўрта таълим муассасаларида яратилаётган шароитлар, замонавий ўзгаришлар барча имкониятлардан фойдалана оладиган, ўзига ва ўз ишига нисбатан талабчан, мактаб, оила ва маҳалла ҳамкорлигини йўлга қўя оладиган, ўз ишининг устаси бўлган, ўз соҳасининг сирларини ҳар томонлама чуқур билган, ўзини-ўзи ривожлантирувчи ҳамда ўз қобилияти ва имкониятларини тўла ишга сола биладиган, бир суз билан айтганда, юксак профессионал компетенцияга эга булган педагог раҳбарларнинг фаолият кўрсатиши талаб қилинмоқда. Бинобарин, бугун замон шиддат билан ўзгариб, барча соҳалар қатори таълим тизими олдига ҳам ўта долзарб ва мураккаб вазифаларни қўймоқда.

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 июлдаги ПҚ–4391-сон “Олий ва ўрта махсус таълим тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ижроси юзасидан ишлаб чиқилди.

Ушбу концепциясида олий таълим соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш, ҳудудларда давлат ва нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш, соҳада соғлом рақобат муҳитини яратиш, интеллектуал тараққиётни жадаллаштириш, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, илмий ва инновацион фаолиятни самарали ташкил этиш ҳамда халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш мақсадида фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантириш сингари вазифалар асос қилиб олинди. Концепция мазмуни мамлакатимиз олий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини акс эттиради.

Унда олий ўқув юртларида камров даражасини кенгайтириш ҳамда таълим сифатини ошириш, рақамли технологиялар ва таълим платформаларини жорий этиш, ёшларни илмий фаолиятга жалб қилиш, инновацион тузилмаларни шакллантириш, илмий тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштириш, халқаро эътирофга эришиш ҳамда бошқа кўплаб аниқ йўналишлар белгилаб берилган. Буларнинг барчаси таълим жараёнини янги сифат босқичига кўтариш учун хизмат қилади.

Айни даврда Ўзбекистон олий таълим соҳасида сезиларли ижобий ўзгаришлар рўй бермоқда. Нодавлат олий таълим муассасаларининг ортиб бориши биринчи навбатда мактабни битирган ёшларнинг ўзлари хоҳолаган ва қизиққан олий таълим муассасаси талабаси бўлиш имкониятлари кўпайди.

Билим даргоҳларининг қиёфаси ўзгариб, моддий-техника базаси яхшиланяпти, илмий ишланмаларни молиялаштириш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш кучайтирилмоқда, жумладан, профессор-ўқитувчиларнинг даромадлари ҳам ортяпти. Инновация йўналишидаги алоҳида давлат тузилмалари ташкил этилиб, олий ўқув юртларида ҳам янги бўлинмалар очилмоқда. Буларнинг барчаси олий таълимга бўлган ёндашувни ўзгартириб, унинг сифати ҳамда даражасини кўтаришга хизмат қилиши аниқ. Жумладан, бизнинг университетда ҳам.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Ўзбекистоннинг барча таълим соҳаларида амалга оширилган ислохотларнинг янги босқичи замонавий халқаро талабларга жавоб берадиган сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш учун жиддий асослар яратилди. Аммо мавжуд муаммоларнинг аксарияти ҳалигача ҳал қилинмаган. Таълим соҳаси кадрларни

объектив равишда ўқитиши, келажакда одамларни ҳаётга ўргатиши сабабли минтақани ислоҳ қилиш нуқтаи назаридан анча "консерватив" ҳисобланади. Янги авлодни ҳаётга тайёрлаш учун бизга анча вақт керак бўлади. Университетларда юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш учун ваколатли абитуриентлар талаб қилинади. Ўзбекистонда олиб борилаётган таълим соҳасидаги ислохотлар жараёнида асосий эътибор ёшлар орасида иқтидорларни аниқлаш ва ривожлантиришга қаратилди. Аммо илгари етарлича самарали бўлмаган мактаб ва мактабгача таълим тизими ўз ҳиссасини қўшмаган болалар боғчасидан ва мактабдан истеъдодларни ривожлантириш керак. Абитуриентларнинг тайёргарлиги пастлиги шундан далолат беради. Шу нуқтаи назардан, таълим соҳасидаги ислохотлар интеграциялашган ёндашув ва ислоҳ этилаётган тармоқлар ва таълимнинг турли босқичларини уйғунлаштириш билан энг самарали ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма туккиз йиллигига бағишланган нутқи. //Халк сузи №186 сон.2020.
2. 2020 йил 30 октябрда Президент Шавкат Мирзиёев раислигида мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси бўйича видеоселекторда сўзлаган нутқи. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
3. <https://www.lex.uz/docs/3362886>.
4. <https://www.lex.uz/docs/3362881>.

#### **ТА'LIM-TARBIYANING BOLALARDA TA'SIRCHANLIGI**

**Hamroqulova D.F.**

USAT. Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi  
[dilnovoz.khamroqulova@mail.ru](mailto:dilnovoz.khamroqulova@mail.ru)

***Annotatsiya.** Tarbiyachilikning texnologik tizimini, o'qituvchi va o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini to'g'ri tashkil qila olishi, tarbiyaviy ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi nazarda tutilishi lozim.*

***Abstract.** The technological system of education, the ability to properly organize the practical activities of teachers and students, and the proper implementation of educational work should be assumed.*

***Абстрактный.** Следует предполагать технологичность системы образования, умение правильно организовать практическую деятельность преподавателей и учащихся, правильное выполнение воспитательной работы.*

Hozirgi mustaqillik davrida darsga qo'yilgan didaktik talablarning eng asosiysi – ta'lim maqsadlarini aniq belgilash va ularning rivojlantiruvchi hamda tarbiyalovchi maqsadlar bilan bog'lanishini ta'minlashdir.

O'qituvchining dars jarayonidagi axloqiy tarbiyani to'g'ri tashkil qilishi eng avvalo uning tarbiyachilik qobiliyatiga bog'liq.

O'qituvchining tarbiyachilik faoliyatida dars jarayonida sodir bo'ladigan har qanday vaziyatlarga to'g'ri yondoshishi, ularni to'g'ri tushinishi va qabul qilishi bilan belgilanadi. Bunda u "maqsad – vosita - natija" tizimida ish tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan muomalasi ularning shaxsiy tashabbuslarini rivojlantirishga imkon berishi lozim.

Pedagogika nazariyasidan ma'lumki, o'qituvchining tarbiyachilik mahorati quyidagi, o'zaro bog'liq tizimlardan iborat:

- texnologik tizim;
- ijtimoiy-psixologik (munosabat) tizim;
- axloqiy tizim.

Tarbiyachilikning texnologik tizimi asosan rasmiy va ijodiy ishlarni o'z ichiga oladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini to'g'ri tashkil qila bilishi kerakki, bu butun tarbiyaviy ishlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Mazkur tizimda o'quvchi va tarbiyachi orasidagi munosabat har qanday pedagogik masalani ham to'g'ri hal qilinishiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Tarbiyachilikning psixologik (munosabat) uslubi o'qituvchidan eng avvalo o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri tushunishni talab etadi.

Ma'lumki, o'quvchilar har kuni bir-birlari bilan uchrashadilar, bunga quvonadilar, birga tashvish tortadilar. Mohir tarbiyachi bo'lish uchun bolalar jamoasi va jamoalararo munosabatlarni juda mohirlik bilan seza bilishi kerak. Faqat shundagina tarbiya ishlari bir maromli bo'ladi va har qanday nizolarning o'z vaqtida oldi olinadi.

Axloqiy tizimda tarbiyalashda tarbiyachi-o'qituvchi bolalar bilan tizimli ishlashiga to'g'ri keladi. Bunda u:

- bolalarni har qanday narsa, predmetga bo'lgan munosabatini;
- bolalarni atrofidagi kishilarga bo'lgan munosabatini;
- bolaning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini yaqqol ko'ra bilishi kerak.

Tarbiyachilikning axloqiy uslubi o'quvchi va o'qituvchi orasidagi munosabatni yaqqol namoyish qiladi.

Tarbiyaning texnologik va axloqiy tizimlari birligini ta'minlash maqsadida o'qituvchi o'quvchilar bilan ularning ota-ona oldidagi burchlari, kattalarni hurmat-izzati, Vatan tuyg'usi kabi mavzularda tadbirlar o'tkazishi samarali natijalar beradi. O'quvchilar bilan "Vijdon", "Burch" kabi mavzularda o'tkaziladigan tadbirlar ularda shaxsiy xislatlarning shakllanishiga imkon beradi.

O'qituvchida tarbiyachilik mahoratini shakllantirishda uning o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotining "topshiriq va talab" sohasidagi masalalari ancha o'ylantirib qo'yishi mumkin.

Buyuk allomalar va mohir pedagoglar asarlaridan ma'lumki, tarbiyalanuvchiga qo'yilgan katta talablar va beriladigan qiyin topshiriqlar, eng avvalo uni hurmatini yanada yuqori ko'tarishni talab qiladi, qo'llaniladigan tarbiya usullari doirasini yanada kengaytiradi.

Har bir o'quvchi o'ziga berilgan topshiriqni bajarishdan ma'lum qoniqish hosil qiladi va hatto quvonadi. O'qituvchi-tarbiyachi uning aynan ana shu quvonchidan samarali foydalana bilishi kerak. Shuning uchun ham har qanday jiddiy va talabchan tarbiyachining obro'si yuqori bo'ladi.

Tarbiyachilik mahorati – har bir pedagogning ob'ektiv dalillarga asoslangan shaxsiy fazilatidir. Bu esa pedagogika fanining nazariy – qonuniyatlari va qoidalaridan tarkib topgan bo'lishini taqozo etadi.

O'qituvchi o'zining tarbiyachilik mahoratini oshirishi va takomillashtirib borishi uchun tizimli, o'z ustida mustaqil ishlashi, ko'proq ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni o'qishi, taniqli ijodkorlar, o'z kasbining mohir ustalari, olimlar, ilg'or tajriba sohiblari bilan muloqotda bo'lishi va ular ish tajribalarini o'rganishi lozim.

Tarbiyaviy ishlar tajribasidan ma'lumki, har doim bo'lgani kabi, hozirgi vaqtda ham axloqiy me'yorlardan chetga chiquvchi xulqqa ega bo'lgan bolalar hamon uchrab turadilar. Ularni tarbiyalab, xulqidagi nuqsonlarni tuzatish o'qituvchi-pedagogdan katta mahorat talab etadi.

Tarbiyasi "og'ir" bolalar bilan ishlash quyidagi tartibda olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

- tarbiyasida nuqsoni bo'lgan bolalar hayotlarini sinchiklab o'rganib chiqish va sabablarini aniqlash;
- tarbiyaga salbiy ta'siri bor sabablarning asosiylarini aniqlab olish;
- aniqlangan salbiy sabablardan tuzatish mumkin bo'lganlarini aniqlash;
- tarbiyasi "og'ir" bolalar bilan muloqot (aloqa) o'rnatishga ehtiyotlik bilan yondashish;
- tarbiyasida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlarni albatta tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida bayon etilgan tartibda olib borilgan ishlar natijasida jamiyatga mansub shaxsni voyaga yetganidan keyin uning keyingi hayotini o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda katta. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish ishlari oddiy bolalarga nisbatan tarbiyasi og'irroq bolalarda o'zgacha yondoshishni talab etadi. Bunda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi muloqot o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi, eng avvalo, tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlariga alohida e'tibor bermog'i darkor. U o'zining tarbiyaviy ishlar rejasini oila, atrof-muhit, jamiyatdagi o'zgarishlarga asoslanib tuzishi ijobiy natija beradi.

Tarbiyasi og'ir bolalar bilan olib boriladigan ishlar eng avvalo tizimli va uzluksiz bo'lishi, har bir topshiriq bo'yicha albatta nazorat, natijasini tahlili va xolisona baholash bo'lishi lozim. Ular bilan muloqotda ishlatiladigan so'zlar har bir bola uchun alohida tanlanilsa, intonatsiya va mimika ham unga mos bo'lsa ta'sirchanligi ortadi.

Tarbiyachi o'z faoliyati doirasida tarbiyasida nuqsoni bo'lgan har bir bolaning xatti-harakatini doimiy nazorat qilib borishi, unga ta'sir o'tkazishning ishontirish va singdirish uslublaridan mohirona foydalanishi muvaffaqiyat garovidir.

Ammo tarbiyasi murakkabroq bolani ichki dunyosiga kirish yo'llarini axtarib topish har bir pedagogdan katta mas'uliyat va psixologik hushyorlik talab qiladi. Tarbiyasida mavjud bo'lgan nuqsonni topish va unga to'g'ri tashhis qo'yish hamda uni tuzatish yo'l-yo'riqlarini belgilash har doim ham hammaga nasib etmasligi mumkin.

Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash eng avvalo ularning oilaviy sharoiti, ota-onasining bor-yo'g'i yoki qaramog'iga olgan oilaning sharoitiga bog'liq. Buyuk alloma, sohibqiron Amir Temur shunday degan: "Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko'ra chuqurroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerakligiga ishonch hosil qildim". Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qishi davrida ham asosan oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning farzand oldidagi eng birinchi burchi – bola sog'ligi uchun qayg'urishlari hisoblanadi. Undan keyin ota-ona o'zlarining xulq-atvorlari va mehnat faoliyatlari bilan bolaga namuna bo'lishlari lozim. Oilada o'zaro yaxshi munosabat bola tarbiyasining garovidir.

Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda oila, maktab va ayniqsa jamoatchilik hamkorligi katta ahamiyatga ega. Bulardan tashqari tarbiyasida nuqsoni bo'lgan bolalarga qarindosh-urug'lar va yaqin kishilarning ham ta'sirlari sezilarli bo'lishi mumkin.

Tarbiyasi og'ir bolalar uchun, oddiy bolalardan farqli tarzda, rag'batlantirish va jazolash usullari ham o'zgacha tanlanadi. Ya'ni tarbiyasi murakkabroq bola uchun ishlatiladigan so'z ustaligi o'zgacha bo'lishi bilan birga, ularni jazolash usullari ham maxsus, ehtiyotkorlik bilan qo'llanadi. Har doim ham tarbiyasi og'ir bolaga unga nisbatan yomon fikr va munosabatda bo'lish, uni bolalardan ajratib qo'yish, unga nisbatan boshqacha ko'z bilan qarash – uning tarbiyasini yanada murakkablashtiradi.

O'quvchilarga oddiy so'z ishlatilganda tarbiyasi og'ir bolaga muloyimroq, shirinroq so'zlar aytilsa, uning ko'ngli va ruhiyati ancha ko'tariladi. Odamlarga nisbatan iliq munosabat tarkib topib boshlaydi. Jamoa bilan hisoblashish, o'z o'rniga ega bo'lish istagi paydo bo'ladi.

Tarbiyasida nuqsoni bo'lgan, tarbiyasi og'ir bolalarni kichik yoshidan boshlab maxsus nazoratini olib borish katta ahamiyatga ega. Tarbiyasi og'ir bolalarning maktabda o'qishlari davrida ular bilan olib borilgan ishlar samarali natijalar bergandagina ular umumiy nazoratdan chiqariladi. Aks holda ularning maktabni bitirganlaridan keyingi, jamiyatdagi xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, ota-onalar va ayniqsa huquqni himoya qilish organlari tomonidan doimiy nazoratda bo'lishi kerak. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson yomon bo'lib tug'ilmaydi, uning hayotdagi salbiy sifatlari tashqi ta'sir natijasi ekanligini har doim yodda saqlash kerak.

Shunday ekan tarbiyasi og'ir bolalarga uni o'rab turgan atrof-muhitdagi kishilar ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, ijobiy ibrat-namuna ko'rsatishi zarur deb hisoblaymiz.

#### **Adabiyotlar**

- 1.Qodirov F.R., Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M, Agzamova M.N. Maktabgacha pedagogika T: Tafakkur 2019 darslik
- 2.Kayumova N.M Maktabgacha pedagogika T: TDPU 2013y o'quv qo'llanma.
- 3.Ibragimova G.N, Choriyeva D.A. Maktabgacha ta'lim pedagogik diagnostika T. 2021y.

#### **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI TARBIYAVIY ISHLARINI BOSHQARISHGA TAYYORLASH KOMPETENSIYALARI**

**U.I.Maxkamov**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
"Pedagogika" kafedrası professori, p.f.d

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlash kompetensiyalarining mazmuni va ularni amalga oshirish jihatlari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Bo'lajak o'qituvchi, tarbiya, o'quvchi, qadriyatlar, shaxs, jamoa, muhit, mas'uliyat, ma'naviyat, bilim, munosabat, kompetensiya.*

Bugungi kunda boshlang'ich talim muassasalarida o'qituvchining ustozlik qobiliyatlarini yanada ko'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ular faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish, o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish, ularning ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada oshirish, bilimlarini takomillashtirish asosida ilm-ma'rifat bo'yicha targ'ibot tashviqot ishlarini amalga oshirish, o'quvchi-yoshlarni kamolotga yetkazish, o'z ishida aniq natijalarga erishadigan, XXI asrda hamma narsaga qodir bo'ladigan, dunega taniladigan, sog'lom tafakkurga ega bo'ladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash alohida ahamiyatga ega. Bu borada tarbiya

jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'quvchi-yoshlarda axloqiy fazilatlarga ega bo'lish, ishbilarmon, bilim darajasi, ustozlik mahorati, ongi, jamiyatdagi obro'si, o'zini ijobiy tarzda namoyon qilishi, maqsadli ravishda ish olib borishi, dunyoqarashi, tanqidiy fikrlashi, jamoadagi muhitni sezishi, eng muhimi olib borayotgan ish faoliyatini aniq rejalashtirishi, turli-tuman vaziyatlarni tahlil qila olishi, ularni o'ziga jalb etishi va ishontira olishi, so'z bilan ish birligini ta'minlashi kabilar uning asosiy kompetentsiyalari hisoblanadi.

Chunki bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'z vazifasini puxta va halol bajarishi, o'quvchilar faoliyatini takomillashtirishda uning mas'uliyati va ma'naviyati, kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega bo'lishi, belgilangan maqsadlarga erishishda aniq vazifalarni amalga oshirishi, o'quvchilarning hayotiy darajalarini puxta bilishi va bu sohada iloji boricha katta tajriba hosil qilishi, tarbiya jarayonini adolatli boshqarishi, jamiyat qonunlarini puxta va chuqur bilishi hamda o'quvchilarni ularga unga amal qilishi kabilar nafaqat o'zida balki o'quvchilarda ham xulq-atvor va xatti-harakatlariga sabab bo'luvchi to'g'rilik, odoblilik, kamtarlik, xushyorlik, saxiylik, muruvvat va tabiiy xususiyatlarini rivojlantiradi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tarbiya jarayonini amalga oshirishda o'quvchilarda o'zaro hamjihatlik va tenglik kompetentsiyasiga amal qilgan holda o'z ishidan ogoh bo'lishi va bexato ishlashi, o'quvchilarning bilib yoki bilmay qilgan xatolarini bartaraf etishga yordam berishlari muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki o'quvchilar ko'p jihatdan o'qituvchiga tahlid qiladilar. Ushbu jarayonda o'qituvchi to'g'ri yo'l tutishi o'quvchilar ham to'g'ri yo'l tutadilar.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси кўрсатишича барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш учун аҳолининг 40-50 фоизи олий маълумотга эга бўлиши керак, билимлар иқтисодиётида эса, олий маълумотлиларнинг ҳиссаси 60 фоизгага етади.<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикасининг маъмурий ислохотлар доирасида олий таълим, фан ва инновациялар соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 3 июлдаги ПҚ-200-сон қарорига кўра Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги фаолиятининг устувор йўналишларидан бири сифатида халқаро мезонлар асосида ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилотларида таълим сифатини таъминлаш, ўқув жараёнини ташкил этиш меъёрларини белгилаш ҳамда таълим ташкилотларининг бошқарув ва педагог кадрларининг касбий кўникмаларини ривожлантириш<sup>17</sup> белгиланган.

Мамлакат фаровонлигининг таълим ва инсон капиталини такомиллашувига боғлиқлигининг ёрқин намунаси Жанубий Кореядир. 1960-йилларда бу мамлакат Афғонистон каби даражада ЯИМга эга эди ва унинг миллий даромади Мексика ва Жанубий Американинг барча мамлакатлари даражасидан паст эди. Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотига (ИХТТ) 30 мамлакати орасида олий маълумотли вояга етган фуқароларнинг улуши бўйича 21-ўринни эгаллар эди. Вояга етган аҳолининг учдан бир қисмидан камроғи ўрта маълумотни тугатган эди. Бугун, 25 ёшдан 34 ёшгача бўлган вояга етган корейсларнинг 97% олий маълумотга эга ва бу йирик саноати ривожланган мамлакатлар орасида энг катта кўрсаткич бўлиб ҳисобланади. "Таълим -бу ўзгаришлардан

---

<sup>16</sup> Одилова Д.Б. Миллий иқтисодиётнинг хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. Т.ТДИУ. 2023 йил. Б.16.

<sup>17</sup> “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 3 июлдаги Ўзбекистон Республикасининг маъмурий ислохотлар доирасида олий таълим, фан ва инновациялар соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-200-сон қарори.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

xabardor бўлишга имкон берадиган узликсиз жараёндин ва энг долзарб вазифа инсонларни ўқишга ўргатишдир"<sup>18</sup>

Таълим тизимини замонавий талабларга жовоб бериши, истиқбол режаларини белгилаши ва келажакка интилиши лозим. Шу боисдан, илмий фаолият соҳасидаги юқоридаги муаммоларни бартараф этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясининг мақсадли кўрсаткичлари қабул қилинди.

Жадвалда кўриниб турганидек, Концепцияда республикаимиз олий таълим муассасаларининг илмий салоҳияти ва фаоллигини оширишга жиддий эътибор қаратилган. 2030 йилга бориб, 2023 йилга нисбатан профессор-ўқитувчилар ва илмий тадқиқотчиларнинг «Scopus», «Science Direct», «Web of Science» ва бошқа хлқаро илмий техник маълумотлар базаларда индексланувчи журналлардаги мақолалар сонини 2,8 марта ОТМларда фаолият олиб бораётган «Хирш» индекси (h-индекс) 5 ва ундан юқори бўлган профессор-ўқитувчилар сонини 3,0 мартага ҳамда мамлакатимизда таҳсил олаётган жами хорижий талабалар улушини 9 фоизга ошириш кўзда тутилмоқда.

### **2.жадвал**

#### **Ўзбекистон Республикаси олий таълими муассасаларида илмий фаоллигини ошириш истиқболлари**

Т/р	Кўрсаткичлар номи	Ўлчов бирлиги	2019	2020	2023	2025	2030	2030йилда 2023 йилга нисбатан ўзгариш
1.	«Scopus», «Science Direct», «Web of Science» ва бошқа хлқаро илмий техник маълумотлар базасида индексланувчи журналлардаги мақолалар	сон	750	1200	2500	4000	7000	2,8 марта
2.	«Scopus», «Science Direct», «Web of Science» ва бошқа хлқаро илмий техник маълумотлар базасига киритилган олий таълим муассасалари илмий журналлари	сон	-	2	10	25	35	
3.	ОТМларда фаолият олиб бораётган «Хирш» индекси (h-индекс) 5 ва ундан юқори бўлган профессор-ўқитувчи	сон	142	171	295	460	900	3,0 марта
4.	Хорижий талабаларнинг улуши	фоиз	1	3	6	10	15	9 фоизга

Қайд этиш лозимки, кўзланган мўлжалларга эришиш синергик самара таъсирига эга. Яъни эришилган бир ютуқ самараси бошқа мўлжалга янада кучлироқ таъсир кўрсатиши ва натижалар бундан ҳам юқори бўлишига олиб келади.

Олий таълимнинг қамров даражасини босқичма-босқич ошириш, тизимда соғлом рақобат муҳитини шакллантириш, ўқув юкламаларини мақбуллаштириш, таълим

<sup>18</sup> Акромова Ш.Г. Ўзбекистонда инновацион иқтисодиёт шаклланиш шароитида инсон капиталининг ривожланиши: Монография. Т.: «Иқтисодиёт ва молия» 2004. Б.156.

жараёнига рақамли технологияларни жорий этиш, олий таълим муассасаларининг молиявий мустақиллигини таъминлаш, профессор-ўқитувчиларнинг маоши 2016-йилга нисбатан қарийб 4 баробарга оширилиши — олий таълим ислохотларининг дастлабки натижаларидир. 2016–2022-йиллар давомида профессор-ўқитувчиларнинг маоши ўрта ҳисобда 4,0 бараварга оширилди. Иш ҳақини ўсиши олий таълим тизимида профессор-ўқитувчилар ўртасида рақобат муҳитини ўсишига катта таъсир қилмоқда.

Бугунги кунда олий таълим муассасаси сифатини ошириш, халқаро майдонда рақобатбардошлигини таъминлаш, шунингдек, жаҳоннинг ТОП-университетлари қаторидан муносиб ўрин эгаллаши сўзсиз халқаро рейтинглардаги фаол иштироки билан бевосита боғлиқ. Мамлакатимиз олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепциясида республикадаги камида 10 та олий таълим муассасасини халқаро эътироф этилган агентликлар, яъни Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities рейтингининг биринчи 1000 та ўриндаги олий таълим муассасалари рўйхатига киритиш белгиланган. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 60-сон фармони билан тасдиқланган Давлат дастурининг 47-мақсадида ҳам 2026-йилга қадар 10 та салоҳиятли олий таълим муассасасини QS va TNE халқаро рейтингларга киришга тайёрлаш кўзда тутилган.

## **ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ИНСОН КАПИТАЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДАГИ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАНИШ ДИНАМИКАСИ**

**Бабажанова Малика Рузимовна**  
ТДИУ “Фундаментал иқтисодиёт”  
кафедраси катта ўқитувчиси

Олий таълим тизими инсон капиталини такомиллаштириш ва жамиятни ривожлантириш, маданий меросни авлоддан авлодга узатиш, касбий тайёргарликни шакллантиришнинг энг муҳим омили бўлиб ҳисобланади. Олий таълим тизими шахс томонидан билимларни эгаллашга хизмат қилади, унга ижтимоий меъёрларни ўзлаштиришга ёрдам беради, иқтисодий фаол ҳаётга киришида дастак бўлади<sup>19</sup>. Ўзбекистонда таълимга жамиятни ислоҳ этиш ва янгилаш сиёсатини амалга оширишнинг ҳал қилувчи бўғини сифатида алоҳида эътибор қаратилмоқда. Олий таълим мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантириш, мамлакатни жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашнинг мажбурий шarti бўлиб ҳисобланади.

Олий таълим тизимининг асосий пировард мақсади - давлат таълим стандартлари ҳамда укув режалари ва дастурлари доирасида таълим-тарбия жараёнини амалга ошириш орқали, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларининг барқарор ривожланишига муносиб ҳисса қўшадиган, инсон капиталини такомиллаштиришнинг асосий бўғини, якуний босқичи сифатида меҳнат бозорида ўз ўрнини топа оладиган юқори малака ва компетенцияларга эга бўлган кадрларни тайёрлайди ҳамда таълим хизматлари бозорининг асосий субъекти бўлиб ҳисобланади.

---

<sup>19</sup> Абдурахмонов Қ.Х. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида. – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.



## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги 2020 йил 23 сентябрда тасдиқланган ЎРҚ-637-сон қонунида “Таълим — таълим олувчиларга чуқур назарий билим, малакалар ва амалий кўникмалар беришга, шунингдек уларнинг умумтаълим ва касбий билим, малака ҳамда кўникмаларини шакллантиришга, қобилиятини ривожлантиришга қаратилган тизимли жараён” деб баҳо берилган. Қонунга мувофиқ, таълим олишнинг масофавий, инклюзив шакллари жорий қилинди, таълим ташкилотларига хорижий муассасалар билан кўшма факультет ва ўқув марказлари ташкил қилишга рухсат этилди.

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” тўғрисидаги ПФ-5847-сон фармонида “Олий таълим мазмунини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини барқарор ривожланишига муносиб ҳисса қўшадиган, меҳнат бозорида ўз ўрнини топа оладиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш” вазифаси юклатилган.**

Ўзбекистон Республикасида сўнгги йилларда игсон капиталини такомиллаштиришда ОТМ ролини ошириш мақсадида уларнинг сони 2,5 баробар кўпайтирилиб, 199 тага етди ва унда ёшларни қамров даражаси 9 фоиздан 38 фоизга ошди. 2022 да таянч ОТМлар томонидан 625 та бакалаврият таълим йўналиши ва 634 та магистратура мутахассислиги учун ўқув режа ҳамда 4,7 мингдан зиёд ўқув дастури ишлаб чиқилди ва тасдиқланди. Мазкур таълим йўналиши ва мутахассисликлари учун ишлаб чиқилган малака талаблари эса такомиллаштирилиб ўқув йили ўқув жараёнига татбиқ этилмоқда.

Жадвал маълумотларига кўра тадқиқ этилаётган даврда Олий таълим тизимини ривожланишини икки даврга бўлиб тадқиқ этиш мумкин. Биринчи давр 2012 -2016 йиллар. Бу даврда Олий таълим тизими хизматларини ривожланиш кўрсаткичларини пасайиш даври. Иккинчи давр 2017 -2022 йиллар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси даврида Олий таълим тизими

### 1.жадвал

#### 2010-2022 йилларда Ўзбекистон Республикасида олий таълим тизимининг ривожланиш кўрсаткичлари<sup>20</sup>

№	Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиг и	2010	2013	2016	2019	2021	2022
1.	Олий ўқув юртларининг сони	дона	65	66	70	116	154	199
2.	Талабалар сони (минг киши)	дона	274,5	259	297,7	441	808	1040,4
3.	Ёшларни қамров даражаси	%да	9,4	9,0	9,2	20,0	28,7	39,0
4.	Давлат бюджети ҳисобидан ўқийдиган талабалар сони	Минг киши	86,7	86,7	83,6	110,9	82,1	119,6
5.	Тўлов-шартнома асосида ўқийдиган	Минг киши	187,8	187,8	175,4	186,8	358,9	920,3

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика агентлиги маълумотлари

Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

	талабалар сони							
6.	Хорижий давлатлар талабалари сони	Минг киши	817	817	986	603	3593	5506
7.	Битирувчи талабалар сони (минг киши)	Минг киши	51,4	52,8	70,8	83,9	103,9	101,9
8.	Олий ўқув юртларида профессор-ўқитувчиларнинг сони (минг киши)	Минг киши	19,6	21,8	24,3	30,6	37,4	41,7
9.	Шу жумладан фан номзодлари % да	% да	4965	5904	6351	7769	9050	10460
10.	Фан докторлари %да	% да	546	654	1415	2201	2312	3420
11.	Илмий салоҳият	% да	26,8	29,4	31,7	34,5	37,2	39,3

хизматларини ўсиш даври (2.3.жадвалга қаранг). Бу даврда республикада Олий таълим муассасалари сони 70 тадан кескин 199 тага ўсди. Давлат бюджети асосида ўқийдиган талабалар сони 110,9 мингтадан 119,6 мингтага, тўлов шартнома асосида ўқийдиган талабалар сони 186,8 мингтадан 920,3 мингтага ўсди. .

Бу Ўзбекистонда инновацион иқтисодиётга ўтиш шароитида инсон капиталини такомиллаштиришда таълим хизматлар соҳасининг асосий драйвер тармоқлари бўлган Олий таълим тизими хизматлари улуши барқарор ўсиб бораётганини ифода этади. Республика олий таълим муассасаларида илмий салоҳият 32,7 %дан 39,3 %га етказилди. 2022-йилда диссертация ҳимоялари кўрсаткичи 2017-йилга нисбатан 5 баробарга, яъни 343 тадан 1765 тага оширилди. Илмий кенгашлар сони 32 тадан 177 тага етказилди ва докторантура мавжуд ОТМлар сони 72 тага етди.

Мамлакатимизда таҳлил этилаётган даврда, бозор талабларидан келиб чиқиб инсон капиталини такомиллаштиришга бўлган талаб ўзгарди. Айниқса, бошқарув ва хизмат кўрсатиш соҳаларида ишлай оладиган мутахассисликларга талаб ошиб борди ва олий таълим тизими бу ўзгаришларни инобатга олган ҳолда ушбу йўналишларда мутахассисларни тайёрлашга ўтди. Ҳозирги даврда мамлакатимизда 850 мутахассислик ва йўналишлар бўйича кадрлар тайёрланмоқда. Демак, инсон капиталини такомиллаштиришда мослашувчан мутахассисликларга ўтиш ҳам мамлакатимизда олий таълим тизимини ривожланиш тенденцияларидан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида инсон капиталини такомиллаштиришда олий таълим муассасалари ўрни, унинг сонини ҳудудий кесимида тақсимланишига кўра Тошкент шаҳрида 82 та, ҳудудларда эса 113 та олий таълим муассасаси фаолият юритмоқда. Шундан 55 таси нодавлат, 30 таси хорижий ҳамда 114 таси давлат олий таълим муассасаси ҳисобланади<sup>21</sup>. Биргина 2022-йил 43 та янги олий таълим муассасаси фаолияти йўлга қўйилди.

Ёшларни олий таълим билан қамраб олиш даражаси 2026-йилда 50 фоизга етказиш башорат қилинмоқда. Шунинг ҳисобга олиб, олий ўқув юртларига талабалар қабул қилиш давлат грантлари сони икки баробар, яъни 21 мингтадан 40 мингтага кўпайтирилди. Сиртқи ва кечки таълим шакллари қайта тикланиб, масофавий таълим шакли жорий этилди ва қабул квоталари оширилди.

<sup>21</sup> <https://edu.uz/uz/otm/index>

## РАЗВИТИЕ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ И РЕМЕСЕЛ В БЕКСТВАХ ВОСТОЧНОЙ БУХАРЫ

Турсунов Н.Н.

Термезский университет экономики и сервиса, г.Термез, Республика Узбекистан.  
[nurullo2447603@gmail.com](mailto:nurullo2447603@gmail.com)

**Аннотация.** В статье описывается экономическое положение Бухарского эмирата, хозяйственная деятельность населения бекств Восточной Бухары, торговые отношения, особенно развитие торговых отношений через водные пути, производство ремесленных изделий и аспекты ремесел, связанное с экономической, естественно-географической средой. В статье анализируется расширение торговых отношений, которое привело к развитию ремесел.

**Abstract.** The article describes the economic situation of the Bukhara Emirate, the economic activity of the population of the beks of Eastern Bukhara, trade relations, especially the development of trade relations through waterways, the production of handicrafts and aspects of crafts related to the economic, natural-geographical environment. The article analyzes the expansion of trade relations that led to the development of crafts.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, торговые отношения, водные пути, товарно-денежные отношения, ремесла, кустарные товарищества.

**Key words.** Bukhara Emirate, trade relations, waterways, commodity-money relations, crafts, handicraft partnerships.

**Введение.** Известно, что Бухарский эмират (1753-1920) был основан на монархической системе правления, а главой государства считался эмир. Бекствами (области) правили беки и они подчинялись эмиру. Бекства были разделены на амлаки (районы), а в состав амлаков входили несколько деревень. Жителями амлаков управляли амлакдары, назначаемые беком. А в деревнях им руководили аксакалы (старейшины) [1, с.31]. В результате различных политических и экономических процессов, происходивших в Бухарском эмирате, иногда происходили изменения в административной структуре.

**Результаты и их обсуждение.** Население Бухарского эмирата обращало внимание на развитие торговли и торговало с соседними странами, такими как Кокандское и Хивинское ханства, Афганистан, Иран, Индия и Российская Империя [2, с.171-176]. В Восточной Бухаре были 9 бекств, в них проживали 470 000 человек [3, с.9].

Одной из проблем, которая мучила этих бекств, была плохая не налаженное транспортное сообщение. Конечно, были сухопутные и водные пути, ведущие из бекств Восточной Бухары к центру. Но эти дороги были проблемой как для эмирата, так и для царского правительства. Города Байсун, Дарбанд, Шерабад и Термез играли важную роль в торговых отношениях Сурханского оазиса с бекствами Западной Бухары. Самым удобным маршрутом в торговых отношениях соседних бекств Сурханского оазиса, бекств Западной Бухары, с Афганистаном и Индией считались дороги проходящие, через хребты Гиссарских гор. Важную роль сыграли четыре дороги, проходящие через Гиссарские хребты [4].

Водные пути сыграли важную роль в соединении территорий восточных бекств Бухары с западными территориями. Лодки перевозили по реке в основном сельскохозяйственные продукты, такие как зерно и хлопок [5, с.247]. При благоприятных погодных условиях лодка, груженная от Сарая до Термеза (210 верст), плыла по течению за три дня, вверх против течению обычно за 12 дней, без груза за 8 дней [6, с.90].

Российская империя стремилась по возможности пользоваться водными путями. Во-первых, грабежей на водных путях было меньше, чем на сухопутных. Во-вторых, транспортировка грузов по воде была относительно недорогой. Повыше указанным причинам Российская Империя уделяла водным путям серьёзное внимание в первые годы после завоевания Средней Азии [7, с.331].

Открытие Амударьинской флотилии имело важное значение и для Бухарского эмирата, и для Российского государства. Взаимное сближение бекств сыграло важную роль в развитии экономических отношений между ними. Флотилия создавала возможность царской России быстрее вывозить сырьё из эмирата, больше продавать отечественные продукты, также полностью овладевать рынками Бухары [8, с.70].

В этот период продажа изделий ручной работы в бекствах Восточной Бухары выполнялась ремесленниками, маклерами и торговцами на местных рынках. На городских рынках выделялись специальные места для мастеров ремесленников, кустарей, ювелиров, кузнецов. Также ремесленники продавали изделия ручной работы в своих мастерских. Торговцы, которые имели письменное разрешение представителя правительства России в Бухарском эмирате и Хивинском ханстве, могли открывать магазины на местных рынках [9]. Им давали разрешение, в котором имелись сведения об открытии магазина и о планировании продаважи в нём каких товаров. Товарообмен продукции проводился за наличный расчёт или путём бартера определенного количества товаров.

Такие города, как Бухара, Самарканд, Карши, Шахрисабз, Денау являлись основными центрами ремесел. Созданные местными ремесленниками различные продукты для удовлетворения потребностей повседневной жизни, сырья, художественные изделия ручной работы, изготовленные квалифицированными мастерами и товары произведённые жителями близлежащих сёл, обменивались в соседних государствах.

Представители этой отрасли производили не только текстиль, медь, керамику, ювелирные изделия, шёлк и шёлковые ткани и многие другие изделия кустарного промысла, доводя свои продукты до степени произведений искусства, они удовлетворяли спрос населения на изделия ручной работы и вывозили их и на внешние рынки [10, с.174].

О городских рынках рассказал венгерский путешественник, посетивший Бухарский эмират в XIX веке А.Вамбери: «... в глазах чужестранцев рынки с разнообразием в нём народов, одежды и обычаев создаёт завораживающую, ослепляющую глаз картину» [11, с.36]. По мнению исследователя А.Г.Азамовой, рынки позднесредневековых городов специализировались на продаже определенных видов товаров [12, с.40].

По словам Б.Х. Кармишевой, в XX веке в селах Сина и Вахшивор бекства Денау, Газарак и Хуфор Гиссарского бекства, Пассурхи Байсунского бекства выращивали более 20 сортов винограда. Местное население, проживающее в этих деревнях, с полуоседлыми узбеками животноводами и на ближайших рынках, обменивали виноград и пшеницу на такие продукты, как шерсть, мясо и сушёный сыр [13, с.119].

В восточной Бухаре были деревни с отдельными сортами фруктов, которые даже вывозили на крупные рынки в далекие города. Например, дашнабадский гранат был посажен на больших площадях [13, с.121].

В городах были организованы сообщество ремесленников, такие сообщество существовали в десятках гузарах Самарканда, Бухары, Шахрисабза, Китаба и Карши [14, с.116]. В таких гузарах в основном жили отдельные ремесленники, занимавшиеся тем или иным видом ремесел, а их мастерские располагались во дворах, где они жили [15, с.172].

Кроме того, существовали сообщество ремесленников с отдельным магазином и мастерской на рынке или рядом с прилавками. Значит, в развитии торговли наблюдается специализация сообщества ремесленников и нахождение городов ближе к торговым точкам. Иногда производств продукции ремесел зависело также от естественно-географических и политических процессов. Ремесленное дело получил широкое распространение в основном в крупных городах, а также в крупных деревнях. Во всех отраслях ремесла имели собственные профессиональные сообщества, которые возглавляли аксакалы и контролировался весь производственный процесс. Вербовка подмастерьев, учеников - подручников была редким явлением, и секреты ремесла, в основном, передавался от отца к сыну.

Из-за большого количества горных районов в восточных бекствах Бухары и в результате требования в защите бекств возрасла потребность в производстве оружия. В результате в оружейных мастерских производились мечи, копья, щиты, ножи, различного вида большие и маленькие оружия и мелкие предметы. Использовались имеющиеся железные и угольные руды в Юрчинском, Байсунском, Шерабадском бекствах. В Байсунском бекстве имелось 25 рудоплавильных печей, в которых работали 50 человек [16, с.56]. Простые кузнечные орудия труда изготавливали тяжёлым трудом, а ввоз качественных оружейных и кузнечных изделий, гвоздей, иглы, начали вытеснять изделия местных мастеров [17, с.62].

Особенно с 80-х годов XIX века - начала XX века, в результате строительства железных дорог в Туркестане, то есть на территориях среднеазиатских ханств, открылся широкий доступ на местные рынки для российских товаров. Многие местные ремесленные мастерские оказались в сложной экономической ситуации.

В то время как оседлое население, то есть чигатайцы, такчы (горцы) занимались различными отраслями ремесла, такими как: кузнечное дело, столярное дело, текстиль, шитье, гончарное дело, мельничное дело, маслобойное ремесло, ткачество, вышивка, вышивание тюбетеек, изготовление обуви, выделка кожи, а полуоседлое население кунгираты, джузы, мангиты, сарайцы в основном занималось ковроделием и подготовкой необходимого инвентаря для юрты [17, с.61-62].

Оседлое население города с полуоседлыми людьми, живущими в пригородах, проводили товарообмен, наряду с большим количеством изделий кустарного промысла, животными как овцы, козы, крупный рогатый скот, а также необходимым сырьем для текстильной и кожевенной промышленности - шерстью, кожей и различными продуктами ковроделия. Кроме того, сельское население, которые занимались земледелием, обменивали выращенные различные бахчевые продукты, и овощи, в виде товара, на изделия кустарного промысла [18].

Города Бухарского эмирата отличались производством продукции отдельных изделий ремесла. Например, гончарное дело было развито в Шерабаде, потому что Шерабадская глина лучше подходила для гончарного дела. Тандыры, хумы и кувшины шерабадских гончаров славились своей прочностью и изяществом [19, с.315].

Своеобразное место в обработке изделий из железа и кожи занимал город Байсун, а в производстве ювелирных изделий - город Денау. Судны и лодки разных размеров строились местными - судостроителями в Чарджоу, Бурдалике, Наразиме, Керки, Келифе, Шерабаде, Кабадиане, Каршинском бекствах Эмирата [20, с.424].

Особое место во внешнеторговых отношениях занимали караван-сарай. В этих караван-сараях были чайханы, общежития, здания для лошадей и верблюдов, отдельные склады для хранения грузов, а также постройки для кормов [21].

Хотя изделия, произведённые местными ремесленниками в ханствах Средней Азии, обеспечивали потребности внутреннего и внешних рынков, но условия жизни мастеров были в тяжёлом положении. Причиной этого было отсутствие финансовой и практической поддержки для развития ремесел в эмирате.

**Выводы.** Словом, в конце XIX и начале XX веков рост населения в городах, укрепление товарно-денежных отношений, привели к развитию торговли. Укрепление торговых связей Бухарского эмирата, в частности, Восточных бекств с Российской империей и другими зарубежными странами, повлияло на производство местных ремесленных изделий и стимулировало интеграцию бекств в мировой рынок.

Растущий спрос населения на изделия кустарного промысла привел в регионах к специализации в различных отраслях. В Восточной Бухаре в конце XIX и начале XX веков продукции местных ремесленных объединений, хотя и были произведены простым способом могли выдержать, конкуренцию по крайней мере частично, готовый промышленным продукциям, импортируемых из России. Ремесленные объединения, существующие в регионе, имели свои обычаи и обряды, которые сформировались веками.

#### **Список литературы:**

1. Турсунов Н.Н. Трансформационные процессы в материальной культуре населения Южного Узбекистана. - Ташкент, Yangi nashr, 2019.
2. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843.
3. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и Западный Памир в конце XIX века.). – Москва, 1958.
4. Кабулов Э.А. Место долины Сурхан в торговых сношениях России с восточными странами // Universum: Общественные науки: ЭНЖ. 2015. № 1-2 (12). URL:<http://7universum.com/ru/social/archive/item/1969>
5. Allamuratov Sh.A. The role of the Amudarya waterway and the Surkhan oasis crossings in trade relations of the Emirate of Bukhara // Electronic journal of Actual problems of modern science, education and training. October, 2020-V. p.241-251. URL:<http://khorezmscience.uz/public/upload/2020/5/32.pdf>
6. Бенцелевич Н.А. Водные пути Туркестана. – СПб., 1914.
7. Кабулов Э. А. Хозяйство Сурханского оазиса. – Ташкент, Akadempnashr, 2012.
8. Allamuratov Sh.A. The role of the Amudarya fleet in the economic life of the Emirate of Bukhara at the end of the 19th century-the beginning of the 20th century //Ўтмишга назар журнали. – 2019. – Т. 21. – №. 2. pp. 65-71. URL: <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-21-10>
9. Национальный архив Узбекистана, Фонд И-3, Опись. 1, дело 557, страницы 3,8,15,18,21.
10. Обломуродов Н., Хазраткулов А., Толипов Ф., Турсунов Н. История Узбекистана. - Ташкент, Фан ва технология, 2011.
11. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб., 1865.
12. Азамова Г.А. Позднее средневековье: ремесла и торговля в городах Средней Азии. - Ташкент, Узбекистан, 2000.

13. Кармышева Б.Х. О торговле в Восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией (по этнографическим данным) // Товарно-денежные отношения на ближнем и среднем Востоке в эпоху средневековья. – Москва, Наука, 1979. - С. 114-133.

14. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (Историко - этнографические очерки). –Ташкент: АН УзССР, 1960.

15. Древний Кеш - События из истории Шахрисабза. –Ташкент, «Шарк», 1998.

16. Массон М.Е. К истории черной металлургии Узбекистана. –Ташкент, 1947.

17. Турсунов Н.Н. Жанубий Сурхон воҳаси этнографияси. –Ташкент, Yangi nashr, 2015.

18. Полевые записи, 2020. Шерабадский, Денау, Байсунский районы Сурхандарьинской области; Каршинский, Касанский, Шахрисабзский районы Кашкадарьинской области.

19. Турсунов Н.Н., Алламурастов Ш.А. Этническая история горцев южного Узбекистана // Бюллетень науки и практики. 2020. Т. 6. №6. С. 312-317. URL: <https://doi.org/10.33619/2414-2948/55/41>

20. Алламурастов Ш.А. История амударьинского судостроения // Бюллетень науки и практики. 2020. Т. 6. №10. С. 422-429. URL: <https://doi.org/10.33619/2414-2948/59/38>

21. Воронина В.Л. Материалы по народной архитектуре Кашкадарьинской области Узбекской ССР // Среднеазиатский этнографический сборник. Ч.II. –Москва, 1959. – С. 299-351.

## “ТАРИХИЙ ЎЛКАШУНОСЛИК ВА ТУРИЗМ” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАҚДИМОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

**Хужамов Мамаражаб Эшнязович,**  
Фан ва технологиялар университети,  
Катта ўқитувчи, тел. 94-6127511  
[mamarazabhuzamov@gmail.com](mailto:mamarazabhuzamov@gmail.com)

**Аннотация.** Ушбу мақолада Олий таълимда “Тарихий ўлкашунослик ва туризм” фанини ўқитилишининг муҳим жиҳатлари, аҳамияти ва истиқболи ҳақида тўхтаб ўтилган. Шунингдек, унда фанни ўқитиш самарадорлигига доир фикр-мулоҳазалар ҳам билдирилган.

**Калит сўзлар:** Ўлка, туризм, фан предмети, асосий манбалар, маданий мерос, педагогик технологиялар, тақдимот, фанни ўқитилиши, мустақиллик, ёшлар, келажак.

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются важные аспекты, значение и перспективы преподавания предмета “Историческое краеведение и туризм” в высшем образовании. Также рассуждаются эффективности преподавания предмета.

**Ключевые слова:** Страна, туризм, предмет науки, основные источники, культурное наследие, педагогические технологии, презентация, педагогическая наука, самостоятельность, молодежь, будущее.

**Annotation.** This article discusses the important aspects, significance and prospects of teaching the subject “local history and tourism” in higher education. It also made comments on the effectiveness of teaching the subject.

**Keywords:** Country, Tourism, subject of science, main sources, cultural heritage, pedagogical technologies, presentatsion, teaching science, independence, youth, future.

Мустақиллик йилларида Олий таълимда ҳам йирик ўзгаришлар юзага келди. Айниқса, кейинги 5-6 йил ичида бу борада амалга оширилаётган ишлар алоҳида эътиборлидир. Бунга даставвал 2020 йил 23 сентябрда янги таҳрирда ЎРҚ-637-сонли “Таълим тўғрисида”ги Қонуннинг қабул қилинишини қайд этиш ўринли ҳисобланади.<sup>22</sup>

Олий таълимда “Тарихий ўлкашунослик ва туризм” фанини ўқитилишини йўлга қўйилиши муҳим аҳамиятга эга бўлди. Тузилган фан дастурига биноан унда ўлка ва халқ ўтмишини, уни энг қадимги даврлардан то ҳозирга қадар ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий жиҳатдан ривожланиб боришининг энг муҳим жиҳатларини, яъни: ўлкада илк одамларнинг манзилгоҳлари, турмуш тарзи ҳақида, уруғ, қабила, элат ва миллатнинг этномаданий ривожланиб бориши, қишлоқ, шаҳар, давлатларнинг шаклланиши ва тараққиёти, тарихий ёдгорликлар, муқаддас қадамжолар, уларнинг номлари билан боғлиқ ўлка топонимикасини, туризмнинг ривожланиш тарихи ва бугунги аҳволини, республикамиз мустақилликка эришгач бу соҳадаги улкан бунёдкорлик ишларини тадқиқ ва тарғиб этишдан иборат.<sup>23</sup>

Тарихий ўлкашунослик ва туризм фанининг мақсади: Ўлка тарихини чуқурроқ ўрганиш асосида талаба-ёшларда халқимиз тарихий, илмий ва маданий меросидан фахрланиш туйғусини уйғотиш, уларда ўз қадриятларига содиқ қолиш, уни чет эллик сайёҳларга фахр билан айта олиш руҳини сингдириш ва шу орқали Ватанга ва халққа муҳаббатни шакллантиришдир.

Тархий ўлкашунослик ва туризм фанининг вазифаси: Ватанимиз тарихини, унинг энг қадимги даврлардан то ҳозиргача бўлган даврини жойлардаги маънавий ва моддий ёдгорликларни – археология, этнография, топонимика, архившунослик, музей экспонатлари ва туризм нуқтаи назари орқали тадқиқ ва таҳлил этишдан иборат.

Шунингдек, фан орқали ўлкада туризм (сайёҳлик)нинг шаклланиши, ривож ва истиқболларига доир бўлган масалаларнинг ёритилиши айниқса муҳимдир. Зеро туризм ҳозирда нафақат мамлакатнинг иқтисодиётига, айти вақтда ижтимоий, маданий, сиёсий ҳаётига дахлдор бўлган истиқболли соҳа сифатида ривожланиши кенг йўлга қўйилмоқда.

1992 йил 27 июлда туризм соҳасидаги фаолиятни мувофиқлаштирувчи марказ - “Ўзбектуризм миллий компанияси” ташкил этилди. Жаҳон Туризм Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Бали шаҳрида (Индонезия) 1993 йилда бўлиб ўтган X сессиясида “Ўзбектуризм” миллий компанияси унга тўла ҳуқуқли аъзо этиб қабул қилинган эди.<sup>24</sup>

Дунё микёсида ҳам туризмга катта эътибор қаратилмоқда. Чунки “Жаҳон экспортида туризм нефть ва нефть маҳсулотлари ҳамда автомобиллар экспортидан сўнг учинчи ўринни эгаллайди<sup>25</sup>. Туризмни янада юқори ўринларга кўтарилиш кутилмоқда.

Ўзбекистон ички ва халқаро туризмни ривожлантириш учун жуда катта имкониятларга эгаки, буни нафақат ноёб табиатимизнинг борлиги билан, шунингдек

<sup>22</sup> (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).

<sup>23</sup> Хўжамов М., Лафасов М., Мулладжанова Р. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. –Т.: “Мумтоз сўз”, 2014

<sup>24</sup> Хўжамов М., Лафасов М., Мулладжанова Р. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. Т., “Мумтоз сўз”, 2014 й. 84-б.

<sup>25</sup> Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Москва: Финансы и статистика, 2000. С. 3



“Юртимизда 8 минг 200 дан зиёд маданий мерос объектилари мавжуд”<sup>26</sup> эканлиги билан ҳам изоҳласа бўлади. Ўзбекистонда халқаро туризм ривожига ҳақида Осиё бўйича жаҳон туризми ташкилотининг минтақавий вакили Хариш Варманнинг қуйидаги сўзларини эслатиб ўтиш ўринлидир. “Тошкент ва умуман, Ўзбекистон, – дейди у, – менда катта таассурот қолдирди. Ўзбекистон ва унинг қадимий шаҳарлари туризмни ривожлантириш учун улкан имкониятларга эга эканлиги кўзга ташланади. Халқнинг бой маданияти, кўп асрлик тарихи, археологик объектлар, архитектура ёдгорликлари, жозибали табиат ва энг муҳими-илиқ, дўстона меҳмоннавоз муҳити кишини лол қолдиради. Буларнинг бари – сайёҳларнинг бу ёққа келиши учун яхши асос”<sup>27</sup> бўлиб хизмат қилади.

Ўзбекистон ўзининг туристик имкониятлари бўйича Марказий Осиёда 1-ўринда, дунё бўйича эса 10-15 ўринда туради.<sup>28</sup>

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 2 декабрда “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони ҳамда “Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори мамлакатда туризм индустриясини, жумладан экотуризм фаолиятини дастурий асосда йўлга қўйишда мустақкам негиз бўлди. Шу билан бир қаторда Президентимизнинг 2017 йил 12 июлдаги “Туризм соҳасини ривожлантиришда маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг масъулиятини янада ошириш чоратадбирлари тўғрисида”ги қарори шу соҳани жадал ривожланиб боришида катта аҳамиятга эга.

Бутунжаҳон туристик ташкилоти (БТТ) маълумотларига кўра жаҳон ялпи миллий маҳсулотининг 11 фоизи, инвестицияларни 10 фоизи, жаҳон истеъмол харажатларининг 11 фоизи, солиқ тушумларининг 5 фоизи туризм соҳасига ҳиссасига тўғри келади<sup>29</sup>. Шундай экан, туризмни, айниқса халқаро туризмни Ўзбекистонда тобора истиқболли ривожлантиришни даврнинг ўзи тақозо этади.

Шу тариқа Тарихий ўлкашунослик ва туризм фани орқали Ватан ва халқимизнинг узоқ-яқин тарихини, шунингдек, мустақиллик йилларида ҳаётнинг барча соҳаларида: ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданиятда, айниқса туризм соҳасидаги йирик ижобий ўзгаришларни ёритиш ва ўқитилишини кенг йўлга қўйишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Бу фан орқали мавзуларни талабаларга ўқитиш ва тушунтиришда турлича замонавий ва анъанавий педагогик технология усул ва воситаларидан фойдаланилади (Масалан, ВЕНН диаграммаси, Ақлий ҳужум, Зигзаг, Зинама-зина, Кейс-стадий, ФАСМУ ва шу кабилардан).

Олий таълимда “Тарихий ўлкашунослик ва туризм” фанини ўқитилиши ва уни самарали тарзда ташкил этишга доир қуйидаги фикр-мулоҳазаларни билдирамиз:

1. “Тарихий ўлкашунослик ва туризм” фани ёш авлодда ўлка ва халқ ҳақидаги муҳим тушунча ва тасаввурларни ҳосил қилишига кўра фанлар ичидаги ўз ўрнини доимо назарда тутишнинг зарурлиги.

<sup>26</sup> “Халқ сўзи”, 25 январь, 2020 й. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасидан.

<sup>27</sup> Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. Тошкент: Ибн Сино, 2002. Б. 85-86.

<sup>28</sup> М.Хўжамов, М.Лафасов, Р.Мулладжанова. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. Т., “Мумтоз сўз”, 2014 й. 87- б.

<sup>29</sup> Пузакова Е.П. Международный туристический бизнес. Москва: ПРИОР, 2001. С. 3

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

2. Юқоридагилардан келиб чиқиб, “Тарихий ўлкашунослик ва туризм” фанини Умумий ўрта таълимда ҳамда Олий таълимда ўқитилишини янада кенгроқ йўлга қўйиш.
3. “Тарихий ўлкашунослик ва туризм” фани ўқув ва амалий машғулотларида кўрғазмалилик, намойиш этиш, тақдирот каби усул ва воситалардан кўпроқ фойдаланиш.
4. “Тарихий ўлкашунослик ва туризм” фани бўйича амалиёт (ўлка бўйлаб, унинг тарихий-маданий ёдгорликлари ва ноёб табиатини сайр-саёхатлар орқали ўрганиш)ни амалга оширишни кенг жорий этиш мақсадга мувофиқ бўлур эди.

### Адабиётлар

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).
2. Хўжамов М., Лафасов М., Мулладжанова Р. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. –Т.: “Мумтоз сўз”, 2013.
3. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Москва: Финансы и статистика, 2000.
4. Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. Тошкент: Ибн Сино, 2002.
5. Пузакова Е.П. Международный туристический бизнес. Москва: ПРИОР, 2001.
6. “Халқ сўзи”, 25 январь, 2020 й. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасидан.

## PEDAGOGIK JARAYONDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLAR ZARURATI

**Sh.A.Tadjibayeva**

University of science and technologies  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası v.b.dotsent p.f.n. (PhD)

**M.X.Usenova**

1-kurs 1-23 “Psixologiya”yo`nalishi talabasi

**Isoqova Z.Z.**

2-kurs Moliya va Moliyaviy Texnologiyalar 137-guruh

***Annotatsiya:** bugungi kunda pedagogik jarayonda ustoz-pedagoglardan o'qitish sohasidagi eng yangi bilimlarga ega bo'lishni talab qilmoqdalar. Ushbu maqolada pedagogik texnologiya yordamida ta'lim oluvchilarning qiziqarli va majburiy bo'lmagan tarzda qanday qilib o'qitish mumkinligi va zarurligi haqida nazariy bilimlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** muammoli ta'lim, yangilik, muhimlik, o'rganishning turli darajalari, ijodkorlik.*

***Аннотация:** сегодняшний день требуют от педагога-учителя обладать новейшими знаниями в области преподавание. В этой статье есть теоритические знания о том, как можно и нужна с помощью педагогических технологии интересно и не принудительно учить обучающихся.*

***Ключевые слова:** проблемным обучением, подчеркивающих новизну, важность, разное уровневое обучение, творческих способностей.*

***Abstract:** today it is required that teachers and educators should have the latest knowledge in the field of teaching. This article contains theoretical knowledge about how it is possible and*

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

*necessary to teach learners in an interesting and non-forced way with the help of pedagogical technology.*

**Key words:** *problem-based learning, emphasizing novelty, importance, different levels of learning, creativity.*

Bugungi kunda ustozlardan o'qitishdagi eng yangi bilimlarni doimiy ravishda izlashni talab qiladi. Muammoli ta'lim texnologiyasi amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog D.Dyuining nazariy tamoyillariga asoslanadi. Muammoli ta'lim deganda ustoz rahbarligida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish bo'yicha ta'lim oluvchilarning faol mustaqil faoliyatini o'z ichiga olgan o'quv faoliyatini tashkil etish tushuniladi, buning natijasida kasbiy bilim, ko'nikma, qobiliyat va fikrlash qobiliyatining rivojlanishi sodir bo'ladi, ijodiy o'sadi. Muammoli texnologiyaning maqsadi - mustaqil faoliyat usullarini o'zlashtirish, kognitiv va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Muammoli ta'lim motivatsiyaning maxsus turini - muammolilikni yaratishga asoslanadi va shuning uchun muammoli vaziyatlar zanjiri sifatida taqdim etilishi kerak bo'lgan materialning didaktik mazmunini adekvat qurishni talab qiladi.[3]

Muammoli usullar - muammoli vaziyatlarni yaratishga, ta'lim oluvchilarning faol kognitiv faoliyatiga asoslangan usullar, bilimlarni yangilashni, tahlil qilishni va individual faktlar ortidagi hodisani ko'rish qobiliyatini talab qiladigan murakkab masalalarni izlash va hal qilishdan iborat. Muammoli ta'limning zamonaviy nazariyasida muammoli vaziyatlarning ikki turi ajratiladi: psixologik va pedagogik. Birinchisi ta'lim oluvchilarning faoliyatiga tegishli, ikkinchisi o'quv jarayonini tashkil etishni ifodalaydi. Pedagogik muammoli vaziyat faollashtiruvchi harakatlar, o'qituvchining savollari, bilim ob'ektining yangiligi, ahamiyati, go'zalligi va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab, tuziladi. Psixologik muammoli vaziyatni yaratish faqat individualdir. O'ta qiyin va juda oson bo'lgan kognitiv vazifa bolalar uchun muammoli vaziyat yaratmaydi. Muammoli vaziyatlar o'quv jarayonining barcha bosqichlarida yaratilishi mumkin: tushuntirish, mustahkamlash, nazorat qilish.

Ko'p bosqichli ta'lim - bu o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik texnologiyasi bo'lib, uning doirasida o'quv materialini o'zlashtirishning turli darajalari nazarda tutiladi, ya'ni bir xil o'quv materialining chuqurligi va murakkabligi A, B, C darajalari guruhlarida har xil bo'ladi. Bu har bir ta'lim oluvchiga o'quv muassasasining o'quv dasturini alohida fanlari bo'yicha o'quv materialini har xil darajadagi (A, B, C), lekin har bir ta'lim oluvchining qobiliyati va individual xususiyatlariga qarab asosiy darajadan past bo'lmagan holda o'zlashtirish imkonini beradi. Ko'p bosqichli ta'lim doirasidagi ta'lim traektoriyalari sxemasi - bu texnologiya bo'lib, unda ta'lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonini uning ushbu materialni o'zlashtirish va uni ijodiy qo'llashga bo'lgan harakatlaridir. Ta'lim standartlarida belgilangan mavzular ta'limning barcha darajalari uchun bir xil bo'lib qoladi. Demak, A talaba matematikani B talaba bilan birga o'rta darajada o'rganadi, lekin rus tilida u B o'quvchi bilan kuchli darajaga tushadi, chet tilida esa asosiy guruhda D talaba bilan birga o'qiydi. Ta'lim oluvchilarning bosqichdan bosqichga o'tishi mumkin va amalda og'riqsiz sodir bo'ladi, chunki tarkib (mavzu) barcha darajalar uchun bir xil.[4]

Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi ko'pincha loyihaga asoslangan ta'lim haqida emas, balki loyiha usuli haqida tushuniladi. Bu usul 1919 yilga kelib AQShda shakllandi. Loyihaga asoslangan ta'lim tizimining asoschilarining asl shiori "Hammasi hayotdan, hamma narsa hayot uchun". Bularning barchasi muallif loyiha usuli bilan ustoz va ta'lim oluvchilarning loyihani ishlab chiqish bo'yicha harakatlari tizimini nazarda tutadi. Loyihaga asoslangan ta'limning maqsadi ta'lim oluvchilarga sharoit yaratishdir:

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

- turli manbalardan bilimlarni mustaqil va xohish bilan egallash;
- kognitiv va amaliy muammolarni hal qilishda olingan bilimlardan foydalanishni o'rganish;
- turli guruhlarda ishlash orqali muloqot ko'nikmalarini egallash;
- tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish (muammolarni aniqlash, ma'lumot to'plash, kuzatish, eksperimentlar o'tkazish, tahlil qilish, farazlarni qilish, umumlashtirish);
- tizimli fikrlashni rivojlantirish.

Loyihaga asoslangan ta'limning boshlang'ich nazariy pozitsiyalari:

- 1) asosiy e'tibor ta'lim oluvchiga qaratiladi, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi;
- 2) o'quv jarayoni o'quv predmetida emas, balki ta'lim oluvchi uchun shaxsiy ma'noga ega bo'lgan faoliyat mantig'ida quriladi, bu esa uning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi;
- 3) loyiha ustidagi ishning individual sur'ati har bir ta'lim oluvchining o'z rivojlanish darajasiga erishishini ta'minlaydi;
- 4) ta'lim loyihalarini ishlab chiqishga kompleks yondashuv ta'lim oluvchining asosiy fiziologik va aqliy funktsiyalarining muvozanatli rivojlanishiga yordam beradi;
- 5) asosiy bilimlarni chuqur, ongli ravishda o'zlashtirish ulardan turli vaziyatlarda universal foydalanish orqali ta'minlanadi.

O'qitishda o'yin usullaridan foydalanish texnologiyasi -- o'quv jarayoniga eng katta qiziqish o'yin texnologiyalari bilan ifodalanadi. L.S.Vygotskiy, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin va boshqalar o'yin nazariyasini, uning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, uning ijtimoiy mohiyatini oydinlashtirish va pedagogik-psixologiyasi ta'lim oluvchining rivojlanishidagi ahamiyatini aniqlash bilan shug'ullanganlar. O'yin texnologiyalari ma'lum bir syujetni (o'yinlar, ertaklar, spektakllar, biznes aloqalari) amalga oshirish orqali ustoz va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'yin shakli bilan bog'liq. Shu bilan birga, o'yin mazmuniga o'quv vazifalari kiritilgan. O'quv jarayonida ko'ngilochar, teatrlashtirilgan, ishbilarmonlik, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari qo'llaniladi. Dars jarayonida o'yin texnikasi va vaziyatlarni amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- o'yin topshirig'i shaklida ta'lim oluvchilar oldiga didaktik maqsad qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materiallar uning vositasi sifatida ishlatiladi, didaktik vazifani o'yinga aylantiradigan o'quv faoliyatiga raqobat elementi kiritiladi;
- didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o'yin natijasi bilan bog'liq.

O'yin texnologiyalari o'quv jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki ular nafaqat kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish va ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, balki bir qator boshqa funktsiyalarni ham bajaradi:

- 1) materialning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri tashkil etilgan o'yin xotirani o'rgatadi va ta'lim oluvchining nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi;
- 2) o'yin va ta'lim oluvchilarning aqliy faoliyatini rag'batlantiradi, mavzuga e'tibor va kognitiv qiziqishni rivojlantiradi;
- 3) o'yin va ta'lim oluvchilarning passivligini bartaraf etish usullaridan biridir.

O'yinlar turli xil hayotiy vaziyatlarni taqlid qilish, tajovuzkorlikka murojaat qilmasdan nizolardan chiqish yo'lini izlash va hayotda mavjud bo'lgan hamma narsani idrok etishda turli xil his-tuyg'ularni o'rgatish imkonini beradi.[2]

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Даутова, Иваньшина, Ивашедкина: Современные педагогические технологии основной школы в условиях ФГОС Каро, 2023-172с.
2. Современные педагогические технологии. - Челябинск, ЧГПУ, 2012—411 с.
3. Tadjibaeva Sh.A. “Ta’lim sub’ektlari orasida ixtilof va nizolarning oldini olish pedagogik shart-sharoitlari” monografiya, -Tashkent, 2023-135s.
4. Темина С.Ю. Конфликты школы или школа конфликтов. -М.: МПСИ,-2002,-144с.

**PLACE OF METHODS OF KNOWLEDGE IN THE SCIENTIFIC SYSTEM.**

**Kuchimova Shakhlo Nuriddinovna**

Teacher of the Academy of MIA

Abstract: The article substantiates the importance of the problem of the relationship of the methods of scientific knowledge and their place in obtaining reliable knowledge, covered issues as a structure of scientific knowledge methods, their interconnection in the system of scientific knowledge, in the knowledge of natural science processes, social knowledge, various cognitive processes related to the use of empirical and Theoretical methods of research in the aspect of the dialectics of the object and the subject of knowledge.

Keywords: Method of scientific research, true knowledge, scientific theory Dialectical interconnection, empirical, theoretical, research methods, methods, forms, reasonable knowledge, the cognition of the world.

Аннотация: В статье обоснована актуальность проблемы взаимосвязи методов научного познания и их места в получении достоверных знаний, освещены вопросы как структура методов научного познания, их взаимосвязь в системе научного познания, в познании естествознания. процессы, социальное познание, различные познавательные процессы, связанные с использованием эмпирических и теоретических методов исследования в аспекте диалектики объекта и предмета познания.

Ключевые слова: Метод научного исследования, истинное знание, научная теория. Диалектическая взаимосвязь, эмпирические, теоретические, методы исследования, методы, формы, разумное знание, познание мира.

**INTRODUCTION**

In the XXI st century, when the achievements of science are increasingly expanding and deepen the cognitive opportunities of a person, as ever is sharply the question of the further creative development of the methodology of scientific knowledge. It is based on it is progress in all areas of science. This fully refers to philosophy, its kernel - dialectics. Science has become one of the most powerful engines of social research methods of scientific knowledge, the mechanism of their functioning in obtaining new knowledge, has gained special significance. The need for a clear and strict metoology is particularly acute currently, when accurate forecasts and competent actions are required by the scientific community, specialists of various areas of knowledge. The systematic development of such an essential incommentation, as a method, is necessary both for the normal functioning of scientific theories and the general methodology of cognition - dialectics, interaction, the mutual penetration of which ensures the truth and

comprehensiveness of knowledge. Logical, historical, coherent and objective methods of scientific knowledge were widely used in the analysis of this article. An analysis of the role of cognitive methods in the scientific system was conducted. P.V. Kopnun's textbook, "The problem of dialectics as logic and the theory of knowledge, was identified as a methodological resource.

Place of method in the scientific system. In modern conditions for the continuous formation of new knowledge systems, new research methods arise problems that require additional analysis of the concepts of the method and those of its aspects that are associated with the mechanism of interaction between the general methodology and special-scientific analogs, typology of methods.

It is known that the result of all scientific research is the emergence of new theoretical knowledge, a new theory. The concept of the theory as who has become formed knowledge implies existence in its content of pure, reliable knowledge free from random, sidelines and components of knowledge. Therefore, under reliable, East The creation and development of scientific theory is not for scientific knowledge the only and ultimate goal. Scientific theory is needed in order to be a method of practical and cognitive activity. That is, the theory acts as the main source platform in the formation and operation of the scientific method. In the history of human thought, the methods arose and arise as a result of creating new theories. The dialectical interconnection of the theory and method, the negligible leading of the method from the content of scientific theory will prevent the principles, laws and logical connections that form scientific theory. The scientific method exists not only as a job, but also as a form of knowledge, and the specifics of the scientific method is that it is not only knowledge, but also the mechanism, obtaining new knowledge. For any law, reflecting reality, also indicates how to think. Being moving, the proof of the principle as the method of knowledge. The problem of the scientific research method is complex, computers. The scientific method is a theory, but only in action facing outside. There are no special principles and laws in the structure of the method other than the principles and laws of the initial theory. All those principles and laws of scientific theory that have a methodological value are included in the structure of the scientific method. The methodological function of the theory is as it were, within the framework of which the principles and laws of scientific theory acquire all new qualities, in particular the quality of the method. The other functions of scientific theory, in the frequency, It is difficult to agree with the statement of some scientists that the scientific theory is only the prerequisite of the method, but not the method itself. In their opinion, the theory of dialectics included in it the laws and categories themselves without any transformations into the requirements regulating cognitive activities cannot play amethodological role, as well as the theoretical provisions of specific sciences expressing which -Lo laws, principles. P.V. Kopnin, who believes "when the attitude of the principles, laws of philosophy to the phenomena of the material world, it turns out their objective content, then they act as knowledge about being being. When their role (principles and laws) is determined in the process of thinking and practical activity, they act as a method of achieving new results. "[1.c.109.]Understanding the method and the theory of dialectics in the organic odd is the most faithful in philosophical literature. A vivid confirmation of the word I.D. andreyev: " The organic unity of the theory and method of philosophy directly follows from the provision on the unity (identity) of dialectics, logic and the theory of knowledge ". [2.c.254.] The strength of one or another method, that is, the provision of objectively obtained, and the transformed knowledge and implementation of certain functions of the method depends on the content, the depth of the

theory, which includes on which it is applied. Methods - Conceptual explanatory, predictive indirectly help the methodological function of scientific theory. Funds and operational apparatus - become affective only as elements of a certain theory. Understanding and productive use of one or another method is possible in the composition and on the basis of the theory or several joint theories that have a task. Many mistakes are a consequence that one or another method was applied regardless of the theory, due to only common sense and general ideas about the method. Attracting the concept of "theory" and its structural elements when determining the It shows that there are no fundamental differences between theoretical knowledge and method. The concept of the identity of the method and the theory pretends to sufficiently fully reproduce the nature of the method, but does not reach its concept "'method" is correct and justified. In any case, the initial point of the method of scientific knowledge is objective reality. The method acts as a method of operating by the existing scientific materials, so it cannot be somehow artificial, a priori destination or condition. The method is an expression of the main coordination of the mined knowledge, its principle feature. And yet the method, being interrelated with scientific theory, has relative independence and occupies a specific place in the methodology where, along with the method, and the techniques, funds, operations and their techniques are also included. In a scientific study, the latter plays an auxiliary role in the process, or part of the components, elements in the maintenance of the scientific method. Therefore, it can be confident that the scientific method is a more complex phenomenon than the tool, reception, rule. There is a significant difference between the method and theory. The structure of the theory includes, as is known, as the main components, a system of fundamental concepts, a system of laws of varying degrees of generality and the system of principles also of various degrees of generality and occupying various places in the structure of the theory, depending on whether they are Initial, meaningful or formal. All of these components in such an extent and in such a form as these occur in theory, the content of the method is not included. There is a significant difference between the method and theory. The structure of the theory includes, as is known, as the main components, a system of fundamental concepts, a system of laws of varying degrees of generality and the system of principles also of various degrees of generality and occupying various places in the structure of the theory, depending on whether they are Initial, meaningful or formal. All of these components in such an extent and in such a form as these occur in theory, the content of the method is not included. Determining the method as a system of rules, principles, techniques, norms, installations orienting person in various types of its activities, given by Descartes: "Under the method ... I understand accurate and simple rules, the strict adherence to which always prevents the adoption of false for true and, Without unnecessary spending of mental strength, but gradually and continuously increasing knowledge, contributes to the fact that the mind reaches true knowledge of everything that is available to him. And then Descartes notes: the whole method is in order and place the placement of what should be sent to the point of mind in order to open any truth. The method characterizes primarily the technology of scientific cognition, the laws of its own development. Since this activity itself is multifaceted, the method can be understood in various meanings: 1) as a way of cognitive activity; 2) as the rules, prescriptions of this activity; 3) as theories, laws that are used to select and organize a method of activity and its own and to formulate relevant rules for this activity **The system of true knowledge of the subjective and objective in the method.** The method is not an arbitrary logical design. It is formulated and developed on the basis of the knowledge of the patterns of the studied area of reality, in accordance with the essence, and contain the studied phenomena, which makes its

mandatory connection with theory. Therefore, undoubtedly, Hegel's rights, when the method is considered as a method of internal self-saturation content. In the method of scientific knowledge, the basis of which is the system of true knowledge, which reveals the patterns of a cognitive object, these negotiations are transformed into rules and techniques of the subject. Therefore, its objective and subjective sides are organically interrelated in the scientific method. The subjectivity of the method is determined in the first turn by the fact that it is the result of activity, creative activity of the subject. The objectivity of the method is due to the fact that this is a way to assign an object that it is based on knowledge, the content of which is objectively. This relationship of the subjective and objective in the method is fixed in the method of determining the method. So, P. V. Kopnin noted: "Under the method, we understand this method of human activity, in which the advanced objective discominations are together with the focus on the knowledge of the object and its preformation. [5.C.84] is therefore The content of any method is not only certain methods of logical operations that ensure the achievement of the goal, but those and those general principles from which these techniques follow and which regulate the process of cognition and practical action. Therefore, the results of cognition depend not only on the nature and properties of the object being studied, but also from the tools that are used. Miscellaneous approaches and methods will lead to different reconstruction of the same system object. The content of knowledge in the final consumption is determined by the content, nature and specificity, the nature of the item itself. Therefore, cognitive actions with it cannot be completely independent of the nature of the subject of study. The theory of reflection justifies the provision that true knowledge can be obtained only if the proceedler builds its activities as it is required: i) the characteristic of the object being studied; 2) the objective of the study; 3) the conditions in which it proceeds. If this activity relies on a specific scientific method, adequate to las and objectives of the study.

### **CONCLUSION**

The results of scientific knowledge are continuously in the search for new methods in their systematization. Moreover, it's not so much in a simple update of research methods and formal logical classifications that do not lead to effective, high quality shifts in knowledge, as in finding such methods and systems of methods, with which you can It would be used to explore the object in development from different parties, with all its connections . In general, the combination and nature of the methods used in science is determined by common for all cognition by laws, as well as the subject of this science and its place in the system of scientific knowledge. Each of the scientific methods not only reveals the verge of the universal philosophical method, but also enriches its content. The philosophical method is refracted, it is specified and implemented through all the methods of science, through the entire totality of scientific knowledge. From the above it follows that the method has its own determination in objective reality and its patterns, but at the same time he is subordinated to the subjective strength of human consciousness. The method from the beginning and to the end there is an ideal phenomenon, it prevents the ideal means of knowledge. The method is something secondary with respect to objective and real laws with respect to independent functions. It, as their subjective analogue, is not only for explanation, but also to change the act. In these functions of the method, its creative force is revealed as the movement of the human, phenomenon to achieving objective truth.



## REFERENCES

1. Kопnun. P.V. The problem of dialectics as logic and the theory of knowledge M.1983.c.109-110.
2. Andreeva I.D. Theory as a form of organization of scientific knowledge. - M.1979. P.254.
3. Descartes R. Selected Works.-M.1950. P.89.
4. Hegel. Op. TU-M. 1937. With .33.
5. Qanda V.A. Methodology of scientific knowledge / Omega-L-Moscow, 2013
6. Malakhov- SPB, 2007 / Methods of scientific knowledge / Tutorial

## АТТРАКЦИЯ СЕВГИ-МУҲАББАТ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ МУҲИМ ШАРТИ СИФАТИДА

*Ахмедов Бахтиёр Турсунович*

ТерДПИ Психология кафедраси катта ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада аттракция, яъни жозибадорликнинг талаба ёшлар хаётидаги аҳамияти ва бу ходисанинг ижобий хис-туйғу эканлиги билан бир қаторда, дўстона муносабатларининг натижасига кўра симпатия, севги, меҳр ва муҳаббат ҳислари шаклланишининг муҳим жиҳатларига ҳам тўхталиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** талабалик, ёшлик, аттракция, симпатия, жозибадор- лик, эмоция, дўстлик, меҳр-оқибат ва севги-муҳаббат

**Аннотация:** В данной статье помимо значения аттракции, то есть привлекательности в жизни подростков и студенческой молодёжи, и того факта, что это событие является положительным чувством, важными аспектами формирования чувств симпатии, любви, привязанности и любви как также были затронуты результаты дружеских отношений.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, юность, влечение, симпатия, привлекательность, эмоция, дружба, привязанность и любовь

Инсоннинг талабалик даврлари нафақат профессионал танлов ва касб эгаллаш учун мақбул давр, балки бу давр ёшларнинг ўзлигини англаш, ўз кадр-қимматини билиш ва бошқаларга нисбатан эмоционал муносабатда бўлиш тажрибасини эгаллаш даври ҳамдир.

Экспериментал изланишларнинг кўрсатишича, севишганлик талаба ёшларнинг шахс сифатларига бевосита таъсир кўрсатиш билан бир қаторда, уларнинг хатти-ҳаракатларида ҳам яққол намоён бўла бошлайди. Масалан, севишганлар бошқалардан фарқли, икки марта зиёд ўзаро гаплашишлари ва гапларининг сира адо бўлмасликлари билан ҳам кўзга яққол ташланиб туради. Бундан ташқари, бундайлар оддий яқин муносабатлар эгасининг кўз қарашларидан саккиз марта ортиқ бир-бирларининг кўзларига қараб термулиб вақт ўтказишлари аниқланган экан.

Ушбу мавзу юзасидан ўтказилган тадқиқотлар натижасида яна шу нарса аниқланганки, севги билан боғлиқ хиссиётлар ҳар бир жинс вакилида ўзига хос хусусиятларга эгаллиги билан ажралиб туради. Масалан, талаба ёшлар қизларга нисбатан романтизмга берилувчан, тезгинада яхши кўриб қоладиган бўлишлари билан бир қаторда, уларнинг тасаввуридаги севги анча романтик, идеал кўринишга эришиб боради. Қизлар эса ўз ўрнида йигитларга нисбатан секинрок севиб қолишади, лекин севгини унутиш,

ундан воз кечиш уларда осонроқ содир бўлади. Агар йигитлар бир кўришдаёқ ёктириб қолган қизни севиб ҳам қолиши эҳтимоли юқори бўлса (экспериментларда севги билан симпатиянинг корреляцион боғлиқлиги кучли), қизларда бундай боғлиқлик анча паст кўрсаткичда, яъни қизлар барча ёктирганларини ҳам чуқур севмаслиги натижасига кўра симпатиянинг пайдо бўлиши ҳам қизларимизда бироз қийин содир бўлиши билан ажралиб туради.

Одатда талабалар ўзларининг ички рухий оламида изтироб, қарама-каршилиқ ва масъулият онларини қанчалик бошидан кечирмасин, унинг эмоционал оламида, атроф-мухитдаги содир бўлаётган ходисаларнинг акс эттирилиши муҳим ўрин тутди. Айнан ўсмирлик ва ўспиринлик даврида бола қалбида ким биландир сирлашиш, кимнидир ўзига энг яқин киши сифатида тан олиш, уни рухиятида кечаётган барча ўзгаришлардан воқиқ қилиш истаги ва эҳтиёжини уйғотади. Биринчи марта “дўстлик”, “муҳаббат”, “севги” тушунчалари ҳам айнан шу даврда пайдо бўлади. Шунинг учун ҳам етуклик ва кексалик давридаги кишилар ҳам ўсмирлик ва ўспиринлик йилларини энг беғубор, жозибали ва ёқимли сифатида хотирлайдилар.

Кишининг бу каби такрорланмас тараққиёт даври яъни талабалик аттракция деб аталмиш хиссиётнинг пайдо бўлиши учун энг мақбул давр эканлиги билан ажралиб туради. Чунки, бир кўришда ёктириб қолиш, унинг хуснига ром бўлиш кабилар аттракциянинг дастлабки босқичи бўлиб, бу аслида одамлар онгидаги бир бидъатга, яъни чиройли одам ақлли ва ахлоқли бўлиши тўғрисидаги тасаввурларга бевосита боғлиқ бўлади. Бизга маълумки, оиладаги ижтимоий муносабатлар ва уларнинг келиб чиқиш қонуниятларини атрофлича монографик тарзда ўрганганлардан бири рус олими Л.Я. Гозман (1987) ҳисобланади. У бу қонуниятларни илмий жиҳатдан таҳлил этиш учун аттракция тушунчасини таҳлил қилади. Аттракция инглизча *attraction* – тортилиш, интилиш сўзларидан олинган бўлиб, у бир инсоннинг иккинчи бир инсонга нисбатан ҳис қиладиган ижобий муносабати асосида ёқиши ва ёктириши, ўзаро мойилликни тушунтирувчи эмоционал хисдир. Ҳар қандай ана шу зайлдаги диадик, яъни, диада – икки киши ўртасидаги муносабатларнинг бошланиши симпатия, ёктириш ёки аттракция, тортилиш-интилиш билан боғлиқ ҳолда амалга ошади дея таъкидлаб ўтади.

Тадқиқотчи Гозманнинг таъкидлашича, жуфтлик муносабатларида аттракцияга туртки бўлувчи омилларнинг энг муҳими – бу шерикнинг ташқи, жисмоний жиҳатдан ёқимтойлиги ва унинг ижтимоий-демографик хусусиятларидир. Айниқса, бундай тасаввур аёл-қизларга нисбатан қўлланилиши кўп бор ҳаётда исботланган. Аттракция – бир инсоннинг бошқа бир инсонга ижобий муносабати асосида ҳосил бўлувчи хис сифатида бир одамнинг бошқа бир одамга нисбатан шаклландиган ижтимоий установакаларининг бир кўриниши бўлиб, симпатия эса ёктириш дан тортиб, то севги муҳаббат каби чуқур эмоционал боғлиқликкача давом этиши мумкин бўлган инсоний туйғу сифатида эътироф этилади.

Ижтимоий психологияда ушбу хиссиётнинг асл сабаблари ижтимоий мотивлар – шерикларнинг бевосита битта макон ва замонда эканликлари, уларнинг тез-тез учрашиб туришлари, учрашувлар тезлиги, суҳбатдошлар ўртасидаги масофа, хиссиётларнинг тарбияланганлиги каби омиллар таъсирида пайдо бўлиши ва унинг кечиш механизмлари ўрганилади. Тадқиқотлар бу каби эмоционал муносабатлар айнан балоғат ёши арафасида ривожланишини исбот қилган. Шуниси аҳамиятлики, аттракциянинг намоён бўлиши, унинг кучи ва мазмуни ўсмир ва ўспирин – ёшининг шахс сифатида ўзини идрок қилиши, ўз-ўзини хурмат қилиши ва ўзгаларга нисбатан муносабатларда тоқатлироқ бўлишига

бевосита таъсир кўрсатар экан. Шунинг учун ҳам ана шу даврда ўсмир ва ўспирин атрофида у ёқтирган ва уни ёқтирадиган одамларнинг бўлиши жуда катта тарбиявий аҳамиятга эга бўлиб, унинг акси бола рухий азобланишининг сабабларидан ҳисобланади.

Дўстлик, ўсмирлик ва ўспиринлик ёшида пайдо бўладиган барча муаммоларни ечиш ва у билан ўртоқлашиш учун керакли бўлган ижтимоий ва табиий муносабатидир. Психолог тили билан айтганда, дўст – бу “алтер – Эго”, яъни иккинчи “Мен” бўлиб, у ўша пайтдаги “Мен”нинг бир қисми сифатида идрок қилинади. Бу шундай одамки, шахс у билан барча дарду – хасратларини мухокама қилади, муаммоларини унинг олдига тўкиб солади. Шунинг учун ҳам дўстликнинг бошқа интим, эмоционал хиссиётлардан фарқи шуки, у одатда бир жинс вакиллари ўртасида бўлади ва дўстлар одатда 2 киши, айрим ҳолларда 3-4 киши бўлиши мумкинлиги масаласи алоҳида қайд этиб қўйилади.

Француз психологи Заззо илк ўспиринлардаги, шу жумладан, ўсмирликда кечадиган дўстликка таъриф берар экан: “Бу давр энг сидқидил ва олижаноб даврдир” деган эди. Келтирилган олим фикрининг асл маъноси шуки, илк ўспиринлар энг пок дўстликка, яъни севгига эга бўлиб, гоҳо ундан норози бўладилар, изтироб чекадилар, чунки бу дўстлик муносабатлари жуда кўп зиддиятлар маконидир. Дўстликнинг ҳам кўзлаган мақсадлари бўлиб, у амалий, иш-фаолият билан боғлиқ, соф эмоционал (яъни, мулоқот эҳтиёжларини қондириш), рационал (интеллектуал муаммоларни ҳал қилишга асосланган), ахлоқий (ўзаро инсоний сифатларни такомиллаштиришга хизмат қилувчи) бўлиши лозим. Дўстликнинг асосий шарти – ўзаро бир-бирини тушунишдир. Шу шарт бўлмаса, дўстлик ҳақида гап ҳам бўлиши мумкин эмас. Агар ана шундай тушуниш бўлса, дўстлар гап – сўзсиз ҳам қилиқлар, юз ифодаси, юриш-туришга қараб ҳам бир-бирларини тушуниб олаверадилар.

Кўпинча икки жинс ўртасида содир бўлувчи дўстлик муносабатлари бўлажак севги муносабатларига кўприк вазифасини ҳам ўтаб келади. Севги, дўстлик ва аттракция намоён бўлишининг биринчи кўриниши бўлиб, севги эса ўз ўрнида қалблар яқинлашувининг муҳим аломатларидан биридир.

Севги – бу нафақат хиссиёт, балки бошқаларни сева олиш қобилияти ҳамда бошқалар учун севимли бўла олиш махорати ҳамдир. Шунинг учун ҳам ўсмирлар ва ўспиринлар ҳаёти ўзига хос психологик давр сифатида унинг таркибида бу каби хиссиётнинг борлиги жуда катта аҳамиятга эгадир. Айнан ўспиринлик ва талабалик давридаги севги беғубор, тиниқ ва самимий бўлиб, ёш ўтган сари унинг мазмуни бойиб, бошқа қадриятлар ҳам ўрин эгаллай бошлайди. Ўсмир билан ўспирин севгисида сифат жиҳатидан фарқларни кўриш мумкин. Ҳақиқий севги ўспиринлик даврининг охирларида том маънода айтганда талабалик йилларида пайдо бўлиб, унинг асосий мезони энди ташқи белги ва афзалликлар эмас, балки инсоний фазилатлар бўлиб хизмат қила бошлайди.

Одатда севган юрак маънавий жиҳатдан яхши, улуғ ва ижтимоий жиҳатдан манфаатли ишларни қилишга қодир бўлади. Тўғри, кўпчилик ота-оналар ўқувчилик йилларида пайдо бўлган севги ҳиссидан бироз чучийдилар, уни чеклашга, хаттоки, қизларга таъқиқлашни ҳам афзал кўрадилар. Севги – бу шундай туйғуки, у бир шахснинг иккинчи шахс устидан мутлоқ устунлиги ёки афзаллигини инкор этади. Шу боисдан ҳам бундай ҳиссиёт соф севги муносабатларига айланаолмайди. Шунинг учун ҳам ўспиринлик ёшидаги йигит ва қизлар гуруҳда мулоқотда бўлишни ва бунда тенг ҳуқуқли муносабатлар иштирокчиси бўлишни жуда хоҳлайдилар. Бу талаб севишганлар учун ҳам ўзига хос қонун ҳисобланади. Лекин, айнан шу ҳиснинг борлиги ёшларни улуғворроқ, самимийроқ ва ҳар ишга қодир ва кучлироқ қилиб тарбиялашда ўзининг муносиб ўрнини

кўрсатиб келмоқда. Севгида “иши юришмаганларнинг” эса бошқа сохаларда ҳам иши юришмайди. Натижада эса улар ўзларини тушкун, бахтсиз ва омадсиз инсон дея хисоблай бошлайдилар.

Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, таълимнинг барча босқичида маънавий тарбиянинг ажралмас бўлаги сифатида ана шундай самимий муносабатларни тарбиялаш, тарғиб этиш, керак бўлса, ёшларга ана шундай севги ва садоқат ҳақидаги кадрятларимизни сингдиришимиз керак. Севги ва мухаббат ҳислари кенг маънода – Ватанга, юртга, она халқимизга, она табиатга, касбга ва яқин кишиларимиз Отаналаримизга, опа-сингил, ака-ука ва барча сиблинг мақомига эга бўлган қонқариндошчилик муносабатларига шунингдек, маҳалла кўча-куй ва хоказоларга ҳам қаратилган бўлиши керак.

#### Адабиётлар

1. Шоумаров Ғ.Б., Шоумаров Ш.Б. Муҳаббат ва оила.— Тошкент, Ибн Сино», 1994. -120с.
2. Акрамова Ғ.А. Юқори синф ўқувчиларида севги-муҳаббат ҳислари намоён бўлишининг ижтимоий ва этнопсихологик хусусиятлари. Дис.п.ф.н., Т.: 1997, 184 б. Дис.п.ф.н., Т.: 1997, 184 б.
3. Akhmedov, V. (2022). Psychological characteristics of feelings of love. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1467-1470.
4. Ахмедов, Бахтиёр Турсунович. “Влияние среды на формирование социальных стереотипов в семейных отношениях”. Проблемы современной науки и образования 1 (146) (2020).
5. Ахмедов, Б. Т. (2018). Игра система внедрения инновационных учебных программ. Гуманитарный трактат, (29), 17-19.
6. Akhmedov, V. T. (2021). The Family as the Basic Unit of Society. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(12), 201-204.
7. Axmedov, V. (2022). МУҲАББАТ ҲИСЛАРИ БОСҚИЧЛАРИНИНГ ГЕНДР ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6).
8. Ахмедов, Б. Т. (2021). СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ ОИЛА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.27.84.079> Ахмедов Бахтиёр Турсунович, Термиз давлат университети Педагогика институти “Психология” кафедраси катта ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1-Махсус сон), 32-38.
9. Ахмедов, Б. Т. (2022). МУҲАББАТ ҲИСЛАРИ БОСҚИЧЛАРИНИНГ ЖИНСГА БОҒЛИҚ ХУСУСИЯТЛАРИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(10), 87-92.
10. Axmedov, V. (2023). TALABA YOSHLARNING OILAVIY MUNOSABATLAR TO 'G 'RISIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTANKAMLIGIGA TA'SIRI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(37).
11. Axmedov, V. (2023). SHARQ ALLOMALARINING QARASHLARIDA SEVGI-MUHABBAT TUSHUNCHALARIGA MUNOSABATLAR. *Interpretation and researches*, 1(22).

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING MATEMATIKA FANINI O'QITISHDAGI ROLI

**Sunatova Dilfuza Abatovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti, dotsent v.b

**Rasulova Ra'noxon Nematullo qizi**

Toshkent amaliy fanlar universiteti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada raqamli texnologiyalarning matematika fanini o'qitishda tutgan o'rnini haqida ma'lumot berilgan. Hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri matematika va AKT rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar muhokama qiligan.

**Kalit so'zlar:** matematika, AKT, texnologiya, ta'lim, dasturiy ta'minot tatematika ta'limi.

**Аннотация:** В статье представлена информация о роли цифровых технологий в обучении математики. Один из актуальных вопросов обсуждают исследования, направленные на развитие математики ИКТ

**Ключевые слова:** математика, ИКТ, технологии, образование, программное обеспечение, математическое образование.

**Abstract:** The article provides information about the role of digital technologies in teaching mathematics. One of the current issues is discussed in research aimed at the development of mathematics and ICT

**Key words:** mathematics, ICT, technology, education, software, mathematics education

Hozirgi kunda hech kimga sir emas, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida katta o'rin egallamoqda. Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimining barcha jabhalari, jumladan malaka oshirish tizimida online, masofaviy malaka oshirishning muqobil shakllari, maktablarda internet va masofaviy ta'lim, online, virtual ta'lim, virtual laboratoriyalar, 3D texnologiyalar ta'lim jarayonida ijobiy natijalar berib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'lim oluvchi yoshlarni ta'lim jarayonlarini qiziqarli o'tkazish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, texnik vositalardan madsadli, samarali foydalanishdagi muhim vazifalarni bajarib bermoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida pedagog har tomonlama rivojlanibgina qolmasdan, darslarda raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishni bilishi kerak. Bugungi kun yoshlari ziyrak bo'lib, o'z ustida ishlaydigan pedagoglarni osongina ajratib olmoqda. Dars ta'lim oluvchilarga faqatgina nazariy bilimlar bilan emas, balki turli o'yin ko'rinishlarida etkazilsa, samarali bo'lmoqda. Buning uchun ta'lim jarayonida samara beruvchi ko'plab kompyuter amaliy dasturlari va pedagogik dasturiy vositalar mavjud.

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkilashtirish uchun ma'lum bir shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak. Birinchidan, axborot resurslari bo'lishi kerak. Bularga

- ✓ shaxsiy kompyuter;
- ✓ proektor;
- ✓ multimedia vositalari;
- ✓ skaner (murakkab sxemalar va chizmalarni, negativ plyonkadagi tasvirlarni kompyuterga o'tkazish uchun);
- ✓ raqamli fotoapparat;
- ✓ video kamera (video konferinsiyalar o'tkazish uchun va yana boshqa maqsadlarda);

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

✓ printer, nusxa ko'chiruvchi qurilma (tarqatma materiallarni qog'ozga tushirish va ko'paytirish va yana boshqa maqsadlar uchun) va boshqa resurslar.

Ikkinchidan, maxsus dasturiy ta'minotlar hisoblanadi. Ta'lim tizimda multmediya elektron o'quv adabiyotlar, ma'ruzalar, virtual laboratoriya ishlari, har hil animatsion dasturlar va yana boshqa ishlarni yaratishda kerak bo'ladigan maxsus dasturlar hisoblanadi. Bu dasturlar juda ko'p bo'lib, misol uchun: Animatsion roliklar yaratish uchun Macromedia Flash MX dasturidan foydalaniladi. Multmediali taqdimot ma'ruzalarini yartishda hammamizga ma'lum bo'lgan Power Point dasturidan foydalaniladi.

O'quv jarayonlari uchun ko'rgazmali didaktik tarqatma materiallar va elektron ta'lim resurslarini tayyorlashga mo'ljallangan dasturlar: Edraw Max, Crossword Forge, Mind Maple, AvtoPlay, iSpringPro va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Ta'lim jarayonida foydalaniladigan dars vositalari (darslik, tarqatma materiallar, texnik vositalar va boshqalar) dars jarayonini qiziqarli va o'qituvchi hamda o'quvchilar uchun ko'plab imkoniyatlar beradi. Ushbu dasturlar yordamida pedagogik faoliyatda ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda foydalanish juda katta samara beradi.

Edraw Max dasturining asosiy vazifasi flaer va didaktik tarqatma materiallar tayyorlashdan iborat.

Matematika fanini o'qitish jarayonida misol, masallar, jadval va grafiklar bilan ish olib boriladi. Grafiklar va geometrik fazoviy jismlarning tasvirlari bilan ishlash, misol va masallar yechishda matematik paket dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bular: "Maple", "Mathcad", "Grafics", "Microsoft Matemates", "Geogebra" va boshqalardir.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar nafaqat matematikani o'qitishni osonlashtirdi, balki ta'lim oluvchilarning ushbu sohadagi bilimlarini chuqurlashtiradigan dasturlar va dasturiy ta'minotlar yaratilishiga ham asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda raqamli texnologiyalarni rivojlanishi har bir pedagogdan zamon bilan hamnafas bo'lishni talab etadi. AKT o'qitishni joriy etish va xususan, matematika fanini o'qitishga qaratilgan siyosatga qaramasdan, bugungi kunda o'qituvchilar o'tishlari lozim bo'lgan bosqichlarni imkon qadar tezroq olg'a siljitish alohida ahamiyatga ega. Buning uchun esa AKT lardan unumli foydalangan holda, dars sifatini ko'tarishga erishish kerak.

## REFERENCES

1. Maniyozov O.A. Matematika ta'limida raqamli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari //Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 10 | 2022 901-905
2. Nurullayev M.Q. Kompyuter terminlarining derivatsion tadqiqi // Conference Zone. 2022.
3. Boburjon, A., & O'G'Li, N. S. N. (2022). Axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda bolalarning matematika va fizika fanlaridan fikrlashlarini rivojlantirish. Ta'lim fidoyilari, 25(5), 121-124.
4. Shavkatovna, S. S. (2022). Matematika fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish haqida. Ta'lim fidoyilari, 22(7), 234-236. 4. G. Couros, The innovators' Mindset, San Diego, CA: Dave Burgess Consulting
5. Fayzullayeva Shahlo Alisherovna Matematika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish India international scientific online conference the theory of recent scientific research in the field of pedagogy 27-29 b.

## INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING INTERAKTIV ILOVALAR YARATISHDA MALAKASINI OSHIRISH TAMOYILLARI

*Orinbayeva A.O. - Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti,*

**Annotatsiya.** *Bo'lajak informatika o'qituvchilarining interaktiv ilovalar yaratishda malakasini va kompetentligi oshirish, o'quv jarayonini yaxshilash uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish masalalari keltirilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *integral ilovalar, tarbiya va ta'lim, raqamli texnologiyalar, texnik bilimlar, pedagogik mahorat, dizayn, kompetent.*

Integral ta'lim tizimi modellari har bir fan bo'yicha talab qilinadigan kompetensiyalarni turli o'lchovlar, jumladan texnologik, pedagogik, kontekstual va gumanistik jihatlaridan kuzatish va baholash imkonini beradi. XXI-asr asoslari talabalarning kelajakdagi raqabatbardosh ishchi kuchiga aylanishlari uchun egallashlari kerak bo'lgan ko'nikmalarni aniqlash uchun strategiyalarni taqdim etadi; shuning uchun pedagoglar oldiga mavjud kompetensiyalar va ta'lim usullari bunga erishish uchun mo'ljallanganligini tahlil qilish vazifasi qo'yiladi.

O'qituvchilar tarbiya va ta'lim bilan shug'ullanib, muddatidan oldin mehnat qilishi, kelajak natijasi uchun mehnat qilishi, uzoq va yaqin istiqbolni ko'rishi kerak. Bu vazifalar o'qituvchilar malakasini oshirishga yangi talablarni qo'yadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida qo'llanilib, keng ko'lamli vazifalarni bajarmoqda. Binobarin, o'qitishning eng muhim natijasi bu axborot kompetensiyasi bo'lib, uning shakllanishida axborot ta'lim muhiti muhim rol o'ynaydi va elektron ta'lim resurslari uning bir qismini tashkil qiladi

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining interaktiv ilovalar yaratish malakasini oshirishga quyidagi yondashuvlar orqali erishish mumkin:

1. Har tomonlama texnik bilimlar: Bo'lajak informatika o'qituvchilari dasturlash tillari, dasturiy ta'minot ishlab chiqish vositalari va ramkalari, shuningdek, interaktiv dizayn tamoyillari haqida yaxshi tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

2. Pedagogik mahorat: Bo'lajak informatika o'qituvchilari uchun interfaol ilovalarni o'qitish amaliyotiga samarali integratsiyalash uchun pedagogik mahoratni shakllantirish juda muhimdir.

3. Amaliy tajriba: amaliy amaliy tajribani taqdim etish bo'lajak informatika o'qituvchilari uchun interfaol ilovalar yaratishda o'z kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarurdir.

4. Uzluksiz kasbiy rivojlanish: Bo'lajak informatika o'qituvchilari eng so'nggi texnologiyalar va metodologiyalar bilan yangilanib turish uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanishlari kerak.

5. Hamkorlik va tarmoq: bo'lajak informatika o'qituvchilarini soha mutaxassislari, ekspertlar va boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish va aloqa o'rnatishga rag'batlantirish ularning malakasini oshirishi mumkin. Munozaralarda qatnashish, tajriba almashish va tengdoshlar va murabbiylardan fikr-mulohazalarni izlash ularning nuqtai nazarini kengaytirishi va interaktiv ilovalarni ishlab chiqish ko'nikmalarini yaxshilashi mumkin.

6. Reflektiv amaliyot: Bo'lajak informatika o'qituvchilari o'z ishlarini baholash va takomillashtirish imkoniyatlarini izlash orqali refleksli amaliyot bilan shug'ullanishlari kerak.

7. Talabalar uchun mo'ljallangan dizayn: Bo'lajak informatika o'qituvchilari interfaol ilovalar yaratishda talabalarga yo'naltirilgan dizayn yondashuvini qo'llashlari kerak.

8. Mavjudlik va inklyuzivlik: Bo'lajak informatika o'qituvchilari o'zlarining interfaol ilovalari qobiliyatlari yoki o'rganish uslublaridan qat'i nazar, barcha talabalar uchun ochiq va inklyuziv bo'lishini ta'minlashi kerak.

Ushbu yondashuvlarga e'tibor qaratgan holda, bo'lajak informatika o'qituvchilari interaktiv ilovalar yaratishda o'zlarining malakalarini oshirishlari va o'z talabalari uchun faol va qiziqarli ta'lim tajribasini rivojlantirish uchun texnologiyadan samarali foydalanishlari mumkin.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining interaktiv ilovalar yaratish malakasini oshirish bosqichma-bosqich amalga oshirilish maqsadida quyidagi qadamlarni bajarish kerak:

1. Aniq o'quv maqsadlarini belgilash: bo'lajak informatika o'qituvchilari uchun interaktiv ilovalar yaratish uchun zarur bo'lgan maxsus kompetensiya va ko'nikmalarni belgilang.

2. O'quv dasturini ishlab chiqish: texnik bilimlar, pedagogik mahorat va interfaol ilovalar yaratishning amaliy qo'llanilishini qamrab oluvchi kompleks o'quv dasturini ishlab chiqish.

3. Texnik ta'limni taqdim etish: dasturlash tillari, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish vositalari va interaktiv dizayn tamoyillariga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarini taklif qiling.

4. Pedagogik ta'limni integratsiyalash: bo'lajak informatika o'qituvchilariga ta'lim nazariyalari, ta'limni loyihalash tamoyillari va interfaol ilovalarni integratsiyalash uchun samarali o'qitish strategiyalarini tushunishga yordam berish uchun o'quv dasturiga pedagogik ta'limni kiritish.

5. Hamkorlikdagi loyihalarni rag'batlantirish: bo'lajak informatika o'qituvchilari interaktiv ilovalar yaratish uchun jamoalarda ishlashlari mumkin bo'lgan hamkorlik loyihalarini tayinlang.

6. Mentorlik va fikr-mulohazalarni taqdim etish: bo'lajak informatika o'qituvchilariga o'quv safari davomida yo'l-yo'riq ko'rsatish va ularga fikr-mulohaza bildirish uchun murabbiylar yoki tajribali informatika o'qituvchilarini tayinlang.

7. Amaliy tajribaga ko'maklashish: Bo'lajak informatika o'qituvchilariga stajirovka, sanoat hamkorliklari yoki real sharoitlarda loyihalarni amalga oshirishga yordam berish orqali amaliy tajriba orttirish imkoniyatini yarating.

8. Kompetensiyani baholash va baholash: bo'lajak informatika o'qituvchilarining testlar, loyihalar va baholashlar orqali interfaol ilovalar yaratish malakasini muntazam ravishda baholash.

9. Uzlüksiz kasbiy rivojlanish: Bo'lajak informatika o'qituvchilarini interaktiv ilovalarni ishlab chiqishga qaratilgan seminarlar, konferensiyalar va onlayn kurslarda qatnashish orqali uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanishga undash.

10. Mulohaza va o'sishni targ'ib qilish: Bo'lajak informatika o'qituvchilarini interfaol ilovalar yaratishda o'z tajribalari haqida fikr yuritib, o'sish va takomillashtirish imkoniyatlarini izlashda aks ettiruvchi amaliyot bilan shug'ullanishga undash.

Ushbu bosqichlarni bajarib, bo'lajak informatika o'qituvchilari interaktiv ilovalar yaratishda o'zlarining malakalarini oshirishlari va texnologiyani o'qitish amaliyotiga samarali integratsiya qilish uchun yaxshiroq tayyorlanishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Condruz-Bacescu, M. (2020). Promoting open education and free educational resources. In: *eLearning and Software for Education Conference (pp. 305–311)*. London: National Defence University Publishing House. DOI: 10.12753/2066-026X-20-039]

2. U.Yuldashev, M.Mamarajabov va S.Tursunov "Pedagogik Web-dizayn" darslik, T-2013 yil.



3. Andreas Schwill. Fundamentale Ideen der Informatik [Fundamental Ideas of Computer Science]. Zentralblatt für Didaktik der Mathematik 1 (1993) 20–31. Online version (English): <http://juniorstudium.cs.uni-potsdam.de/Forschung/Schriften/EATCS.pdf>.
4. Ziyomhammadov B. va boshk. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T., 2000.
5. Юлдашев У.Ю., Боқиев Р.Р., Зоқирова Ф.М. Информатика ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент. «Талқин» 2004. 187-б.

## **МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING BA'ZI XUSUSIYATLARI HAQIDA**

**Jumayeva Hurmatoy Xolmurotovna**

Buxoro Muxandislik – texnologiya instituti

“Oliy matematika” kafedrası o'qıtuvchisi.

[jumayeva.hurmatoy@mail.ru](mailto:jumayeva.hurmatoy@mail.ru)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika ta'limida raqamli texnologiyalarning afzalliklari haqida ma'lumot berilgan. Dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalangan holda hisoblash va savodxonlik bo'yicha samarali metodlarni o'rganishga qaratilgan. Talabalarning o'zlashtirishiga oid ba'zi dastlabki xulosalar va dars kuzatishlari haqida xabar berilgan. Bu yerda funksiyani teskarilashuvchanlikka tekshirishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar muhokama qiligan.*

***Kalit so'zlar:** Raqamlashtirish, AKT, texnologiya, ta'lim, funksiya, teskarilanuvchi funksiya.*

Mamlakatimizda ro'y berayotgan buyuk o'zgarishlar va rivojlanish odimlari, ayniqsa oliy ta'limda o'qitishning turli faol metodlaridan foydalanishni talab etadi.

Ta'limda interaktiv usullardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilardan katta tayyorgarlikni, auditoriya hamda talabalar guruhidagi muhitni o'zgartirishni talab etadi.


Albatta, har bir jarayon natijasi undan kutilgan maqsadni aniqligi va maqsadga erishish yo'llarining qanchalik aniq ko'rsatilishiga ham bog'liqdir.

Hozirgi kunda matematika darslarida kompyuterdan foydalanish yaxshi samara bermoqda. Maktab davridan kompyuterdan unumli faydalana olish, ko'p jihatdan hozirgi talabalarning kelajakdagi kasbiy tayyorgarligi muvaffaqiyatini belgilaydi. Kompyuter, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi elektron vositachiga aylanadi.

Demak, matematika o'qituvchisi oldida yangi muammolar paydo bo'ladi, u yangi texnikalarni o'zlashtirishi va zamonaviy axborot o'quv muhitidan foydalanish asosida yangi o'qitish usullarini ishlab chiqishi kerak bo'ladi.

Darsda axborot texnologiyalaridan foydalanish qiyin va mas'uliyatli masaladir, chunki u darsni o'tkazishning mavjud texnologiyasiga bog'liq va darsda o'quv vaqtidan samarali foydalanishi kompyuter uskunalari va dasturiy ta'minoti bilan bog'liq. Raqamli ta'lim resurslari sifatida raqamli fotosuratlar, videokliplar, statik va dinamik modellar, virtual haqiqat va interaktiv modellashtirish ob'ektlari, ovoqli yozuvlar, ramziy ob'ektlar va biznes grafikalar, matnli hujjatlar va boshqa o'quv materiallari o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'ladi.

Matematikani o'qitish jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan turli shakllarda foydalanish mumkin: taqdimotlar; tayyor o'quv va ko'rgazmali dasturlar; loyiha faoliyati; tadqiqot faoliyati; darsdan tashqari mashg'ulotlar. Darsda kompyuterdan mohirona foydalanish orqali o'qituvchi



katta hajmli ma'lumotlarni qiziqarli va ko'rgazmali tarzda taqdim eta oladi. Kompyuterdan foydalangan holda darslarda talabalarning kayfiyati ko'tariladi, fanga qiziqishi ortadi, diqqati jamlanadi. Raqamli tarkibli darslarni o'qitishda o'qituvchi ko'plab qo'shimcha materiallarni qamrab olishi mumkin.

Talabalarning o'zlari informatika darslarida taqdimotlarni ishlab chiqishda ishtirok etishadi va o'rganishadi hamda matematika darslariga tayorgarlikda undan foydalanish uchun o'qituvchisiga murojaat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, ular o'zlarining dizayni uchun estetik didni rivojlantiradilar. Ushbu yondashuv o'qituvchi

va talabalar o'rtasidagi muloqot uchun foydalidir, bu esa, talabalar o'rtasida juftlik, grappa bo'lib ishlashda, xususan, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydalidir.

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishni talab etmoqda.

Yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullarning asosiy xususiyatlaridan biri, ta'lim oluvchilarga bilimni tayyor holda emas, balki qayta kashf etish orqali berishni talab etadi.

Haqiqatdan inson o'z faoliyatida tajriba, izlanish va o'rganish orqali olgan ma'lumotlarnigina bilim deb atash mumkin.

Ma'lum bir mavzuni, undagi qonun va qonuniyatlarni ta'lim oluvchilarning o'zlari qayta kashf etishlarini tashkil etish o'qituvchilardan jiddiy ilmiy – metodik va pedagogik tayorgarliklarni talab etadi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda fanlararo aloqa katta ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda biz matematika fanini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan oddiy bir misol keltirib o'tmoqchimiz.

Maktab matematika kursida funksiya tushunchasi kiritilar ekan, funksiyaning aniqlanish sohasi bo'lgan  $X$  to'plam va qiymatlar sohasi  $U$  to'plamlarning elementlariga hech bir cheklanishlar qo'yilmasada, butun kurs davomida asosan sonli funksiya qaraladi va o'rganiladi.

O'quvchilar funksiya tushunchasini, uning ba'zi xossalarini o'rganishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ana shunday xossalardan biri funksiyalarning teskarilanuvchanligidir.

Endi biz shu xossani o'rganishda fazoviy jismlarni tekislikka proyeksiyalash funksiyasini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Funksiyaning aniqlanish sohasi sifatida  $X$  fazoviy jismlar to'plamini, uning qiymatlar sohasi  $X$  tekislikdagi yassi geometrik shakllar to'plamini hamda  $f - 3$  o'lchamli fazoni  $2$  o'lchamli fazoga akslantirishni olamiz.

Doira, konus, shar, silindr singari jismlar ma'lum shartlarni qanoatlantirganda ularning tekislikdagi proyeksiyasi doiradan iborat bo'lib qolishini ko'rishimiz qiyin emas.

Agar bu funksiyaning teskarilashuvchanlikka tekshirmoqchi bo'lsak, u holda tekislikdagi doiradan, yuqorida ta'kidlangan jismlarni tiklash mumkin emasligini ko'rish qiyin emas, bu esa keltirilgan funksiyaning teskarilanuvchi emasligini bildiradi.

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Analitik jihatdan esa bu akslantirish o'zaro bir qiymatli bo'lmaganligi sababli, funksiyaning teskarilanish sharti bajarilmaydi.

Xuddi shunday ikki o'lchovli tekislikdagi ixtiyoriy egri chiziqning sonlar o'qiga proyeksiyasi kesmadan iborat bo'ladi.

Umuman olganda bilimlarni qayta kashf etilishi orqali egallanishini tashkil etish ushbu bilimlarning haqqoniy va chuqur bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimiga raqamli, informatsion texnologiyalarni joriy etishni yanada shakllantirish maqsadida Buxoro Muhandislik-texnologiyalari instituti «Oliy matematika» kafedrasida «Raqamli texnologiyalar asosida matematika fanlarini o'qitish muammolari» mavzuida chuqur ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bu maqsadda kafedra professor-o'qituvchilari ta'lim jarayonida o'qitishning turli innovatsion hamda interaktiv usullaridan keng foydalanib kelmoqdalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qobil o'g'li, Nurullayev Mirzabek. "Kompyuter terminlarining derivatsion tadqiqi" Conference Zone. 2022.
2. Boburjon, A., & O'G'Li, N. S. N. (2022). Axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda bolalarning matematika va fizika fanlaridan fikrlashlarini rivojlantirish. Ta'lim fidoyilari, 25(5), 121-124.
3. N.P. Rasulov, I.I. Safarov I.I., R.T. Muxitdinov "Oliy matematika" (Iqtisodchi va muhandis-texnologlar uchun). Toshkent-2012

## **IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI YOSHLAR ONGIGA TA'SIR QILUVCHI TAHDIDLAR**

**Madaminova Nargiza Zuxridinovna**

Fan va texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedراسi mudiri

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bugungi kundagi ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi ma'naviy tahdidlar, jumladan din niqobi ostidagi tahdidlar va ularni oldini olish yo'llari haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Internet, kibbermakon, ijtimoiy tarmoq, tahdid, real hayot, virtual hayot, kibberhijum, kibberhimoya, yoshlar, axborot, din, buzg'unchi g'oya, media, axborot savodxonligi.*

**Аннотация:** *В данной статье описаны духовные угрозы, которые воздействуют на сознание молодежи в современных социальных сетях, в том числе угрозы под маской религии, и пути их предотвращения.*

**Ключевые слова:** *Интернет, киберпространство, социальная сеть, угроза, реальная жизнь, виртуальная жизнь, кибератака, киберзащита, молодежь, информация, религия, подрывная идея, СМИ, информационная грамотность.*

**Abstract:** *This article describes the spiritual threats that affect the consciousness of young people in modern social networks, including threats under the guise of religion, and ways to prevent them.*

**Key words:** *Internet, cyberspace, social network, threat, real life, virtual life, cyber attack, cyber defense, youth, information, religion, subversive idea, media, information literacy.*

Jahonda axborotning ijtimoiy fikrni shakllantirishi va texnologik taraqqiyotga ta'siri tobora faollashayotgan hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va roli kuchayib bormoqda. Hozirgi vaqtda «dunyo aholisining 58,8%i Internet **tarmog'idan foydalanadi**, u o'zaro bog'langan axborot dunyosini tubdan o'zgartirdi, mamlakatlar, mintaqalar, xalqlar va avlodlar o'rtasidagi chegaralarni yo'q qildi va u yoshlar hayotida juda katta ahamiyat kasb etadigan jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda»<sup>30</sup>. Shu bois, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, axborotni muhofaza qilish va xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash masalalariga alohida e'tibor qaratish hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biridir. Dunyoda axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari jadal sur'atda insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy intellektual hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fanlar tizimida "ijtimoiy tarmoq" iborasi birinchi bor Jon Berns<sup>31</sup> (Jn A. Barnes) tomonidan 1954 yilda kiritilgan.

Internet tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlarning asosiy foydalanuvchilari yoshlar ekanligi, internet tizimi tomonidan taqdim etilayotgan tezkor aloqa imkoniyatlari yoshlarga mo'ljallangan saytlarni jadallik bilan rivojlanishiga olib kelmoqda. Bunday kommunikativ imkoniyatlar yoshlarning internet imkoniyatlariga ishonchini oshirdi, ularning xorijiy mamlakatlarda istiqomat qilayotgan hamkorlari, do'stlari, hamkasblari, qarindoshlari va izdoshlari bilan sifatli aloqa vositasi rolini bajardi. Shu bilan birga yoshlarning muayyan qismi internet tarmog'ida bo'sh vaqtlarini o'tkazish salbiy mazmundagi axborotlarni, demokratik jamiyat rivojlanish tendensiyalariga zid bo'lgan, buzg'unchi g'oyalarni tarqatayotgan saytlar ta'siriga tushishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuv va axborot bosimi muttasil oshib borayotgan davrda ayrim xorij davlatlar hududida zararli ta'sirga tushib qolgan yoshlar faoliyatini tasvirolovchi, ularning tajovuzkorlik, bosqinchilik, jinoyatchilik, giyohvandlik, buzg'unchilik faoliyatini tashviqot qiluvchi ma'lumotlarga ega bo'lgan internet saytlarining soni ortib bormoqda. Internet tarmog'ida ma'naviy buzuqlik va turli g'arazli maqsadlarni, konstitutsion tizimga qarshi, demokratik jamiyat qurish talablarini inkor etishni targ'ib qiluvchi, tinch osoyishta ijtimoiy, iqtisodiy turmushni buzishga undovchi ishlar bilan shug'ullanayotgan internet saytlar soni oshib bormoqda.

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar asta-sekin yoshlar ijtimoiylashuvida kiber qaramlikni rivojlantirishi oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, virtual hayot haqiqiy qadriyatlarni chetda qoldirib internet madaniyatining ta'siri kuchayadi.

Bugungi kunda kibermaydonlar xalqaro terrorchi tashkilotlar a'zolarining o'z maqsadlariga erishish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. "Kibermakon"da din niqobidagi "kiberhujum"lar kuchayib bormoqda. Din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to'ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan IShID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidi to'g'risida Aydarbek Tulepov o'zining "IShID fitnasi" kitobida quyidagi ma'lumotlarni beradi. IShID o'zining internet orqali go'yo Islom yo'lida "qurbon" bo'layotgani aks etgan videolavhalari va fotosuratlari "al-Hayot" media studiyasida tayyorlanadi va internetga joylashtiriladi.

<sup>30</sup><http://infocom.uz/2018/01/22/opublikovany-samyepopulyarnye-servisy-prilozheniya-i-telefon-internet-polzovatelej-uzbekistana>

<sup>31</sup> Barnes J.A. Class and committees in Norwegia Island Parish//Human Relation. New York. 1975.

Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, "Odnoklassniki", "Facebook", "Instagram", "Twitter", "VKontakte" ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritish ularning asosiy maqsadidir. Kitobda din niqobi ostidagi "rahnamolar" haqida ham yoziladi. Bular, Muhammad ibn Abdulvahhob, Hasan al-Banno, Sayyid Qutb, Muhammad Ilyos Kandehlaviy, Taqiyuddin Nabahoniy, Abdul Qadim Zallumlarning yoshlar ongiga kuchli ta'sir o'tkazadigan: "Xudo-idealimiz, payg'ambar-dohiyimiz, Qur'on-konstitutsiyamiz, jihod-vositamiz, din va Xudo yo'lida qurbon bo'lish-ezgu orzuimiz",- kabi jarangdor shiorlari aslida soxta bo'lib, g'arazli maqsadga erishish yo'lidagi niqobdan boshqa narsa emas.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ongi va ruhiyatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Qisqa yo'l, ko'pincha ekstremistik xarakterda bo'luvchi – eng yaxshi yo'l emasligini bilish uchun bilim va hayotiy tajriba lozim.

Ekstremistik mafkura ta'siriga tushib qolgan yosh yigit-qizlardagi asosiy belgilar: Uning xatti-harakatlari keskin yoki qo'pol bo'lib qoladi, noodatiy yoki jargon leksika shakllanadi;

ma'lum bir submadaniyat qoidalariga mos ravishda birdan kiyinish uslubi va tashqi ko'rinish o'zgaradi;

Kompyuterida siyosiy-ekstremistik yoki ijtimoiy-ekstremal mazmundagi fayllar, rolik yoki tasvirlar ko'payib boradi;

xonadonda tushunarsiz yoki noodatiy timsol va atributlar, qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan sovuq predmetlar paydo bo'la boshlaydi;

U kompyuterda ko'p vaqt o'tkazib, maktab, oliy ta'lim, badiiy adabiyotga, film, kompyuter o'yinlariga aloqador bo'lmagan ta'lim bilan shug'ullanadi;

Siyosiy va ijtimoiy mavzularda ko'p gapira boshlaydi, bunda sabrsizlik hamda keskin mulohazalar kuzatiladi;

Biz bu kabi din niqobi ostidagi yoshlarda internet orqali salbiy xarakter shakllantirishga harakat qilayotganlarning "kiberhujum mexanizmi"ga qarshi yosh avlodni asrashimiz uchun "kiberhimoya mexanizmi"ni quyidagicha qo'llash mumkin:

**birinchidan**, internetda berilayotgan ma'lumotlarni "filtrlash" yoki yoshlarda "filtrlay" olish qobiliyatini shakllantirish;

**ikkinchidan**, internet ma'lumotlarga yoki kompyuterga qiziquvchi yoshlarga doimiy ravishda salbiy saytlar va ularning oqibatlarini to'g'risida kerakli ko'rsatmalar berib borish;

**uchinchidan**, joylarda ota-onalar uchun doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borish;

**to'rtinchidan**, maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti pedagog jamoasi, o'quvchi va talabalar orasida internet hujumlari va internet savodxonligi bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil qilish;

**beshinchidan**, maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida internet savodxonligi bo'yicha maxsus kurslar o'qitilishi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida maktab, litsey, kollejlarda va oliy ta'lim muassasalari uchun o'qituvchilar tayyorlanishini hisobga olib, fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, "Kibermakondagi diniy ma'lumotlar va kiberterrorizm" maxsus kurs yoki fanlarning ishchi fan dasturlariga alohida mavzu shakllantirib kirgizish maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan, bugungi kunda biz, ya'ni barcha yoshlar internet tarmoqlaridagi bunday tahdidlardan ogoh bo'lishimiz, buning uchun esa media va axborot savodxonligiga ega bo'lishimiz hayotiy zaruratdir!

### **ТАРМОҚЛИ ВИРТУАЛ КЛАСТЕР МИЛЛИЙ ИННОВАЦИОН ТИЗИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРИ СИФАТИДА**

**Ахметжон Атажанович Маматов**

ТМИ профессори

**Азамат Файзуллаевич Хуррамов**

ҚМШИ профессори

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини трансформация жараёнини бу - анъанавий таълимдан янги инновацион таълим тизимга ўтиш жараёнидадир. Миллий лойиҳада университетларнинг ўзаро кластерли ҳамкорлигига алоҳида эътибор берилди, чунки замонавий таълим тизими индивидуал таълим траекторияларини танлаш имкониятини назарда тутди. Бу эса ўз навбатида университетларга ҳар доим ҳам индивидуал таълим билан мустақил равишда ҳал эта олмайдиган янги талабларни қўймоқда. Бироқ тақдим этилаётган таълим хизматлари сифати ва самарадорлигини ошириш ва таълим олувчиларда зарур кўникма ва компетенциялар тўпламини шакллантириш учун бир нечта университетларнинг ҳамкорликдаги саъй-ҳаракатларини талаб этилади.

Масофавий таълим технологиялар ёрдамида ўзаро алоқалар таълим дастурларини амалга оширишда тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлик тажрибасини муваффақияти деб ҳисоблаш мумкин. Педагогик таълим соҳасида университетларнинг тармоқли ҳамкорлиги таълим сифатини ва самарадорлигини оширишнинг янги имкониятларини очиб беради<sup>32</sup>.

Олий таълим тизимининг рақобатбардошлигини ошириш учун Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги<sup>33</sup> қонун билан тартибга солинадиган тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлик кўламини ошириш муҳимдир. Бу Республикада университетлар томонидан ҳамкорликда амалга оширилаётган таълим дастурлари ва технологиялар ҳажмининг кўпайиши, шунингдек, тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлик орқали ташқи бозорларга, шу жумладан хорижий олий ўқув юртлири билан Республикада ОТМларининг алоқа ўрнатиш орқали амалга ошади. Бу жараёнга ОТМларда, айниқса махсус ва мутахассислик фанлари бўйича хорижий тилларни биладиган ўқитувчилар етишмаяпти. Қўшма халқаро таълим дастурлари профессор-ўқитувчиларнинг, шу жумладан хорижий университетларнинг тизимли малакасини оширишга зарурият сезмоқда<sup>34</sup>.

Концепцияда ОТМларининг ўқув, илмий ва бошқарув жараёнларини ахборотлаштиришга қаратилган маълумотлар базаларини, ахборот тизимларини яратиш, улардан фойдаланиш, хизматлар кўрсатиш ҳамда бошқа ахборот тизимлари билан

<sup>32</sup> Реморенко, И.И. Перспективы применения сетевой формы реализации образовательных программ в сфере педагогического образования / И.И. Реморенко, А.И. Рожков // Вестник Герценовского университета. - 2014. - № 3-4. - С. 19-24. - <https://lib.herzen>.

<sup>33</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни ЎРҚ-637-сон 2020 йил 23 сентябрь

<sup>34</sup> Хақимов Н.Х. Совместные международные образовательные программы как важная форма подготовки высококвалифицированных кадров в Узбекистане. Журнал Иқтисодиёт ва таълим / 2021 № 1. -182.

интеграция қилинадиган олий таълим муассасасининг “СМАРТ университет” ягона платформасининг асосий тамойилларини белгилаб беради<sup>35</sup>. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизими учун мобиллик, эгилувчанлик ва ҳаракатчанликка трансформациялаш жуда қийин, бироқ бугунги кунда нафақат мамлакатнинг етакчи университетлари, балки минтақавий университетлар ҳам таълим фаолиятини ташкил этиш ва шакллари аста-секин босқичма-босқич такомиллаштириб бориб давлат ва жамият талабларига жавоб бериб бермоқда.

Бугунги кунда иқтисодий рақамлаштиришнинг замонавий даврида битирувчиларга қўйиладиган талаблар ва мутахассисларни тайёрлаш сифати ўзгариб бормоқда. Жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги ўзгаришларнинг тезлигини ҳисобга олган ҳолда, фақат меҳнат бозорининг бугунги кундаги талабларига ва бугунда талаб қилинадиган мутахассисликларга эътибор қаратиш жуда хавфлидир. XXI асда касбга йўналтириш инструментларидан бири бўлиб “янги касблар атласи” хизмат қилиши мумкин. Бу Skill Technology Foresight методикаси асосида яратилган истиқболли касбларнинг прогнозидир. Китоб таҳлили шуни кўрсатдики, яқин истиқболда кўплаб университетлар мутахассислар тайёрламайдиган янги касбларга талаб пайдо бўлади: Уларга биоэтик, рақамли ҳунарманд, техномедиатор, прораб-вотчер, шаҳар объектларининг ҳаёт циклини бошқарувчи, молиявий секторда киберхавфсизлик бўйича таҳлилчи ва бошқалар.

ОТМ профессор-ўқитувчилари учун қўшимча талаблар пайдо бўлади, хусусан, лойиҳаларни бошқариш, риск ва ноаниқлик шароитида меҳнат қилиш, тармоқлараро алоқа коммуникацияга эга бўлиш, танқидий фикрлаш ва эътиборни бошқариш кўникмаларига эга бўлиш. Университетлар учун ҳозирги бозор талабларига жавоб бериш, бозор талабларига ўз вақтида мослашиш ва иқтисодий томонидан талаб қилинадиган мутахассисларни тайёрлаш муҳимдир. Атлас-бу келажакдаги касбларга бўлган талабнинг векторини белгилайдиган навигаторнинг бир тури, бу университетлар учун тегишли таълим дастурларини шакллантиришга, бозорнинг ўзгарувчан талабига мослашиш учун мавжуд таълим дастурларига ва технологияларига ўзгартиришлар киритишга ёрдам беради.

Университетлар ўртасидаги тармоқли виртуал кластерли ҳамкорликга кириш жараёни кириш параметрлари, ўзаро ҳамкорлик жараёни ва чиқиш параметрларини ўз ичига олган мураккаб тизимдир (қаранг 1. расм).

Кириш параметрлари қаторига сиёсий институтларни, иқтисодий тизимни, ҳуқуқий ва ижтимоий институтларни университетлар ўртасидаги тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлиги жараёнига таъсир қилувчи асосий омиллар сифатида киритишни муҳим деб ҳисоблаймиз. Сиёсий институтларни ҳисобга олган ҳолда, биз давлат бошқарув институтини қайд этамиз. Университетларнинг ривожланишида кўп жиҳатдан давлат томонидан олиб борилаётган давлат сиёсати билан белгиланади. Ҳуқуқий институтлар тармоқли тузилмалар учун ҳуқуқий майдон ва асос яратади, уларсиз уни амалга ошириш мумкин бўлмайди. Иқтисодий тизим мутахассисларга, иш ҳақи динамикасига ва бошқаларга бўлган бозор талабларини очиб беради. Ижтимоий институтлар ахлоқий нормалар, ўрнатилган анъаналарни ва ҳоказолар билан шаклланади ва жамланади. Улар университетларни тўғридан-тўғри ўзаро ҳамкорлик жараёнини ташкил этишга сезиларли таъсир кўрсатади.

---

<sup>35</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги маълумотлари.



### 1. Расм. Университетларнинг тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлик алоқаларини моделлаштириш<sup>36</sup>

Тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлик жараёни ОТМларда инсон ресурслари, ахборот ресурслари, моддий-техника ресурслари, шунингдек, ижтимоий ресурслар каби элементларни киритишни белгилайди. Университетлар мавжуд тегишли ресурслардан тежамкор фойдаланиш имкониятига эга бўлади.

Инсон ресурсларидан ҳамкорликда фойдаланиш таълим дастурларини ва технологияларини амалга ошириш жараёнига юқори малакали мутахассисларни жалб қилишга имкониятини беради, бу эса таълим сифатини яхшилади. Муҳим таркибий қисми моддий-техник ресурслар ташкил қилади. Бу лабораториялар, ўқув-услугий ҳужжатлар ва ихтисослаштирилган бинолар. Ахборот ресурслари-бу бир нечта университетларнинг маълумотлар базалари жамланган электрон кутубхоналар, ўқув жараёнида замонавий электрон адабиётлардан фойдаланиш имкониятидир. Ижтимоий ресурслар-бу шаклланган тажриба, билим, кўникма ва тажрибаларни алмашиш имконини берадиган яхши ташкил этилган шериклик асосидаги ҳамкорликдир.

Ушбу моделнинг чиқиш қисмида иштирокчилар: янги таълим технологиялари; академик мобилликни кенгайтириш; таълим сифати ва самарадорлигини ошириш, таълим дастурлари номенклатурасини кенгайтириш, рақобатбардошликни ошириш имкониятларига эга бўлади. Шу билан бирга, университетларнинг тармоқли виртуал кластерли ҳамкорлигини амалга оширишда қатор муаммолар ҳам вужудга келади.

Республикамиз Олий таълим тизимини таҳлил қилиб, университетлар бир-бири билан ҳамкорлиги даражаси таълаб даражасида эмас деган хулосага келишимиз мумкин. Шу билан бирга, "тизим" сўзининг ўзи унга кирган элементларнинг яқин ҳамкорлик алоқасини англатади. Ўзаро ҳамкорликнинг етарли даражада эмаслиги университетлар даражасида ҳамда, университетлар ўртасида ҳам содир бўлмоқда. Шу билан бирга, талабаларнинг фанга, илмий тадқиқот ишларига етарли даражада жалб этилмаганлиги эътиборни қаратади, бу эса илмий тадқиқот ишларига қизиқишнинг етарли даражада эмаслиги билан боғлиқ. Бу ҳақда мухтарам Президентимиз қуйидагиларни таъкидлаб ўтдилар: "Хорижий мамлакатлар билан қўшма таълим дастурлари доирасида 64 та янги касб бўйича мутахассислар тайёрлаш йўлга қўйилди. Профессор-ўқитувчиларнинг маоши ўртача 3,5 бараварга оширилди. Лекин сифат борасида ўзгаришлар ҳали сезилмаяпти"<sup>37</sup>.

<sup>36</sup> Муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган.

<sup>37</sup> Ш.Мирзиёев раислигидаги видеоселектор йиғилиши. Олий таълим тизимидаги устувор вазифалар. 16 июнь 2021й. <https://president.uz/>



**TILLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING  
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI**

---

**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNI  
SHAKLLANTIRISH**

**Turaboyeva Sitara**

Fan va texnologiyalar universiteti "Tillar" kafedrası  
katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d., dotsent v.b.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni takomillashtirish haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, chet tillari dars jarayonida madaniy muloqotlar xususiyatlari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** xorijiy tillar, madaniyat, ma'naviyat, madaniyatlararo muloqot, metodika, ta'lim tizimi.*

Til o'rganish nafaqat alifbo, lug'at va grammatikani o'z ichiga olgan murakkab jarayon bo'lib, balki matn mazmunini, masalan, xulq-atvor va madaniy me'yorlarini o'rganishni o'z ichiga qamrab olishi za'rur. Yangi axborot texnologiyalari tufayli ish jarayonlari, kundalik hayot tarzi, ta'lim va kundalik muloqot jarayonlarida madaniyatlararo o'zaro ta'sirning barcha xususiyatlari ko'z o'ngimizda o'zgarib bormoqda. Masalan, o'quvchilar qandaydir yangi tilni o'rganayotganlarida yangi til mazmuni haqida va bu tilni o'rganish jarayonida ushbu til xususiyatlari bilan birgalikda madaniyat bilan ham bevosita muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Har qanday tilni o'rganish uchun ular nafaqat tilni, balki u bilan bog'liq barcha xususiyatlarni: joy, makon, tarix va madaniyatni o'rganish jarayonidan o'tadilar. Shunday qilib, ular tilda gaplashish orqali o'sha til madaniyatiga, ya'ni til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchi va mohiyatiga avtomatik ravishda singib ketishlari mumkin. Shuning uchun Gao, Tang va Xu kabi tilshunoslar "Til - bu madaniyat va bu ikki atama bir-biri bilan chambarchas bog'liq" degan qat'iy fikr bildirgan edi. Brok va Nagasaka kabi boshqa mutaxassislar til o'rganishning barcha bosqichlarida madaniyatlararo yoki pragmatik kompetensiyani hisobga olish kerakligini ta'kidlaydilar. Ushbu dastur o'rganilayotgan xorijiy til o'rganuvchilarni ijtimoiy ko'nikmalarga ega qila oladi, chunki o'quvchilar bu ko'nikmalar orqali ijtimoiy aloqa o'rnatadilar va bu borada muvaffaqiyatga erisha oladilar. Til aloqa vositasi va madaniyat birligi sifatida qo'llaniladi. Ingliz tili o'qitish tizimi sohasida til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga oid ikki qarama-qarshi nuqtai nazar mavjud: birinchi qarashda til va madaniyat uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Ushbu fikr Biram va Grandi tomonidan 2003-yildagi maqolasidan olingan. "Biroq ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra, ingliz tilini o'qitish madaniy kontekstlaridan individual ravishda o'rganish kerak", - deb ta'kidlanadi Sardingning "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali №12 34 2002- yildagi kitobida. Ushbu mashhur munozaralar til va madaniyat tushunchalari bir-biriga bog'langan yoki bog'lanmaganligini ko'rib chiqadi. Til va madaniyat ajralmas tushunchalardir. Madaniyat tushunchasini o'quv dasturining asosiy mavzusi sifatida tushunmaslik kerakligi haqida berilgan eng so'nggi bahs 2003-yilda Bennet va boshqalar tomonidan taqdim etilgan. Ushbu olimlar madaniyat tushunchasini til o'qitish jarayonidan chetlatish uchun bir nechta noto'g'ri fikrlarni sanab o'tishgan. Birinchidan, ular til o'quv dasturlari allaqachon ishlab chiqilgani va uni butunlay o'zgartirib bo'lmasligini aytishadi. Shunday ekan, xorijiy til o'quv dasturiga madaniyat tushunchasini kiritish uchun o'quv dasturida

qo'shimcha joy yo'q deb hisoblashadi. Ikkinchidan, ko'pgina o'qituvchilar uchun biror bir xalqning madaniyatini o'rgatish til o'rgatishdan ko'ra qiyin tuyuladi. O'qituvchilar odatda madaniyatlararo kompetensiyani o'rgatishga tayyor emasliklarini his qiladilar, shu tufayli madaniyat bilan bog'liq holatda o'qitish tajribasi deyarli yo'q. "Ular tajribaga ega bo'lgan taqdirda ham madaniyat tushunchasi va u haqidagi fikrlar o'zgarib turadi", deya fikr yuritadi Korbet. Uchinchidan, ba'zi oliy ta'lim muassasalari ham madaniyat va tilni chambarchas holda o'qitishni ma'qul ko'rishmaydi va ular ko'pincha o'quvchilarni universal yoki milliy testlarda yuqori ball olishga tayyorlash kabi ta'limga oid ko'nikmalarni rivojlantirish bilan shug'ullanadilar va shu sababli o'quvchilar o'rtasida madaniyat haqida yetarlicha ko'nikma hosil bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi ma'lumotlar Bennet tomonidan emas, balki boshqa o'qituvchilar va amaliyotchilar tomonidan ham aytilgan dalillarga asoslangan. Til va madaniyat doirasida tildan tashqari, real dunyoda mavjud bo'lgan madaniy voqelikda qo'llaniladigan lingvistik shakllar emas, balki boshqa ramziy tizimlar mavjuddir: biz madaniyat deb ataydigan odatlar, e'tiqodlar, yodgorliklar va madaniy hodisalar shular jumlasidandir. Madaniyatga aylanish uchun tildagi har bir tarkibiy qism ma'noga ega bo'lishi kerak. Bu xuddi biz kundalik turmushimizda hayotimiz uchun zarur bo'lgan narsalarga e'tibor qaratganimizdek gap", - deb munozara qiladi Kramsh. Til o'rganish va o'qitishning dasturlari boy pedagogik tajribalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak:  $\infty$  muloqotga kirishuvchi sifatida orttirilgan tajribasi;  $\infty$  o'quv jarayonida vositachilik qobiliyati;  $\infty$  o'quvchilarning ma'lumot qabul qilish jarayoni yohud o'quvchining o'quv uslubini aniqlash;  $\infty$  til va madaniyatni o'qitish jarayonida texnologiyalardan foydalanish;  $\infty$  sinfda turli xil faol jamoalar tashkil etish;  $\infty$  ta'lim va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish; - vositalar (asboblar va texnologiyalar), faoliyat tizimlari va jamoalardagi amaliyot jarayonini o'z ichiga oladi. Til o'rganish orqali o'quvchilar bir vaqtning "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali №12 35 o'zida kamida ikkita til va shu til tizimida madaniyat bilan hamohang tarzda ishlashni o'rganadilar. Xorijiy til o'rganish jarayonlariga ijtimoiy- madaniy yondashuv o'quvchilarning amaliyotda o'zlarining tajribalari, ishtiroklari, vositachiliklaridan foydalanishlariga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sitara, T. Z. (2022, December). REALIZATION OF LINGUISTIC AND CULTURAL UNITS IN THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 54-57).
2. Turaboeva, S. (2022). ОЛАМНИНГ ЛИСОНИЙ МАНЗАРАСИДА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ. *Science and innovation, 1(8)*, 1516-1523.
3. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTUROLOGICAL UNITS IN THE LANGUAGE PICTURE OF THE WORLD. *Science and Innovation, 1(8)*, 1516-1523.
4. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTURAL UNITS IN THE LANGUAGE LANDSCAPE OF THE WORLD. *Science and Innovation, 1(8)*, 1194-1201.
5. qizi Ezoza, R. M., & qizi Turaboyeva, S. Z. (2022, December). IMPACT OF POSITIVE MOOD ON LEARNING. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 26-30).

## O. GENRI va O'. HOSHIMOV HIKOYALARINING TIL XUSUSIYATLARI

**Avezov Elbek**

Fan va texnologiyalar universiteti  
"Tillar" kafedrası katta o'qituvchisi

Qahramon ruhiyatining nozikliklarini yaqqol ifoda etish mahoratiga ega yozuvchi O'tkir Hoshimov hikoyalarida ham badiiy tasvir vositalaridan kerakli va unumli ravishda foydalanganini kuzatish mumkin. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida ikkinchi jahon urushining insoniyat hayoti, millatlar ruhiyatiga ta'siri masalalari aks etadi. Qahramon ruhiyatini yoritish vositasida adib teran ijtimoiy umumlashmalar yaratadi. Asar ekspozitsion peyzaj bilan boshlanadi: *"Shoikrom ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to'g'rida o'ylab ko'rmaganini u endi payqaganday g'ashi keldi. Bo'z ko'rpa ustida yopilgan, shinni dog'i qotgan quruq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo'l siltadi-yu, do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi"*<sup>38</sup>. Ushbu parchada qahramonlarni tushkunlik iskanjasida tasvirlashda, personajlar ruhiy holatining beqarorligini ko'rsatishda adib interyerdan foydalangan. "Shinni dog'i qotgan quruq dasturxon", "bandi kuygan yog'och qoshiq" kabi badiiy detallar qahramon ruhiyatini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi psixologik detallarni voqea mazmuniga singdirgan holda insonlarning iztiroblarini, dard-u alamini tasvirlaydi. Bu bilan ijodkor jonli personajlar taqdirini ishonarli ko'rsatishga muvassar bo'lgan. Yozuvchi Shoikromning ko'nglida kechayotgan hissiyotni kitobxonga yetkazish uchun monologdan samarali foydalangan: *"Shu ondayoq yana o'sha tovoq, bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib, tag'in g'ashlandi: "Ziqna bo'lmay o'l! – deb o'yladi xotini so'kib, – Azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi"*<sup>39</sup>. Ushbu jumlada murakkab urush zamonida kechgan odamlar ruhiyatidagi g'alayonlar, yo'qchilik azobidan horigan kishilarning tarang kayfiyati aks etgan. Hikoyada o'rtaga tashlangan muammolarga yechim izlash, ojiz-u notavonlik holatlari kitobxonni hayajonga soluvchi yuksak badiiy shakllarda amalga oshirilgan.

Voqealar drammatizmi XX asrning 45 yillarida, ikkinchi jahon urushi nihoyasi vaqtida sodir bo'lgan. Asar qahramoni Umri xolaning ikki o'g'li bo'lib, kattasi Shoikrom oilasi bilan alohida yashaydi, kichik o'g'li Shone'mat sil dardiga chalingan. Unga qo'y suti kerak, lekin onaning qo'y sutini topib berishga imkoniyati yo'q. Shoikrom ham zo'rg'a ro'zg'or tebratadi. Bu qiyinchiliklar yetmaganiday, bola-chaqasi koriga yarab turgan sigirini ham o'g'irlab ketishdi. Bechora onaning istagi – faqat bemor o'g'liga sut topib berish. Nochorlik, ocharchilik davrida buning iloji juda mushkul. Birgina ilinji katta o'g'lining hovlisidagi qulupnay edi. Umri xola avval so'rab olardi, lekin kelinining munosabatidan keyin so'rashga iymandi. Ushbu holat hikoyada shu tarzda ifoda etilgan: *"Bultur xotini shu qulupnay tufayli onasini ham qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo'ladi deb ekanmiz, norastalarning nasibasiga tegmang, deb bobillab beribdi"*<sup>40</sup>. Odamlarning yashash sharoiti ularning ruhiyatiga ta'sir o'tkazmasdan qo'ymaydi. O'g'lining sog'ligi uchun

<sup>38</sup> Хошимов Ў. Ўзбеклар. –Т.: Ф.Фулом, 2011. –Б. 11.

<sup>39</sup> О'sha manba. –В.11.

<sup>40</sup> Хошимов Ў. Ўзбеклар. –Т.: Ф.Фулом, 2011. –Б.15.

kurashayotgan mushtipar onaning tushkun holati kitobxon qalbida ham achinish hissini uyg'otadi. Umri xola ham, kelini Xadicha ham o'z farzandlarining baxt-u saodati uchun qayg'urgani xarakterlarning ochib beruvchi jihatlaridandir. Aynan shu manfaatlar mushtarakligi asar konfliktini yuzaga chiqaradi.

Muallif asar syujetiga yoyilib ketgan fojeaviy ruhni yuqori bosimda tutib turadi. Qahramon ruhiyatiga monand ravishda peyzaj tasviri keltiriladi: *“Hamon shamol o'kirar, osmonning goh u, goh bu burchagida chaqmoq yaraqlab, yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, ammo endi bular uni qo'rqitolmas edi”*<sup>41</sup>. Hikoyada tabiat tasviri qahramon ruhiy olamini ochib beruvchi omil sifatida ham qo'llanilgan. Tabiat tasvirlari ichki kechinmalarni ko'rsatishda badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Adabiyotshunos H. Umurov e'tirof etganidek, *“Adabiyotda tabiat (peyzaj) ham, muhit, sharoit, predmetlar inson mohiyatini ochishga bo'ysundirilib, “insoniylik” xususiyatini kasb etadi, asosan odam va uning kechinmalari –hukmronlik qiladi”*<sup>42</sup>. Haqiqatan ham, peyzajning berilishi kitobxon ko'z o'ngida jonli gavdalanadi va o'quvchi qalbini larzaga soladi. Mazkur holat ba'zan badiiy chizgilar, ba'zan qahramonlar nutqi yordamida amalga oshiriladi. Hikoyada inson ruhiyatini faqat tavsif orqali emas, balki xatti-harakatlari va o'ylari tasviri vositasida ko'rsatish yetakchilik qilganligi guvohi bo'lish mumkin. *“Ayvon chirog'ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko'rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. “Boshqalari qochdi”, degan fikr lip etib xayolidan o'tdi. Pushtalar ustidan sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog'i botib ketayotganini payqadi. Keyin buklanib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to'xtadi-yu, birdan cho'kkalab qoldi. Bir lahza ko'zlari olayib tikilib turdi-da, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi: – Oyi-i-i!”*<sup>43</sup> Tasvirlanayotgan har bir holat, har bir harakat to'xtovsiz dinamikaga ega. Hayot ziddiyatlarining ayovsizligi, turmushdagi qiyinchiliklarning qahramon ruhiyatiga ta'siri asarda mohirona aks etgan. Yozuvchi urush davri fojealarini jonli personajlar taqdiri misolida ishonarli ko'rsatgan. *“Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar, boshqa qo'li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi”*<sup>44</sup>. Umri xolaning “uniqqan chit ko'ylagi”, “yorilib ketgan barmoqlari” orqali ijtimoiy muammolardan qaddi bukilgan onaning tashqi qiyofasi chizilmoqda. Bu fojealarning barchasiga urush sababligi asar sarlavhasidayoq ma'lum bo'ladi.

Inson ruhiy kechinmalari tashqi muhitdan ayro rivojlanmasligi hikoya syujetining asl maqsadini kashf etadi. Yovuz urushning inson ruhiyatiga salbiy tasviri hikoyada ishonarli tarzda tasvirlangan. O'tkir Hoshimov ikkinchi jahon urushi garchi mamlakatimizda sodir bo'lmasa-da, uning ta'siri butun millat uchun fojea bo'lganini jonli ifoda etadi. Asarda urushga ketgan yigitlar qaytib kelmasdan necha-necha oilalar yostig'i qurigan bo'lishi bilan birga urushda qatnashmasdan, ocharchilik, ruhiy tushkunlik, qiyinchiliklardan qurbon bo'lgan millat vakillarining fojeali tasviri kuzatiladi. Ijodkor urush va uning ayanchli oqibatlariga e'tibor qaratadi. Asarda qahramon holati tasviri hayotiy bo'lgani uchun ham, hikoyadan kelib chiqadigan badiiy ma'no salmoqli bo'lgan.

<sup>41</sup> O'sha manba. –B.15.

<sup>42</sup> Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. –Т.: Фан, 1983. –Б.6.

<sup>43</sup> Ҳошимов Ў. Ўзбеклар. –Т.: Ф.Фуллом, 2011. –Б.17.

<sup>44</sup> O'sha manba. –B.17.

O. Genri va O'. Hoshimov hikoyalarda inson taqdiri va qismati o'tmish va bugungi kun muammolari, kelajakka ishonch ruhi bilan bevosita bog'liqlikda tasvirlanadi. Ikki adibning shunday hikoyalari borki, ularda muallif ayol ruhiyatini butunligicha his qiladi va uni shu butunligicha syujetga olib kiradi. O.Genrining ana shunday asarlaridan "Mo'jizaviy kulchalar" ("Witches loaves") hikoyasidir.

Hikoya kichik bir do'konni boshqaradigan va har bir mijoziga e'tiborli bo'lgan yoshi qirqqa borib qolgan bo'lsa-da, o'zining "oq otda"gi shahzodasini kutayotgan Marta Michem xonimning portreti tasviri bilan boshlanadi: "*Marta xonim qirqqa kirgan, bankdagi hisobida ikki ming dollar yotardi. Ikkita tishi yasama, hissiyotga beriluvchan edi. Marta xonimdek bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan ayollarning ko'pchiligi erga tekkan bo'lardi*"<sup>45</sup>. Marta xonim do'konga tashrif buyurgan hech bir mijozni be'etibor qoldirmasdi. Haftasiga ikki-uch marta do'konga keladigan o'rta yoshli ko'zoynak taqqan, qora cho'qqi soqolli, yupun kiyingan bir mijoz uning e'tiborini tortdi. Bu o'rta yoshlardagi odam har safar ikki dona qotgan kulcha sotib olardi. Ushbu hikoyada obraz ruhiyati manzaralari ifodasini berishda turli poetik vositalardan unumli foydalanilgan. Marta xonimning do'koniga tez-tez tashrif buyuruvchi mijozning portreti ham jonli ifoda etilgan: "*U ingliz tilida kuchli nemis talaffuzi bilan gapirardi. Egnidagi eskirgan, dazmol tegmagan, yamoq tushgan kostyumi ro'dapoga o'xshab qolgandi. Shunday bo'lsa-da, uning ko'rinishi ozoda, asosiysi esa xushmuomala edi*"<sup>46</sup>. Personaj xarakterini ochish psixologik tasvirning birlamchi muhim vazifasidir. Yuz-ko'z ifodasi, mimika, imo-ishora, gavda holati kabi noverbal xatti-harakatlar personaj qalbida kechayotgan hislardan guvohlik beradi. O. Genri – insonning murakkab xarakterini, chigal ruhiyatini ishonarli tarzda gavdalantirishga harakat qiladigan va ko'pincha bunga erishadigan yozuvchi. Hikoyalarda inson ruhiyati va taqdiridagi eng kichik jihatlar ham yozuvchi nazaridan chetda qolmaydi.

Marta xonimning e'tibori tushgan mijozning barmoqlaridagi qizil va jigarrang bo'yoq izlaridan rassom ekanligini taxmin qilgan xonim, unga rahmi kela boshladi. Bir kuni uni haqiqatan rassomligini sinamoqchi bo'lib, do'koniga surat ilib qo'ydi. Bu detal rassom bilan suhbatga kirishish uchun ayni muddao bo'lishini bo'lardi. Haqiqatan ham shunday bo'ldi. Rassom suratni chiroyli ekanligini aytish bilan birga unda xatolikka yo'l qo'yilganligini ta'kidlaydi. Adib qahramonlari psixologiyasi tadrijini hayot bilan hamohang va ishonarli tasvirlaydi. Ruhiiy kechinmalardagi o'zgarishlar turli hayotiy vaziyatlar tasviriga mutanosib tarzda kechadi. Marta xonimning shu kundan boshlab tinchi buzilgani va har kuni u "bechora" deb bilgan rassomga qandaydir ezgulik qilishni chin dildan xohlashi yozuvchi tomonidan ishonarli tarzda tasvirlangan. Asarning kulminatsiyasi Marta xonimning rassom kulchalari orasiga bildirmasdan saryog' surtib qo'ygani tasvirida namoyon bo'ladi. Rassomni xursand bo'lib, uyida saryog'ni yeydi va menga minnatdorchilik bildiradi deb o'ylagan Marta xonimning eshik qo'ng'irog'i g'azab bilan chalinganda cho'chib tushadi va eshigi oldida vajohat bilan turgan rassomni ko'rib dong qotib qoladi. Ushbu holat hikoyada shu tarzda ifoda etiladi: "*Sizniki meni rasvo qildi! – qichqirdi u Marta xonimga ko'zoynak orasidan g'azab o'tida yonayotgan ko'm-ko'k ko'zlari bilan qarab. – Men hammasini, hammasini aytaman! Siz surbet, qari mushuksiz!*"<sup>47</sup> Marta xonim bunday haqoratni eshitib, gap nimadaligini ham anglamay, non peshtaxtasiga suyanib qoldi. Hikoyada tasvirlangan voqealar va bu voqealar yechimida ishtirok etgan qahramonlarning ichki qiyofasini ochishda dialogdan unumli foydalanilgan.

<sup>45</sup> Генри О. Шафтоли ва пўртахол. –Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б. 60.

<sup>46</sup> О'sha manba. –В.61.

<sup>47</sup> Генри О. Шафтоли ва пўртахол. –Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б.67

Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev inson ruhiyatini tasvirlash murakkabliklari haqida shunday deb yozadi: *"Inson tuyg'ulari o'ta murakkab, g'oyat nozik bo'lganligi uchun ham uni haqqoniy va ta'sirli tasvirlash qiyin. Chunki insonning kechinma-yu hislari cheksiz bo'lgani holda ularni ifodalash imkoniyati cheklangandir. Ijodkorning talanti darajasi inson qalbi iqlimlarini nechog'liq to'liq tadqiq eta bilish mahorati bilan o'lchanadi. Odamning ko'ngliga esa faqat samimiyat deb ataluvchi torgina so'qmoq orqali kirib borish mumkin"*<sup>48</sup>. Yozuvchi yashayotgan qahramonlar ruhiyatini hayotiy va badiiy haqiqatga suyangan holda boricha tasvirlaydi. O'z orzu istaklari yo'lida kurashmoqchi bo'lgan hikoya so'nggida rassom katta bir loyiha chizmasi ustida ishlayotgani va Marta xonimning do'konidan sotib oladigan qotgan kulcha nonlarni o'chirg'ich o'rnida ishlatayotgani, u bergan saryog'li kulchalar butun loyihasini barbod qilgani ma'lum bo'ladi. Marta xonim katta xato qilganini anglaydi. Marta xonimning ruhiy-ma'naviy olamida to'ntarish yuzaga keladi, ya'ni chin dildan yaxshilik qilmoqchi bo'lgan odamiga zarar yetkazib qo'yadi. Qahramon qalbidagi g'alayonlar keskin psixologik holatlar, og'ir kechinmalar orqali chiziladi. Hikoyada barcha voqea-hodisalar qahramon psixologik olamidan kelib chiqib tasvirlanadi va tahlil etiladi. Hikoyadagi kulcha detali asarning mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Badiiy detallarning O'tkir Hoshimov ijodida ham o'ziga xos badiiy maqsadni ifodalash uchun qo'llanilganiga guvoh bo'lish mumkin. "Eng og'ir gunoh" hikoyasida yozuvchi bir qator predmet detallarini keltirar ekan, shu orqali davr muammolari va obrazlarning ijtimoiy ahvolini ifodalaydi. Bunda ijodkor uzundan-uzoq hikoya qilib o'tirmaydi, balki "kichik zarra" (detal)lar vositasida kitobxonga ta'sir ko'rsatadi. Hikoyadagi tolqon (*uyimizda tez- tez oyim tolqon qilar edilar. Endi bilsam o'sha paytlarda oyim nonning ko'pligidan emas, kamligidan qilgan ekanlar*), lavlagi (*yeyishga hech narsa qolmagani, har kuni yeyilganidan jonga tekkanligi, baribir non kabi emasligi*), yong'oq kabi predmet detallari vositasida bir oilaning ijtimoiy ahvoli ko'rsatib berilgan. Yozuvchi *"urush tugab, og'irchilikning zahri ketmagan yillar"* tasvirini berishda yuqoridagi detallardan samarali foydalangan va bu orqali nima demoqchi ekanini kitobxonga anglatishning uddasidan chiqqan, desak mubolag'a bo'lmaydi<sup>49</sup>.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sitora, T. Z. (2022, December). REALIZATION OF LINGUISTIC AND CULTURAL UNITS IN THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 54-57).
2. Turaboeva, S. (2022). ОЛАМНИНГ ЛИСОНИЙ МАНЗАРАСИДА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ. *Science and innovation, 1*(B8), 1516-1523.
3. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTUROLOGICAL UNITS IN THE LANGUAGE PICTURE OF THE WORLD. *Science and Innovation, 1*(8), 1516-1523.
4. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTURAL UNITS IN THE LANGUAGE LANDSCAPE OF THE WORLD. *Science and Innovation, 1*(8), 1194-1201.

<sup>48</sup> Йўлдошев К. Кўнги́л мулкига сайр // Ё́ник сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006. –Б. 207.

<sup>49</sup> Mulkamonoва S. O'tkir Hoshimov hikoyalari badiiy detallarning ifodalanishi// "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027\_SJIF: 4.995. Volume-23, Issue-1, December, 2022. – Pp. 95-97.

5. qizi Ezoza, R. M., & qizi Turaboyeva, S. Z. (2022, December). IMPACT OF POSITIVE MOOD ON LEARNING. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 26-30).

## LAKUNALARNING DISKURSDAGI O'RNI

**Atadjanova Sevara**

Fan va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada so'ngi yillarda keng qo'llanilib kelayotgan lakuna tushunchasi va uning tildagi ahamiyati haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xorijiy tillar, madaniyat, ma'naviyat, lakuna, diskurs, lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, termin, tushuncha, konsept*

Tilshunoslikda so'nggi yillarda keng qo'llanilayotgan tushunchalardan biri lakunadir. Bugungi kunda bu tushuncha lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlarda faol qo'llanilmoqda. Har bir sohada uning qo'llanilishida mushtarak jihatlar bo'lgani kabi farqli jihatlar ham mavjud. Bu farqli jihatlar tadqiqot sohasining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinish orqali reallashmoqda. Lakuna termini ilk bor kanadalik olimlar J.Vine va J.Drabelne tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur olimlar "Fransuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi" nomli kitobida lakunaga ikki til qiyosida aniqlanadigan lisoniy hodisa sifatida quyidagicha ta'rif bergan: "Bir tildagi so'zning boshqa tilda muqobili topilmagan o'rinlarda lakuna hodisasi voqelanadi". Ta'rifdan ham ko'rinib turibdiki, mazkur o'rinda olimlar lakunaning ikki til muqoyasasida aniqlanadigan, ikki madaniyatning konseptosferasida bir-biriga muqobil bo'lmagan tushunchalarni ifodalash uchun mazkur terminni qo'llagan. Lakuna termini keyingi davrdagi juz'iy semantik o'zgarishlarga uchrasa-da, asl terminologik xususiyatlarini saqlab qolishida ayni shu ta'rif birlamchi asos vazifasini o'tab kelmoqda. Lakuna muammosi bilan jiddiy shug'ullangan olimlardan yana biri V.Gak lakunalarni "til leksik sathidagi bo'shliqlar, bor bo'lishi kerak bo'lgan so'zlarning mavjud emasligi", deb izohlaydi. Mazkur izohdan sezish mumkinki, olim lakunaning til ichida mavjudligini e'tirof etadi. Albatta, til leksikasidagi bo'shliqlarning mavjudligi tilshunoslik ilmida avvaldan ma'lum. Lakuna termini shakllanmasdan oldin ham F.Gumbolt, F.de Sossyur qarashlarida leksik tizimdagi "bo'sh katakchalar", leksik tizimdagi ba'zi paradigmalarda ikkinchi qutbning mavjud emasligi haqida jiddiy munozaralar yuritilgan. O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham turkiy va forsiy so'zlarni qiyoslash chog'ida muayyan tilda ayrim tushunchani ifodalovchi so'zning mavjud bo'lmashligini badiiy misollar tahlilida tushuntirib o'tgan. Lakuna terminining keng qo'llanilishi va ommalashishi XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Chunki ayni shu yillarda lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, lingvomamlakatshunoslik sohalarida tillarni qiyosiy o'rganish, ularning bog'liqligi va farqlanishlarini tadqiq etishga e'tibor ancha kuchaydi. Mazkur tadqiqotlarda lakuna tushunchasi oraliq, lakuna, zid so'zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog'lar, tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar, muqobilsiz, nol so'z, muqobilsiz yoki fonli leksika, tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika kabi atamalar bilan nomlangan. Garchi turli manbalarda turlicha nomlangan bo'lsa-da, tilda mavjud semema (tushuncha)ning nomsiz bo'lishini ifodalovchi mazkur hodisa haqida tadqiqotchilarning qarashlari bir-biriga yaqin. Lakuna tushunchasining keng o'rganilishi

uning yondosh hodisalardan farqlanishini ta'minlagan. Dastlab, barcha muqobilsiz so'zlarni lakuna sifatida baholash avj olgan bo'lsa, keyingi yillarda lakuna terminining semantik qamrovi torayib, konkretlashdi (terminlashdi): uning tarkibidan semema sifatida qo'llanib kelingan ekvivalentsiz so'z, realiya kabi tushunchalar ajratildi. Mazkur jarayonda lakuna tushunchasining mohiyati aniq va oson tushuniladigan darajagacha konkretlashdi. O'tgan asrning 80-yillarida lakuna, realiya va ekvivalentsiz so'zlar bilan o'rganilishi natijasida ikki til qr yosida aniqlanadigan lingvistik hodisalami tavsiflash va tushuntirishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keldi. Xususan, 1975-yilda yaratilgan V.Muraveyevning "Leksik lakunalar (fransuz va ms tili leksikasi misolida)" nomli ishida realiya hodisasi ham iakuna tushunchasi tarkibida qaraladi. Shu bois Muraveyev lakunani "muloqot jarayonida boshqa madaniyat vakili umuman tushunmaydigan yoki to'la tushuna olmaydigan, shu madaniyat vakili tilida o'z ifodasini topgan milliy-madaniy unsur" sifatida izohlaydi. Bugungi kunda lakunani o'rganish faqat ikki tildagi farqli jihatlarni aniqlashdangina iborat emas. Til leksikasining tizimli to'ldirilishi, boyftilishi uchun ham mazkur lingvistik hodisani chuqurroq tadqiq etish lozim. Tadqiqotchilar o'zga tilni o'z tillari bilan qiyoslab, leksik sathdagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga intilar ekan, tafakkur va tasavur bilan bog'liq, ongda shakllanadigan yangi tushunchalarning paydo bo'lishi va ularning nomlanish jarayonlarini atroflicha tadqiq etishga harakat qilmoqda. Kuzatilgan va to'plangan natijalar asosida til leksikasini boyitish bilan birga yangi so'zlarning paydo bo'lish va ommalashish jarayonlarini baholash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. O'zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlarni jonlantirish, milliy til tarkibidagi lahja va dialektlarni adabiy til bilan qiyoslash asosida adabiy til leksikasidagi lakunalarni aniqlash va to'ldirish til taraqqiyoti va sofligini ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sitara, T. Z. (2022, December). REALIZATION OF LINGUISTIC AND CULTURAL UNITS IN THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 54-57).
2. Turaboeva, S. (2022). ОЛАМНИНГ ЛИСОНИЙ МАНЗАРАСИДА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ. *Science and innovation*, 1(8), 1516-1523.
3. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTUROLOGICAL UNITS IN THE LANGUAGE PICTURE OF THE WORLD. *Science and Innovation*, 1(8), 1516-1523.
4. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTURAL UNITS IN THE LANGUAGE LANDSCAPE OF THE WORLD. *Science and Innovation*, 1(8), 1194-1201.
5. qizi Ezoza, R. M., & qizi Turaboyeva, S. Z. (2022, December). IMPACT OF POSITIVE MOOD ON LEARNING. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE " THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 26-30).



## LINGVISTIK TAHLILDA TEZAURUS LUG'ATLARNING O'RNI, XORIJDA O'RGANILISHI TO'G'RISIDA

*Kurbanova Farogat Subxonovna*

*Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Lison faqatgina insonga in'om etilgan ulug' ne'matdir. Shu sababli lisoniy hodisalar tadqiqi boshqa ijtimoiy hodisalar tadqiqidan tubdan farq qiladi. Barcha tabiiy va ijtimoiy hodisalar tizimli tuzilishga va o'z-o'zidan tarkib topish xususiyatiga ega. Tilning ham tizimli hodisa ekanligi allaqachonlar e'tirof etilgan. Tilshunoslarning e'tibori ushbu tizimning qanday tashkil topganligi, uning tarkibida qaysi turdagi birliklar mavjudligi, bu birliklarning o'zaro munosabatga kirishishi, ushbu munosabatlar asosida hosil bo'ladigan tuzilmalarning umumiy tizim va uning bosqichli tuzilishdagi o'rni kabi qator masalalarga qaratilgan. Ana shunday maxsus tizimga solingan tilni kompyuterga xoslash foydalanuvchilarning vaqtini tejaydi va ko'p lug'atlarni izlab yurishdek mashaqqatli ishdan xalos etadi. Barcha izlanishlar, olimlarning tinimsiz, mashaqqatli izlanishlari faqat bir narsaga, ya'ni inson manfaatlariga xizmat qiladi.*

**Key words:** *kompyuter lingvistikasi, «Artificial Intelligence», uslubiy xato, psixologik-kibernetik asoslar;*

Xorijda kompyuter lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko'lami juda keng. Ayniqsa, AQShdagilari izchilligi, qamrab olingan muammolar doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Nashr qilinayotgan tematik to'plamlardan tashqari «Computational Linguistics» (Kompyuter tilshunosligi) nomli jurnal ham nashr etiladi. AQShda Kompyuter tilshunosligi assotsiatsiyasi mavjud bo'lib, bu uyushma kompyuter tilshunosligi bilan bog'liq ko'plab tashkiliy va ilmiy ishlarni amalga oshiradi. AQShda ikki yilda bir marta COLING konferensiyasi o'tkaziladi. AQShning 10 ta universitetida kompyuter lingvistikasi fakultetlari mavjud. Kompyuter tilshunosligining muammoli masalalari ana shu fakultetlarda o'zining mutaxasislari tomonidan ko'rib chiqilgan holda yechimi izlanmoqda. Shuningdek, Niderlandiyada «Artificial Intelligence» (Sun'iy intellekt) jurnali chop etiladi. Bu jurnal ham kompyuter muammolari yechimiga, yangi yaratilayotgan dasturlar ustida bosh qotirishga undamoqda. MDHga a'zo mamlakatlarda ham kompyuter lingvistikasi bo'yicha muhim izlanishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, rus kompyuter tilshunosligidagi tadqiqotlar diqqatga sazovordir. Unda quyidagi yo'nalishlarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin: 1. Mashina tarjiması (MT). 2. Avtomatik tahrirlash (AT). 3. Til o'rgatish jarayonini kompyuterlashtirish (avtomatik tarzda tilga o'qitish – ATO'). 4. Statistik tadqiqotlar (ST). Y.N.Marchuk tarjimini modellashtirish metodlari va uni avtomatlashtirish yo'llarini ishlab chiqqan holda bugungi rus kompyuter lingvistikasiga asos solgan olimlardan hisoblanadi. Shuningdek, ko'plab rus, ukrain, moldovan olimlari ham mashina tarjiması masalalari bilan shug'ullanishgan, ularning izlanishlari kompyuter lingvistikasida muhim o'rin tutadi. Xususan, bu sohada ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlanganini alohida ta'kidlash lozim. Sohani yanada chuqurroq o'rganish ochilmagan qirralarning ochilishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, o'tgan asrning 60 – 80-yillarida mashina tarjiması xususiyatlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ta'kidlanganidek, mazkur tadqiqotlar rus tili bo'yicha jahon kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bazasi yaratilishi, buning natijasi sifatida rus tilidagi matnlarni avtomatik tarzda boshqa tillarga tarjima qiluvchi

dasturlarning vujudga kelishi uchun asos bo'ldi. O'zbek tilida ham shu kabi ma'lumotlar bazasini yaratish bugungi kundagi eng dolzarb vazifadir.

Rus tilshunosligida kompyuter tilshunosligining yana bir yo'nalishi matnlarni avtomatik tahrirlashdir. Mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar sirasiga R.R.Kotov, V.Y.Berzon, V.G.Britvin, I.A.Melchuk, L.I.Belyaeva, V.A.Chijakovskiy, G.G.Belonogov, I.S.Duganova, A.B.Kuznetsov kabilarni kiritish mumkin. Ushbu olimlarning asosiy xizmati shundaki, ular avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar uchun lingvistik ta'minot yaratib berishgan. Buning natijasida kompyuterlardagi ruscha matnlarni tahrirlovchi dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar bugungi kunda barcha kompyuterlarda mavjud. Ya'ni bunda noto'g'ri yozilgan so'zning tagiga qizil chiziq chiziladi, so'z to'g'ri yozilganidan so'ng chiziq yo'qoladi. Ko'rinadiki, bu dastur, asosan, imloni tekshirishga mo'ljallangan, unda uslubiy xatolarni aniqlash ko'zda tutilmagan.

Ta'kidlash lozimki, bunday dasturlarni ishlab chiqish uchun til birliklarining nafaqat fonetik, semantik, morfologik xususiyatlari, balki aynan sintaktik – valentlik xususiyatlari hisobga olingan lingvistik ta'minot yaratish lozim bo'ladi. Rus tilshunosligida avtomatik tarzda tilga o'qitish yo'nalishida ham izchil tadqiqotlar olib borilgan. Ular oliy va o'rta maktabda til o'qitishni optimallashtirishning psixologik-kibernetik, semiotik, lingvostatistik, injener-lingvistik va lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Xususan, G.G.Piotrovskiyning o'quv qo'llanmasida EHM vositasida o'qitish, ya'ni lingvodidaktik vazifalarni kompyuter yordamida yechish, til o'rgatish jarayonini optimallashtirish, o'qituvchi lingvistik avtomat (O'LA) uchun nutqiy materiallarni tayyorlash (tanlash) kabi masalalar tadqiq qilingan. Tadqiqotlar natijasida ko'plab o'qituvchi lingvistik avtomatlar uchun lingvistik ta'minot yaratilgan bo'lib, bu dasturlar rus tilini o'qitish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tezaurus tizimi bir qancha davlatlarda samarali o'rganilgan. Shulardan biri bo'lgan rus tilshunoslariga tayanib tahlil etganimizda quyidagilarni ko'rishimiz mumkin, ya'ni rus tilshunosligida tezaurus quyidalarni o'z ichiga oladi:

1. Morfologiya va sintaksisga aloqadorligi.
2. Talaffuz qilinishi.
3. Ma'nolar tarkibi:
  - A) so'zning asl ma'nosi
  - B) sinonimi
  - C) antonimi
  - D) giperonimi
  - E) giponimi
4. Qarindosh so'zlar.
5. So'zlarning etimologiyasi.
6. Frazologizmlarda qo'llanishi.
7. Boshqa tillarda qo'llanishi.

Masalan, tezaurus terminining o'zini olib ko'radigan bo'lsak:

1. Morfologiya va sintaksisda

O'zak tezaurus – tezaurusning, tezaurusga, tezaurusdan, tezaurusni

Ko'plikda – tezauruslar

Predmet, ot so'z turkumiga mansub, turlanadi.

2. Talaffuz qilinishi

Birlikda [tɨ'zaurɔs], ko'plikda [tɨ'zaurɔslar]

3. Ma'no tarkibi

## Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish

Tezaurus – soʻzning hamma maʼnolarining birlashtirib til tomonidan taʼrif etilishi, semantikaga (soʻz maʼnosiga) oid soʻzlar orasidagi munosabat.

Hozirgi paytda semantikaga va lingvistikaga oid matnlar yetarli darajada tahlil qilinmagan.

A) sinonimlari - *Ideografik lugʻat*

B) Antonimi

C) *Giperonimi Lugʻat*

D) *Giponimi*

E) *Qarindoshlik soʻzlari*

F) *Eng yaqin qarindoshlik soʻzlari*

4. Etimologiyasi

Yunonchadan (*θησαυρός*) olingan boʻlib, «qimmatbaho narsa, bitmas-tugunmas xazina» maʼnosini anglatadi

5. Frazologizmlarda yoki turgʻun birikma shaklida qoʻllanishi

*Lingvistikaga oid tezaurus*

*Statikaga oid tezaurus*

*Logika (mantiq)ga oid tezarus*

6. Boshqa tillarda qoʻllanishi

*Buyuk Britaniyada: thesaurus*

*Germaniyada: Thesaurus*

*Niderlandiyada: thesaurus, Bolgariyada: tezaurus*

*Portugaliyada: tesouro, Fransiyada: thésaurus, thesaurus*

*Chexiyada: tezaurus, Ispaniyada: tesouro, tesoro*

*Italiyada: thesaurus, Malayziyada: ဝေဇ္ဇေဝေ*

Atroflicha olib qarajak, informatika keng maʼnoda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida, asosan, kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlash bilan bogʻliq fan, texnikalarning xilma-xil tarmoqlari birligini oʻzida namoyon etadi. Kompyuterlar inson faoliyatida katta qulayliklar, yengilliklarni yaratadi.

Tezaurus bir necha darajalarga boʻlinadi. Tezauruslar darajalanishini tuzish muammosi esa yangilik emas va bir necha yillar davomida mamlakatimiz va chet elning qator lingvistlari (V.V.Morkovkin, L.P.Stupin, K.Marello va b.) eʼtiborini tortgan. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijasida koʻrsatilgan leksigrafik asarlarning alternativ darajalari yaratildi. Ammo, bizning nazarimizda, mualliflar tezaurus turlarini tanlashda ayrim vaqtlarda darajalanishning umumiy kriteriyalar prinsipini nazarga olmagan holda har doim ham bir xil usullarni qoʻllamaydilar, shu yoʻl bilan uning mantigʻi buziladi. Bundan tashqari, keltirilgan darajalanishlar yetarli darajada tizimli va lugʻat-tezauruslarning barcha turlarini aks ettirmaydi. Shunga qaramay, bu masalaning avvalgi ishlanmalari ijobiy, ahamiyatli tajribalar beradi va biz hozirgi kunda ularga tayanib oʻzimizning lugʻat-tezauruslar darajalanishini yaratishga harakat qilyapmiz.

Darajalanish, asosan, ingliz tilining zamonaviy tezauruslar materiallari asosida, bosma va elektron variantda ifodalangan qayta paydo boʻlgan leksikografik hosilalarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu darajalashga quyidagi kriteriyalar (mezonlar) asos qilib olingan:

1. Soʻzlik birliklari oʻrtasidagi maʼnoviy bogʻlanishlar turi.
2. Soʻzlik hajmi.
3. Soʻzlikning generallashuvi (asosiylashishi).
4. Leksemalar qiymatini ishlab chiqish.

5. Leksemalarning grammatik-stilistik malakasi.
6. Leksemalar faoliyatining namoyishi.
7. Berilgan tillar soni.
Tabiiy til matni yuqori sifatga ega bo'lishi uchun matnni qayta ishlashda to'liq tahlil qilish jarayonlarini amalga oshirish kerak. Biroq, bunday tahlilni yaratishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar shundan iboratki, amalda hozirgacha ishlab chiqilgan barcha nazariy qoidalar hali amalga oshirilmagan. Bu yerda asosiy muammolar — matnni tahlil qilishning murakkabligi va dunyo tillarining to'liq modelini amalga oshiradigan tizimni yaratishning murakkabligidir. Matnni tahlil qilish tizimi foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnni sintaksis (jumla tuzilishi), semantika (matnda ishlatiladigan tushunchalar) va pragmatik (tushunchalardan to'g'ri foydalanish) nuqtai nazaridan tahlil qila olishi kerak. Bunda tizim natijani xulosa qilishi uchun mos bo'lgan ichki tasavvurida yaratishi va tabiiy tilda javobini sintez qilishi kerak. Umuman olganda, to'liq tahlilni qo'llab-quvvatlaydigan tizim quyidagi modullarni o'z ichiga olishi kerak:

*Grafematik tahlil* — kiritilgan matndan sintaktik yoki strukturaviy birliklarni ajratib olishni ta'minlaydi. Biroq, umumiy holatda, matn ko'plab tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin: asosiy matn, sarlavhalar, qo'shimchalar, sharhlar va boshqalar. Ammo bu holatda ham grafematik tahlil sintaktik birliklarni ajratib ko'rsatishi kerak: paragraflar, jumlar, alohida so'zlar va tinish belgilar.

*Morfologik tahlil* — berilgan so'z shakli qaysi normal shakldan tuzilganligi va ushbu so'z shakliga berilgan parametrlar to'plamining ta'rifini beradi. Bu barcha so'z shakllariga emas,

balki faqat oddiy shaklga e'tibor qaratish, parametrlardan foydalanish, masalan, so'zlarning kelishilganligini tekshirish uchun amalga oshiriladi.

*Sintaktik tahlil* matn tahlilining eng qiyin qismidir. Bunda so'zlarning rollarini va ularning bir-biri bilan aloqalarini aniqlash kerak. Ushbu bosqichning natijasi bunday munosabatlarni ko'rsatadigan modellar to'plamidir. Matnni tahlil qilish paytida paydo bo'ladigan juda ko'p muqobil variantlar, ham kirish ma'lumotlarining noaniqligi (bir xil so'z shaklini turli xil normal shakllardan olish mumkin) va tahlil qilish qoidalarining noaniqligi bilan murakkablashadi.

*Postsintaktik tahlil* ikki maqsadga xizmat qiladi. Bir tomondan so'zlarga xos bo'lgan va turli xil til qo'shimchalardan foydalangan holda ifodalangan ma'noni aniqlashtirishimiz kerak: ma'lum bir so'z shaklini yaratuvchi predloglar, prefikslar yoki affikslar. Boshqa tomondan, bir xil fikrni turli xil til konstruksiyalari bilan ifodalash mumkin. Ko'p tilli dialog tizimida bir xil fikr turli sintaktik konstruksiyalar bilan ifodalanishi mumkin. Shu munosabat bilan, modelni normallashtirish kerak, ya'ni har xil tillar yoki vaziyatlar uchun ba'zi matnlarni turli yo'llar bilan ifodalovchi konstruksiya bir xil normallashtirilgan modelga keltirilishi kerak.

*Semantik tahlil* matnni "ma'no bo'yicha" tahlil qiladi. Bir tomondan, semantik tahlil postsintaktik tahlil aniqlay olmagan tahlillarni aniqlaydi, chunki ko'p rollar nafaqat til yordamida, balki so'zning ma'nosini hisobga olgan holda ham ifodalanadi. Boshqa tomondan, semantik tahlil so'zlarning ba'zi ma'nolarini yoki hatto butun shakllarini "semantik jihatdan mos kelmaydigan" deb filtrlash imkonini beradi.

Morfologik tahlil tizimlari hisoblash tilshunosligining eng rivojlangan sohalaridan biridir. Rus tilining morfologik tizimlari an'anaviy ravishda A.A.Zaliznyakning grammatik lug'atiga asoslanadi. Bashorat qilish algoritmlari ushbu yoki tegishli lug'atlarda taklif qilingan morfologik sxemalarni umumlashtiradi yoki lug'at va o'quv korpusida ushbu sxemalarning tarqalishini hisobga oladi. Bunday holda, *trigramma modeli* qo'llaniladi — so'z va uning kontekstini yana ikkita so'zdan tahlil qilishdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, trigram modeli bigrammaga qaraganda ancha yaxshi natijalarni ko'rsatadi. Trigram modeli turli usullarda qo'llanilishi mumkin. Oldingi ikkita so'zni hisobga olgan holda, paydo bo'lish ehtimoli maksimal bo'lgan so'z shaklini tanlash modeli quyidagicha keltirilgan:

$$w_i = \arg \max P(w_i | w_{i-1}, w_{i-2})$$

bu yerda  $w$  – so'z,  $i = \overline{1, n}$ ,  $P()$  – so'zning korpusda sodir bo'lish soni. Umuman olganda, trigramma turli xil konstruksiyalarni anglatishi mumkin. Birinchidan, bu ketma-ket uchta so'z shakli bo'lishi mumkin. Biroq, ixtiyoriy matnda aynan shu uchta so'z shaklini uchratish ehtimoli juda past bo'lishi mumkin. Ammo lemmalardan voz kechsak, bunday trigramma bilan samarali natija olish ehtimoli ancha yuqori bo'ladi.

Oldimizga qo'yilgan maqsadimiz shundan iboratki, avtomatik tahrir va tahlil qilish komputer lingvistikasining asosiy yo'nalishlarining biri bo'lib u kompyuterdagi matn muharriri (Microsoft word) rivojlanishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Avtomatik tahrir va tahlil jarayonida kompyuterga kiritilayotgan matnning mexanik xatolari avtomatik tarzda to'g'irlanishi va xato ekanligi haqida foydalanuvchiga taklif etilishi nazarda tutilgan. Matinni avtomatik tahrir qilish jarayonida uning mukammal va yuqori sifatli tizimli bo'lishi uchun unga kiritilgan matnlarni orfagrafik, stilistik va grammatik tarafdin unda sintaktik, semantik va paradigmatic tahrir qilish imkonini yaratish ko'zda tutilgan. Avtomatik tahrir va tahlilni to'liq qilish uchun quyidagi lingvistik dastur quyidagi modullarga ega bo'lish kerak: grafematik tahrir, morfologik tahrir, sintaktik tahrir, semantik tahrir, pragmatik tahrir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Барахнин В.Б., Федотов А.М., Бакиева А.М., Бакиев М.Н. Тажибаева С.Ж., Батура Т.В., Кожемякина О.Ю., Тусупов Д.А., Самбетбаева М.А., Лукпанова Л.Х. Алгоритмы генерации и стемматизации словоформ казахского языка // Cloud of Science. – 2017. – Т. 4. – № 3. – С. 434-449. <https://cyberleninka.ru/article/n/algoritmy-generatsii-i-stemmatizatsii-slovoform-kazahskogo-yazyka/viewer>
2. Боймуродов.Ф., Algorithm development and implementation stemmatization and generation of word forms of uzbek language for automatic processing systems texts, [https://www.researchgate.net/publication/347995316\\_ALGORITHM\\_DEVELOPMENT\\_AND\\_IMPLEMENTATION\\_STEMMATIZATION\\_AND\\_GENERATION\\_OF\\_WORD\\_FORMS\\_OF\\_UZBEK\\_LANGUAGE\\_FOR\\_AUTOMATIC\\_PROCESSING\\_SYSTEMS\\_TEXTS](https://www.researchgate.net/publication/347995316_ALGORITHM_DEVELOPMENT_AND_IMPLEMENTATION_STEMMATIZATION_AND_GENERATION_OF_WORD_FORMS_OF_UZBEK_LANGUAGE_FOR_AUTOMATIC_PROCESSING_SYSTEMS_TEXTS)
3. Эшкараева Н.Г, Боймуродов Ф.Ф Разработка и реализация алгоритма стемматизации и генерации словоформ для глаголов узбекского языка. [http://qarshidu.uz/source/JURNAL/Aniq\\_fanlar\\_5-son\\_2022.pdf](http://qarshidu.uz/source/JURNAL/Aniq_fanlar_5-son_2022.pdf)
4. Боймуродов.Ф., Algorithm development and implementation stemmatization and generation of word forms of uzbek language for automatic processing systems texts, [https://www.researchgate.net/publication/347995316\\_ALGORITHM\\_DEVELOPMENT\\_AND\\_IMPLEMENTATION\\_STEMMATIZATION\\_AND\\_GENERATION\\_OF\\_WORD\\_FORMS\\_OF\\_UZBEK\\_LANGUAGE\\_FOR\\_AUTOMATIC\\_PROCESSING\\_SYSTEMS\\_TEXTS](https://www.researchgate.net/publication/347995316_ALGORITHM_DEVELOPMENT_AND_IMPLEMENTATION_STEMMATIZATION_AND_GENERATION_OF_WORD_FORMS_OF_UZBEK_LANGUAGE_FOR_AUTOMATIC_PROCESSING_SYSTEMS_TEXTS)
5. Эшкараева Н.Г, Боймуродов Ф.Ф. Создание словоформ существительных в узбекском языке с использованием алгоритма портера. <https://scienceweb.uz/publication/14977>
6. Nazirova E.SH, Boymurodov F.F. Tabiiy tilli matnlarni avtomatik qayta ishlash tizimlari tahlili. <https://scienceweb.uz/publication/14975>
7. Боймуродов Ф.Ф. Стемматизация и генерация словоформ в узбекском языке для систем автоматической обработки текстов.

### ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЖАДИДЛАРНИНГ ЗУЛЛИСОНАЙНЛИК-ИККИ ТИЛЛИК АНЪАНАСИ

**Турсунов Фаррух Ғуломович**

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),  
доцент, Фан ва технологиялар университети Ёшлар  
масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича  
биринчи проректори [f.tursunov83@mail.ru](mailto:f.tursunov83@mail.ru)

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистондаги жадидларнинг зуллисонанлик-икки тиллик анъанаси, ўзбек ва форс-тожик тиллари орасидаги ўхшаш хусусиятлар, икки тилда ижод қилган жадид алломалари илмий меросининг бугунги кундаги аҳамияти тарихий ва этнографик манбалар асосида ёритилган.

**Калит сўзлар:** жадидчилик, зуллисонанлик-икки тиллик анъанаси, ўзбек ва форс-тожик тиллари, орий тили, туркий тил, “Бухорои шариф”, тарихий сўзлар, миллат.

**Аннотация:** В статье на основе зуллисонан-двуязычной традиции джадидов в Узбекистане освещаются сходные черты между узбекским и персидско-таджикским языками, а также значение научного наследия джадидских учёных, творивших на обоих языках. исторических и этнографических источников.

**Ключевые слова:** Джадидизм, зуллисонайнизм-двоязычная традиция, узбекский и персидско-таджикский языки, язык ория, турецкий язык, «Бухара Шариф», исторические слова, нация.

**Abstract:** In the article, the Zullisonayn-bilingual tradition of the Jadids in Uzbekistan, similar features between the Uzbek and Persian-Tajik languages, and the importance of the scientific heritage of the Jadid scholars who created in both languages today are highlighted on the basis of historical and ethnographic sources.

**Key words:** Jadidism, Zullisonaynism-bilingual tradition, Uzbek and Persian-Tajik languages, Oriya language, Turkish language, "Bukhara Sharif", historical words, nation.

“ЎЗБЕКИСТОН — 2030” Стратегиясида “Жамиятда миллатлараро тотувлик мухитини мустаҳкамлаш ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини ривожлантириш”[1] алоҳида эътироф этилган. Ўзбекистондаги мавжуд тадқиқотларда тожикларнинг тил хусусиятлари, зуллисонайнлик-икки тиллик аънанаси кўпроқ адабиётшунослар томонидан ўрганилган. Бироқ, Ўзбекистондаги тожикларнинг этнолингвистик хусусиятлари тадқиқ этилмаган.

Эронийзабон тилларнинг элементлари замонавий славян тилларида ҳам акс этади. Бу нимани англатади? Тожик тилини кўпроқ ҳинд-европа тиллари оиласига киритишади. 1813 йилда Томас Юнг томонидан “ҳинд-европа тиллари”[3, Р. 6] атамаси фанга киритилган. Бироқ, бундан аввал бу сўзлар ўрнида “орий” сўзи қўлланилган. Фикримизча тожик ва бошқа эроний тилларда сўзлашувчи инсонларни “орий тилли аҳоли” – деб ҳисоблашимиз лозим. Алоҳида тил ҳисоблансада, тожик тили хилма-хил шеъваларга бой бўлиб шаклланган. Ўзбекистондаги тожиклар бир-бирларини тушунсаларда адабий тил тўлиқ шаклланмаган. Қашқадарёдаги тожик шеъвалари асосан бир неча минг йиллардан буён шу ҳудудда истиқомат қилган қадимги эронийзабон қабилалар ва туркий уруғлар таъсирида ривожланиб борди.

Ўзбекистондаги тожиклар бир неча асрлардан буён туркий халқлар билан маданий ва қариндошлик алоқаларини боғлаган. Суғдийларнинг фарзандларига 4 ёшлигидан бошлаб хорижий тилларни ўргатиши натижасида бўлса керак ўзбек ва тожик миллатлари бир-бирини тушунган, душманга биргаликда қаршилиқ кўрсатган бироқ, этник низога боришмаган. Ҳофиз Таниш ал-Бухорийнинг “Абдуллонома” асарида “Қалъа ичида *турк ва тожиклардан* ўттиз кишидан ортиқ одам йўқ бўлганлигига қарамай, унинг душманнинг лашкарини жон олувчи ўқ зарби ва найза санчишлар билан қалъа яқинига қўймадилар. Девор тепасига чиққанларни (эса) ҳаёт қалъасидан ерга йикитиб, ўлим тупроғига отдилар. Доимо фитна ва жанжални бошлаб берадиган бир гуруҳнинг бошини танларидан жудо қилдилар. Мазкур султонлар хўрланган ва қаҳру ғазабга дучор бўлган ҳолда қочиш байроғини кўтардилар. Ул ҳазрат унга подшоҳона иноятлар бериб, минг тилла хоний ва эгар билан бир от инъом қилган ҳолда уни юртчи ясовул қилди”[12, 346 б.] – деб ёзилган. Бундан кўриниб турибдики, ўзбек ва тожик миллатлари этник жиҳатдан яқин бўлибгина қолмай, душман босқинига биргаликда қарши курашишган.

Бу икки миллат маданиятини ажратиб бўлмайди. Ўзбекистон ҳудудида форс-тожик адабиёти ҳар бир даврда ҳам ривожланди. Туркий халқлар томонидан бу тилга ҳеч қандай таъқиқ қўйилмади. Аксинча, ёзма манбаларда фаол қўлланилиб келинди. Айрим ўзбек уруғлари ҳам тожик тилида гаплашишган. П.Равшановнинг кўрсатишича, Кенагаслар гарчанд ўзларини чиғатойлар (яъни, ўзбеклар) деб ҳисобласалар-да, тожик тилида гапиришга ўтганлар[8, 392-б.]. Бу фикрнинг исботини Муҳаммад Али Балжувоний

қаламига мансуб “Тарихи Нофеий”да кўриш мумкин. Асарда “Давлатмандбек бий - Шарқий Бухородаги Балжувонда беклик қилган жасур кўрбоши. Али Бодомчининг ёзишича, Давлатмандбек Камолиддинбек ўғли “асли тожикланмиш туркдир. Миллий шуур жиҳатидан ҳам Шарқий Бухоро кўрбошиларининг энг ойдинидир...” 1922 йил 4 августда Курбон Ҳайити куни Балжувон атрофида бўлган жангда ўлдирилди” [7, 121-б.] – деб ёзилган. Тожиклар кўпроқ истиқомат қилувчи ҳудудларда туркий уруғлар тожик тилида ҳам сўзлашиб, уларнинг урф-одатларига амал қилган.

Айрим ўзбек адиблари ижодини форс-тожик тилисиз тасаввур этиш қийин. Фикримизча, “икки тиллик” анъанаси Ўзбекистондаги тожикларга суғдийлардан мерос бўлиб, илк ўрта асрларда Хитой ҳудудида ҳам суғдиликлар ва туркий халқлар бемалол мулоқот қила олган. Суғдийлар император хонадонига яқин ҳисобланиб, халқарор муносабатларда ҳам муҳим ўрин тутган.

Туркий тилдаги, аниқроғи, ўзбек тилидаги зуллисонанлик тарихини (ҳам туркий ҳам форс-тожик тилида ижод қилиш тарихини ана шу) сомонийлар ва салжуқийлар даври бағридан излаш жоиз бўлади. Зеро аксар ўзбек шоирлари “икки тилли” бўлганлар, ўзбек ва форс-тожик тилларида қалам пекратганлар. Бу билан улар икки халқ адабиёти, маданияти хазинасини бойитишда иштирок этганлар, икки халққа хизмат қилганлар. Бу билан улар, ниҳоят ўзларининг, ўзбек халқининг тожик ва эрон халқларига, уларнинг тили ва маданиятига бўлган ҳурмат ва муҳаббатини ифодалаганлар [9, 384-б.].

Қошғарликлар ўз ватанларини ора-сира тарк этадилар. Улар ҳам туркий, ҳам тожик тилларида гаплашади. Иккала тилда ҳам хатосиз гапирилади.

Уларнинг табиати [бировага] зарар этказиш, туҳмат қилиш каби иллатлардан узоқдир. Айниқса, уларнинг камтарин табиатида манманлик, ўзбошимчалик, мақтаниш, алдаш ва зулм каби ёмон хислатлар йўқ [11, 72-б.]. Кўчманчилик тожикларга хос хусусият бўлмасда айрим даврларда тожикларнинг у ёки бу ҳудудга кўчишлари кузатилади. Балужлар, бириндилар, тожик шеъваларида сўзлашувчи араблар кўчиб келган, бироқ Қашқадарёдаги тожикларнинг аксарияти маҳаллий туркий тилли аҳоли билан бир неча минг йиллардан буён воҳада истиқомат қилиб келган.

Мунзим билан бирга Айний ўз уйида тожик тилида дарс берадиган янги усулдаги мактаб очди (1908). Ўз таржимаи ҳолида Айний айтади: “Мен ўқиш китобини туздим. Китоб адабий хусусиятга эга бўлиб, болалар ўқишни қизиқарли деб топдилар. Албатта, замон талабидан келиб чиқиб, бу китобга кўплаб диний матнларни киритдим. Шунга қарамай, китоб умуман янгилик эди. (Мен бу китобни 1909 йилда “Ёшлар тарбияси” сарлавҳаси билан нашр этганман)”[4, 83-р.].

Тожик маданиятининг энг йирик арбоби, Ўрта Осиёда форсийда ижод қилган (лекин ўзбек тилида ҳам ёзган) энг кўзга кўринган ёзувчи Садриддин Айний эди. Форсий тилини “тожик тили” деб атаган илк инсон ҳам айнан Садриддин Айний бўлиб, у тожик тилини форс тилидан ажратишга уринган. Айний ўта сермахсул ҳаёти (бу ҳаётга 1938-йилда чек қўйилмагани алоҳида эътиборга сазовор) давомида деярли бир ўзи тожик адабиётининг асосий асарларини яратди. Ҳаётлигидаёқ энг нуфузли тожик зиёлиси сифатида тан олинган Айний умрининг охиригача Самарқандда яшаб, фақатгина 1954-йили, вафот этишидан уч-тўрт ой олдин Душанбега қочиб ўтган[2, 305-б.].

Алихонтўра Соғуний ўзбек тилини ўз она тилидек эъзозлаган, бироқ бошқа тилларда ҳам ижод қилган. Узоқдан қатнаши қийин бўлганлиги учун бошқа миллатлар қатори тожик талабаларга ҳам уйдан жой берган. “Мен, Али Соғуний, ёшлик-йигитлик кунларимдан бошлабқ арабий, форсий тилларини тўлиқ равишда ўзлаштирдим.

Замоннинг менга кўрсатган тўсқинликларига қарамай, Тангри ёрдамида кенг кўламда диний, тиббий, айниқса, тарихий маълумотларга эга бўлдим. Арабча, форсийчаларни ёзиш-сўзлашгина эмас, балки, бу икки тилда китоб ёзиш, шеър айтиш қобилияти менда бўлса ҳам, ўз туркий она тилимни бошқа тиллардан ортиқроқ кўрдим” [5, 10-б.]. Кўпгина жадид намоёндалари тожик тилида сўзлашсалар ҳам ўзбек тилини ўз она тилидек кадрлаган.

Абдурауф Фитратнинг ҳам “Мунозара” асари 1909-1917 йилларда тожик тилида ёзилган. У бошқа асарларни ҳам тожик тилига таржима қилди. Махмудхўжа Бехбудийнинг ташаббуси билан 1913-1914 йилларда ўзбек, тожик ва рус тилларида “Самарқанд” газетаси нашр қилинган. “Бухорои шариф” газетаси ҳам ўзбек ва тожик тилларида нашр қилинган.

XX аср бошларида Бухоро уламолари орасида Икром Домла машҳур бўлган. Унинг асл исм-шарифи Муҳаммад Икром ибн Абдусалом бўлиб, Бухоро амирлигида у Мулла Икром коми билан танилган. Икром домланинг форс-тожик тилида ёзилган “Бедорин хобидагон ва огохи нодонон” (“Уйкудагиларнинг уйғониши ва нодонларнинг огоҳ бўлиши”) рисоласи Янги Бухоро (ҳозирги Когон)да 1910 йили нашр қилинган, бу асар бухороликлар ўртасида жуда машҳур бўлиб кетади[10,142-б.].

Маҳаллий аҳоли тожик сўзининг “тожли”, “тож кийган” деган маъноларини изоҳлашади. Шунингдек, қўшни Тожикистон тарихчилари тожик тилини “орийлар тили” деб ҳисоблашади. Бироқ, орий қабилаларининг Ўзбекистон тарихидаги ўрни бекиёс. Қолаверса, Ўзбекистон ва Афғонистондаги тожикларнинг умумий сони Тожикистондагига қараганда кўпроқ. Хулоса қилиб таъкидлаш керакки, Тожик миллий маданий маркази ёки тожик тилидаги мактаблар ва таълим йўналишлари гуруҳлари фаолияти мисолида қолаверса, тожик тилида нашр қилинган китоблар ва газета нашрлари Ўзбекистонда тожик тили равнақи учун ҳам хизмат қилмоқда.

Айрим тарихий сўзлар форс-тожик тилидан олинган. Масалан, *фарсах* [فارسخ, форс-тожикча фарсанг (فرسنگ) тош] сўзининг арабча талаффузда ўзгарган шакли] – олти километр икки юз қирқ метрга тенг келадиган узунлик ўлчов бирлиги; *қўҳандиз* [форс-тожикча *كهندز*; аслида *куҳандиж* *كهندژ*; арабчалашган шакли *куҳандиз* *قهندز* – ўрта асрлар шаҳарларида шаҳар девори ичкарасида, баъзан ташқарасида жойлашган, мудофаа мақсадларида фойдаланиладиган қалъа. Айрим ҳолатларда инсонларга ўзбекча ва арабча исмлар қаторида тожикча исмлар қўйилган. Масалан, Кўҳна Фазлида дафн этилган авлиёлардан бири сифатида Хўжа Рўшноий ҳам тилга олинади. Рўшноий - ёруғлик [форс-тожикча шакли *рўшноий* *روشنایی* ёруғлик] – тасаввуфда: кўнгилнинг Аллоҳдан бошқа барча нарсалар учун қоронғу бўлиб, фақатгина Аллоҳни эслаш ва у тўғрида ўйлаш учун ёруғ бўлиши[6; 20-81, 86-б.].

Қашқадарёдаги кўпгина жой номлари ҳам форс-тожик тилидан олинган. Фикримизча, Касби туманидаги Муғлон қишлоғининг номининг ўзагидаги *муғ* [форс-тожикча (1 – [مغ оташпараст, зардуштий; 2) оташпарастлар зардуштийлар руҳонийси[6, 171-б.] маъноларини ифодалайди.

Тожик уруғларининг ўзбеклашуви (туркийлашуви) аксинча, ўзбек уруғларининг тожиклашиб туриш жараёни ҳар бир даврда кузатилади. Масалан, Давлатмандбек бий - Шарқий Бухородаги Балжувонда беклик қилган жасур кўрбоши.

Али Бодомчининг ёзишича, Давлатмандбек Камолиддинбек ўғли “асли тожикланмиш туркдир. Миллий шуур жиҳатидан ҳам Шарқий Бухоро кўрбошиларининг

энг ойдинидир...” 1922 й. 4 августда Курбон Хайити куни Балжувон атрофида бўлган жангда ўлдирилди[7, 120-121 б.].

Фикримизча, Ўзбекистондаги тожиклар тили ва шеъвалари бронза давридан шакллана бошлаган қадимги эроний тиллар билан боғлиқ. Авесто тилини ҳам Ўрта Осиёдаги қадимги халқлар билан боғлаш ўринлидир. Собиқ тузум даврида туркий ва тожик тилини қарама қарши қўйишга интилувчи шахслар ҳам йўқ эмас эди. Бироқ киммерлар, қанғликлар, Турк ҳоқонлигининг туркий тилларда сўзлашувчи аҳолиси эронийзабон аҳоли билан ўзаро яқин муносабатда бўлган. Киммерларни қўшни Тожикистонлик олимлар эроний тилли деб ҳисобласада, Туркиялик, Қозоғистонлик ва Ўзбекистонлик олимлар туркий тилга хос жиҳатларни устун қўйишади. Туркий тилнинг шаклланишини Шайбонийхон билан боғлашга уриниш Собиқ тузум даврида айниқса кучайди.

Орийлар яшаган қадимги манзил Ҳафтруд ирмоқларидан бири Қашқадарё эканлиги, Орийларнинг Эрон орқали Ҳиндистонга бориб қолганлиги шарқий эроний тиллар гуруҳининг шаклланган дастлабки ўчоғи Ўрта Осиё деган хулосага сабаб бўлади.

Қашқадарё воҳасидаги тожик шеъваларида – *дар*, – *ба* олд қўшимчалари кўп қўлланилади. – *дар* олд қўшимчаси дастлаб - *андар* шаклида қўлланилган бўлса-да, бугунги кунда кўпроқ – *дар* олд қўшимчаси қўлланилади.

Ўрта Осиёдаги эронийзабон аҳолини форслар билан бир ўринда тасаввур қилиб бўлмайди. Чунки, Широқ, Тўмарис афсоналари қалаверса “Шохнома”даги Эрон ва Турон халқларининг муносабатлари уларнинг маслақдош эмаслигини билдиради. Ахамонийлар даврида суғдийлар, бақтрияликлар ва хоразмликлардан ўлпон олиб турилганлиги фикримизни исботлайди. Қалаверса, *массагетлар* эронликлар томонидан “*балиқчи*, *балиқхўр*” деб аталган бўлса, эронликларни массагетлар *жете*, яъни *қолоқ* деб айтишган. Фикримизча, қадимги Турон аҳолисининг форслар билан тили ва маданияти жиҳатидан фарқланишини инобатга олиб, қадимги қабилаларни “Туроннинг эронийзабон аҳолиси” деб аташ лозим. Ўзбекистондаги тожикларнинг тили ва шеъвалари янада чуқурроқ тадқиқ этилса, унда туркий сўзлар ва жумлаларнинг кўп учраши кузатилади. Тадқиқот жараёнида тожик шеъваларида сўзлашувчи Қашқадарё воҳаси аҳолисининг ёзма нутқда, бозорда ва қўшничилик муносабатларида кўпроқ ўзбек тилида оилавий муносабатларда эса тожик тили шеъваларида сўзлашишлари аниқланди.

Нисбатан этник хусусиятларни сақлаб қолган воҳанинг тоғли тожиклари сўзларида ҳам ўзбекча сўзлар улуши юқори эканлиги аниқланди. Ўзбекистондаги тожикларнинг этнолингвистик хусусиятларини Эрон, Тожикистон, Покистон ва Туркиядаги эронийзабон аҳоли билан солиштириш мушкул. Чунки, бронза давридан бери туркий тилли аҳоли билан фаол қўшничилик ва қардошлик алоқаларида бўлган эронийзабон аҳолининг этнолингвистик ва антропологик хусусиятларини бошқа минтақадаги аҳоли қатлами билан солиштириб бўлмайди. Жаҳидларнинг зуллисонайнлик-икки тиллик анъанаси аслида олис ўтмиш билан сирлашган.

#### Адабиётлар рўйхати

1. “ЎЗБЕКИСТОН — 2030” СТРАТЕГИЯСИ // <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
2. Adib Xolid. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. - Toshkent: «Akadernashr», 2022. – B. 305.
3. London Quarterly Review X/2 1813.; cf. Szemerényi 1999:12, footnote 6.

4. History of civilizations of Central Asia. Volume VI. Towards the contemporary period: from the mid-nineteenth to the end of the twentieth century. UNESCO. 2005. p. 200; Aini, 1971, Vol. 1, p. 83.
5. Алихонтўра Соғуний. “Туркистон қайғуси”. Тошкент.: Шарқ, 2020. - Б. 10.
6. Муин ул-фуқаро, Аҳмад ибн Маҳмуд. Тарихи Муллозода дар зикри мазороти Бухоро / Форс тилидан таржима, муқаддима, тадқиқ, изоҳлар, иловалар муаллифи ва нашрга тайёрловчи: Комилжон Раҳимов. – Тошкент: «Фан», 2019. – Б. 20, 81, 171.
7. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий. Тоҷик тилидан таржима, сўз бош и ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чорисв. Т. “Академия”, 2001 й.- Б. 120-121.
8. Равшанов П. Шаҳрисабз тарихи (Энг қадим даврлардан XX асрнинг I чорагигача) -Т.: “Янги аср авлоди”, 2011, - Б. 392.
9. Равшанов П. Қашқадарё тарихи. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 1995 й. – Б. 384.
10. Ражабов Қ. Ўзбекистоннинг XX асрдаги тарихи (1-китоб) / - Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2023. - Б.142.
11. Маҳмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Ташкент, Изд-во «Фан». 1977. - С. 72.
12. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома («Шарафномаи шоҳий»). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов. —Т.: «Шарқ», 1999. - Б. 346.

**FITRAT YUSUF XOS HOJIBNING TURKIY TILPARVARLIK AN'ANASI  
DAVOMCHISI SIFATIDA**

*Abdullayev G'ulom Jo'rayevich*  
*Fan va texnologiyalar universiteti*  
*pedagogika fakulteti dekan o'rinbosari*

Dunyo adabiyotida mashhur yozuvchilar hayoti va ijodi o'rganilganda iste'dodlarning shakllanishida ustoz ijodkorlarning o'rni alohida ta'kidlanadi. Ko'p hollarda buyuk iste'dodlarning o'zlari ularning faoliyatida qaysi ustozlar muhim o'rin tutgani haqida yozib qoldirganlar. Ba'zi hollarda tanqidchilar, adabiyot nazariyasi mutaxassislari ijodkorlar g'oyasi va iqtidorining shakllanishida qaysi buyuk ijodkorlar yoki jamoat arboblari muhim o'rin tutgani haqida qayd etganlar. Alisher Navoiy o'z tjodida mashhur g'azalnavislar, xamsanavislarning ta'sirini shaxsan e'tirof etgan. G'afur G'ulom, Abdulla Qahhorlar ham ijodlaridagi ta'sir masalalari borasida so'z yuritishgan.

O'zbek adabiyotining buyuk mutafakkirlaridan biri Abdurauf Fitrat ijodida ajdodlari ta'siri har jabhada bo'lishi, tabiiy holdir. Chunki Fitrat ajdodlar merosiga mehr-muhabbat bilan yondashgan. Xususan, “Devonu lug'otit turk” va “Qutadg'u bilig”ni ommalashtirishda faol mehnat qildi. O'zbek adabiyoti tarixini tizimlashtirishni, ma'lum bosqichlardagi manbalarni maqsad qilgan Fitrat eng qadimgi adabiy yodgorliklardan o'z zamonasining ilg'or adabiyotiga qadar kechgan ulkan davrni tartibga soldi. Fitrat turkiyshunoslik ilmida nodir xazina hisoblangan Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib (Balasog'uniy), Adib Ahmad Yugnakiy asarlarining topilishi va nashrga tayyorlanishida faol ishtirok etdi. “Devonu lug'otit turk”, “Qutadg'u bilik”



asarlarini “Eng eski turk adabiyoti namunalari”, “O‘zbek adabiyoti namunalari” kabi majmualarida chop ettirdi<sup>64</sup>.

Fitrat, xususan, “Qutadg‘u bilig”ni topish, ommalashtirish jarayonida uning mazmuni, so‘zlar ma‘nosiga, tabiiyki, e‘tibor qaratgan. Fitrat ijodida eski turkiy til davriga xos so‘zlarning qo‘llanishi, bir jihatdan, turkiy manbalar matni bilan yaxshi tanish bo‘lish bilan izohlanadi.

Xususan, “Qutadg‘u bilig”ning Fitrat ijodiga ta‘sirini ayrim so‘zlar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, *arslon* zoonimi Yusuf Xos Hojib asarida “mard, jasur, tadbirkor lashkarboshi” ma‘nolarini ifodalagan: *Kür arslan bolu bersä itqa başi, bu it barča arslan bolur öz tüši*– Ko‘rgin, agar arslon it (lar)ga bosh bo‘lsa, bu itlar barchasi uning tengida arslon bo‘ladi (QBN, 2013; 79a10)<sup>65</sup>.

*Arslon* “mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; sher” tushunchasini anglatib, ko‘chma ma‘nolarda “bahodir, zabardast, dovyurak odam haqida (shu jonivorga nisbat beriladi)” tasavvur hosil qiladi (O‘TIL, I, 103).

“Qutadg‘u bilig”da *arslon* metaforaga asos bo‘lgan: *Til arslan turur kör eşikdä yatur, aya ewlüg arsiq başiñni yeyür*– Til hovlida [ya‘ni qafasda] yotgan arslon kabidir, ey qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi (QBN, 160; 13a9)<sup>66</sup>. Bunda ham *arslon* so‘zida “kuchlilik”, “shiddat” ma‘nolari aks etgan. Arslonning eshikda yotishi ham harbiylarga xos “qo‘riqchilik”, “posbonlik” ma‘nolarini ifodalagan. *Eşik* so‘zida sinekdoxa asosida “hovli” ma‘nosini ifodalaydi. Bu so‘z Farg‘ona shevasida faol qo‘llanadi.<sup>67</sup> Yusuf Xos Hojib asarida matn mazmunidan tilning og‘iz ostonasida yotgan arslonga qiyoslanishi “qo‘riqchilik”, “bir yerda turg‘unlik” semalarini namoyon etgan.

Abdurauf Fitrat sherlarida ham *arslon* timsoli uchraydi:

*Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqq‘a*

*Yurtda qorovul qo‘yg‘ali arslonmi kerakdir? “Yurt qayg‘usi”*<sup>68</sup>.

Ushbu misralarda keltirilgan “qorovul qo‘ymoq” qo‘shma fe‘li arslon leksemasidagi “mard qo‘riqchi”, “harbiy” semalarini reallashtirishga xizmat qilgan.

Fitrat ijodida *arslon* “qo‘riqchi”, “mamlakat”, “saltanat qo‘riqchilari” ma‘nolarini anglatgan:

*“Qayg‘urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bo, hyech biri yo‘olmamishdir. Yolg‘iz... Oh yolg‘iz tarqalmishdir. (Yurt qayg‘usi”*. Sochma she‘r)<sup>69</sup>.

*Arslon* so‘zi o‘zbek mumtoz adabiyotida, zamonaviy badiiy matnlarda gender xoslangan so‘zdir, ya‘ni faqat erkak jinsiga mansub timsolni anglatadi. Arslon antroponimi ham ism sifatida erkaklarga qo‘yiladi. Fitratning bir dramasi ham “Arslon” deb nomlanadi.

“Qutadg‘ubilig”da dunyo ayol timsolida tasvirlanadi: *Bu irsäl yayiñ qilqi qurtqa ažun, qilincü qiz-ul körsä yaši uzun* – Bu jafokor, bevafo, qiliqlari qari kampir [ya‘ni makkor, hiylakor] dunyo, boqib ko‘rsang, qilmishlari qiz (yosh) yoshi (umri) esa uzundir (QBN, 392; 21a11). Bu

<sup>64</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият, 2000. –Б.29

<sup>65</sup> Холмурадова Муштарий. “Кутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. фалс. д-ри (PhD)... дисс. –Тошкент, 2019. –Б.99.

<sup>66</sup> Холмурадова М. “Кутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. фалс. д-ри (PhD)... дисс. –Тошкент, 2019. –Б.37.

<sup>67</sup> Ўзбек халқ шевалари луғати.–Тошкент, 1971. –Б.98.

<sup>68</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият, 2000. –Б.31.

<sup>69</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият, 2000. –Б.32.

yerda dunyo qari kampirga qiyos qilingan. Lekin, qari kampir bo'lsa-da, uning qiliqlari qiz, ya'ni yoshdir<sup>70</sup>.

Fitrat ijodida ayol timsoli “vatan” tushunchasini ifodalagan. Shoir ayol siymosini o'ta yupun, xaroba holda tasvirlaydi. Dastlab, go'yo uni tanimagandek, tajohilu orifona usulida so'raydi:

*Fitrat “Ey mungli xotun, sen kimsan?*

*Ey g'amli ona, nechuk mundan ayrilmaysan?”<sup>71</sup>*

Keyingi misralarda bu siymoning lirik qahramon siyratini qamrab olgani tasvirlanadi. Bu qamrov ko'z – miya – yurak sarhadlarining ishg'oli bilan aks ettiriladi:

*Yonimda, ko'zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan? Qayg'u tutunlari ichra yog'dusi qolgan ko'zlaring, u yosh yomg'irlarin nechun to'kadir? Zulm zanjirlari bilan bog'langan qo'llaring nechun haryonga uzatiladir, nima tilaysan?”<sup>72</sup>*

She'r davomida keladigan misralarda tajohilu orifga badiiy yechim topiladi. Ayol siymosining kimligini shoir angalaydi va xitob qiladi:

*Oh...Bildim..bildim.. Angladim!*

*Sen mening Vatanimsan, vatanimning mungli xayolisan!”<sup>73</sup>*

Yusuf Xos Hojib dunyoni ayolga o'xshatadi, Fitrat – vatanni. Bunday muvofiqliklar birinchi navbatda, turkiy til imkoniyatlari bilan izohlansa, ikkinchidan, “Qutadg'u bilig” matnini yaxshi o'zlashtirgan va so'z ma'nolarini teran anglagan ijodkor salohiyati bilan belgilanadi.

Fitrat Yusuf Xos Hojib ana'anasini davom ettirib, turkiy tilni keng miqyosda targ'ib qildi, So'z ma'nolarini teran angladi. “Devonu lug'otit turk”, “Qutadg'u bilig” matni ommalashtirish jarayonida bir qator so'zlarning ma'nolarini izohlashi ham uning ijodida turkiy so'zlarning, ba'zan arxaik shakllarning keng qo'llanishiga zamin yaratgan.

Fitrat Yusuf Xos Hojib an'alarini davom ettirib, turkiy so'zlarni keng doirada qo'llashga, ommalashtirishga harakat qilgan. Masalan, yuqorida keltirilgan parchada g'amg'in so'ziga mazmunan hamohang mungli so'zini qo'llagan.

Abdurauf Fitrat – madaniyat xodimi, ma'rifatparvar shoir, adabiy tanqidchi, mohir tilshunos. Shuncha qirralari sabab Fitratni qomusiy olim sifatida e'tirof etamiz. Uning muhim qirralaridan biri turkiy til fidoyisi ekanligi, uning davriy holati, kelajagi uchun qayg'urgan zahmatkash til sohibi sifatida davr maydonida namoyon bo'lganligidir.

Fitrat “Devonu lug'otit turk”, “Qutadg'u bilig”dek asarlarning tengsiz ma'naviy-ma'rifiy qiymatini anglab, ularni ommalashtirishga harakat qildi. Bu manbalardagi so'zlarni keng doirada qo'llashga, ma'nolarini keng yoyishga imkon qadar intildi. Bu esa Fitrat asarlarini turkiy so'zlarning teran ma'nosi bilan ta'minladi.

Fitrat “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. ...Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir.”<sup>74</sup> deb yozgan edi. Bu tilning boyligi so'zlarining ko'pligida ekanligini ta'kidlab, uning ma'no qirralari Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida tahlil qilib berilganini ta'kidlaydi. Bu tilning baxtsizligini esa qarovsiz qolgani va e'tiborsiz qolidirilgani bilan izohlaydi.

<sup>70</sup> Холмурадова Муштарий. “Кутадгу билиг” лексикаси. Филол. фан. фалс. д-ри (PhD)... дисс. –Тошкент, 2019. –Б.114.

<sup>71</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият,2000. –Б.32.

<sup>72</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият,2000. –Б.32.

<sup>73</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият,2000. –Б.32.

<sup>74</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият,2000. –Б.124

Fitratning turkiy til taqdiri uchun kurashishi, uning boyligi va tengsizligini nazariy jihatdan asoslab bergani, "Tilimiz" maqolasida va bir qator publitsistik chiqishlarida fikrini asoslab bergani o'zbek tili tarixi uchun muhim qiymatga ega. Qolaversa, bu tilning badiiy go'zalligini, keng imkoniyatlarini o'z ijodida namoyon etgani uni mohir tilshunos sifatida tarix maydoniga olib chiqdi.

Fitrat turkiy til fidoyisi sifatida umri davomida, faoliyati, ijodi bilan shu til ravnaqi uchun kurashdi. Bu borada ajdodlari, xususan, Yusuf Xos Hojib an'alarini davom ettirdi. Milliy til uchun kurashgan fidoyilar zanjirining uzilishiga yo'l qo'madi. Bu zanjirning metindek mustahkamlanishiga, tilni har qanday ta'qiblardan himoya qiluvchi mustahkam qo'rg'onga aylanishiga zamin yaratdi.

## ONA TILI MILLAT BOYLIGI VA MA'NAVIYATI

**Akromova kamola**

UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES (Tashkent,Uzbekistan)

Zangiota tumani 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi (Tashkent,Uzbekistan)

[akromovakamola2@gmail.com](mailto:akromovakamola2@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili o'zimizning til millatining ruhi ekanligi, davlat tili maqomi berilgan kun tarixi ona tilimiz rivojlantirishini yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** onatili, mustaqil davlat tili, adabiy til, til bayrami.*

Ona tili – millatning ruhidir. Til davlat tilining mulkdir. Tilni asrash rivojiga hissa qo'shish millat yuksalishidir. Til ommaviy axborotlar manbayi. Til har bir ishni unumli, samaradorli yechimdir. Til insonlarni ma'naviyatini yuksaltiradigan qurol kapidir. U bilan barcha ishlarimiz yahshi tarafga bitishi, u bilan yomon narsalar ham bitishi bu tilga bog'liqdir. Barcha millatning tili bor. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

O'zbek tili –oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi. Davlat tili haqidagi qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.

O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi.

Miloddan oldingi davr to X asrlargacha bo'lgan davr. Bu davrdagi til fanda turkiy til deb yuritilgan. O'rhun - Enasoy yodgorliklari VI-VII asrlarda shu tilda yaratilgan.

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo'llangan til eski o'zbek adabiy tili deb nomlangan. Atoy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Turdi, Gulxaniy, Muqumiy, Furqat, Zavqiyva boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlari shu tilde yozib yaratilgan.

O'zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi. Eski o'zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bogliq. "Muhokamat –ul lug'atayn" nomli yirik ilmiy asari o'zbek ilining boshqa tillardan kam emasligini yoritib isbotlab bergan.

*21-oktabr O'zbek tili davlat tili maqomi berilgan kun.* Til insonlarning o'zaro aloqa vositasidir. Yaratuvchining insonga bergan bebaho ne'matlaridan biridir. Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilaridan biri ham tildir. Hikmatli so'zlar she'rlar, dostonlar hikoyalar qo'shiqlar o'z onatilida dunyoga keladi. Har bir xalqqa o'z tili aziz va ardoqli. Millat bor bor

ekan uning tili ham yashaydi, til yashar ekan u millat boshqa millatlar orasida o'z nufuzi obro'siga ega bo'ladi.

Bundan 27-yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o'z davrida tom ma'noda olamshumul voqea bo'lgan edi. Chunki Beruniy, IbnSino, Al Xorazmiy, Al FArg'oni, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolar yetishtirgan xalq tili yo'qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davridayoq prezidentimiz tomonidan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu ish amalga oshirilgan edi.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi. Mutaxassislarning so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xaftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida o'sha tilde so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi. YuNESKO vakillarining so'zlariga qaraganda qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan svilizatsiya tufayli madaniyatdan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir.

Bu tillar so'zlashuvchi aholining ayrimlari yozuviga ega emas. Misol tariqasida Afrika tillarida aholining 80 foizi xamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. internetdan foydala olmaydigan tillar haqida-ku umuman aytmasa ham bo'ladi, chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o'z tillaridan ko'ra zamonaviy tillardan oydalanishga majbur bo'lmoqda.

Bugun internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to'g'ri keladi. To'g'ri avallari ham tillar paydo bo'lgan, muomalada bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng yo'q bo'lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jaddalik bilan yo'qolishi tarixda kuzatilmagan. Yo'qolib ketish havfida bo'lgan tillarning saqlab qolish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iboratdir.

Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlarini saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Tilshunoslar yo'qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo'ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak.

Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so'ng xozir muomalada bo'lgan tillarning o'ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud bo'lib, ularning teng yarmi sakkizta davlat – Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh va Rossiya xissasiga to'g'ri keladi. Eng ko'p tilli mamlakat sifatida Hindiston tan olinadi. Bu mamlakatda axoli 845 til va laxjada so'zlashadi.

Mavjud tillarining 90% ning har biridan 100.000 aholi foydalanadi. Mana shuning o'ziyoq bu tillarning kelajagi qorong'uligidan dalolat beradi. Bugungi kunda 357 tilda atigi 50 nafar kishi so'zlashar ekan. 46 tildan esa atigi bir kishining foydalanishi aytiladi. Ularning o'limi bilan bu tillar ham yo'qoladi. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250taning ichida ekani quvonarli, albatta.

Qachonki bolalar o'z ona tillarida o'qishni to'htatar ekan, o'sha til yo'qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o'sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog'liq. Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, ananalarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. "Xalq so'zi", 2001 yil, 25 oktyabr
3. <http://uza.uz/uz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-m-21-10-2019>

#### **COHERENT SPEECH CLASSIFICATION IN ENGLISH LESSONS IN ESP CLASSES**

**Botirova Palina Khakimjonovna**

PhD, senior teacher of Foreign Language Department of NECI

***Annotation:** The formation and development of coherent speech skills of students are among the urgent problems of the modern theory of language teaching. Coherent speech is one of the conditions for ensuring the active participation of individuals in society. Coherent speech is a source of ensuring an individually active participation in public life. The article presents an analysis of related speech and its classification.*

***Keywords:** coherent speech, linguistics, linguodidactics, text, logic, term, dialogue, monologue, polylogue, speech, goal, inner coherent speech, external coherent speech, narrow interpretation, broad interpretation.*

Jahon tilshunosligida har qanday tilni lingvodidaktik asosda o'rgatishning eng sodda, qulay va samarali yo'llar – metodlar orqali tashkil etishni, tadqiq etish zamonaviy ta'limning muhim masalalardan biriga aylandi. O'zga tillarni axloqiy-tarbiyaviy yo'nalishda mukammal o'rgatishning paydo bo'lish yo'llari, ayniqsa, ingliz tilini o'rgatishdagi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish turg'un, qotib qolgan ayrim jihatlarni, tushunchalarni yangicha baholashga, yangicha usullarda hal qilishga katta imkoniyat yaratdi.

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo'nalishlari tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Shu qatorda chet tillarni o'rganish ham ana shunday ustuvor sohalardan biri etib belgilangan.

O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda.

“–Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv

yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim.” [1]

Ingliz tili darslarida til va nutqiy faktlarni axloqiy-tarbiyaviy asosda puxta o'rganish ko'plab pedagogik ilmiy-nazariy muammolarning hal etish yechimi hisoblanadi. Bog'lanishli nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirish zamonaviy til ta'limi nazariyasi - lingvodidaktikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim tizimini barcha bo'g'inlarining asosiy maqsadi o'quvchilar, talabalarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda, obodonlashtirish ishlarida faol ishtirok etishga, har bir shaxsni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotida o'z o'rnini topishga va egallashga hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissasini qo'shishga tayyorlashdan iborat. Albatta, bunday ishlarda faol ishtirok etish har bir shaxsdan muloqot jarayonida o'z fikrini muayyan kompozitsion tuzilishda bog'lanishli ravishda bayon etishini taqozo etadi.

Ilmiy metodik manbalarda mazkur tushunchaning turli ta'riflari mavjud. Keltirilgan ta'riflarda bog'lanishli nutq tushunchasi tor va keng ma'noda talqin etiladi. Tor ma'noda fikrni bayon etishga qaratilgan, to'liq mazmunni ifodalaydigan, mantiqiy va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq bog'lanishli nutq deyiladi.

Shuningdek, bog'lanishli nutq tushunchasi talqini borasida quyidagilarni ta'kidlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ilmiy metodik mabalarda mazkur tushuncha quyidagi uch xil ma'noda ishlatiladigan atama sifatida ham izohlanadi: 1) ma'ruzachi faoliyati, fikrni ifodalash jarayoni (bog'lanishli nutq jarayoni); 2) matn, hikoya kilish, nutq faoliyati mahsuloti (bog'lanishli nutq tahlili); 3) nutq rivojlantirish metodikasi bo'limi. Keng ma'noda bog'lanishli nutq muloqotni amalga oshirish harakati sifatida qabul qilinadi. Demak bog'lanishli nutq deganda nutqning birligi, shuningdek tilning asosiy tarkibiy qismlari, mantiq qonuniyatlari va grammatik qoidalar tomonidan tartibga solingan fikrni uyg'unlikda ifodalanish vositasi tushuniladi. [2]

Monologik nutq hajm jihatidan katta bo'lgan matn qismlaridan iborat bo'lib, ular tuzilish va tarkibi jihatidan o'zaro bog'liq bo'lgan hikoya qilishdan iborat va passiv hamda bilvosita idrok etish uchun mo'ljallangan. [3]

Monologik nutqning grammatik tuzilishini o'rgangan olimlar ta'kidlashlaricha, dialog va monolog o'rtasidagi muloqot shaklining bir qator boshqa ko'rinishlari ham mavjud. Masalan, dialog monologlarning almashinuviga aylanishi mumkin, ya'ni, “monologik dialog” hususiyatlarini o'z ichiga olishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, talabalarni bog'lanishli nutqini rivojlantirish darslarini tashkil qilishda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- “bog'lanishli nutq” atamasini keng ma'noda kommunikatsiya harakatida fikrni ifodalash jarayoni sifatida tushunishi va shu sababli bog'lanishli nutqni rivojlantirishga nafaqat nutq ta'limi, balki kognitiv rivojlantirish vazifasi sifatida ham yondashishi kerak;

- talabaning bog'lanishli nutqini rivojlanish darajasini tahlil qilishda nutq faoliyati (matn, hikoya kilish) mahsulotini baholash ko'p qirraliligini inobatga olish darkor (birinchi navbatda yaxlitlik va bog'lanishlilik nuqtai nazaridan).

- bog'lanishli nutq yaratish jarayonida maqsadning mavjudligi yoki yo'qligi uning natijasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi mumkinligi va shuning uchun darslarda munosabatlar shart-sharoitlari, kommunikativ holatlarini modellashtirishni hisobga olish kerak;

- bog'lanishli matn deganda - tarkibiy qismning shakllanishi natijasi, ya'ni, yahlit matnni kengayishi sodda (bo'linmagan) tuzilmalardan murakkab tuzilmalarga o'tish jarayoni ekanligini tushunish lozim. Buni anglab yetish talabaning ishida belgilovchi hodisa bo'lishi kerak.

Bog'lanishli nutqni o'rgatish tizimi deganda K.D.Ushinskiy talqini buyicha, mustaqillikni rivojlantirishni ta'minlovchi metodik usullarning ma'lum bir ketma-ketligi, ya'ni, nutq mashqlarini bajarishda dialogdan monologik nutqqa o'tishni tushuniladi.

Hikoya qilishni o'rgatishda, bog'lanishli nutqni rivojlantirishni faollashtiradigan asosiy metodik usullarini aytib o'tish lozim:

- bolalarni shaxsiy tajribasini ishlatgan holda oldindan suhbat o'tkazish;
- idrok qilishni yahlitligini ta'minlovchi muayyan savollar ketma-ketligi;
- nutqga oid birgalikda harakatlar kelgusidagi bayon qilish rejasi bilan;
- kollektiv hikoya;
- hikoyani tasvirning qismlari asosida tuzish;
- grafik sxemalar va ko'rgazma qurollaridan foydalanish;
- improvizatsiya qilingan dialog va monologlardan iborat o'yinlarni kiritish va boshqalar;
- rasmga qarab hikoya qilish;
- yaqqol vaziyatni tahlili, birlamchi va ikkilamchini aniqlash, asosiy va orqa ko'rinishdagi,

komponentlarni o'zaro munosabatlarini anglab yetishni (kognitiv holat) o'z ichiga oladi. Aynan anglash qonuniyatlari hikoyaning tarkibiy negizini aniqlab beradi.

Tasvirlash, tilshunoslarning talqini bo'yicha, monologik nutqning funktsional-semantik turi bo'lib, predmet, voqea-hodisa va narsalarning keng ma'nodagi vaqtinchalik yoki doimiy belgilarni yoritishda namoyon bo'ladi va buning uchun ma'lum bir grammatik tuzilishda ifodalanadi.

Demak, tasvirlash monologik nutqning maxsus turi bo'lib, fikr bayon etishning namunasi, modeli sifatida namoyon bo'ladi; unda predmetning bir vaqtdagi yoki doimiy belgilarini sanab o'tiladi va bunday vazifani bajarish uchun muayyan grammatik tuzilishga ega.

Tavsiflash turdagi og'zaki yoki yozma matn yaratishda birinchi navbatda nutq (fikr) ob'ektiga e'tibor qaratish lozim. Bunday matnda ob'ekt predmetlashgan xususiyatga ega: bu tabiat manzarasi, qandaydir joyning jihozlanishi, shaxs, hayvon, yoki jonsiz narsa ham bo'lishi mumkin. Tavsifda nutq ob'ekting belgilari yoritiladi, ya'ni: uning shakli, tarkibi, tuzilishi, xususiyatlari, sifatleri, belgilari aniqlashtiriladi.

Tasvir ob'ektining o'ziga xos belgilari, ularni bir vaqtda namoyon bo'lishi, ular orqali predmetning tashqi ko'rinishini ifoda etilishi yoki ularning ichki sifatleri, odatiy ko'rinishini ta'riflash maxsus til vositalari yordamida ifodalanadi, natijada tavsiflashning tipologik tuzilishi shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Khakimjonovna, B. P., Ikramovna, I. D., & Abdugafurovich, R. B. Coherent Speech and Its Types.
